

81.2.026
M32

Sh.T. Maxmaraimova

O'zbek tilining sohada qo'llanishi



81.2.0xB

M32

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Sh.T.Maxmaraimova

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

Termiz - 2022

UO'K: 811.512.133(075)
KBK: 81.2O'zb
M 32

*Mazkur darslik Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 21-noyabrda
233-U sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan. Guvohnoma qayd raqami 233-U-015.*

Sh. T. Maxmaraimova. O'zbek tilining sohada qo'llanishi /Darslik. – Termiz,
2022. – 216 b.

“O'zbek tilining sohada qo'llanishi” nomli darslik barcha bakalavriat yo'nalishlari talabalari uchun “O'zbek tilining sohada qo'llanishi” fanidan ko'zda tutilgan dastur va rejaga muvofiq tarzda tayyorlangan. Darslikda leksikologiya, leksikografiya, shuningdek, nutq uslubiyati, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va unga qo'yilgan talablar, kasbiy nutq va terminologiya sohasiga doir ma'lumotlar, mavzularni mustaqil o'rganish bo'yicha tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, nazorat savollari, glossariy o'z ifodasini topgan.

Darslik bakalavriat va magistratura yo'nalishi talabalari hamda sohaga qiziquvchilar ommasi uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

B. Umurqulov – filologiya fanlari doktori, professor
Sh. Hamroyeva – filologiya fanlari doktori, dotsent

Mas'ul muharrir:

S.Karimov – filologiya fanlari doktori, professor

ISBN: 978-9943-8754-7-0

© Maxmaraimova Sh. T.
© 2022. TerDU NMM nashriyoti, 2022-y.

SO'ZBOSHI

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5850-son Farmoni bilan 21-oktabrning "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilinishi o'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini mustahkamlash va mavqeyini oshirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bu o'zbek tilining ijtimoiy hayot va turmushning barcha jabhalarida faol qo'llanilishi, jamiyat a'zolarining tilimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini ta'minlashning muhim omilidir.

Kasbiy faoliyatda o'zbek tili masalasi, ayniqsa, zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan undagi og'zaki va yozma savodxon nutqning mavjudligiga, samarali muloqot qilish qobiliyatiga, nutqiy ta'sir qilish usullarini bilishiga bog'liq bo'lib qoldi.

Til rivoji odamlarga kasbiy tajribalarini birlashtirishga, uni avlodan-avlodga o'tkazishga imkon beradi, bu esa turmushning moddiy darajasi, ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti, madaniyatning oshishiga yordam beradi. Zotan, ona tilimizning rivoji millatlararo totuvlikning, demakki, jamiyat ma'naviy taraqqiyotining qulf-kalitidir.

Insonni, uning aqliy yetukligi, axloqiy qiyofasi, did-saviyasini bilishning eng ishonchli usullaridan biri uning qanday gapirayotganini tinglashdir. Bizning nutqimiz (xuddi tilimiz kabi) nafaqat xulq-atvorimizning, balki shaxsiyatimizning, qalbimizning, ongimizning muhim qismidir. Til insoniy madaniyatning eng yaxshi belgisigina emas, balki insonning eng zo'r tarbiyachisi hamdir. O'z fikrini aniq ifodalashga intilish, boy til, so'zlarni vaziyatga mos aniq va to'g'ri saralash inson faoliyatining barcha sohalarida tafakkur va kasbiy mahoratning o'sishiga zamin yaratadi.

Tabiiyki, nutq kasbiy ko'nikmalarni egallash, amalga oshirish, rivojlantirish va uzatish vositasidir.

Kasbiy nutq madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mutaxassislik terminologiyasini bilish;
- kasbiy mavzu bo'yicha nutq qurish qobiliyati;
- kasbiy muloqotni tashkil etish va boshqarish qobiliyati;
- kasbiy faoliyat masalalari bo'yicha mutaxassis bo'lmaganlar bilan muloqot qilish qobiliyati va b.

Soha terminologiyasini bilish, ilgari ma'lum bo'lgan va yangi atamalar o'rtasidagi aloqadorlikni anglash qobiliyati, ilmiy-tadqiqotchilik va ishlab chiqarish holatlarini amaliy tahlil qilishda ilmiy tushunchalar va atamalardan foydalanish qobiliyati, kasbiy nutq uslubining xususiyatlarini bilish kasbiy lingvistik kompetentsiyani tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, darslikda o'zbek tilining sohada qo'llanishiga doir bilimlar, tilimiz lug'ati va lug'atchiligi, o'zbek ma'noshunosligi, o'zbek nutq madaniyati, yozma savodxonlik, kasbiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy tadqiqotchilikning uslubiy asoslari singari masalalarning o'zbek tilining jahon hamjamiyatidagi maqomini yuksaltirish, o'zbek tilining jahon tillari o'rtasidagi nufuzini oshirish muammolarining kesishuv nuqtasidagi jarayonlar e'tiborga olindi.

Soʻzning atash maʼnosi va uning ontologik tuzilishi tilshunoslikning oʻrganish obyekti boʻlsa, uning taʼsir etish, badiiy estetik vazifasi adabiyotshunoslikning oʻrganish obyekti boʻladi.

Til, garchi vazifa bajarish nuqtai nazaridan ijtimoiy xarakterga ega boʻlsa ham, lekin yuzaga chiqish jihatidan insonning fiziologik tuzilishi bilan uzviy bogʻliq. Chunki nutqiy faoliyat bosh miya faoliyati bilan bogʻliq holda, nutq organlarining harakati hosilasi sifatida yuzaga chiqadi. Bu esa tilshunoslik bilan fiziologiyaning naqadar bogʻliq sohalar ekanligini koʻrsatadi.

Har qanday nutq tovushlar silsilasidan tashkil topadi. Tovush esa muayyan moddiy jismning tashqi taʼsir tufayli harakatlanishi va havoning tebranishi natijasida paydo boʻladi. Tovushning paydo boʻlishi va uning akustik xossasini oʻrganish jarayonida tilshunoslik fizikaning akustika boʻlimi bilan uzviy aloqada boʻladi.

Til kishilar oʻrtasida axborot tashuvchi asosiy quroldir. Biroq kishilar axborotning boshqa shakllaridan ham foydalanadilar. Bu axborot vositalarining hammasi belgili tabiatga egadir. Chunki ular obyektiv olam haqidagi axborotni bevosita emas, balki bilvosita, belgilar yordamida ifodalaydi. Tilning boshqa axborot tashuvchilar kabi belgili tabiatini, uning belgilar sistemasi ekanligini ochishda tilshunoslik semiotika bilan hamkorlik qiladi.

Axborot muayyan texnik uskunalar yordamida tegishli masofaga uzatilishi ham mumkin. Axborot uzatishning bu tarzi tilshunoslikni axborot nazariyasi bilan oʻzaro aloqador qiladi.

Hozirgi kunda avtomatik tarjima keng tarmoq otmoqda. Avtomatik tarjima tarjima qilinayotgan tillarning leksik imkoniyatlarini dasturlashtirish mahsuli sanaladi. Binobarin, avtomatik tarjima tilshunoslik va kibernetikaning oʻzaro munosabati tufayli yuzaga keladi.

Shu qisqa dalillar roʻyxatining oʻzaroq tilshunoslikning fanlar sistemasidagi qator fanlar bilan uzviy munosabatda ekanligidan guvohlik beradi.

Aytish mumkinki, “Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi” fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari ham tilning barcha sohalar uchun muhim aloqa-axborot quroli ekani bilan bogʻliq jihatlarda ifoda topadi.

Fanni oʻqitishdan maqsad – talabalarining oʻzbek tilida soha boʻyicha nutqiy kompetentligini oshirish;

mutaxassislikka oid ogʻzaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni oʻrinli qoʻllash koʻnikmalarini shakllantirish, talabalarga soha boʻyicha egallagan bilimlarni yozma va ogʻzaki ravishda oʻzbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish;

sohada qoʻllanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida yuritiladigan hujjatlarning toʻgʻri rasmiylashtirilishini taʼminlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish koʻnikmasini hosil qilish. Talabalarining oʻzbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish.

Fanning vazifasi – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan toʻliq va toʻgʻri foydalanishga erishishni taʼminlash;

egallanayotgan soha boʻyicha nazariy bilimlar, amaliy koʻnikmalarni oʻzbek tilining yozma va ogʻzaki nutqi meʼyor va qoidalari asosida mukammal

o'zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o'zbek tili adabiy me'yorlariga muvofiq ifodalashga erishishni ta'minlashdan iborat.

Til va tafakkur

Til – ongning mavjud bo'lish sharti va usuli. Borliq (ong borlig'i) til olamini tashkil qiladi, negaki til fikrning moddiy qobig'i bo'lib, ong imkoniyatlarining doirasida mavjud bo'ladi. Ong til bilan uzviy bog'liq va u bilan aloqadorlikda taraqqiy etadi.

Insondagi lisoniy layoqat undagi til va ongning uzviy munosabatidan darak beradi. Insonning bu olamdagi mavjudligi til orqali anglanadi, shuningdek, tafakkurda kechayotgan mantiqiy jarayonlar til orqali sharh topadi, in'ikos etiladi. Inson tili moddiy in'ikos shakllarining (sezgi, qabullash, tasavvur, tushuncha va h.) barchasi bilan aloqaga kiradi va ular bilan organik bog'lanadi. Shu jihatdan til tafakkur bilan yaxlit organiklik hosil qiladi. Biroq dunyodagi hech bir til inson botiniga doir hodisolarni to'aligicha ifoda etib berishga qodir emas: shunga qaramay, inson ichki olamining ko'lamdorligi shu olam elementlarini til orqali belgilash, aniqlash zaruratini tug'diradi. Til olam sinoatlarining tagiga yetish va shu orqali insonning o'zi va olamni anglashida muhimdir. Til obyektiv borliq hodisalarining ongda shakllangan va qayta ishlangan ma'lumotlarini so'zlar vositasida ro'yobga chiqaradi. A.D.Potebnya ta'kidlaganidek, so'z o'zining haqiqiy hayotini faqat nutqda o'tay oladi¹.

Til tafakkur kabi qadimiydir. Aflotun, Geraklit, Arastu singari faylasuflar til, tafakkur va ong aloqadorligini o'rgana turib, tafakkur va tilning yagona, yaxlit organik butunlik ekanini aniqlaganlar va bunga "logos" (fikir va so'zning uzviyligi) deya nom berganlar. 20-asrga kelib til va tafakkur aloqadorligi masalasi Vilgelm Gumboldt asos solgan "til falsafasi" deb nomlangan yo'nalish doirasida o'rganila boshladi.

Fikir voqelik va uni tashkil qiluvchi predmet va boshqa unsurlarni ideal darajada tasvirlovchi hodisadir, unga moddiy shakl beruvchi til esa fikrning moddiy, hissiy jihatlarini o'zida mujassam etuvchi belgilarni namoyon etadi. Ya'ni atrof-olamni tashkil etuvchi predmetlarni o'z nomi bilan atash orqali fikriy jarayonda aniqlik, mantiqiylik, maqsadga muvofiqlik yuzaga keladi, har bir predmetni alohida nom bilan nomlash vazifasi esa tildagi *nominativ* (atov) *vazifa* orqali amalga oshadi. Til orqali inson o'z atrofida predmetlar olamini yaratadi. Tabiiyki, fikrda mujassam bo'lgan predmet, ashyo, hodisot, jarayon, xulosa, qaror, munosabat, his-tuyg'ular faqat til orqali moddiy ifoda topadi. Biroq bu har qanday fikr ongimizda so'z ko'rinishida mavjud bo'ladi, degani emas. Fikir tovush, ma'no va tushuncha yaxlitligidan iborat bo'lgan lisoniy belgilar orqali nutqiy faoliyatga yo'naltiriladi, nutqiy faoliyatni boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi, hukm chiqaradi. Chunki ongimizda kechayotgan fikriy jarayonlar nafaqat tashqi, balki ichki nutq orqali anglanadi, his etiladi. Tilning bu faoliyat turidagi ishtiroki uning *kommunikativ* (lot. *communicatio* – muloqot) vazifasini belgilaydi.

¹ Потебня А. А. Из записок по русской грамматике. – М., 1956. Т. 1-2.

Fikr va voqelikning o'zaro aloqadorligi nutqiy faoliyatda dinamik xarakter kasb etadi: bunda nutq jarayoni bilan birga kechuvchi, bevosita muloqot paytida sodir bo'luvchi hodisotlar haqidagi tasavvur va qarashlar bir vaqtning o'zida tafakkurda obraz va tasavvur, yangi bilimlarning hosil bo'lishi, mavjudlarining mukammallashuviga sabab tug'diradi. Bu vaziyatda til bajaradigan vazifa *kognitiv* (bilish) *vazifa* deb nomlanadi. Tafakkurning ongni yangi bilim va axborot bilan ta'mini bevosita til orqali sodir bo'lmasdan, insondagi beshta sezgi a'zosi uzatgan axborot orqali ro'y beradi, bunda tilning vazifasi axborot va bilimni to'plashdan iborat bo'ladi va u fanda *kumulyativ* (lot. *accumulatus* – to'plangan) *vazifa* deb nomlanadi. Ushbu vazifaning ahamiyati nafaqat til sohibi yoxud lisoniy hamjamiyat, balki ilm-fanning rivoji uchun ham nihoyatda muhim. Fan va fanlar tizimining takomili faqat til orqali ta'minlanadi: bunda axborotni uzatish ham, qayta ishlash ham, uni to'plab, qayta ishlangan shaklda uzatish ham lisoniy belgilar yordamida bajariladi. Biroq axborotning qayta ishlanishiga doir jarayonda faqat lisoniy belgilar emas, aksincha, o'zga turdagi semiotik belgilar ham jarayonga teng jalb qilinishi mumkin. Masalan, matematik, fizik, kimyoviy, lingvistik belgilar kabi sohaviy maxsus belgilar va nosohaviy esperanto belgilari kabi. Bu o'rinda soha tili ham o'z ma'nosida maxsus til hisoblanadi va u sohada hamda sohalararo sharoitda axborot va bilimlar almashinuvi, sohaga doir bilimlar jamlanmasini amalga oshiradi.

So'z tufayli inson his-tuyg'ulari, olam to'g'risidagi qadriyatiy qarashlari moddiylashadi va shu orqali so'z shaxs va umunning mulkiga aylana boradi. So'zda ifoda topgan jami ezgu fikrlar, pirovardida, insoniyat ma'naviy kamolotiga xizmat qila boshlaydi. Mazmuni ezgu xususiyatli mazkur ma'lumotlar yig'indisi "nima yaxshi, nima yomon" g'oyasi ostida so'z orqali shaxsdan-shaxs, jamoadan-jamoaga, avloddan-avlodga yetkaziladi va shu orqali insonning o'z-o'zini va o'zgalarni tushunib yetishiga, ularning ma'naviy darajasini o'stirishga ta'sir ko'rsatiladi. Bu jarayon tildagi *estetik vazifa* orqali amalga oshadi.

Til insonning borliqqa munosabatini ifodalaydi. Voqelikning tarkibiy elementlari va shaxs xatti-harakatlari, fe'l-atvor, aqliy va jismoniy ko'rsatkichlari o'rtasidagi muvofiqlik undagi tevarak-olamga nisbatan munosabatining negizini tashkil qiladi. Yaxshi-yomon, to'g'ri-noto'g'ri, baland-past, shirin-achchiq, donodon, yovuz-mehribon, uzoq-yaqin, tanish-begona, do'st-dushman, yosh-qari, muhabbat-nafrat singari ziddiyatlar kesimida yuzaga chiquvchi munosabat lisoniy belgilar yordamida xulosalanadi. Bu esa tildagi *baholash vazifasi* misolida ro'y beradi.

Tilda *fatik* (muloqotni o'rnatuvchi) *vazifa* ham mavjud. Bu vazifa mohiyati suhbatdoshlar o'rtasida muloqotni asosan qolip jumlar (salomlashish, ko'rishish, xayrlashish va h. nutqiy vaziyatlarga xos) orqali ta'minlashdan iborat. Masalan, - *Assalomu alaykum!* - *Vaalaykum assalom!*; - *Xush keldingiz!* - *Xushvaqt bo'ling, xush ko'rdik!*; - *Marhamat.* - *Rahmat!* *Xormang!* - *Bor bo'ling* kabi. *Fatik* muloqot mazmuni va shakli muloqot ishtirokchilarining jinsi, yoshi, ijtimoiy maqomi, bir-biriga munosabatiga bog'liq bo'ladi.

Til – insonni maqsadga yo'naltiruvchi vositalardan biri. Shunga ko'ra sanab o'tilganlardan tashqari u tafakkur bilan aloqadorlikda yana: etologik (evristik),

pragmatik-regulyativ (suhbatdoshga uni biror harakatga undash yoki uning ma'lum xatti-harakatiga to'siq qo'yish maqsadida ta'sir ko'rsatish, boshqacha aytganda, nutqiy faoliyat orqali kerakli maqsadga erishish), fatik (aloqa o'rnatish) informativ (ma'lumot berish), ekspressiv (his-tuyg'uni ifodalash), interpretativ (talqin qilish), magik (jodu qiluvchi), etnomadaniy (millat madaniyatiga doir belgilarni aks ettirish), stilistik (uslubiy: ya'ni matnning ma'lum nutq uslubiga xoslanganligi), sotsiativ (muloqot ishtirokchilarining nutqiy faoliyatida ijtimoiy belgilarining namoyon bo'lishi), indekslovchi (so'zlovchi, nutq ishtirokchisining yo'llagan matniga qarab uning ijtimoiy belgilarini aniqlash) singari 25 ga yaqin vazifalarni bajaradi.

Nutqiy faoliyat orqali inson dunyoqarashi kengayadi, ushbu faoliyatning turfa qirralari, mavjud imkoniyatlariga ko'ra ongi taraqqiy etadi. Til madaniyat belgilarini tashuvchidir, u orqali tegishli predmet, voqea, hodisaga muayyan madaniyat egalarining nigohi bilan qarash imkoni mavjud. Demak, til – dunyoqarash elementlarini tarkib toptiruvchi vosita hamdir. Milliy tillar kesimida bu jarayon milliy madaniyat mundarijasiga keskin ta'sir ko'rsatadi, milliy madaniyat mazmunining kengayishi yoxud torayishiga sabab bo'ladi. Tafakkurning bu o'rinda tildan farqi – tafakkur obyektiv voqelikni aks ettiradi, til esa tafakkurda yuzaga kelgan fikrlarni uzatish, muhrlash vazifasini bajaradi. Demak, madaniy nuqtayi nazardan til inson ma'naviy qiyofasini belgilovchi asosiy vositalardan biridir.

Aytilganlarga ko'ra, tafakkur va tilning o'zaro aloqadorligi quyidagilarda kuzatiladi:

- til – ijtimoiylik belgisidir, biroq Alloh tomonidan in'om etilgan ne'mat sifatida tafakkur bilan birga taraqqiy etadi hamda umumning mulki hisoblanadi. Tafakkur esa olamga munosabatning his-tuyg'u, did-saviya, fahm-farosat, individual qadriyatlar majmuyi, dunyoqarashning sof xususiy belgilarini namoyon etadi va har bir ong sohibi o'zigagina xos bo'lgan fikrlash layoqatini namoyon etganidan, tafakkur jamoaviy mulk bo'la olmaydi.

- Til va tafakkurning imkoniyatlari bir-biriga teng emas: tafakkurning had bilmas ko'lamdorligi til imkoniyatlaridan tashqaridadir. Masalan, Yevropa tillari kishining olamga ratsional munosabatiga xoslangan. Shu sababli ham bu tillarda inson ichki olamiga doir tushunchalar, his-tuyg'ular, kechinmalarni nomlovchi so'zlar miqdori juda kam. Til tafakkurdan farqli, olamga munosabatning qoliplashgan, umum tomonidan e'tirof etilgan, qat'iy mezonlarga bo'ysundirilgan belgilarini ifoda etadi, shu sababli ham til kishi ongining, tafakkur kuchining bor imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga qodir emas.

- Til va tafakkurning aloqadorligiga xos noyob jihatlar talay: inson ko'rmagan, bilmagan, kuzatuvida berilmagan tushunchalar haqida ham bemalol mushohada yuritishi, qaror qabul qilishi, hukm chiqarishi mumkin. Ushbu fikriy jarayon esa bevosita tilning ishtirokisiz kechmaydi.

- "Milliy til egalari turlicha fikrlash tarziga egadirlar" degan qarash – o'zini oqlamaydigan xulosa. Agarda shunday bo'lganida edi, bir tilda yozilgan matnni ikkinchi tilga o'girishning mutlaqo imkoni bo'lmagan bo'lardi. Demak, tafakkur o'z mantiqiy qonuniyatlariga ko'ra umumbashariydir, til esa tafakkurning ushbu matniqiy bo'ysundirilgan qonuniyatlarini o'zining milliy xoslangan grammatik qoidalari va

lug'aviy tarkibi orqali amalga oshiradi. Tilda aks etgan ushbu milliy-madaniy belgilar til egalarida dunyoga qarashning usullari yig'indisidir.

- Til bo'lmagan muhitda borliqni tasvirlashning imkoni yo'qoladi. Til orqali inson o'z tajribasida mavjud predmetlar olami hamda tajribasida kuzatilmagan predmetlar olamiga ega bo'ladi. Natijada inson bir vaqtning o'zida ikkita olam: o'zi mansub bo'lgan olam hamda shaxsiy tajribasiga taalluqli va so'z orqali ifoda topuvchi obraz, obyekt, munosabat va xususiyatlar olamiga ega bo'ladi. So'z voqelikni aks ettirishning alohida usuli bo'lib, inson shu voqelikka daxldor jami obyektlarni o'zicha erkin atash xususiyatiga ega². Binobarin, inson o'zi mansub bo'lgan olamdan farqli, til orqali yaratilgan predmetlar olamini o'zi boshqaradi, shu olamda sodir bo'layotgan mantiqiy jarayonlarga baho beradi, xulosa chiqaradi, qaror qabul qiladi, xullas, o'zi kashf etgan so'zlar olamiga egalik qiladi.

- So'z misolidagi til belgilari, birliklarining nutqdagi in'ikosi uni anglash, tushunishga izn tug'diradi, garchi so'z ortida turgan ma'nolar olami, fikrlarning to'laqonli mohiyatini anglashning mutlaqo imkoni yo'q.

Til va ma'naviyat

Ma'naviyat – inson va jamiyatning yuksak insoniy xislatlar, fazilatlar (bilimdonlik va mehr-muruvvat, to'g'rilik va adolat, sadoqat va ma'naviyat, vatanparvarlik va odamiylik, go'zallik va odob, sahovat va kamtarlik, mehnatsevarlik va sahovat kabilar)dan iborat botiniy olami; *madaniyat*, *ma'rifat*, *milliy g'oya* va *mafkura* tushunchalarini, jamiyatda ishlab chiqilgan qarashlar, g'oyalar, unda amal qiladigan axloqiy, siyosiy, huquqiy va boshqa me'yorlar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalarni o'zida jamlovchi; o'z-o'zini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, jamiyatni, unda kechadigan ijtimoiy jarayonlarni anglash, baholash va unga ongli munosabatda bo'lishdan iborat ruhiyatni anglatuvchi tushuncha. U inson va jamiyat hayoti o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy hayotda aks etadi, ma'naviyat inson va jamiyatning shakllanishi bilan shakllanadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti kishilarning ma'naviy boyliklar yaratish faoliyati, uning natijalari hamda ma'naviy boyliklarni yaratish va ularni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy aloqa va munosabatlaridan tarkib topadi.

Til – insonning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqib taraqqiy etuvchi hodisa. Insonning ma'naviy kamoloti, dunyoqarashi va ijtimoiy ongining shakllanishi, jamiyat bilan aloqasi til orqali ro'y beradi. Millat tili insoniy faoliyat sifatida shakllanadi, til millatning ichki imkoniyatlarni haqiqatga aylantirish, poetik ijod va falsafiy qarashlar negizida millat ma'naviyatini yuksaltirish va shu asosda to'plangan ma'naviy boylikni o'zida mujassam etish orqali taraqqiy etadi.

Millat ma'naviyati va til rivoji o'rtasida zich aloqa mavjud. Millat ma'naviyati yoki boshqacha aytganda, jamiyatning ma'naviy darajasi birlamchi til rivojiga ta'sir qiladi. Demak, til taraqqiyoti dastlab milliy ma'naviy negizlar orqali ta'minlanadi va til va ma'naviyat aloqadorligidan yuzaga chiquvchi taraqqiyot til tufayli emas,

² Лурья А.Р., Язык и сознание. Х Т. – М.: Издательство Московского университета, 1979.

birlamchi ma'naviyat orqali ta'minlanadi. Millat ruhiyati, xarakteri dastlab tilda ifoda topadi.

V. Gumboldt til va ma'naviyat uyg'unligiga doir ayrim jihatlarni ajratib ko'rsatarkan, ular orasida quyidagilarga alohida urg'u beradi:

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat tilda aks etadi.
2. Har qanday madaniyat milliy xoslangandir, undagi milliylik belgilari olamni ko'ruvning alohida shakli sifatida tilda muhrlanadi. Milliy tilning ichki shakli xalq ruhiyati, madaniyatini ifoda etadi.
3. Til uning sohibi va olam o'rtasidagi vositachidir.

Har bir milliy til uzoq o'tmishdan bugunga qadar mavjud materiallarni o'zida jamlaydi, fikr ifodasiga yo'naltirilgan ma'naviyat esa ana shu materialdan tayyor mahsulot sifatida foydalanadi. Jumladan, har bir milliy til o'zining adabiy til shakliga ega hamda u jamiyat ma'naviy rivojining u yoki bu darajasini aks ettiradi. Chunonchi, milliy til tarkibiy tushunchalarining birinchi pog'onasiga tilning sayqallangan shakli – adabiy tilning qo'yilishi ham bejizga emas:

1. Adabiy til.
2. Hududiy dialektlar (lahja va shevalar).
3. Ijtimoiy dialektlar (kasbi, sohasi, faoliyat turi singari umumiy jihatlardan bir-biriga yaqin turuvchi ijtimoiy qatlam vakillari nutqida uchraydigan alohida toifadagi so'zlar, ifodalar).
4. Shahar tipiga xos oddiy so'zlashuv nutqi.
5. Nutq madaniyati me'yorlarini qo'pol ravishda buzuvchi, madaniyatsizlik va saviyasizlikni aks ettiruvchi nobop lug'at, tabular.

Ma'naviyatdan farqli, til o'zining moddiy va ma'naviy qobig'iga ega. Moddiy qobiq – tovushlar birikmasidan tarkib topgan *nomema* bo'lsa, uning ma'naviy qobig'i – *semema* ko'lami inson his-tuyg'ulari, o'y-kechinmalari, hayotiy tajribasi, olamga munosabati, didi, bilim saviyasi va boshqalarni anglatuvchi va nomlovchi belgilardan, ruhiyatni aks ettiruvchi tushunchalar, olam va voqelikni tarkib toptiruvchi predmetlar, buyum va ashyolarni atovchi nomlarning o'zaro uzviy aloqasidan iborat bo'ladi. Shu zaylda tilni moddiy va ma'naviy bir butun yaxlit hodisa sifatida ma'naviyatga zid qo'yish mumkin. Biroq ushbu ziddiyat bir taraflama – ya'ni voqelikka munosabatning moddiylashgan, toifalashgan, yaxlit tizimga birikkan belgilariga xosdir, vaholanki, har bir milliy tilning ichki (ma'naviy) shakli millat ruhiyati, madaniyati, ma'naviyatini tarkib toptiruvchi tushunchalarga bevosita aloqador bo'ladi.

Inson intellektual (aqliy), ruhiy-ma'naviy faoliyati nutq orqali moddiylashadi, shu tarzda uning o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari, istagi va tilaklari, maqsad-muddaosi, olam va voqelikka munosabatini o'ziga insonga yetkazish, ruhiyatiga doir jihatlarni tushuntirish, anglatish, his ettirish imkoni yuzaga keladi. Shu ma'noda til va aqliy faoliyatni yaxlit bir butunlik deb qarash mumkin. Masalan, til o'rganayotgan shaxs yoxud nutqi shakllanayotgan bolakay so'zlar, jummalarni shunchaki tovushlar yig'indisi sifatida emas, ma'no tashuvchi, hissiy ta'sir kuchiga ega birliklar sifatida o'zlashtiradi. Bu birliklardan foydalanuvchi millatning joylashgan hududi, tarixiy shakllanishi, madaniy tajribasi, urf-odat va an'analari, olamga nigohi va o'ziga xos

mental xususiyatlarni aks ettiradi (masalan, *do'ppi, tandir, kashta, so'zana, patir, oymomo, beqasam to'n, chopon, qiyiqcha, belbog', chorsi, beshik, ko'rpacha, paranji, mursak, amirkon, adras, atlas, bazkur, jiyak, bargak, lagan, piyola, kosa, toltovoq, bo'yra, yaxtak, bo'g'joma, joynamoz, kavush, kigiz, kirpech, korcho'p, ko'zmunchoq, lagan, la'li, mahsi, nosqovoq, oftoba, obdasta, palak, sochpopuk, taxmon, taxmonpech, xurjun, xontaxta, chakmon, chimildiq, chachvon* kabi buyum-ashyo nomlari; *lochira, atala, palov, qovurdoq, moshkichiri* kabi taom nomlari; *arbandi, zamindo'zi, zardo'zi, guldo'zi* kabi milliy hunarmandchilikka oid atamalar; *semurg', xumo, pari* singari milliy mifologik dunyoqarash unsurlari; *Alpomish, Barchinoy, Go'ro'g'li* kabi poetonimlar, *Alisher, To'xtash, Farhod, Shavkat, Baxtiyor, Mirjalol, Mirkamol, Mirziyo, Ro'zimhammad, Sotiboldi, Pariza, Feruza, Fazilat, Zulfiya, Xojar, Karomat, To'lg'onoy, Robiya, Gulchehra, Ra'no, Mavjuda, Habiba, Bashorat, Jumbul, Jumagul, Oysara, Oysulton, Chori, Chorshanbi, Juma, Panji, Sherxon* kabi kishi nomlari (antroponimlar); *Toshkent, Samarqand, Termiz, Jarqo'rg'on, Qorakamar, Boysun, Sherobod* kabi toponimik obyektlarning nomlari, *kampiro'ldi, kelin salom, itirillatar, "Shox moylar", "Sust xotin", "Choy momo", "Darvishona"* kabi urf-odat va marosim nomlari (etnografizmlar); shuningdek, hududiy shevalarga xos so'zlar, maqollar, matallar va xalq og'zaki ijodiga tegishli materiallar va boshqalar). Shuningdek, tilning ichki shaklidagi madaniy axborot milliy til so'z yasashiga doir mezonlar, to'g'ri yozish va to'g'ri talaffuz qilish tamoyillari, so'z tanlash qoidalari, grammatik qonuniyatlari va uslubiy xususiyatlarini namoyon etuvchi vositalariga ham yuklanishi mumkin. Masalan, o'zbek ayollari ismiga *-xon, -oy* kabi erkalash, hurmat ma'nosini anglatuvchi qo'shimchalar hamda *-bibi, -niso* singari affiksoidlarni qo'shib aytish odat hisoblanadi. Aksincha, erkaklar ismiga esa *-bek, -jon, -boy* qo'shimchalari qo'shib aytiladi va bu o'zbek milliy madaniyatida me'yor hisoblanadi. Sobiq sho'ro davrida kuzatilgani kabi, rus madaniyatiga xos *-yevich, -ovich, -ovna, -yevna* o'rniga bugun o'zbek lingvomadaniyatida kishining otasi ismidan so'ng *o'g'li, qizi* aniqlanishi qo'yib tilga olinadi. Yoki o'zbek xalqida ingliz madaniyatiga xos *ser, mister, miss, missis* kabi o'ta rasmiy murojaat birliklari o'rnida: *bobo(-jon), buva(-jon), ota(-xon), amaki(-jon), tog'a(-jon), aka(-jon), og'a(-jon), uka(-jon), ona(-jon, -xon), xola(-jon), opa(-jon), singil(-jon), qo'shi(-jon)* kabilarning ishlatilishi xalqimizda azaldan o'z qardoshiga mehr-muruvvatli, insonparvar munosabat shakllanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, fe'ning modal shakllarini ifodalovchi: (*qil*)-*la qol*; (*bor, o'tir, ket, ayt, ol*)-*a qol*; (*qil, bor, kel, ket, ayt, ol*)-*saydim (-sa edim), -sayding(-sa eding)*, (*qil, bor, kel, ket, ayt, ol*)-*sam edi*; (*qil, bor, kel, ket, ayt, ol*)-*ar edim* singari sintetik-analitik ko'rsatkichlari ham yuqoridagi fikrimizni birmuncha to'ldiradi.

Ko'rinadiki, millatning boy madaniy merosi uning o'tmishi va buguni, kelajagiga daxl qiluvchi til imkoniyatlarida namoyon bo'ladi va o'z navbatida, millatning ma'naviy-madaniy manbalari bevosita milliy tilning adabiy shaklida o'z ifodasini topadi. Zero, madaniyat adabiy tilning rivoji bilan uzviy aloqadorlikda rivoj topadi: millat madaniyatiga daxl qiluvchi har qanday hodisot, evrilish, o'zgarish, yangiliklar adabiy til rivojiga tegishlicha yoki salbiy, yoki ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy tilning boy lugʻaviy zahirasi uning imkoniyatlari koʻlamini belgilaydi: chetdan oʻzlashayotgan yangi soʻzlar, termin va atamlarni milliy tilda mavjud muqobillar bilan almashtirish imkoniyatining mavjudligi shu tilda zohir boʻlgan milliy-madaniy axborotning kelajak avlodga toʻkis yetib borishini taʼminlaydi. Aksincha, til sofligiga varvarizm, parazit va jargon soʻzlar bilan putur yetkazish oqibatida milliy tilning imkoniyatlari torayadi, natijada millat oʻzligi, maʼnaviyati va madaniyatini aks ettiruvchi koʻzgu – millat tilining yashab qolish masalasi xavf ostida qoladi.

Davlat tili toʻgʻrisida tushuncha. Oʻzbek tili va davlat qonunlari

Davlat tili³, eng avvalo, maʼlum bir davlatning konstitutsiyasi tilidir. Koʻpincha davlat (rasmiiy) til davlatning eng koʻp aholisi (etnik guruhi) tilidir. Shu bilan birga, federativ tizimli mamlakatlarning ayrim shtatlari qonunchiligida rasmiiy davlat hujjatlari boshqa tillarda nashr etilishi shartligi belgilangan.

Milliy til, rasmiiy til va davlat tili atamallari. Yevropada davlat tili termini ishlatilmaydi. Ingliz tilida *national language*, *official language* atamallari *state language* terminiga nisbatan faol qoʻllanilsa, fransuz tilidagi *langue officielle*, *langue nationale*, nemischa *amtssprache*, *nationalsprache*, ispancha *idioma official* terminlari ishlatiladi. Gʻarbliliklar *milliy til* atamasini siyosiy, ijtimoiy, madaniy sohalarida hukumat doirasida integratsion vazifani ifoda etuvchi tilga nisbatan qoʻllaydilar hamda uni millat ramzi sifatida tushunadilar.

Taʼkidlash kerakki, *davlat tili* va *rasmiiy til* tushunchalari oʻzaro farqlanadi. Tilshunoslar *davlat tili* tushunchasining *rasmiiy til* tushunchasidan ancha keng talqinga egaligini qayd etadilar: davlat tili – madaniyat, siyosat, jamiyatning barcha sohalarida aloqa-aralashuv vazifasini oʻtovchi til. Rasmiiy til esa davlat tashkilotlari va muassasalarida ish yuritish tilidir. Manbalarda “Davlat tili – rasmiiy aloqa sohalarida qoʻllanilishi qonun bilan belgilangan tildir” deya qayd etiladi⁴. Shuningdek, ularda “rasmiiy til”ni davlat tilining sinonimi sifatida “siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega til” tariqasida sharhlash kuzatiladi.

A.S.Pigolkin davlat tilini hukumatning aholi, fuqaro bilan muloqot tili deb izohlaydi⁵. Ammo bu tushunchani davlatning xalq va millat ustidan mutloq hukmronligi tarzida qabul qilish mumkin: bu esa demokratik jamiyatga xos taʼrif emas va uni toʻgʻridan toʻgʻri davlat tilining haqiqiy maqomini tushuntiruvchi qoida deb boʻlmaydi.

Davlat tili – davlatda eng yuqori huquqiy maqomga ega boʻlgan, shaxslararo, sohalararo, millatlararo integrativ vazifani amalga oshiradigan tildir. Bu davlat doirasidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida, rasmiiy aloqa

³ 1953 yilda YuNESKO ekspertlari “davlat tili” va “rasmiiy til” tushunchalarini farqlashni taklif qildilar:

Davlat tili muayyan davlat doirasida siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida integratsiya vazifasini bajaradigan, shu davlatning timsoli vazifasini bajaradigan tildir. Rasmiiy til davlat boshqaruvi, qonunchilik va sud ishlarini yuritish tilidir. Dunyodagi 178 ta davlatda davlat va/yoki rasmiiy tillar mavjud. Ayrimlarida (masalan, Albaniya, Fransiya, Ukraina, Germaniya yoki Latviya) davlat tili yagona hisoblanadi. Boshqalar (masalan, Afgʻoniston, Belarusiya, Belgiya, Boliviya, Hindiston, Paragvay, Finlyandiya, Shveysariya, Janubiy Afrika) bir nechta rasmiiy tilga ega.

⁴ Краткий этнологический словарь. – М.: Фонд “Социальный мониторинг”, 1994. – 103 с.

⁵ Язык закона / под ред. А.С. Пиголкина. – М., 1990.

sohalaridagi faoliyat yuritish tili va unga davlatning ramzi sifatida munosabatda bo'linadi.

Aksariyat mamlakatlarda davlat tilining maqomi dastlab davlat konstitutsiyalarida va tillar haqidagi maxsus qonunlarda huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Hukumat davlat tilini asrash, rivojlantirish va g'amxo'rlik qilish uchun mas'uldir. Davlat (rasmiy) tilining imtiyozli maqomi qonunda belgilangan hollarda uning majburiy qo'llanilishini bildiradi, lekin bu qoida mamlakat aholisining boshqa tillardan foydalanish huquqini taqiqlashni anglatmaydi.

Davlat tilining bajaradigan vazifalari va uning qo'llanish doirasi turli davlatlarda davlat tili siyosatining mezonlariga ko'ra bir-biridan farq qilishi mumkin, chunki bu ma'lum bir jamiyatda rivojlangan an'anaviy ijtimoiy-kommunikativ tizimning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Qonunlar, farmonlar, farmoyishlar va boshqa normativ-huquqiy, rasmiy hujjatlar, davlat ma'muriy ahamiyatli matnlar, majlislar bayonnomalari va stenogrammalari davlat tilida yoziladi va nashr etiladi. Hokimiyat, boshqaruv va sudlar ishi, ish yuritish va rasmiy yozishmalar, fuqarolari o'rtasidagi o'zaro ma'muriy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar esa davlat tilida yuritiladi.

Harbiy sohada, armiya va flotda davlat tili majburiydir. U rasmiy belgilar va e'lonlar, muhr va shtamplar, yo'l belgilari, tovarlar va ko'cha, maydonlar nomlarining yozilishida qo'llaniladi. Bu tegishli davlat ta'lim tizimining faoliyat yuritish tilidir, uni o'rganish hamda qo'llashga doir malakani egallash mamlakat fuqarolarining burchidir. Odatda, davlat tili radio, televideniye, gazeta-jurnallar, davriy matbuot tilidir. Ko'p millatli davlatda davlat tilining muhim vazifasi uning ushbu davlat xalqlari o'rtasidagi millatlararo muloqot tili (yoki tillardan biri) bo'lish bilan belgilanadi.

Ko'pincha davlat tilining rolini ma'lum bir davlatning eng ko'p aholisi tili bajaradi, bu esa mazkur tilning tegishli jamiyatda funksional jihatdan eng rivojlangan til ekanini isbotlaydi.

Shuningdek, davlat tili va milliy tilning huquqiy maqomi o'rtasida farq mavjud. Milliy til o'zining millatlararo integratsiyalovchi vazifasini huquqiy asosga ega bo'lmay turib ham bajaradi, bunda milliy tilning umumxalq tili ekani to'g'risidagi dalillar esa sotsiologingistik, sotsiologik tadqiqotlarda aniqlanadi.

Davlat tilini shunchaki vazifaviy uslub yoki sotsiolekt (ijtimoiy elita qatlam tilini kam miqdorli etnik guruhlariga nisbatan "to'g'ri til" sifatida qo'llash) deya belgilash – xato fikr. Davlat tilining darajasi uning huquqiy maqomi bilan izohlanadi. Muayyan hamjamiyatning birikuvli nafaqat siyosiy, balki umummilliy makondagi madaniy asoslarga ham taalluqlidir. Bu jihatdan G'arbda kam sonli etnik guruhlar tili hamda til variantlariga nisbatan "standart til" (Praga tilshunoslik maktabi) tushunchasini ishlatish odat tusiga kirgan. "Standart til" atamasi "adabiy til" atamasiga yaqin turadi (lekin aynan uning o'zi emas).

Davlat tili tushunchasi tilshunoslikdan ko'ra ko'proq huquqshunoslikning kategoriyasidir, negaki davlat tili – tilning o'ziga xos ko'rinishi yoki shakli emas, balki uning huquqiy maqomidir.

Ta'lim muassasalarida ona tili bilan bir qatorda davlat tilining o'rganilishida o'ziga xos maqsadlar ko'zda tutiladi:

ona tili etnik guruhlarning o'z milliy madaniyati va o'ziga xosligini saqlab qolish huquqini ta'minlash maqsadida o'rganiladi, bundan farqli, davlat tili esa fuqarolarning davlat va millat oldidagi huquq va majburiyatlarini ta'minlash maqsadida o'rganiladi.

Mustaqillikgacha va undan keyingi davrda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomiga munosabat akademik G'.Abdurahmonovning "Davlat tili haqida"gi qonun – amalda" nomli maqolasida juda teran ochib berilgan.

Olim mamlakatimiz aholisining 87 foizi o'zbek tilini bilishi (2001-yildagi ma'lumot), ular orasida V.Reshetov, A.Kissen, N.A.Borovkov, K.K.Yudaxin kabi rus, G.A.Gabrielyans, A.A.Sarkisyan, R.R.Safarov, B.G.Mirzabekov kabi arman, X.G.Ten, V.V.Ten, N.S.Li singari koreys millatlariga mansub taniqli olimlarning o'zbek tilini chuqur bilganini yozadi⁶. Shunga qaramay, tilshunos olim: "o'zimiz (esa) farzandlarimizni rus maktablariga berdik, o'zaro muomalada ham, majlislarda ham rus tilida gapirdik... bu tilni bilishni oliy madaniyat belgisi deb qaradik", deb achinib yozadi. "Davlat tili haqida"gi qonun ijrosining sust kechayotganida zamonaviy dastur va qo'llanmalarining ishlab chiqilmagani, texnik vositalardan umuman foydalanilmaganini tanqid ostiga olgan olim nechog'liq haq ekanini mamlakatimizda xorijiy tillarga ajratilib kelingan e'tiborning o'zi ham yaqqol isbotlaydi.

Holbuki, o'zbek tilining nufuzi masalasi XX asrning birinchi yarmidayoq hukumat e'tiborida bo'lganini quyidagi dalillar misolida e'tirof etish lozim⁷:

1) 1928-yil 20-oktabrda O'zSSR Markaziy Ijroiya va Xalq komissarlari Soveti tomonidan qabul qilingan "Об обязательном изучении работниками – служащими учреждений и предприятий и организаций УзССР узбекского языка" (O'zSSR tashkilot va muassasalar ishchi-xizmatchilarini o'zbek tiliga majburiy o'rgatish to'g'risida) qarori qabul qilinib, tilni o'rganish uchun uch yillik muhlat belgilandi.

2) Yuqoridagi qarorning ijrosi yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha Respublika Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti 1932-yil 7-martda qaror qabul qildi.

3) Yuqoridagi hujjat SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1931-yil noyabrida qabul qilingan.

4) "О завершении узбекизации государственного аппарата в УзССР в 1933 году" qarorining ijrosini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu masala bo'yicha Respublika qabul qilgan qarorda turli davlat organlari, vazirlik, boshqarma va muassasalarda o'zbek tilini o'rganish, hujjatlarni o'zbekchalashtirish, majlislarni o'zbek tilida olib borish ishlarini 1933-yil 1-aprelgacha tugatish talab qilingan; Maorif Xalq komissarligiga til o'rgatish to'garaklarini qayta ko'rib chiqish, o'qitish metodlarini mukammallashtirish va tegishli uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash

⁶ Абдурахмонов Ф. Давлат тили хақида"ги қонун – амалда / Ўзбек филологияси масалалари. Илмий мақолалар тўплами. № 3. – Самарқанд, 2001.

⁷ Абдурахмонов Ф. Давлат тили хақида"ги қонун – амалда / Ўзбек филологияси масалалари. Илмий мақолалар тўплами. № 3. – Самарқанд, 2001.

vazifasi yuklatilgan (6-modda); tashkilot rahbarlarining bu sohada shaxsiy javobgarliklari ko'rsatib o'tilgan (7-modda); bu ishlarga qarshilik qilganlar yoki loqaydlik qilganlar jinoiy javobgarlikka tortilishi ko'rsatilib o'tilgan (11-modda).

5) 1932-yil 10 martida o'zbek tilini yaxshi o'rganib olganlarni mukofotlash to'g'risida maxsus qaror qabul qilingan (97-sonli qaror).

Sanab o'tilgan qarorlarning barchasi 1938-yil 17-martdagi 59-1354-son qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan⁸.

1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Bu Qonun xalqimizning mustaqillik uchun qo'yilgan dastlabki qadami bo'lib, uning 1-moddasi va Bosh Qomusimizning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili" ekanligi belgilab qo'yilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat tili maqomi qoraqalpoq tiliga ham berilgan.

Barcha oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili va adabiyoti kafedralari ochildi, ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan oliy o'quv yurtlarida esa "O'zbek tili va adabiyoti" fanini joriy etish to'g'risida O'R Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 1992 va 1996-yillarda maxsus buyrug'i qabul qilindi.

Mamlakatimizda til siyosatiga doir amalga oshirilgan islohotlar, lotin alifbosiga o'tish amaliyoti, jamiyat a'zolarining savodxonlik darajasini oshirish maqsadida qabul qilingan imlo, qolaversa, ona tiliga bo'lgan hurmat-e'tiborni yuksaltirish maqsadida 1995-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit yaratiladi hamda millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning rivojlanishi ta'minlanadi, davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi (4-modda). Davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar (24-modda). Mamlakatda demokratik, baynalmilal tamoyillarga rioya qilinib, har bir millat va elatning erkin rivojlanishi, ularning til mustaqilligi va tengligi ta'minlangan. Ta'lim-tarbiya ishlari o'zbek tilidan tashqari tojik, rus, qozoq, koreys, turkman, qirg'iz tillarida ham amalga oshiriladi. Milliy markazlarning faoliyati uchun yetarli imkoniyat yaratilgan. Shaxsga millati, irqi, tili, urf-odat va an'alariga qarab biror imtiyoz berish yoki shu vajdan huquqlarini cheklash javobgarlikka sabab bo'ladi.

2019-yilning 21-oktabr kuni qabul qilingan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni o'zbek tilining rivojida muhim davrni boshlab berdi. Mazkur farmonga muvofiq, O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida: Davlat tilini rivojlantirish

⁸ Абдурахмонов Ф. *Давлат тили ҳақида*ги қонун – амалда / Ўзбек филологияси масалалари. Илмий мақолалар тўплами. № 3. – Самарқанд, 2001.

departamenti tashkil etildi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi tashkil etildi.

Farmonda ko'zlangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi o'zbek tilining dunyo bo'ylab nufuzini oshirishdagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu qonun bilan har yili 21-oktabrni "O'zbek tili bayrami kuni" etib nishonlash belgilandi. Endilikda har yili 21-oktyabr butun mamlakatimiz bo'ylab katta bayram sifatida nishonlanadi. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlod vakillariga ona tilimizni qay darajada ardoqlash va hurmat qilishimiz zarurligini anglatib turadi.

Nazorat savollari

1. Tilning ijtimoiy, aniq va tabiiy fanlar tizimidagi o'rni, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma'lumot bering.
2. Til va tafakkur aloqadorligiga doir 10 ta dalil topib bayon qiling, bu dalillar ko'proq qaysi turdagi fanlar doirasida qayd etilgani haqida ma'lumot bering.
3. Til va ma'naviyatning o'zaro uzviyligini o'z mulohazalaringiz bilan tushuntiring.
4. Davlat tili tushunchasini dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari misolida izohlang, o'zbek tilining jahondagi nufuzi haqidagi mulohazalaringizni bayon qiling.
5. O'zbek tilining maqomini belgilovchi qanday qonun va qonunosti hujjatlarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф. Давлат тили ҳақида”ги қонун – амалда / Ўзбек филологияси масалалари. Илмий мақолалар тўплами. № 3. – Самарқанд, 2001.
2. Аристанова Л.С., Араньязова Э.Р. Язык и сознание. Диалектика их взаимосвязи // Бюллетень медицинских Интернет-конференций. 2016. Том 6. № 5.
3. Вестник СПбГУ // Язык и литература. 2020. Т. 17. Вып. 1.
4. Жирмунский В.М. Национальный язык и социальные диалекты. – Ленинград: Художественная литература, 1936. – 298 с.
5. Краткий этнологический словарь. – М.: Фонд “Социальный мониторинг”, 1994. – 103 с.
6. Язык закона / под ред. А.С. Пиголкина. – М., 1990.
7. Абдумажидов Ф., Давлат тили ҳақида (қонунга шарҳлар) – Тошкент, 1998.
8. Лурия А.Р. Язык и сознание. Х Т. – М.: Издательство Московского университета, 1979.
9. Научная библиотека КиберЛенинка.
10. <http://cheloveknauka.com/>
11. <http://www.0zd.ru/>
12. <http://studopedia.ru/>

TerDU ARM

№ _____

2-mavzu. TIL VA YOZUV MASALALARI

Reja:

1. Yozuv haqida umumiy tushuncha.
2. O'zbek yozuvlari tarixi. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.
3. Grafika. Orfografiya.

Tayanch tushunchalar: *insoniyat tarixida yozuvning paydo bo'lishi, Markaziy Osiyo tamaddunida qadimgi yozuvlarning o'rni, o'zbek yozuvining tarixiy tadriji, grafika, to'g'ri yozuv tamoyillari.*

Alloh taolo Qur'oni karimning ilk oyatlari Alaq surasidagi "O'qing, Parvardigoringiz nomi bilan o'qing" amrida, ikkinchi suraning "Qalamga va u yozadigan narsalarga qasam" – ilk oyatida Qur'onning ilm kitobi, Islomning ilma'rifat dini, Muhammad sollallohu alayhi va sallam ilm payg'ambari ekanlarini dalil qiladi. Rasulluloh sollallohu alayhi va sallam: "Ilmi kitobat (yozish) bilan bog'lab (mustahkamlab) qo'yinglar", dedilar" (*Tabaroniy va Hokim rivoyati*).

Yozuv Allohning ulug' ne'mati. Manbalarda xat va kitobatni ilk bor qo'llagan Odam alayhissalom bo'lganligi, u zot o'limlaridan uch yuz yil oldin loyga xat yozgani va uni olovda quritgani, yana bir rivoyatda esa birinchi xat ixtirochisi Axnux ya'ni Idris alayhissalom bo'lgani aytiladi. Hakim Termiziy rivoyat qilishicha, Rasulluloh sollallohu alayhi va sallam: "Odam alayhissalomdan keyin qalam bilan yozgan birinchi shaxs Idris alayhissalomdir. U kitob o'rgangani uchun ham Idris deb nomlangan" degan ekanlar.

Binobarin, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining "Manbalar xazinasi" fondida saqlanayotgan "Majmu'atul-xutut" asarida 60 dan ortiq xat turlari alifbosi o'rin olgan bo'lib, qadimgi yozuv turlaridan tortib, o'rta asr yozuvlari, hatto ularning taraqqiy etgan shakllari ko'rsatilgan. Asarni tadqiq etuvchilar unda, jumladan:

— Odam (a.s.) davridagi "Sarboni" yozuvi (eramizdan avv. 3760-yil);

— Shis (a.s.) davridagi "Sulyoniy", "Salbobiy" yozuvi (eramizdan avv. 3670-yil) kabi ko'plab payg'ambarlar davri alifbolari;

— geokosmografik asarlarda uchraydigan turli xil yozuv turlari;

— aniq fanlardan kimyo fanida qo'llaniladigan maxsus yozuv turlaridan — "Baklatil", "Simyoi sag'ir", "Simyo va kimyo" kabi xat turlari borligini aniqlaganlar.

Insoniyat shu kungacha jami 1400 ga yaqin yozuvdan foydalangan va yozuvning tarixi qariyb 5 ming yil ilgoriga borib taqaladi.

Markaziy Osiyo xalqlari ham o'zlarining yozuvlariga ega bo'lib, bu asosan mahalliy aholining xorazmiy, bohtariy, sug'diy, qadimgi turkiy va "noma'lum yozuv" deb atalmish noyob yozma yodgorliklardir. Toshga, sopolga, charmga, yog'ochga, metalga, qog'ozga va boshqa buyumlarga bitilgan bu yozma yodgorliklar sirasiga Eski Nisadan (Parfiya davlatining poytaxti) topilgan podsho arxivi, qadimgi Xorazm podsholarining arxivi (Tuproqqal'a), sug'd xujjatlari (Mug'qal'a), diniy, ahloqiy-falsafiy mazmundagi ibodatxona hujjatlari (Baqtriya hududlari), oilaviy xatlar (Do'nxuan), savdo qarz tilxati va elchilik nomalari (Afrosiyob), tangalarga yozilgan yozuvlar mansub.

Bugunga qadar Markaziy Osiyoda qadimdan amal qilib kelgan yozuv va uning tarixi haqida I.Fridrixning "История письма" ("Yozuv tarixi"), Mullo Hoshim Bag'dodiyning "Xatti arabiy", "Atlasi xat" kabi asar va atlaslari, Is'hoqxonto'ra Ibratning "Jome'ul-xutut" (40 ga yaqin qadimgi xat turlari haqida), A.Murodovning arab grafikasiga oid "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" hamda "Xat va xattoton", Mas'udali Hakimjonning "Xatti muallimiy" nomli asarlarida ma'lumot beriladi.

Zamonaviy rus turkiyshunos olimi O.Mudrak turkiy xalqlardagi yozuv madaniyati boshqa tamaddunlarga nisbatan qadimiyroq va qo'hna ekanini ta'kidlaydi: "...hatto slavyanlar yozuv nima ekanini anglamay yurgan davrlarda, - deydi olim, - turkiy xalqlar allaqachon bu madaniyatni o'zlashtirib, undan foydalanishgan".

Yozuv haqida umumiy tushuncha

Agar til muloqot va axborot almashinuvi uchun xizmat qiluvchi belgilar tizimi bo'lsa, yozuv lisoniy belgilarni muhrlovchi belgilar tizimidir.

Yozuv inson ongli hayotining ajralmas qismidir. Yozuv bo'lmaganida dunyodagi jami taraqqiyot, rivojlanish o'z mohiyatini topmagan, avlodlar turli davrlarda sodir bo'lgan kashfiyotlar, olamshumul voqealar to'g'risida xabar topmagan bo'lardilar (ma'lumot uchun: dunyoning ko'plab qo'hna tamaddunlariga oid yodgorliklar dastlab arxeologlarning belkuragi emas, aksincha, tilshunos lingvist olimlarning izlanishlari evaziga kashf etilgan).

Million yillar mobaynida odamzot avlodlari o'zaro mifik tasavvurlar, urf-odat, marosim va aqidalar orqali bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lgan. Bu vaqtlarda mif va marosimlar milliy madaniyat, ong, axloqiy qarashlarning yagona jamlanmasi bo'lgan. Nutq rivoji yozuvni keltirib chiqardi, yozuvning kashf etilishi bilan esa bashariyat johillikdan tamaddun sari qadam qo'ydi. Bilamizki, fan rivoji bir avlodning yutug'i bilan sodir bo'lmasdan, bir avlodga tegishli yutuqlar ikkinchi avlodga yozuv orqali o'tib boradi. Yozuvning ahamiyati hamma vaqt va hamma yerda bo'la olish imkoniga egaligi bilan belgilanadi: internet yoxud aloqa tarmog'ining istalgan shakli orqali uzatilgan axborot yozuv evaziga masofa hamda davrlardan o'tib, keyingi insoniy jamoaga uzatiladi. O'zimiz ko'rmagan, his etmagan narsalar haqida tafakkur qila olishimiz ham yozuvning xizmatlari evaziga sodir bo'ladi.

Insoniyatning yutuq va xatolariga barcha davr avlodlarining guvoh va ogoh bo'lishlariga ham aynan yozuv sababchi.

Olimlar insoniyatning yozuvga yetib kelish davrini eramizdan oldingi to'rtinchi ming yillik bilan bog'laydilar. Axborot uzatish manbasi sifatida tanlangan ayrim "eslatuvchi" vositalar: hassa, cho'pxat va daraxt tanasiga kertib yozuv solish (Qadimgi Xitoy, Qadimgi Yevropa, Afrikada), tugunlar, tizimchalar, urush vaqtlarida kamon o'qi va boshqa buyumlar, daraxt tanasiga turli rangdagi latta bo'laklarini

bog'lash, "vampum" kamari (Shimoliy Amerikada) kabilar buyumli yozuvning qo'hna namunalari hisoblanadi. Bu yozuv o'zining asosiy – bilimlarni to'plash, saqlash vazifasini bajara olmagach, insoniyat tomonidan alohida yozuv shakllari ixtiro qilina boshladi.

Yer yuzida mavjud yozuvlar ikki yo'l bilan: sun'iy va tabiiy yo'l bilan shakllana borgan. Jumladan, maxsus kashf etilgan yozuvlar sirasiga slavyan, arman, gruzin yozularini, tabiiy evolyusion yo'l bilan paydo bo'lgan yozuvlarga esa yunon va xitoy yozuvlarini misol qilish mumkin.

Yozuvning uch asosiy ko'rinishi mavjud. Bular: 1) rasmi (piktografik) yozuv, 2) ramzli (ideografik) yozuv, 3) tovushga asoslangan (harfli) yozuv.

Rasmi yozuv Misrda paydo bo'lgan, uning elementlari – gramatik va semantik aniqlagich belgilari (determinativlar)dan iborat iyerogliflardir. Rasmi – piktografik yozuv axborotda nima nazarda tutilsa, shuning tasviridan iborat rasm. Unda ramziylik mavjud emas. U 6-8 ming yil ilgari, neolit davrida shakllangan. Piktografik yozuv misr, mesopotamiya, xitoy, atsek, marg'iyona madaniyatiga oid yodgorliklarda uchraydi. Tarixan rasmi – piktografik yozuv negizida iyerogliflar shakllangan (1-rasm).

Odatdagi yozuv jumalarga, jumalar so'z birikmalari va so'zlarga bo'linishi mumkin, ammo rasmi yozuv (piktogramma) bo'linmaydi. Piktografik yozuvning ayrim noqulayliklari uning o'z o'rnini sekin-asta ideografik yozuvga bo'shatib berishiga turtki bo'ldi. Shunga qaramay, hozirda semiotik belgi deb qaraluvchi ayrim tasvirli belgilar, masalan, yo'l harakatiga oid tasvirli belgilarning ayrimlari, yuvinish xonalari eshigidagi belgilar, chekishni ta'qiqlovchi belgilarni piktografik yozuvning unsuri deb qarash mumkin.

Insoniyat tamaddunining keyingi bosqichlarida paydo bo'lgan yozuv turlarini shartli ravishda ikki: yozuvning so'zli (logografik) hamda bo'g'inli (sillabik, harfli) turiga ajratish mumkin.

1-rasm



1-rasm. Piktografiya – rasmi yozuv asosida iyerogliflarning shakllanishi (Xitoy)⁹

⁹ <https://anashina.com/ieroglificheskaya-pismennost>.

Rasmi yozuv rasm – piktogramma (lot. pictus — chizilgan va yun. Γράμμα — yozuv)lardan iborat bo'lsa, ideografik yozuv ideogramma(εἶδος— ideya (g'oya, fikr) va γράμμα – yozuv belgisi, harf)lardan iboratdir (1-rasm).

Ideografik yozuv – (yun. idéa – g'oya, tushuncha, grápho – yozaman), shuningdek, logografik deb ham ataladi. Ideografik yozuvning belgilari atov ma'nosiga ega so'z yoki mustaqil ma'no anglatuvchi morfemaga teng birliklardir. Qadimgi yahudiy, shumer, xitoy, astek va mayya qabilalarining yozuvi ideografik yozuv hisoblanadi.

Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr iyeroglifikasi, xitoy, shumer iyeroglifikasi va boshqalar,) mil. av. 4-ming yillikning oxiridan 2-ming yilliklarning boshlarigacha bo'lgan davrda shakllangan. Rasmi yozuv axborotning to'liq tasvirini ifodalasa, ideografiya faqat bitta so'zni anglatgan. Bizning davrimizgacha Xitoy iyerogliflaridan boshqa ideografik yozuvlar qariyb yetib kelmagan.

Logografik yozuvning kamchiligi shundan iboratki, bu tur yozuvni hamma ham bilavermagan. Undan asosan ruhoniylar, davlat tepasidagi amaldorlar, mutaxassislar, kotiblar va xattotlar xabardor bo'lishgan.

Mazkur davrda yaratilgan logografik alifbo asosida sekin-asta “yurmoq”, “olib kelmoq” singari ma'nolarni ifodalash imkoniyatini beruvchi mixxat (mix yoki ponachalarga o'xshash chiziqcha (belgi)larni loy taxtachalarga o'yib tushirishdan iborat ideografik yozuv turi, mil. av. 3-ming yillik boshlarida shumerlar tomonidan yaratilgan) yozuvi shakllangan. Bunday belgilar miqdori dastlab 1000tagacha yetgan, ammo mil. av. 3-ming yillikning o'rtalarida mixxatning so'z-bo'g'inli shakli paydo bo'lgan, belgilar miqdori 600 tagacha qisqartirilib, rasm-belgilar soddalashtirilgan. Ayni shu davrda shumer mixxati akkadliklar (bobilliklar va ossuriyaliklar) tomonidan o'zlashtirilib, somiy tillarga moslashtirilgan, belgilar soni 300 taga tushirilgan. Shumer mixxati dastlab yuqoridan pastga, keyinchalik gorizontol holda – chapdan o'ngga qarab yozilgan. Mixxat eramizdan avvalgi birinchi mingyillikning oxirlarigacha bobiliylar, assuriylar, xettlar, finikiyaliklar tomonidan qo'llanib kelingan.

Akkadliklar ishlab chiqqan mixxat keyinchalik, mil. av. 2-1-ming yilliklar davrida bir qancha qo'shni xalqlar tillari (xett, elam, urart, qad. fors va b.)ga moslashtirilgan holda qo'llana boshlagan. Bu davrda mixxatlar harf-tovush-bo'g'in yozuvlariga ancha yaqinlashib, shunday yozuvlarning kelib chiqishiga asos bo'lgan. Mil. av. 1-ming yillik oxirlarida mixxatlar o'rmini oromiy yozuvi egallagan.

Finikiyaliklar alifbosi. Yozuvning shakllanishidagi muhim bosqich finikiyaliklar alifbosi va yunonlarning harfli alifbosiga to'g'ri keladi. Qadimgi Shumerda so'z va bo'g'in ifoda etuvchi mixxat yozuv tizimi shakllangach, (er. avv. XIII-XII ga qadar) uning negizida finikiyaliklar dunyoda ilk marta (er. avv. 2-ming yillik o'rtalari) tovushni ifodalovchi harflardan iborat alifboni kashf etganlar. Ba'zi manbalarda finikiyaliklar alifbosi negizida arab va hind alifbosi, eradan avvalgi birinchi ming yillikda (X–IX asrlar) esa oromiy yozuvi vujudga kelgani aytilsa-da, boshqa adabiyotlarda arab va hind alifbosining finikiyaliklar alifbosi asosida emas, aksincha, finikiyaliklar alifbosi asosida paydo bo'lgan oromiy yozuvi negizida

Bu tajribadan mo'g'ul va manjur alifbolari foydalanib, o'z yozuvlariga unli tovushlarni kiritishgan. Er.av. IV-III asrlarda oromiy alifbosi eroniy tillarda so'zlashuvchi ko'pgina xalqlar tomonidan ishlatib kelingan.

Er.av. VII-IV asrlarda oromiy yozuvi Misrdan Hindisongacha bo'lgan hududda amal qilib, ma'muriy, boshqaruv, siyosiy ahamiyatga molik ish yurituvida asosiy yozuv turi hisoblangan. Saroy devonxonalaridagi xattotlar oromiylar bo'lganidan, hujjatlar dastlab mahalliy tildan oromiy tiliga tarjima qilingan, so'ngra oromiy yozuvida rasmiylashtirilgan. Hujjatni o'qishda esa teskari jarayon, ya'ni oromiy tilidagi ma'lumotni mahalliy tilga tarjima qilish amaliyoti bajarilgan. Shu zaylda sekin-asta oromiy yozuvi mahalliy tillarning fonetik, grammatik xususiyatlariga moslashtirib borilgan. O'rta fors yozuvi va Parfiya yozuvi xuddi shu tariqa paydo bo'lgan. Bu alifbo asosida keyinchalik so'g'd yozuvi, xorazmiy va boshqa yozuvlar paydo bo'lgan. Eramizning VII-VIII asriga kelib bu eroniy yozuvlarni arab yozuvi siqib chiqargan. Pirovardida, oromiy yozuvi so'g'd, parfiya, pahlaviy, uyg'ur, hind (xususan, braxmi), ivrit, tibet yozuvlarining shakllanishida asos vazifasini o'tagan.

Eramizdan avvalgi IV asrdan eramizning IV asrigacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekiston hududida bir necha mustaqil davlatlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'z yozuviga ega edi. Ya'ni:

1. Pahlaviy yozuvi. Bu yozuv oromiy yozuvidan kelib chiqqan eng qadimgi yozuvdir. Pahlaviy yozuvining ikki turi mavjud: 1. Pahlaviy yozuvi, 2. Arshakiy yozuvi.

Pahlaviy yozuvidan keyinchalik so'g'd yozuvi, eramizning III asrida esa, qadimgi xorazm yozuvi shakllangan. Eramizning VI asrida yana shu yozuv asosida O'rxun-yenisey yozuvi paydo bo'lgan.

2. So'g'd yozuvi. Zarafshon daryosi vohasi va hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida joylashgan So'g'd davlatining yozuvi. Bu yozuv oromiy yozuvining pahlaviy variantidan shakllangan.

So'g'd yozuvi keyinchalik vujudga kelgan uyg'ur yozuvi, mo'g'ul yozuvi va manchjur yozuvlari uchun asosiy element bo'lib xizmat qilgan. Bu yozuvning dastlabki bosqichida harflar alohida-alohida yozilgan. Vaqt o'tishi bilan ularni bir-biriga ulab yozish rasm bo'lgan.

3. Baqtriya yozuvi. Bu yozuv Baqtriya davlati hududlarida qo'llanilgan. U oromiy-pahlaviy yozuvi variantlaridan biri bo'lib, Baqtriyadagi mahalliy so'zlashuv tiliga moslab ishloq qilingan yozuvdan iboratdir.

4. Parfiya yozuvi. Bu yozuv eramizdan avvalgi III-I asrlarda Parfiya davlati hududida amalda bo'lgan. Parfiya davlati Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy qirg'oqlarini o'z ichiga olgan. Bu hudud aholisi parfiy tilida so'zlashgan. Bu til esa qadimgi fors tili variantlaridan biri bo'lgan dariy tiliga yaqin bo'lgan. Bu til fonetikasi va grammatikasi nuqtai nazaridan oromiy tilidan farq qilgan. Shuning uchun bu yozuv ham oromiy yozuvidan ma'lum darajada farq qiluvchi yozuv hisoblangan.

Qadimgi xorazm yozuvi. Bu yozuv xususiyatiga ko'ra oromiy yozuviga juda yaqin bo'lib, Ahamoniylar sulolasi davridagi mumtoz oromiy yozuvi tarmoqlaridan biri hisoblanadi va u o'zida qadimgi oromiy yozuvi an'analarini yaxshigina saqlab

qolgan. Jumladan, Xorazm madaniyatiga tegishli ayrim yozma yodgorliklar matnida ideogramma va geterogrammalar, ya'ni oromiy tiliga mansub, o'ziga xos formulalarga o'xshab ketuvchi ajnabiy so'zlar uchraydi. Biroq ushbu birliklar, aslida oromiy yozuvida yozilsa-da, xorazm tilidagi ma'lum tushunchalarni ifodalovchi maxsus belgilar hisoblangan. Masalan, xorazm tangalarida uchrovchi MLK geterogrammasi oromiy tilida MLK (malik) deb o'qilishi kerak. Zotan, xorazm tilida u "shoh" deb o'qilgan. VIII asrda yashab ijod etgan Ibn al-Muqaffa xorazm yozuvi va pahlaviy yozuvidagi bu belgilarni o'rganib, quyidagi misollarni keltiradi. Ya'ni pahlaviyda *go'sht* deb yozilishi kerak bo'lsa, oromiycha "bsra" geterogrammasidan foydalaniladi, biroq "*go'sht*" deb o'qiladi, *non* demochi bo'lsalar, "lxma" (laxma) deb yozadilar, lekin "*non*" deb o'qiydilar. Olimning kuzatuvlari naqadar to'g'riligini hozirgi turmushimizda ham ko'p kuzatamiz. Masalan, 1 raqamidan dunyoning barcha millatlari birdek, bitta ma'noda foydalanadilar, lekin o'zbeklar uni *bir*, tojiklar *yak*, ruslar *odin*, inglizlar *one* deb o'qiydilar.

Qadimgi xorazm yozuvi eramizning II asrigacha amalda qo'llanib kelgan.

6. Avesto yozuvi. Aleksandr Makedonskiy saltanati qulaganidan keyin, Markaziy Osiyodagi davlatlar, shuningdek Parfiya, Xorazm davlati, Eron o'z mustaqilligini qayta qo'lga kiritganlar. Eronda Sosoniylar hukmronligi o'rnatilgach, o'zlarining qadimgi muqaddas kitoblari bo'lgan "Avesto"ni qayta tiklashga kirishilgan. Ma'lumki, o'n ikki ming mol terisiga yozilgan bu kitobni Aleksandr Makedonskiy o'z yurtiga olib ketgan. Uning foydali tomonlarini o'z faylasuflariga tanishtirib, so'ng uni yo'q qilib yuborgan edi. Biroq "Avesto" kitobi yozilgan yozuvni hech kim bilmagani va biladiganlardan hech kim hayot emasligi sababli, bu kitobni tiklash mumkin emas edi. Shu sababli eramizdan avvalgi VI-III asrlarda Eronda "Avesto"ni qayta yaratish maqsadida yangi yozuv ijod qiladilar (bu yozuv tarixga "Avesto yozuvi" nomi bilan kirgan). Vaqt o'tib ushbu yozuv pahlaviy yozuvi bilan bir qatorda mahalliy aholi tomonidan qo'llana boshlagan. Unda tilda mavjud bo'lgan qisqa va cho'ziq unlilar yunon yozuvida qanday ifodalansa, shunday ifodalangan. Alifboda unli tovushlarni ifodalash uchun 35 ta harf bo'lgan. "Avesto yozuvi" qadimgi dariy tilining fonetikasini hisobga olib tuzilgani uchun uzoq vaqt – eramizning VII asrigacha Eron hududida qo'llanib kelgan.

7. Urxun-yenisey yozuvi. Fanda yana *qadimgi turk runik yozuvi* deb ataluvchi, 5-8-asr(ba'zi manbalarda esa 7-8-a.)larga mansub bu yozuv turi muhrlangan yodgorlik Urxun va Yenisey daryolari havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Shakliga ko'ra got (qad. german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun *runik* (sirli) *yo'zuv* deb ham atalgan.

Urxun-yenisey yozuvining fanga ma'lum qilinishi va o'rganilishida S.Remezov, F.Stralenberg, D.G.Messersmidt, J.P.Abel Remyuza, N.M.Yadrinsev, V.V.Radlov, V.Tomsenning xizmati beqiyos. O'zbek olimlaridan akad. G'.Abdurahmonov va A.Rustamov, prof. N.Rahmonovlar ham bu borada tadqiqotlar olib borganlar. V.V.Radlov turk shahzodasi Kultegin (8-a.) xotirasiga

bitilgan ulkan toshdagi matnning transliteratsiya va transkripsiyasini tuzib, nemis tiliga tarjima qildi. Ushbu manba qadimgi turkiy til qurilishi, fonetikasi, morfologiyasi va leksikasi yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni beradi.

Bu yozuvga mansub eng yirik yodgorlik "Irq bitigi" (folbinlik kitobchasi) bo'lib, u qariyb 100 sahifadan iborat. Bilga hoqon, Qultegin sharafiga bitilgan yodgorliklar, O'ngin yozuvi, Tunyuquq, Mo'yin chura va Quli chura sharafiga bitilgan yodgorliklar ularning eng mashhurlaridir. Sibir va Shimoliy Mo'g'ulistondan tashqari 100dan ortiq runiy yozuvi yodgorliklari Sharqiy Yevropada, Sharqiy Turkiston va Oloyda, Markaziy Osiyo va shimoliy-sharqiy Qora dengiz havzalarida ham uchraydi. Bu yozuvning paydo bo'lishi miloddan avvalgi 1-ming yillikka to'g'ri keladi, degan farazlar bor. Ayrim manbalarda mazkur yozuvning kelib chiqishiga ko'ra sug'd va paxlaviy yozuvlari orqali oromiy yozuviga borib taqalishi aytiladi. Biroq O.Mudrak bu yozuvda na oromiy yozuvining o'sha hududlarda tarqalgan varianti, na xitoy alifbosi, qolaversa, Buyuk Ipak yo'lining janubiy hududlarida yashagan hindlarning yozuviga yaqin va o'xshash keluvchi birorta belgilar mavjud emasligini ta'kidlaydi hamda runik yozuvining o'sha davrda amal qilgan hech bir alifboga o'xshamasligini qayd etadi.

Urxun-yenisey (runik) yozuvining paydo bo'lish vaqtini O.Mudrak dastlabki turkiy hoqonlikning yemirilib, so'nggi turkiy hoqonlik yuzaga kelgan 560-yillar deb taxmin qiladi. Bu yozuv paydo bo'lish o'rni va vaqti bilan bog'liq bo'lgan ayrim grafik xususiyatlari tufayli urxun, talas, yenisey variantlariga ega. Bularning eng qadimiysi urxun variantidir. Bu yozuvlar turkiy tillarga uyg'un, mos, ancha mukammal, arab yozuvidan ko'ra yozilishi va o'qilishi birmuncha qulay bo'lgan.

Urxun-yenisey yozuvi 38 belgi (harf)dan iborat bo'lib, fonetik yozuv tizimiga kiradi. Runik yozuvi yarim bo'g'inga asoslangan alifbodan iborat. U arab yozuvi kabi o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. Har bir tovush yoki tovushlar birikmasi maxsus harflar bilan ifodalanib, alohida yozilgan. Asosan, so'z boshida va o'rtasida keluvchi unli harflar yozilmagan. Urxun-yenisey yozuvida tinish belgilari ishlatilmagan. So'zlar, ba'zan morfema yoki so'z birikmalarini bir-biridan ajratish uchun ular o'rtasiga ikki nuqta (:) qo'yilgan, shartli ravishda u "ayirg'ich" deb nomlangan.

Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari oromiy alifbosi asosida o'z yozuvlarini kashf etgach, mahalliy aholining ma'naviy-ahloqiy qarashlari, xo'jalik va huquqiy hujjatlari, oilaviy yozishmalar, savdo-sotiq va tanga pullaridagi yozuvlar shu yozuvlarda olib borilgan.

8. Uyg'ur yozuvi. Bu yozuv so'g'd yozuvi variantlaridan biri bo'lgan va Urxun-yenisey yozuvi bilan birga qo'llanib kelgan. XIV-XVI asrlarda mo'g'ullar bu yozuvni mo'g'ul tili xususiyatlarini hisobga olib isloh qilishgan va mo'g'ul yozuvini yaratishgan. Keyinchalik uyg'ur va mo'g'ul yozuvi asosida manchjur, oyrot, buryat tillari yozuvi vujudga kelgan.

Parfiya yozuvi. Parfiya yozuvi oromiy yozuvi asosida podsho Mitridat I davrida (miloddan avvalgi II asr o'rtalarida) ishlab chiqilgan, u 22 ta harfdan iborat. Bu yozuv miloddan avvalgi II-III asrlarda mamlakat bo'ylab keng

tarqalgan bo'lib, shu davrda Mixrdatkirt shahrida davlat arxivi tashkil topgan. Parfiyada o'z tilida yozilgan yozuvdan tashqari, yunon tili va yozuvi ham muomalada bo'lgan. Manbalarda Parfiyada 2800ga yaqin oromiy tilida yozilgan yozuv parchalari topilganligi ma'lum qilinadi.

Boxtariy yozuvi. Miloddan avvalgi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan. Baqtriyada mahkama tili va yozuvi yunoncha bo'lgan. Oyxonimda miloddan avvalgi II asr birinchi yarmiga tegishli boxtar yozuviga dalillarning topilganligi miloddan avvalgi III-II asrlar chegarasida oromiy yozuvi asosida boxtariy yozuvi ishlab chiqilishiga doir farazlarni keltirib chiqardi. Bu davrda Baqtriyada boxtar va yunon tili va yozuvi, braxmi va kxorashta (kxarotsxi) yozuvlari teng muomalada bo'lgan.

Kushonlar davrida boxtar tili va yozuvi rivoj topadi va natijada yunon tili va yozuvi siqib chiqariladi. Kanishka davrida boxtariy tiliga davlat maqomi berilib, boxtar tili va yozuvi barcha sohalarga kirib boradi. Buddha dini ibodatxonalari (Surx-katal va Rabatak ibodatxonalari) peshtaxtalarida boxtar tili va yozuvda Kanishka va uning vorislarining farmonlari o'z aksini topadi.

Sug'd yozuvi (miloddan avvalgi III-II asrlar) oromiy yozuvi asosida shakllangan bo'lib, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida keng qo'llangan. Sug'd tili va yozuvi Sug'diyona hududlari, Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va yettisuva keng yoyilgan. Sug'd yozuvi eramiz boshlaridan to XI asr birinchi choragiga qadar yozilgan ko'plab noyob yozma yodgorliklar yozuvidir: bu numizmatika materiallari (tanga yozuvlari), metall, sopol, yog'och, charm, qog'oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, xo'jalik va moliya hisoboti hamda huquqiy va diplomatik hujjatlar, nikoh guvohnomalari, ayg'oqchilik maktublari, diniy, ahloqiy-falsafiy matnlardir. Sug'd yozuvi asosida qadimgi turk yozuvi paydo bo'lgan.

Sug'd yozuvi 22 ta harf-belgidan iborat. U bir necha bosqichni o'z boshidan kechirgan. Uning ilk bosqichi yunon-baqtriya tangalariga taqlid qilib chiqarilgan sug'd tangalarida uchraydi. Shuningdek, sug'd yozuvining namunalari Afrosiyobdan topilgan milodiy eraning I-III asrlariga tegishli sopol parchalarida va terrakota haykalchalarda uchraydi. Milodiy II asrda Sug'dda kumush tangalar zarb etila boshlaydi va u jahon bozoriga chiqadi. Bu tangalar to milodiy V-VI asrlarda Kesh poytaxti bo'lgan sug'd konfederativ davlati tashkil topguniga qadar davom etadi. So'ng VII asr o'rtalaridan Sug'd konfederatsiyasining poytaxti Samarqandga ko'chgandan keyin sug'd yozuvining tashqi shakli yanada takomillashib, uning ichki til tovush mazmuni aniq ifodalash tomon o'sadi va muayyan orfografik me'yorlar vujudga keladi.

Sug'dda kumush tangalar zarb etilib, jahon bozoriga chiqgach, Janubiy-sharqiy O'rolorti o'lkalarida, Yenisey havzalari, Janubiy Sibir va Angara daryosi havzalarida, shimoliy Xitoy va Mongoliyada sug'd savdo faktoriyalari (savdo karvon saroylari) va qishloqlari paydo bo'ladi. Sug'd savdogarlari uzoq o'lkalarga ham kirib borganlar. Ular qayerga kirib borsa, o'sha joyga sug'd yozuvi ham kirib

borgan (masalan, 1889-yilda Mo'g'ulistonda XI asrda hukmronlik qilgan uyg'ur hoqoni qabri ustidagi plitaga yozilgan sug'd yozuvi topilgan).

Qadimda Shimoliy-G'arbiy Xitoyning Dunxuan shahri yirik xalqaro savdo nuqtalaridan biri bo'lib, aynan mana shu shaharda 3 ming samarqandlik savdo ahli joylashgan Samarqand kvartali (mavzesi) tashkil topgan. Dunxuan savdo faktoriyasi (karvonsaroyi) savdogarlari ona vatani – ona shahri Samarqand bilan uzviy aloqada bo'lib, Samarqandga karvonlar orqali xatlar yuborib turishgan. Biroq shunday xatlardan 9 tasi egasiga yetib bormay, Dunxuan pochtasida qolib ketgan. Xatlar milodiy 313-317-yillarda yozilgan bo'lib, ularni o'tgan asrning boshlarida ingliz arxeologlari topib o'rganganlar. Sug'd tilida yozilgan bu xatlar tarixda "Qadimgi sug'd maktublari" nomi bilan mashhurdir.


1933-yilda Hayrabod qishlog'i yaqinida Mug' qal'a qasri harobalaridan sug'd hujjatlari majmuasi topilgan. Bu VIII asrning dastlabki o'n yilligiga oid (712-722) 89 ta hujjat bo'lib, ulardan 74 tasi sug'd tilida (shundan 29 tasi teriga, 22 tasi qog'ozga, 23 tasi yog'ochga), qolganlari arab tilida yozilgan edi. Davlat hujjatlarining Sug'd podshosiga tobe Panch (Panjikent) hokimligi saroyidan Mug' qal'a qasriga borib qolishining boisi shundaki, arablar bosqini davrida Panjikent hokimi Devashtich arab istilochilariga qarshi Sug'd-Choch-Farg'ona-Turk harbiy ittifoqini tuzish maqsadida, u o'lka va mamlakat boshliqlari bilan diplomatik yozishmalar olib boradi.

Mug' qal'asida qolib ketgan sug'd arxivi 1210 yil o'tgach, 1932-33-yillarda topildi.

Sug'd tili va yozuviga oid yana bir hujjat Afrosiyobdan, Samarqand ixshidi Varxuman saroyi (Varxuman 651) devoridan topilgan. Jumladan, saroyning birinchi qavatida qabulga navbat kutayotganlar orasida uzun libos kiygan musavvir surati mavjud bo'lib, uning libosi etagiga 11 qatorli sug'dcha xat bitilgan.

Shuningdek, XX asrning 70-yillarida Afrasiyobdan milodiy IV asrga tegishli yog'ochga bitilgan sug'dcha hujjat topilgan bo'lib, sug'dshunos M.Is'hakov bu xatning samarqandlik bir savdogarning o'z hamkasbiga qarz puliga bergan tilxati ekanini qayd etadi.

Sug'd yozuvida bitilgan qator tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, masalan, Paxlavon Rustam to'g'risidagi xalq dostonida "Kalila va Dimna" to'g'risidagi ikkita sug'dcha parcha bayon qilingan. Shu kabi, VIII-IX asrlarga doir diniy mazmundagi bir necha budda, nasroniy, manixey matnlari, budda ilohiyoti, budda adabiyoti asarlarini o'z ichiga olgan bir guruh hujjatlar sug'd tili va sug'd yozuvida bitilgan. Xullas, yuqorida qayd qilingan yozuv namunalarining ilmiy tahlili asosida o'zbek etnogenezi va etnik tarixini o'rganishga oid muhim ma'lumotlar olish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Qadimgi yozuvlarning tadrijiy rivoji¹¹

Arab tilining O'zbekiston madaniyati va tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. O'n uch asr davomida diyorimiz tarixi arab tili va yozuvi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ma'lumki, arablar Markaziy Osiyoga VII asrdayoq kirib kelganlar.

Arab-islom madaniyati yayilishi bilan mintaqada arab yozuvi ham tarqala boshladi. Garchi arab yozuvi mahalliy tillarning xususiyatini to'liq aks ettira olmasa ham, asta-sekin mahalliy yozuvlarni siqib chiqardi. Arablar bu yurtlarni fath qilganlarining ilk kunlaridanoq masjidlar barpo etishga e'tibor qaratdilar. Masjidlar bir vaqtning o'zida ham ibodat, ham ta'lim dargohi vazifasini o'tadi. Asta-sekin arab tili rasmiy yozishmalar, ilm-fan va madaniyat tiliga aylana bordi.

¹¹ http://www.garshin.ru/linguistics/scripts/aramaic/index.html#google_vignette

Bu yozuvda turkiylarning mumtoz asarlari yozila boshladi. Mintaqa xalqlari o'n uch asr davomida arab yozuvini hayotning turli sohalarida qo'llab keldi, 1930-yili esa lotin va 1940-yil kirill yozuviga o'tilishi oqibatida arab xati mahalliy xalqlar iste'molidan chiqib keta boshladi.

Lotin alifbosiga o'tish masalasini o'tgan asrning boshlarida jadidlar ko'tarib chiqqan edi. Ular millatning millat sifatida shakllanishi, tanilishida ma'lum qonun-qoidalar asosida tizimlashtirilgan, ma'lum me'yorga keltirilgan adabiy til zarurligini anglab yetganlar. Boshqa turkiy xalqlarda bo'layotgan lotinlashtirish harakatiga jadidlar ham qo'shildilar.

1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan Birinchi Butunittifoq turkiyshunoslik qurultoyida turkiy xalqlarning lotin alifbosiga o'tishlari haqida qaror qabul qilindi. O'zbekistonda ham lotin yozuviga o'tish, lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosini yaratish bo'yicha jiddiy harakatlar boshlandi. Turli anjumanlarda, matbuotda mavzu yuzasidan qizg'in muhokamalar boshlandi.

O'sha paytda alifbo harflarini belgilashda jadidlar ikkita guruhga bo'lingan edilar. 1-guruh – turkiy tillarda mavjud singarmonizm qonuniyatining o'zbek tilida ham borligini e'tirof etuvchilar; 2-guruh – o'zbek tilida singarmonizm qonuniyati buzilgan deb e'tirof etuvchilar.

Birinchi guruh qarashlariga ko'ra, o'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi 9 ta unli bor (singarmonizm qonuniyatiga ko'ra, unlilar qattiq-yumshoq variantga ega) va ular alifboda aks etishi kerak. Ikkinchi guruh esa o'zbek tilida 6 ta unli bo'lishi kerak, degan taklifni ilgari surdi.

1929-yilda Samarqandda bo'lib o'tgan Til va imlo anjumanida lotin alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilindi va birinchi guruh tavsiya qilgan alifbo tasdiqlandi. Jadidlarning asosiy xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, ular milliy alifboga “ng” (ng) tovushi uchun alohida harf kiritdilar. Bu haqda o'tgan asr boshlari tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Boymirza Hayit shunday yozgan edi:

“Jadidchilar arab harflarini qulay o'rgatmoq va turkchani to'g'ri talaffuz ettirmoq uchun arab harflaridagi fatxa, kasa va zamma ishoratlari o'rniga alohida harflarni ilova qilgandilar. Ular bu alifboga turklarning eng eski “ng” harfini ham qo'shdilar. Zero, “ng” tovushi turkiy tillarning eng qadimiy tovushi ekani tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan¹². Turkistonda alifbo shu tariqa yaratilgandi”.

Shu bilan birga, 2 xil j (portlovchi va sirg'aluvchilari uchun) harflari qabul qilindi: *ç* (*jo'ja*), *z* (*ajdod*), *ch* tovushi esa *c* bilan belgilandi. Hozirgi o'zbek tilidagi yarim lablangan *o* tovushi uchun harf belgilanmagan. Bu tovush mavjud emas, deb hisoblashgan (*odam* – *adam*, *bosh* – *bash*).

O'sha davrda qabul qilingan o'zbek alifbosi 33 ta harf va 1 belgidan iborat bo'lgan.

1934-yilda Toshkentda alifbo va imlo masalalriga bag'ishlangan Respublika qurultoyi o'tkazilib, unda o'zbek adabiy tilida unlilar miqdori 9 ta emas, 6 ta deb hisoblash kerakligi haqida qaror qabul qilindi. Alifbodan **o** (**o** (**o'**) ning yumshoq varianti), **u** (**u** ning yumshoq varianti), **i** (**i** ning yumshoq varianti) chiqarildi. Natijada yangi tahrirdagi alifbo 30 ta harf va 1 ta belgidan iborat bo'ldi.

¹² Ne'matov H. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. 1992. – B. 65.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, respublikada o'zbek yozuvini rus grafikasidan yana lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tkazish haqida fikr-mulohazalar o'rtaga tashlandi. Bu masala bir yil davomida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilinib, 1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuni e'lon qilindi. Yangidan qabul qilingan o'zbek alifbosi 31 harf va bir tutuq belgisi (apostrof)dan iborat qilib belgilandi.

E'tibor berilsa, **ç** (ch), **ş** (sh) harflari eski alifbodan aynan olingan, **ğ** (g'), **ö** (o'), **ñ** (ng), **j** (qorishiq j) harflari yangidan belgilangan. Tahrir qilingan alifboga 1ta harf – **c** (s) kiritilgan.

Lekin oradan ikki yil o'tar-o'tmas, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-may kuni alifboga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qonun qabul qildi.

Bu hujjatga binoan:

yangi tahrirdagi alifbo 26 ta harf, 3 ta harfiy birikma, 1 belgidan iborat bo'ldi;

C c, J j harflari alifbodan chiqarib tashlandi;

Ç ç, Ğ ğ, Ş ş, Ñ ñ harflarining shakliga isloh kiritildi.

Qonunning uchinchi qismidagi harflarning shakliga isloh kiritilishi bu alifbodan foydalanishga doir qator muhokamalarni keltirib chiqardi. Amaldagi alifboning qator noqulayligi esa quyidagi jihatlarda kuzatiladi¹³. Ya'ni:

birinchi noqulaylik **o'** va **g'** harflari bilan bog'liq. Bu harflarni klaviaturada alohida tugmachalarga bog'lab qo'yishning iloji yo'q. Qolaversa, ' belgisi tutuq belgisi ' bilan shaklan o'xshash. Ularni ifodalash uchun biz klaviaturadagi bir necha (birvarakayiga 5 ta) tugmalar kombinatsiyasidan foydalanamiz yoki matnni terib bo'lgach, **o'** va **g'** harflarini "avtozama" funksiyasi orqali umumiy almashtiramiz. Bu — masalaning texnik jihati. Amalda esa, masalan, "to'g'ri" so'zidagi ikki qo'shimcha belgidan birining tushib qolishi ko'p uchraydi (yo "to'g'ri", yo "tog'ri"), hatto savodli yozilgan matnlarda ham. Bu harflar matn terishda noqulaylik tug'diradi.

Yozuvdagi yana bir noqulaylik "**ye**", "**yo**", "**yu**", "**ya**" kabi "yo"lashgan unlilar imlosi bilan bog'liq. Shu paytgacha, masalan, qachon "u" va qachon "yu" yozilishi bu harflarning matnda kelgan o'rni va bajaradigan vazifasiga bog'liq deb kelingan (Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 1999). Lekin bu qarash ushbu harfli birikmalarining imlosini murakkablashtirib yubordi. Natijada hatto imlo lug'atlarida ham variativlik ko'payib ketdi: **sentabr – sentyabr, budjet – byujet, rejissor – rejissyor**.

"Ts" (**ц**) tovushi hozirgi lotin alifbosida alohida harf bilan berilmagan. Biz "ц"ning o'rniga qarab "ts" yoki "s" bilan ifodalaymiz. Garchi "ц" turkiy tillar uchun yot tovush bo'lsa-da, til taraqqiyoti natijasida lug'atimizga bu tovush ishtirokidagi internatsional so'zlar, terminlar kirib keldi. "ц"ni hamma o'rinda "s" deb talaffuz etish va yozish esa muammoning yechimini bermaydi. Chunki shunday atamalar borki, "s" bilan yozilganda, omonim bo'lib qoladi: *sanga* (цанга) – *sanga, seriy* (серий) – *seriy, sokol* (цоколь) – *sokol* va hokazo. Bu aynan shunday matnlarni ko'p yozadigan mutaxassislar, abituriyentlar va talabalarga ko'p noqulayliklar keltirib chiqaradi.

¹³ Тўрақўжаева Ш. Лотин ёки кирилл – қай бири маъқул? <http://karachik.com>.

Jumladan, amaldagi **ch**, **sh** harfiy birikmasining yozuvda noqulaylik keltirib chiqarayotganini uning yoshlarning yozma nutqida **4** va **w** (to'rt raqami shaklan 4 harfini, w esa 3 ni eslatgani uchun) bilan berilayotgani isbotlaydi.

2018-yildan e'tiboran, alifboga o'zgartirish kiritish bo'yicha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida respublika anjumani o'tkazildi, ishchi guruh tuzildi, juda ko'pchilik mutaxassislar fikrlari olindi. Hozirda muhokamaga qo'yilgan alifboda 28 ta harf, 1ta harfiy birikma va 1ta belgi mavjud.

Hozirda tavsiya qilinayotgan loyihada harf olib tashlangani ham, qo'shilgani ham yo'q, faqat 4 ta harfning shakli isloh qilinmoqda.

Alifbo loyihasi rasman qabul qilingandan so'ng bu harflar kompyuter klaviaturasidagi qulay tugmalarga joylashtiriladi. Masalan, Çç harfini o'zbek tilida ishlatilmaydigan — Cc harfi o'rniga, Şş harfini — Ww harfi tugmachasiga, Öö va Ğğ harflarini esa birorta lotin harfi yo tinish belgisi band qilmagan, kirillcha X, Ъ harflari turgan tugmachalarga birlashtirish mumkin.

Grafika. Orfografiya

Grafika muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimidir. Bu tizim belgilarining har biri *grafemalar* sanaladi. Yozuvning tovush tili bilan aloqasi, odatda, ana shu grafemalar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ular grafik tizimning eng asosiy strukturaviy-funksional birligi hisoblanadi.

Grafema yozuv birligi, *fonema* (tovush), *intonema* (ohang), *aksentema* (urg'u) va *leksema* (mustaqil ma'noli so'z)lar esa til birliklaridir. Binobarin, *grafema* ushbu til birliklari, hodisalari tashigan ma'noni nutqqa ko'chirish va shu orqali til birliklarining moddiy in'ikosini ta'minlash vazifasini bajaradi. Ko'rinadiki, grafema tovush, ohang, urg'u hamda mustaqil ma'noli, shuningdek, yordamchi ma'no tashuvchi so'zlarni kodlashtirish orqali nutqiy aloqa munosabatiga kiritadi. Kod turli informatsiyalarni uzatish, ishlash, saqlash va xotirlab qolish uchun mo'ljallangan shartli belgilar, simvollar sistemasidir, grafema esa ana shu tizimning birligi hisoblanadi.

Grafemalarning quyidagi turlari farqlanadi:

Fonografemalar – tovushlarni ifodalovchi grafemalar;

Prosodemografemalar – ohang va ritmik-intonatsion vositalarni yozuvda ifodalash uchun xizmat qiluvchi grafemalar;

Logografemalar – tushuncha nomi bo'lgan so'zlarni yozuvda ifodalashga xizmat qiluvchi grafemalar (B4 (before), GR8 (great), Y (why), OIC (Oh, I see), (forget), XIX, XL kabi).

Morfografemalar – so'z tarkibidagi ma'noli qismlar (morfemalar)ni ifodalovchi belgilar: / (-lar ko'plik qo'shimchasini ifodalashda), = (-ning qaratqich kelishigi qo'shimchasini ifodalashda), & (*bilan*, va bog'lovchilari ma'nosini ifodalashda).

Prosodemografemalar tovush tilining ohang, melodika, pauza, urg'u kabi ritmik-intonatsion vositalarini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Xususan, *urg'u belgisi* so'zning urg'uli bo'g'inini yozuvda ko'rsatish zarur bo'lgan paytlarda

ishlatiladi. U urg'uli bo'g'indagi unli tovushni ifodalagan harf (grafema) ustiga qiya chiziq tarzida qo'yiladi: *atlás* ("matoning bir turi"), *átlas* ("geografik atlas") kabi.

Tinish belgilari esa gap va nutqning mazmunini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan fonetik-fonologik vositalarni (ko'tariluvchi ohang, pasayuvchi ohang, to'liqinli ohang, sanash ohangi, pauza kabi supersegment birliklarni) yozuvda ifodalash uchun qo'llanadi. Bunday belgilar quyidagi vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:

a) ijtimoiy aloqani (fikir almashuvi jarayonini) yozuvda to'g'ri ifodalash uchun;

b) maqsad, mazmun yoki ma'noni, ularning o'ziga xos "rang" va "tus"larini yozuvda aniq ifodalash uchun;

v) gapning tarkibini hamda shu tarkib elementlari (komponentlari) o'rtasidagi grammatik-semantik munosabatlarni ifodalash uchun;

g) yozma nutqning ixcham va ravonligini ta'minlash uchun;

d) yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun.

O'zbek tilshunosligida tinish belgilarining quyidagi 10 ta turi grafikaning markaziy tizimiga kiritiladi:

Nuqta	(.)
So'roq belgisi.....	(?)
Undov belgisi.....	(!)
Nuqtali vergul.....	(;)
Ko'p nuqta (uch nuqta).....	(...)
Vergul.....	(,)
Ikki nuqta (bayon belgisi)	(:)
Tire.....	(-)
Qavs (qo'sh qavs).....	(,)
Qo'sh tirnoq.....	(" ")

Izoh: tinish belgilarining yuqorida sharhlangan xususiyatlari va shu asosda yaratilgan tasniflar ularning *grafik belgi (prosodemografema)* sifatidagi tavsifi hisoblanadi, ammo tinish belgilarining qo'llanishini me'yorlaydigan qoidalar tizimi grafikaning emas, punktuatsiyaning predmeti sanaladi.

Tinish belgilari misra balandligiga nisbatan turlicha joylashtiriladi: **nuqta** (.), **vergul** (,), **ko'p nuqta** (...) misranning pastki chizig'i bo'yicha qo'yib boriladi; qolgan belgilar, masalan, **qavs** (), **nuqtali vergul** (;), **undov belgisi** (!), **so'roq belgisi** (?), **ikki nuqta** (:), **qo'sh tirnoq** (« ») misranning ustki chizig'idan ostki chizig'igacha bo'lgan masofa hajmida yoziladi. **Qo'sh tirnoqning asosan qo'lyozmada qo'llanadigan turi** (" ") so'z yoki gap boshida misranning ostki chizig'i bo'ylab, shu so'z yoki gap oxirida esa misranning ustki chizig'i bo'ylab joylashtiriladi.

Logografemalar (logogrammalar). Grafemalarning bu tipi tushunchalarni yoki tushuncha nomi bo'lgan so'zlarni yozuvda ifodalashga asoslanadi. Bunday belgilar aslida ideografik (semasiografik) yozuv tipiga mansub birliklar sanaladi,

ammo ulardan fonografik yozuv tarkibida ham foydalaniladi. Yozuv tizimining murakkab optik-grafik sistema ekanligi ham shundan.

O'zbek yozuvida logografemalarning quyidagi turlari ishlatiladi:

Raqamlar – son turkumiga mansub so'zlarning ma'nolarini ifodalovchi logografemalar. Ular o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

a) g'arbiy arab (g'ubor) raqamlari: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 100, 1000, 100000, 1000000, 1000000000 kabi.

Arab raqamlari aslida Hindistonda (5-asrga yaqin) kashf etilgan bo'lsa-da, Arabistonga buyuk o'zbek olimi Muhammad Xorazmiyning arab tilida yozilgan "Hisob al- hind" ("Hind arifmetikasi haqida kitob") asari orqali kirib kelgan, bu asar lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropaga (10-asrda Ispaniyaga, 12-asrda Yevropadagi boshqa mamlakatlarga) tarqalgan. Demak, Hindistonda yuzaga kelgan yuqoridagi raqamlarning "arab raqamlari" nomi bilan ommalashib ketishida hamyurtimiz Muhammad Xorazmiyning ulkan xizmati bor;

b) rim raqamlari – qadimgi rimliklar ishlatgan raqamlar bo'lib, ular quyidagi belgilardan tarkib topgan: I (bir), V (besh), X (o'n), L (ellik), C (yuz), D (besh yuz), M (ming). Qolgan raqamlar shu belgilar kombinatsiyasiga asoslanadi: I(1), II(2), III(3), IV(4), V(5), VI(6), VII(7), VIII(8), IX(9), X(10), XI(11), XII(12), XIII(13), XIV(14), XV(15), XVI(16), XVII(17), XVIII(18), XIX(19), XX(20), XXX(30), XL(40), L(50), LX (60), LXX(70), LXXX(80), XC(90), C(100), CD(400), D(500), DC(600), CM(900), M (1000), MC(1100), MD(1500) va boshqalar.

Rim raqamlari miloddan oldingi 500-yillarda etrusklar tomonidan kashf qilingan.

Morfografemalar so'z tarkibidagi ma'noli qismlarni (morfemalarni) ifodalovchi belgilar. Masalan, defis (chiziqcha) raqamdan keyin qo'llanganda tartib son tarkibidagi "nchi" morfemasini ifodalaydi – shu morfema defisning referenti bo'ladi: 5-uy (*beshinchi uy*), 20-xona (*yigirmanchi xona*) kabi. Biroq, *qozon-tovoq*, *aka-uka* kabi juft so'zlarning yozuvdagi shakllarida defis morfografema emas, orfografik belgi vazifasida qatnashadi.

Ramz (simvol)lar – ilm-fanning ma'lum sohalarida qabul qilingan maxsus ideografik belgilar: a) matematik ramzlar - $\sqrt{\quad}$ (ildiz), - (oluv), + (qo'shuv), x (ko'paytiruv), : (bo'luv), X (iks), X² (iks kvadrat), ~ (davriylik, uzluksizlik), > (katta), < (kichik) va boshqalar; b) astronomik ramzlar - ☼ (Quyosh), C (Oy), ♂ (Mars), ♀ (Merkuriy), ☂ (ehtiyot shart), @ (elektron manzil) kabi.

Orfografiya (grek. *orthos* - "to'g'ri" + *grapho* - "yozaman") 1. Yozma nutqda so'z, grammatik vositalarni harfli va harfli bo'lmagan belgilar (chiziqcha, nuqta, maxsus belgi, raqam va b.) yordamida ifoda etishning yagona shaklini belgilovchi qoidalar majmuyi. 2. Tilshunoslikning to'g'ri yozish qoidalarini o'rganuvchi sohasi. Orfografiya og'zaki nutqning xususiy hamda dialektal (lahjalarga xos) belgilarini yozma nutqda adabiy til me'yorlariga muvofiqashtirish vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, tilda mavjud tovushlar tizimi nutqiy xususiyatlarini yozuvda grafik belgilarda berishning imkoniyatini nihoyatda cheklangan. Shunga ko'ra orfografik tamoyilning zarurati tegishli so'z yoki morfemani yozuvda berishning kamida ikki xildagi shakli mavjud bo'lganda kuzatiladi.

Orfografiya tamoyillari

Orfografiya tamoyillari — to'g'ri yozish qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar. O'zbek tilida orfografik tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. **Fonetik tamoyil.** Bu tamoyil asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra so'z yoki so'z shakllari talaffuzdagi ko'rinishiga mos ravishda yoziladi. Masalan, rus tilidagi *podnos* so'zining o'zbek tilida *patnis* deb yozilishi, inglizcha o'zlashmalarning: *Hyundai* — *Xunday*, *Google* — *Gugl*, *Hi-Tech* — *Hytek*, *april* so'zining *aprel* singari shakllarda berilishi, *Almati* so'zining *Olmaota*, fransuzcha *restaurant* so'zini *restoran* shaklida yozish o'zbek tilidagi talaffuz me'yorlariga (fonetik tamoyilga) asoslanadi. Shuningdek, *ek+gan*, *ek+guncha* kabi so'z shakllari ham o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra *ekkan*, *ekkuncha* deb (talaffuziga mos tarzda) yoziladi.

Quyidagi holatlarda ham fonetik tamoyilga amal qilinadi:

a) ayrim otlarga egalik affiksi qo'shilganda: *burun* > *burni*, *ko'ngil* > *ko'nglim*, *og'iz* > *og'zing*, *o'gil* > *o'g'lim* kabi;

b) ayrim sifatlardan fe'l yasalganda: *ulug'* > *ulg'aymoq*, *sariq* > *sarg'aymoq* kabi;

d) *qotmoq*, *achimoq*, *isimoq* fe'llaridan sifat yasalganda: *qot(moq)* > *qattiq*, *achi(moq)* > *achchiq*, *isi(moq)* > *issiq* kabi;

e) *son*, *ot*, *yosh*, *ong* so'zlaridan fe'l yasalganda: *son* > *sana*, *ot* > *atamoq*, *yosh* > *yashamoq*, *ong* > *anglamoq* kabi;

f) ikki, yetti sonlariga “-ov” affiksi qo'shilganda: *ikki* > *ikkov*, *yetti* > *yettov* kabi;

g) “-a” yoki “-ya” bilan tugagan fe'llarga “-v” yoki “-q” qo'shilib ot yasalganda: *tanla* > *tanlov*, *sana* > *sanov*, *so'ra* > *so'roq*, *bo'ya* > *bo'yoq*, *sayla* > *saylov* kabi.

Orfografiyaning fonetik tamoyili yozuv bilan talaffuzni bir-biriga yaqinlashtiradi va imlo qoidalarining o'zlashtirilishini ham osonlashtiradi.

2. **Fonematik tamoyil.** Bu tamoyil qoidalariga ko'ra harflar (yoki grafemalar) so'z tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanadi. Jumladan, *kitob*, *omad* so'zlarining oxiridagi “b” va “d” fonemalari jarangsiz “p” (*kitop*) va jarangsiz “t” (*omat*) tarzida talaffuz qilinsa-da, fonemaning asosiy ottenkasiga mos ravishda “b” (*kitob*) va “d” (*omad*) harflari bilan yoziladi.

3. **Morfologik tamoyil.** Bu tamoyil asosida tuzilgan imlo qoidalari so'zning ma'noli qismlarini (o'zak va affiksial morfemalari), ular qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, asliga (tipik shakliga) mos ravishda yozishni talab qiladi. Chunonchi, “g” bilan boshlangan *-ga*, *-gan*, *-gani*, *-guncha* qo'shimchalari “sh”, “t”, “r”, “s” kabi jarangsiz undoshlar bilan tugagan o'zaklarga qo'shilganda *-ka*, *-kap*, *-kani*, *-kuncha* shakllarida talaffuz qilinsa-da, morfemalarning asl shakllariga mos ravishda *-ga*, *-gan*, *-gani*, *-guncha* yoziladi. Qiyos qiling: *ishga* (yozuvda) — *ishka* (talaffuzda), *ketgan* (yozuvda) — *ketkan* (talaffuzda), *ketguncha* (yozuvda) — *ketkuncha* (talaffuzda), *topgan* (yozuvda) — *topkan* (talaffuzda), *misga* (yozuvda) — *miska* (talaffuzda) kabi.

Eslatma: “q”, “k” bilan tugagan soʻzlarga “g” bilan boshlangan affikslarning qoʻshilishida bu qoidaga amal qilinmaydi: ular talaffuziga koʻra (fonetik tamoyil asosida) yoziladi. Qiyos qiling: *oq+gan* (asl shakli) — *oqqan* (talaffuzda) — *oqqan* (ad.-orf. yozuvda), *ek+gan* (asl shakli) — *ekkan* (talaffuzda) — *ekkan* (ad.-orf. yozuvda) kabi.

4. Grafik tamoyil. Bu tamoyil, aslida, orfografiya qoidalarini emas, grafika qoidalarini belgilaydi — grafemalarning grafikada kodlashtirilgan fonemalarini ifodalashga asoslanadi, shunga koʻra u, baʼzan, fonemografik tamoyil deb ham nomlanadi. Chunonchi, sirgʻaluvchi “j” bilan qorishiq “j”(dj) ning yozuvda bitta j grafemasi orqali ifodalanishi grafikada kodlashtirilgan. Yozuvda bu meʼyorga amal qilinadi, xolos: *jemper* (sirgʻaluvchi j) kabi.

Grafik tamoyilning yuzaga kelishida bir xalqning ikkinchi xalq bilan boʻlgan madaniy aloqasi, uning yozuv tizimiga tayanishi kabi omillarning roli bor. Biroq grafik tamoyilning mohiyatini oʻzbek yozuviga asos boʻlgan boshqa til yozuviga xos grafik belgilar va qoidalarning aynan (manba tilning yozuvi va imlosida qanday boʻlsa, shundayligicha) saqlanishi bilan bogʻlashning oʻzi yetarli emas: bu tamoyil manba tildagi harf-tovush munosabatlaridan chetga chiqishi, bevosita oʻzbek tilining oʻzidagi harf-tovush munosabatlarini qamrab olishi ham mumkin. Taqqoslaymiz: *doʻkon, sport, okulist, okop — xola, lola, oltin* va b. (o tovushining talaffuziga doir farqlar nazarda tutilyapti).

5. Tarixiy-anʼanaviy tamoyil. Bu tamoyilga asoslangan imlo qoidalari soʻzlarning yoki soʻz shakllarining qadimdan odat boʻlib qolgan shaklda yoki anʼanaga mos shaklda yozilishini hozirgi imlo uchun meʼyor tarzida belgilaydi. Chunonchi, *hurriyat* soʻzi tarkibida ikkita “r”ning mavjudligi hozirgi oʻzbek tili uchun meʼyor sanaladi, ammo shu soʻz ishtirokida yasalgan *jumhuriyat* soʻzi esa oʻz tarixiy yozilish shakliga koʻra bitta “r” bilan yoziladi.

Tarixiy-anʼanaviy tamoyil soʻzning yoki soʻz shakllarining haqiqiy tarkibi (fonema yoki morfemalari) yetarli aniqlanmagan holatlarga nisbatan ham qoʻllanadi. Masalan, *taqozo* soʻzining oxirgi boʻgʻinidagi unli baʼzan “o”, baʼzan “a” holida (*taqozo-taqoza* kabi), yoki *vaholanki* soʻzining uchinchi boʻgʻinidagi unli baʼzan “o”, baʼzan “a” holida (*vaholanki-vaholonki* singari) talaffuz qilinadi, shulardan qaysi biri toʻgʻri ekanligi hozircha aniq emas. Shunga qaramay, bu toifadagi soʻzlar tarixan qanday yozilib kelgan boʻlsa, hozirda ham shu tarzda yoziladi.

Tarixiy-anʼanaviy tamoyilga amal qilish holatlari hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim badiiy asarlar tilida ham uchrab turadi: mumtoz adabiyot tiliga taqlid tarzida soʻzlarning eski oʻzbek tiliga xos shakllari ishlatiladi.

Masalan:

Ibodat ne?

Yaratganga itoat ham ibodatdur

Haqiqiy bandalik birlan

Sadoqat ham ibodatdur.

Otang birla onang qalbi

Oʻtar kaʼba tavofidin

*Alar ko'nglini shod etsang
Bu xizmat ham ibodatdur.*

*Umrni etmayin isrof
O'zing ro'za vujuding sof
Agar pok holda uxlarisan
Bu rohat ham ibodatdur.*

*Ibodatudur biror johil
Jafokorga desang haq so'z
Va nodonga sukut qilsang
Sukunat ham ibodatdur*

*Sevib Mirzo aziz do'stlar,
Ko'nglini shod ayla
Agar Olloh uchun sevsang
Muhabbat ham ibodatdur. (M.KenjabeK)*

(Bunda eski o'zbek tiliga xos *birlan*, *-dur* birliklarining faolligini kuzatish mumkin.)

6. **Differensiatsiya tamoyili** (simvolik tamoyil). Bu tamoyil asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra, shakli bir xil bo'lgan so'zlar (omonimlar) yozuvda signalizatorlar (ishora belgilari), diakritik belgilar vositasida yoki bir harf o'rnida boshqa harf ishlatish orqali farqlanadi: *atlas* (mato) – *atlas* (geografik atlas), *yangi* (sifat) – *yangi* (ravish), *tana* (gavda) — *ta'na* (minnat), *banda* (qul) — *banda* (shayka), *urish* (urmoq) – *urush* (“jang”) kabi.

Keltirilgan so'zlarda urg'u (') va tutuq (') belgilari orfografiyaning differensiatsiya tamoyili talabiga ko'ra qo'llangan; *urish* va *urush* so'zlarida esa “i” va “i” harflarining ishlatilishi ham shu tamoyilga asoslangan.

7. **Shakliy-an'anaviy yozuv**. Bu tamoyil so'z boshida yoki oxirida ikki undosh qatorlashib kelgan leksik birliklarning imlosini qoidalashtirishga asos bo'ladi. Ma'lumki, o'tmishda turkiy tillarda so'z boshida ikki undosh qatorlashib kelmagan. Shuning uchun boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlarning boshida ikki undoshning yonma-yon qo'llanishi uchrasa, ulardan oldin yoki shu ikki undosh orasida bir unlini orttirish odati bo'lgan. Bu odat hozirgi jonli so'zlashuvda ham uchrab turadi: *shkaf* > *ishkop*, *staj* > *istaj*, *drap* > *dirap*, *plan* > *pilon* kabi. Ba'zan so'z oxirida ham ikki undosh orasida bir unli orttiriladi yoki undoshlardan biri (so'nggisi) tushirib qoldiriladi: *sabr* > *sabir*, *nasr* > *nasir*, *nashr* > *nashir*, *go'sht* > *go'sh*, *g'isht* > *g'ish* kabi.

Shakliy-an'anaviy yozuv tamoyiliga ko'ra bunday paytlarda so'zlar talaffuzi asosida emas, o'zlarining asl shaklini saqlagan holda yoziladi: *shkaf*, *staj*, *drap*, *plan*, *sabr*, *nasr*, *nashr*, *g'isht*, *go'sht* kabi.

Bu tamoyil Faxri Kamolov tomonidan “etimologik yoki grafik tamoyil” deb nomlangan tamoyil mohiyatiga juda yaqin turadi.

8. Semantik-uslubiy tamoyil: a) semantik tamoyil soʻz yoki soʻz shakllarining imlosini ularning maʼnolariga tayanib belgilaydi. Masalan, *lola*, *poʻlat* (turdosh otlar) — *Lola*, *Poʻlat* (atoqli otlar), *ishchi* (“-chi” kasb oti yasovchi) - *ish-chi*. (“-chi” - soʻroq yuklamasi), *senda* (“-da” — oʻrin-payt kelishigi affiksi) – *sen-da!* (“-da” - kuchaytiruv va taʼkid yuklamasi) kabi; b) uslubiy tamoyil asosida tuzilgan imlo qoidalari soʻz yoki grammatik shakllarning semantik tarkibidagi uslubiy semalarning nutqdagi faollashuvini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *ota*, *ona*, *vatan*, *siz*, *oʻzingiz* kabi soʻzlar yoki grammatik shakllar shu soʻzlar (shakllar) orqali ifodalangan shaxslarga yoki tugʻilib-oʻsgan yurtga, diyorga alohida hurmat-eʼtibor bildirilganda bosh harf bilan yoziladi: *Ota*, *Vatan*, *Ona*, *Siz*, *Oʻzingiz* kabi. Shuningdek, gap ichida *Tinchlik*, *Ozodlik*, *Mehnat*, *Baxt* kabi soʻzlarning baʼzan bosh harf bilan boshlanishi ham uslubiy tamoyil talablaridan kelib chiqadi. Masalan, *Yashasin Ozodlik*, *Tinchlik* kabi.

Ogʻzaki nutqda soʻz maʼnosini kuchaytirish maqsadida soʻz tarkibidagi ayrim undoshlarni ikkilantirish (geminatsiya) yoki unilarni choʻzish kabi holatlar uchrab turadi. Ular yozuvda ham harflarni ikkilantirish orqali ifodalanadi: *maza* va *mazza*, *yashamagur* va *yashshamagur*, *rosa* va *rossa*, *opa* va *opa-a* kabi. Bu kabi vaziyatlar negizida ham uslubiy maqsadlar yotadi.

Bob, abzats, gap boshidagi birinchi soʻzning bosh harf bilan boshlanishi koʻproq sintaktik tamoyilga tayanadi.

Orfografiyada tinish belgilarining ham alohida oʻrni bor, negaki yozma matnning mazmuni, maʼnoviy boʻyoqorligi, sintaktik qismlari oʻrtasidagi mazmuniy-grammatik munosabatlarni belgilashda bu belgilarning roli muhimdir.

Tinish belgilari yozma nutqni toʻgʻri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining oʻzaro logik-grammatik munosabatlarini koʻrsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Yozuvning insoniyat tarixi, madaniyati va tamaddunida tutgan oʻrni haqida maʼlumot bering.

2. Oromiy yozuvining Markaziy Osiyo tamaddunida tutgan oʻrni, hududda amal qilgan yozuvlarning vujudga kelishidagi ahamiyati toʻgʻrisidagi bilimlaringizni bayon qiling.

3. Orfografiya nimani oʻrganadi?

4. Oʻzbek tilida toʻgʻri yozishning qanday tamoyillari mavjud?

Adabiyotlar

1. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. – М., — Л., 1951.
2. Малов С. Е. Енисейская письменность тюрков. – М., - Л., 1952.
3. Кляшторный С. Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964.
4. Абдурахмонов Ф., Рустамов А., Қадимги туркий тил. – Тошкент, 1982.
5. Насилов В. М., Язык орхоненисейских памятников. – М., 1960.

6. Фазилов Э. И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века, т. 12. – Ташкент, 1966.
7. Баскаков Н. А., Введение в изучение тюркских язмокв, 2изд. – М., 1969.
8. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш., Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973.
9. Турсун У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент, 1982.
10. Кўчкортоев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. – Тошкент, 1984.
11. Қадимги хат турларига оид нодир манба “Мажмуъатул-хутут” асари ҳақида. <https://oliymahad.uz/23947>.
12. Мудрак О.А. Классификация тюркских языков и диалектов : (с помощью методов глоттохронологии на основе вопросов по морфологии и исторической фонетике). – М.: РГГУ, 2009. – 191 с. (Orientalia et Classica. Труды Института восточных культур и античности. Вып. XXIII).
13. Субҳил аъша фи синоат ал-иншо. Аҳмад ибн Али Қалқашандий Мисрий (1355-1418). Энциклопедия.
14. Ёзувнинг вужудга келиши. <https://arabic.uz/maqolalar/685-yozuvning-vujudga-kelishi.html>.
15. <https://alsamarkand.com/pismennost/>
16. <https://books.google.co.uz/books>.
17. http://www.garshin.ru/linguistics/scripts/alphabet/aramaic/index.html#ogle_vignette.
18. <https://anashina.com/iyeroglificheskaya-pismennost/>
19. <http://markaz.tiu.uz>.

3-mavzu. O‘ZBEK TILINING LEKSIK SATHI

Reja:

1. So‘z – leksikologiyaning o‘rganish obyekti sifatida.
2. So‘zlardagi bir ma’ nolilik va ko‘p ma’ nolilik.
3. Ijtimoiy leksika.
4. Sohaviy leksika.

Tayanch tushunchalar: *lison va so‘z, so‘zning vazifaviy xoslanishi, so‘zning leksik sathdagi boshqa bir leksik birlik bilan o‘zaro aloqadorligi, bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar.*

So‘z – leksikologiyaning o‘rganish obyekti sifatida

So‘z yoki leksema (yun. *lexis* – so‘z, ifoda) tilning eng kichik ma’no anglatuvchi birligi hisoblanib, mazmun va ifoda ko‘lamidan tarkib topadi. Nutqning eng kichik, mustaqil birligi ham so‘zdir. So‘zning tashqi shakli tovushlar qobig‘i – tovushlar majmuasidan iborat. Biroq har qanday tovushlar jamlanmasi, garchi u lisoniy qonuniyatlar negizida tarkib topgan bo‘lsa ham, so‘z bo‘lib qolavermaydi

(*pitir-pitir, shov-shuv, chil-chil, vah, hoy* va h.). Negaki har bir soʻz tashqi shakldan tashqari oʻz ichki mazmuniga ham ega boʻlishi lozim.

Ichki mazmun soʻzning atov (leksik) maʼnosi hisoblanadi. Soʻz maʼnosi muayyan tushunchaga bogʻliq yoki u bilan bevosita aloqador boʻladi. Leksik maʼno bilan birga soʻzning grammatik maʼnosi ham mavjud boʻlib, soʻz har ikki toifadagi maʼnoning yaxlit butunligidan iborat boʻladi. Soʻz birlamchi nomlash (lot. *nomen* – ism, nom) vazifasini bajaradi. Soʻzning maʼnosi oʻzgarmas xususiyatli boʻlmasdan, doimiy ravishda taraqqiy etib turadi.

Tildagi barcha soʻzlar ham lugʻaviy maʼno anglatmaydi. Bogʻlovchi, yuklama, koʻmakchilar bunga misol. Shuningdek, shaxs nomlari (antroponimlar) ham mantiqiy-tushunchaviy jihatdan maʼno anglatmaydi. Solishtiramiz: *bahor* (yil fasli) hamda *Bahor* qiz bolalar ismi. *Bahor* leksemasiga aloqador dastlabki vaziyatda kishi ongida yil fasli toʻgʻrisidagi axborot faollashadi: bu inson ongida bahor va unga bogʻliq “tabiatning uygʻonish davri” haqidagi axborot va bilimlar majmuyining doimiy xotirada mustahkam oʻringa egaligini isbotlaydi. Biroq *Bahor* antroponimi haqida bunday deb boʻlmaydi. Zero, u bahor faslining xususiyatlariga nisbatan qoʻyiladigan ism boʻlib, amalda hech bir belgi bilan ajralib turish imkoniga ega emas.

Soʻzning quyidagi qirralari ajratiladi:

1. Soʻz – yaxlit shakllangan butunlik. Taqqoslaymiz: gʻishtdan bunyod boʻlgan koʻprik – gʻishtkoʻprik, gulbarglari xoʻroz tojiga oʻxshaydigan gul – gultojixoʻroz.

2. Soʻz maʼnosi nutq jarayonida aniqlanadi. Taqqoslaymiz: *hózir-hozir, akadémik-akademik* va b.

3. Soʻz xotiramizda qayta qoʻllanishga tayyor holda saqlanadi.

Soʻzda mazmuniy, maʼnoviy – semantik belgilar muhim. Leksik maʼno individual xususiyatli boʻlib, faqat bir soʻzga taalluqlidir.

Soʻzning vazifaviy xoslanishi

Soʻzlar oʻzaro oʻzi anglatgan maʼno va mazmun, shuningdek, turli grammatik shaklga egaligi bilan farqlanib, turli vazifaga xoslanadi.

Nominativ (atash) vazifa soʻzdagi eng asosiy vazifa boʻlib soʻz, dastlab, olamdagi narsa va hodisalar, mavhum tushunchalar, moddalar, xil-xususiyatlar, predmet belgilari, harakat va holatni ataydi. Shunga koʻra har bir lugʻaviy birlik tilda atash birligi, nomlovchi birlik, atovchi vosita hisoblanadi. Bunda har bir atov birligiga umumiy qilib *nom* deb qarash toʻgʻri boʻladi (*uy* – har qanday uy, *kitob* – istalgan kitob, *daraxt* – umuman daraxt, *stol* – stollarning hammasi). Bu turdosh nomlar. Vaholanki, atoqli otlar individual tarzda beriladi.

Soʻzlardagi nominativ vazifa fanda gnoseologik vazifa (bilish vazifasi) deb ham ataladi. Til sohibi bungacha notanish boʻlgan predmetga nom bera turib, uni oʻrganadi va tushunib yetadi, demak, anglaydi. Oʻzi anglagan va oʻrgangan predmet (narsa, hodisa, xossa)ga nom berayotgan til egasi yana boshqa kishilarga shu predmet toʻgʻrisida yangi bilim va maʼlumotni uzatadi.

Soʻz nominativ vazifadan tashqari kumulyativ (zaxiraga yigʻish, toʻplash, jamlash) vazifa

ni ham bajaradi. Bu vazifa nominativ vazifa evaziga to'plangan ma'lumotni olam to'g'risidagi umumiy ma'lumotga qo'shish bilan amalga oshadi. Boshqacha aytganda, har bir lug'aviy birlik olam manzarasining bir zarrasi hisoblanadi va o'zida olam to'g'risidagi axborotning kichik bir miqdorini tashiydi. Binobarin, bu birliklar yig'ilib, pirovardida, olam to'g'risidagi umumiy bilimlarni tashkil qiladi.

Ongimizdagi so'zlar (leksemalar) nechog'liq mislsiz miqdorda jamlangan bo'lmasin, lisonda tegishli tartiblangan va tizimga birlashtirilgan holda mavjud bo'ladi. Ushbu tizim *tilning leksik tizimi* deya ataladi va o'zining ko'p o'lchamliligi bilan lisondagi o'zga sathlardan ajralib turadi. Leksik ko'p o'lchamlilik – tegishli leksemaning tilning o'zga birligi bilan ma'lum maqsadlarda va yo'nalishlarda bog'lana olish imkoniyati. Masalan, *ovqat* leksemasi *ozuqa* mavzuviy guruhiga tegishli bo'lib, o'z navbatida, "suyuq ovqat", "quyuq ovqat", "yaxna", "gazak" singari kichik mavzuviy-semantik guruhlarning nominativlari bilan yagona qatorni tashkil etadi. Tabiiyki, *ovqat* leksemasi shu nominativlar anglatgan ma'no ko'lamiga tegishli yengil hazm bo'luvchi, *og'ir ovqatlar*, hatto *oshqozon-ichak kasalliklari* singari nominativ birliklar (xususan, sifat (*mazali ovqat*), sifatdosh (*ovqatlangan*) va h. turkumlar bilan ifodalanuvchi) bilan bog'lana oladi. Bu holatda *ovqat* leksemasi til sohibining ongida shu mavzuviy guruhda tartiblangan nominativ birliklarni nutq vaziyatiga ko'ra ularning semantik belgisiga asosan leksik sathdan saralab beradi va muloqot mavzusiga qarab 'ovqat' leksik-semantik tizimga tegishli birliklarni (so'zlarni) nutqda taqdim etishga tayyorlab turadi. Masalan, osh (palov) haqida gap ketganda, til egalaringing ongida *shakarob*, *achchiq-chuchuk*, *ko'k choy*, guruchning "Alanga", "Devzira", "Lazer" navlarini atovchi nominativlar, *dumba*, *jizza*, *qalampir*, *sarimsoq* singari leksemalar faol tartibga o'tadi. Albatta, bu holatda qayd etilgan leksik birlikning sinonim va antonim qatoridagi muqobillari ham kommunikativ jarayonda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Ko'pincha, nominativ vazifa so'zning **tavsiflovchi vazifasi** bilan uyg'un kelib qolishi mumkin. Masalan, *saraton* so'zini olaylik. Bu so'z arab tilidan o'zlashtirilgan, o'zbek va tojik tillarida muqim o'rnashgan so'z hisoblanadi. Mazmunan 'qisqichbaqa' ma'nosini ifodalovchi bu so'z bir vaqtning o'zida yoz faslining eng jazirama pallallarini anglatadi. Bir qaraganda betaraf hisoblangan bu so'z o'zbek turmush tarzini to'liq namoyon eta oladi: *Daryoning qum qirg'oqlarida Yapyalang'och yotar saraton... Qumli sohil ketguncha uyqu... Qilt etmadi saraton tani. Ko'zni yumib yotaverdi u. U erindi ismin aytgani. Tush. Saraton chopadi ketmon. Yuz-ko'zidan oqib borar ter* (U. Azim, Yoz). Misoldan ma'lumki, "saraton" – o'zbek bolasining o'ziga xos ramzi, o'zbek madaniyati, muallif realiyasini aks ettirayotgan birlik sifatida o'zbeklar ongidagi 'bolalik' konseptini (tushunchasini) o'ziga xos tarzda nomlayapti, mehnatkash o'zbek bolalarining portretini iliq ranglarda tasvirlayapti. Ya'ni ijobiy tavsiflayapti.

Biroq *uycha* (*uy*), *Ra'noxon* (*Ra'no*) kabi so'zlarda nominativ vazifa emas, faqat tavsiflovchi vazifa faollashgan bo'ladi. Negaki bu so'zlar 1) bitta yasalish asosidan iborat, 2) ularning hech biri alohida nomni ifodalayotgani yo'q hamda 3) ular bitta leksemaning so'z shakllari hisoblanadi.

Ba'zi so'zlar predmetga bevosita emas, bilvosita ishora beradi. Masalan, *bu, o'sha, ana shu, shu, qaysidir* kabi. So'zlardagi o'zga lug'aviy birliklar, boshqacha aytganda, shu so'zlar ostida nazarda tutilgan predmet, voqea-hodisalarga ishora berish vazifasi **deyxis** (ishora beruvchi) deb ataladi. Ishorani o'ziga qabul qilgan *anavi, o'shanaqa, shunday, mazkur, ushbu* kabi so'zlarning o'zi esa deyktik so'zlar deb nomlanadi. Bunday lug'aviy birliklar olmoshlar deb qaraladi.

Mustaqil ma'noli so'zlar orasida emotsional bo'yodkorlikni ifodalashga xizmat qiluvchi birliklar toifasi ajratiladi (*fikrimcha, ehtimol, demak, birinchidan, menimcha* va b.). Ular nutqda **modal vazifani** bajaradi. Biroq lisoniy sathda emotsionallik ko'pincha, grammatik shakl va ko'rsatkichlar ko'magida ham yuzaga chiqishi mumkin (*kela+qol, o'tirib tur+gin, qiz+cha, o'rtoq+jon* singari). Bu birlik va vositalarning jami modallikni yuzaga keltiradi, zotan, modallik so'zlovchining o'z nutqiga munosabatidir.

Nutqdagi emotiv vazifa esa undov so'zlar orqali namoyon bo'ladi. Garchi undov so'zlar his-tuyg'ularni nomlay olmasa ham, ularga ishora beradi, ular haqida belgi beradi (*uh, ohho, ehhe, voy, aha, hmm* kabi).

Har bir so'z muayyan grammatik sinfga mansub bo'ladi. Xususan, *pushaymon* – ot, *hujum* – ot, *binafsha* – ot, *otlan* – fe'l, *xasta* – sifat, *begona* – sifat so'z turkumiga mansub bo'lgani holda, shu turkumlarga oid barcha grammatik xususiyatlarni o'ziga qabul qiladi va ana shu grammatik ko'rsatkichlar bilan namoyon bo'ladi. Masalan, *otlan* so'zi fe'lga doir tuslanish, nisbat, mayl, zamon singari shakllarni qabul qila oladi, *begona* sifati esa asliy sifatning darajalarini qabul qilib, predmet belgisini ifoda etadi.

Mustaqil ma'noli so'z (xususan, yordamchi ma'noli so'zlar ham)ning har biri nutqda tegishli uslubga xoslangan bo'ladi. Masalan, terminning o'z sohaviy doirasi mavjud, arxaik va tarixiy so'zlarga esa asosan badiiy uslubda ehtiyoj kuzatiladi. Ammo bu har bir so'z uslubiy jihatdan qat'iy chegaralanadi, degani emas. Tegishli so'zning uslublararo qo'llanish darajasi (chastotasi)ni aniqlash orqali mazkur so'zning ifoda ko'lami aslida qaysi uslubga mansubligini belgilash mumkin bo'ladi.

So'zning leksik va grammatik ma'nosi

Har bir so'z o'z ichki ma'nosiga ega bo'lavermagani, tushuncha ifodalamagani singari, lisondagi barcha lug'aviy butunliklarning barchasi ham leksema hisoblanavermaydi. Ya'ni o'z ma'no ko'lamiga ega bo'lgan so'zlargina mustaqil ma'noli so'zlar bo'la oladi. Til sathidagi grammatik nuqtai nazardan ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh turkumiga mansub so'zlar ana shunday so'zlardir. Aksincha, modal so'zlar, yuklama, ko'makchi va bog'lovchilar real voqelik predmetlarini to'g'ridan to'g'ri ifoda etmaganligi bilan mustaqil ma'noli so'zlardan farq qiladi. To'g'ri, ular mazmunan munosabat, o'rin, payt, munosabat va b. ma'nosiga ega, ammo alohida olinganda o'z tushunchaviy maydoniga ega bo'lmaganidan, tegishli so'roqlarni (masalan, kim?, nima?, qaerda? kabi) qabul qilmaydi. Holbuki, mustaqil ma'noli so'zlar negizida tushuncha mavjud bo'ladi.

So'zning leksik-grammatik ma'nosi uning real voqelikka, fikriy jarayonga munosabatidan tashqari, umuman, tilning leksik sathiga nisbatan ham namoyon

bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *bor* (bor/mavjud), rus tilidagi *есть* (есть/иметь – bor, mavjud, ega bo'lmoq), tojik tilidagi *dorad* (bor/mavjud/ega bo'lmoq), ingliz tilidagi *have* (fe'lining 'bo'lmoq', 'bor bo'lmoq', 'ega bo'lmoq' shakli)larning ma'noviy qiyosi ham bunga dalil bo'ladi. Xususan, o'zbek tilidagi *Uning kitobi bor* jumlasini rus tiliga *У него есть книга*, ingliz tiliga *He has a book*, tojik tiliga *Vay kitob dorad* tarzida oson tarjima qilish mumkin. Biroq potensial mazmunli *bor* ma'nosini ifodalovchi *Uning sochlari qora* jumlasini *Uning qora sochlari bor* deb almashtirish nojoiz bo'lgani kabi, shu gapni rus tiliga *У него есть чёрные волосы* deb o'girib bo'lmaydi. Bunda *У него чёрные волосы* (*Uning sochlari qora*) ifodasi uslubiy jihatdan mos tushadi. Shuningdek, mazkur gapni tojik tiliga *dorad* yordamida tarjima qilib bo'lmaydi, aksincha, *Vay mo'yi siyoh ast* deyish, ingliz tilidagi tarjimasida esa *havening* tushangan shaklini qo'llash talab etiladi: *He has got dark hair*. Mazkur masalada tarjima nazariyasi bilan tubdan bog'liq jihatlar mavjud bo'lganidan, bu borada uzoq to'xtalmaymiz. Negaki, keltirilgan misollar milliy tillar lug'at tarkibidagi har bir lug'aviy birlikning ma'no nozikligiga ishoradir. Ko'rinadiki, dunyodagi mavjud tillarda muayyan ma'noni ifodalash uchun hamisha ham mutlaqo teng qiymatli birliklarni topish oson bo'lavermaydi. Qolaversa, har bir tilning milliy "oxorlangan" leksik va grammatik ma'noli unsurlari borki, milliy realiyalarni aks ettiruvchi bundayin birliklarning muqobil o'zga tillarda uchramaydi.

Milliy tillar kesimidagi bu singari ma'no nozikligi har bir so'zning semantik ko'lamini sinchiklab tekshirilganda ochiladi. Bu jihat so'zdagi leksik va grammatik ma'noni to'g'ri farqlash imkonini beradi. Masalan, xuddi shu, *bor* so'zini olaylik. Garchi o'zbek tilidagi o'quv-ilmiy adabiyotlarda mazkur so'zga nisbatan so'z, bog'lama, modal so'z, hisob so'zi (numerativ) singari ta'riflar berilgan bo'lsa-da, uning tugal grammatik ta'rifga ega emasligi uni o'z ma'no ko'lamiga ega bo'lgan birlik sifatida hisobga olmaslikka sabab bo'la olmaydi. *Bor* so'zini uning ingliz va rus tillaridagi muqobiliga ko'ra, fe'lining infinitiv shakli yoki oraliq so'z deb olish maqsadga muvofiq. Xususan, *Vatani borning baxti bor*, *mehnati borning taxti* misolidagi *vatani borning* birikmasi grammatik jihatdan fe'lining sifatdosh shakli tabiatiga ega, holbuki, sifatdoshda ham otlashish xususiyati mavjud. Shuningdek, sifatdoshning ham, *bor* bilan ifoda topgan otlashgan birikmada ham yarim predikat ma'no bor. Birgina farq – sifatdosh affiksali yo'l bilan hosil bo'lsa, *bor* bilan bog'liq jami nutqiy vaziyatlarda *bor* so'zi o'zgarimas holda keladi. Demak, bu o'rinda *borni* fe'lining vazifaviy shakli o'rnida qabul qilish to'g'ri bo'ladi. *Borni*, shuningdek, ot, son, sifat o'rnida kela oluvchi leksik-grammatik birlik deb hisoblash mumkin. Taqqoslaymiz. Ot: *Bor so'zlaydi*, *yo'q o'ylaydi*; *Bor borini yeydi*, *uyatsiz orini yeydi*; sifat: *Bor bo'lsang*, *oshma*, *yo'q bo'lsang*, *shoshma*; son: *Zil gilam*, *zil gilam*, *bor narsadan og'ir gilam*; fe'l (infinitiv): *O'zi bor*, *soyasi yo'q* va h. *Bor* so'zining leksik ahamiyatli birlik ekanini quyidagi: *Birlik bor* – *tiriklik bor* misoli ham tasdiqlaydi. Negaki bu jumlaning bimalol *Birlik bo'lsa*, *tiriklik bo'ladi* gapiga muqobil, o'z-o'zidan, *bor* so'zini esa *bo'lmoq* fe'lga o'rindosh sifatida qo'yish mumkin. Ko'rinadiki,

borning ma'no ko'lamini (umuman) mavjud, *ega* (bo'lmoq) hamda 'davlat', 'mulk' singari ko'chma ma'nolarni ifodalaydi.

So'zlardagi bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik Ko'p ma'nolilik (polisemiya)

Ko'p ma'nolilik (yun. *poly* + *sema*) hodisasi ma'noshunoslikning markaziy masalasi hisoblanadi. Ko'p ma'nolilik hodisasi qadimda Xitoy va Hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar tomonidan o'rganilgan, shuningdek, ajdodlarimizdan Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Alisher Navoiy ham bu masalaga murojaat etganlar.

Dunyo tillari orasida eng ko'p fransuz tili ko'p ma'nolilik hodisasi taraqqiy etgan til hisoblansa-da, hozirgi zamon o'zbek tili dalillari ona tilimizning bu boradagi imkoniyatlari fransuz tilidan qolishmasligini isbotlaydi. Masalan, o'zbek tilining izohli lug'atida birgina *bosh* leksemasining 20 ta izohi berilgan, vaholanki, rus tilining izohli lug'atida *golova* so'zining 7 ta ma'nosi ochib berilgan, xolos. Demak, o'zbek tili ham lug'at boyligi imkoniyatlari borasida dunyodagi yirik tillar bilan bemaol bellasha oladi.

Istalgan til lug'at tarkibidagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarga bo'linadi. Bir ma'noli so'zlar – faqat bir ma'noga ega so'zlar. Bular: terminlar, atqli otlar, iste'molga kirgan ayrim so'zlar toifasi (*pomidor, karam, spagetti, palov, archa, telefon, saqich, skripka* singari atamalar).

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosi kontekstda ochiladi, busiz uning asl ma'noviy qiymatiga baho berib bo'lmaydi. Biroq ko'p ma'noli so'zlarni o'zaro bitta tizimda ushlab turuvchi ularning bosh asosiy ma'nosi borki, bu ma'no dastavval, izohli lug'atlarda o'z ifodasini topadi.

Ko'p ma'noli so'zlarda to'g'ri va ko'chma ma'no farqlanadi. So'zning to'g'ri ma'nosi – so'zning asosiy leksik (atash) ma'nosi (*andoza* – ko'ylak andozasi). So'zning ko'chma ma'nosi esa so'zning ikkilamchi, hosila ma'nosi bo'lib, uning bosh ma'nosi negizida yuzaga keladi (*Ustozlarimizning fidoyi mehnati barchamizga andoza bo'lsin*).

Anglashiladiki, ko'p ma'nolilik yoxud polisemiya – ma'noviy va etimologik jihatdan o'zaro aloqador ikki va undan ortiq lug'aviy birlikning ikkitadan ortiq ma'noni ifodalashi.

Tilshunoslikda **leksik va grammatik polisemiya** ajratiladi. *Dimog'idan qurt yog'ilganidan, yaqinlasholmaysan ham; Do'stlaringni behuda xafa qilishdan ehtiyot bo'l, yo'qsa keyin ularga yaqinlasholmaysan.* Ko'rinadiki, birinchi va ikkinchi gapdagi *yaqinlasholmaysan* so'zida polisemantik tabiat namoyon bo'lmoqda. Ya'ni har ikki gapdagi kesim umumiy semantik belgini ifodalamoqda.

Ko'p ma'nolilik borasida quyidagilarni alohida qayd etish zarur:

- 1) leksik-grammatik polisemiya tilda tizim hosil qiluvchi omillardan biridir;
- 2) Leksik-grammatik polisemiya o'ziga xos semantik qoliqlar yig'indisi bo'lib, bu qoliqlar u yoki bu tilning o'ziga xos lingvomadaniy belgilarini ifoda etadi;
- 3) Leksik-grammatik polisemiya tilning lug'aviy tizimiga daxl qiluvchi hodisadir.

L.V. Malaxovskiyning fikricha, soʻzlar oʻzaro bitta belgi bilan bogʻlansa, ularni polisemantik soʻzlar, bitta belgiga koʻra farqlansa, omonim soʻzlar haqida gap yuritish kerak. Mazkur fikrga qoʻshimcha ravishda quyidagilarni taʼkidlab oʻtish zarur: shu birgina belgi asosidagi farq soʻzlarning konversiyasi, boshqacha aytganda, transpozitsiyasiga sabab tugʻdirsagina, bundayin soʻzlarni oʻzaro omonim deb hisoblash zarur.

Polisemantik soʻzlar oʻz-oʻzidan, yangi hosila nomlarni tugʻdiruvchi semantik mahsuldor soʻzlardir. Omonimlarda esa bunday jihat mavjud emas. Masalan, *bosh* leksemasining *bir bosh karam*, *bir bosh piyoz*, *bir bosh qoramol*, *oila boshi*, *davra boshi* birliklari bilan semantik aloqadorligini tekshirib koʻramiz. *Bosh* soʻzi jonli mavjudot tanasining asosiy qismi, 'tananing boʻyindan yuqori (old) qismida joylashgan aʼzoʻni anglatib, undagi denotativ koʻlamda 'bosh', 'asosiy', 'muhim', 'tayanch' maʼnolari ajratiladi.

S.I.Ojegov rus tilidagi *golova* ("bosh") leksemasi qurshovidagi nominativ tizim doirasida shu leksema anglatishi mumkin boʻlgan quyidagi maʼnolarni ajratadi: 1. 'Inson (yoki jonivor) tanasining yuz (jonivorlarda tumshuq) va chanoq suyagidan iborat, umurtqasizlarda esa ogʻiz boʻshligʻi va sezgi aʼzolari joylashgan, nisbatan ixtisoslashgan tana qismi'.

2. 'Bosh chanogʻi'.

3. 'Aql, ong'.

4. 'Muayyan gʻoya, qarashlar, qobiliyat, xislatlar egasi'.

5. 'Mansab egalariga nisbatan'.

6. 'Shar, konus shaklidagi ozuqa mahsuloti'.

7. 'Qoramol, hayvonlarning miqdor birligi'.

Mazkur *bosh* leksemasining asosiy maʼnosidan tashqari oʻzbek tilshunoslari yana quyidagi maʼnolarni ajratganlar:

2. Aql, hush, miya.

3. Boshliq, rahbar.

4. *sft*- lavozim, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi.

5. Ulkan, katta, asosiy.

6. *sft* - eng muhim, asosiy, yetakchi.

7. *sft* - eng oldingi, birinchi.

8. Odam, kishi.

9. Chorva hisobida har bir adad jonivor.

10. Tik narsalarning tepa qismi, uchi, choʻqqisi.

11. Biror marosim, tadbir, voqea-hodisaning roʻy berish, amalga oshish jarayonidagi dastlabki bosqich.

12. Yon, old, tomon.

13. Oʻrin, karavot va sh. kabilarning bosh qoʻyiladigan yuqori tomoni, shunday oʻrinda yotgan kishining beldan yuqori tomonidagi joy.

14. Baʼzi otlar birikib, shu ot orqali ifodalangan narsaning oʻzini yoki u oʻrnashgan joyini, yon-atrofini bildiradi.

15. Cho'ziq, davomli, bo'yli narsalar, joy, maydonlarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi; shunday narsalarning ikki uchidan, chekkasidan, tomonidan biri.

16. Voqea-hodisaning, biror muddat yoki faslning, asar, matn va sh.k.ning boshlanish joyi, payti, avvali, muqaddimasi.

17. Voqea-hodisa va sh.k.larning boshlanishi uchun bahona bo'lgan narsa, dastlabki sabab.

18. Ba'zi o'simliklarning kalla yoki sochoq shaklidagi hosili, mevasi.

19. Karra, hisob (sanoq sonlar bilan).

20. 3-sh. egalik va j.k., o'-p. k., ch.k. qo'shimchalari bilan ko'makchi vazifasida qo'llanadi.

Mazkur izohga tayangan holda, *bosh* leksemasi bilan keluvchi nominativlar tizimini tashkil etuvchi jami birliklarda lisoniy obyektga tegishli aqalli bitta bo'lsa-da o'xshash belgi – semantik unsur mavjud, deya ta'kidlash mumkin.

Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati"da *bosh* leksemasi bilan bog'liq izohlarda uning ot turkumi hamda sifatga mansub bo'lgan ma'nolari sharhlanib, shunga mos ravishda ot turkumidagi *bosh* leksemasining sifat turkumidagi *boshga* nisbatan omonim munosabatda ekani ko'rsatib berilgan. Binobarin, polisemem leksemaning sememalari bir turkumga mansub bo'lishi lozim: asos va hosila sememalar bitta turkumga mansub bo'lsa, bunday semantik taraqqiyot natijasida ko'pincha polisemiya vujudga keladi. Biroq ot turkumidagi *bosh* hamda sifat turkumiga mansub *bosh* bilan bog'liq misollarda, ya'ni boshqa-boshqa turkumga xos sememalarni anglatuvchi bunday leksemalarda, masalan, belgini anglatuvchi semema predmetni anglatuvchi semema asosida va aksincha, taraqqiyot natijasida yuzaga keladi. Biri ikkinchisidan o'sib chiqishiga ko'ra polisemiya o'xshaydi. Ammo kategorial (turkumlik) semasiga ko'ra farqlanib turishi bunday sememalarni bir leksemaga birlashtirish noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Ma'no taraqqiyoti har doim ham polisemiya olib kelavermaydi: o'rni bilan bitta leksema o'rnida boshqa bir leksema yuzaga chiqishi mumkin. Keyingi holatdagi ma'no taraqqiyoti oqibatida omonimiya yuzaga chiqadi.

Omonimlar

Barcha tillarda bo'lgani kabi, o'zbek tili lug'aviy sathini tarkib toptiruvchi jami birliklar o'zaro sinonim, omonim va antonim munosabatda bo'ladi. Ushbu leksik-semantik, shakliy munosabat tilimiz lug'at tarkibidagi so'zlarning o'zaro paradigmatic munosabatida mavjud bo'ladi. Xususan, omonimlar (yun. *homos* – bir xil, + *onyma* nom) shaklan bir xil, biroq turli ma'noli so'zlardir. Omonimiya, sinonimiya va antonimiyada bo'lgani singari, kamida ikki til birligi orasida yuzaga keladi. Agar sinonimiya va antonimiyada til birliklarining mazmun ko'lami asosga olinsa, omonimik birliklarda ifoda va mazmun ko'lami baravar inobatga olinadi.

Tilda omonimiyaning yuzaga chiqish sabablari turlicha:

1. Tarixiy taraqqiyot tufayli turli xil so'zlarning talaffuzi o'zaro mos kelib qolishi mumkin: *is* (bo'y, yoqimli hid), *is* (tutun), *jar* (sel asorati tufayli hosil

bo'lgan uzun chuqurlik), *jar* (biror xabarni baland ovozda eshittirish, bayon qilish).

2. So'z yasalishiga doir jarayonlarning o'zaro o'xshash kelib qolishi: *bo'lak+cha* (ot), *bo'lak+cha* (sifat); *dasta+la* ('bolta, ketmon, tesha kabilarga sop solmoq'), *dasta+la* ('dasta-dasta qilmoq').

3. O'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlarning o'zaro mos kelib qolishi: o'zb. – *bo'y* ('uzunlik o'lchami'), toj. – *bo'y* ('is, hid'); o'zb. – *sana* (son+a), arab. *sana* ('alohida ta'kidlanadigan sana'); toj. *avra* ('kiyimning materialning ust, yuza tomoni'), o'zb. *avra* ('bosh-ko'zini aylantirib, o'z fikrini qabul qildirmoq').

4. O'zaro talaffuzda mos kelib qolgan ikkita tildagi birliklarning uchinchi tilga birgalikda o'zlashtirilishi: *kran* (gol. *kraan*) – suyuqlikni quyishga mo'ljallangan trubka va *kran* (nem. *kran*) – og'ir predmetlarni ko'tarish va ko'chirishga mo'ljallangan uskuna; *bar* (ingl. *bar*) – restoranning alohida turi, *bar*, *bar* (yun. *baros*) – atmosfera bosimining maxsus o'lchov birligi; *bak* (fr. *bac*) – metallardan tayyorlangan yopiq idish va *bak* (gol. *bak*) – kema yuqori palubasining old qismi.

5. Bir so'z turkumining nutqda boshqa turkumga o'tishi: *bosh* (ot) – organizmning bo'yindan yuqori qismi, *bosh* (sifat) – eng oldingi, birinchi.

6. Polisemantik so'zlar zanjiridagi biror-bir so'zning shu zanjirdagi qolgan so'zlar bilan semantik aloqadorlikni yo'qotishi – zanjirdan uzilib qolishi.

Polisemantik va omonim so'zlarning o'zaro farqi ularning ma'lum bir matnda ifodalagan ma'nosiga ko'ra ochiladi. Jumladan, polisemantik so'zlar turli matnlarda turfa ma'no jildorligini namoyon qilsa, omonim so'zlar nutqda kalambur – so'z o'yinini hosil qila oladi. Xususan, o'zbek mumtoz adabiyoti tuyuq janrida omonimlarga murojaat yuksak darajada o'z ifodasini topgan:

Necha dedim ul sanamg'a: Bormog'in!

Qilmadi ul tark oxir bormog'in;

Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,

Aql hayrat qildi tishlab barmog'in. Alisher Navoiy

Ma'lumki, tuyuq omonim so'zlardan mahorat bilan foydalanish asosida bitiladi. Odatda, bir so'z tuyuqning 1-2 va 4-misralari oxirida takror keladi, lekin har misrada turlicha ma'no anglatadi. Tuyuqda mavjud ohangdoshlik ham shu so'zlarning takrorlanishidan kelib chiqadi. Jumladan, Yusuf Amiriy o'zining tuyug'ida "o't" so'zini quyidagi ma'nolarda qo'llagan:

Sham' yanglig' yonadur boshimda o't,

Ko'z yoshimdin yer yuzida undi o't,

Qon yoshim qildi yo'lungni lolazor,

Muncha taqsir ayladim, qonimdin o't.

Bu tuyuqda "o't" so'zi birinchi misrada olov, ikkinchi misrada o'simlik ma'nosini anglatadi. To'rtinchi misrada esa buyruq fe'li sifatida keladi, ya'ni "qonimdin o't" deyilganda "qonimdan kech" degan ma'no ifodalanadi.

Omonim	Polisemantik soʻz
Qiyoslanayotgan soʻzlarning maʼnolari oʻrtasida aloqadorlik mavjud emas; umumiy semantik asos mavjud emas; maʼnoviy uygʻunlik mavjud emas	Qiyoslanayotgan soʻzlarning maʼnolari oʻrtasida maʼlum aloqadorlik mavjud; maʼnoviy umumiylik mavjud
Omonimlarning har biri uchun sinonim sifatida tanlangan soʻzlar oʻrtasida maʼnoviy yaqinlik mavjud emas: <i>tok</i> – elektr quvvati <i>tok</i> – uzum	Polisemantik soʻzlarga sinonim sifatida tanlangan leksik-semantik variantlar oʻzaro maʼnoviy umumiylikka ega: <i>Koʻchaning boshi</i> – koʻchaning boshlanish joyi <i>Ishning boshi</i> – ishning boshlanishi bilan bogʻliq jarayon
Omonimiya turli turkum doirasida leksik maʼnolardan tarkib topishi, ularning oʻzaro bogʻliq boʻlmasligi, maʼnolarning alohida olingan mustaqil leksemalarga oidligi bilan boshqa hodisalardan farq qiladi	Polisemiya bir turkum doirasida leksik maʼnolardan tarkib topishi, ularning oʻzaro bogʻliq boʻlishi, maʼnolarning ayni soʻzning oʻziga oidligi bilan boshqa hodisalardan farq qiladi
Derivatsion munosabatlarning oʻzaro mos kelmasligi: omonimlardan turli yasash shakliga ega soʻzlar hosil boʻladi: <i>tuz</i> -mineral modda <i>tuz-tuzlama-tuzla-tuzlangan-tuzli</i> <i>tuz</i> – tuzmoq, bunyod qilmoq, yigʻmoq maʼnosida <i>tuzgan – tuzilma</i>	Derivatsion munosabatlarning oʻzaro mos kelishi. Bunda polisemantik zanjirga oid soʻzlarning yasash shakllarida oʻxshashlik kuzatiladi: <i>koʻz</i> – koʻruv aʼzosi <i>koʻz</i> – <i>chiroyli koʻzli sirgʻa, qizil koʻzli uzuk, yirik koʻzli elak</i> va h.
Soʻzlar etimologiyasi(kelib chiqishi)da biror-bir bogʻliqlik mavjud emas	Polisemantik zanjir aʼzolarida etimologik umumiylik mavjud
Lugʻatlarda alohida lugʻat maqola tarkibida sharhlanadi	Lugʻatlarda bitta lugʻat maqolasida sharhlanadi

7-jadval. Omonimiya va polisemiyaning oʻzaro farqlari

Ijtimoiy va sohaviy leksika

Tilning leksik sathini tashkil qiluvchi birliklar: 1) maʼno xususiyati (bir maʼnoli va koʻp maʼnoli), 2) etimologiyasi (oʻz va oʻzlashgan qatlam), 3) qoʻllanishi (chegaralanmagan va chegaralangan), 4) shakl va mazmun munosabati (sinonim, antonim, omonim)ga koʻra farqlanadi.

Oʻzbek tilining lugʻaviy sathi qoʻllanish doirasiga koʻra ikki qatlamga ajratiladi.

1. Qoʻllanish doirasi chegaralanmagan, umumisteʼmol soʻzlardan iborat ijtimoiy leksika.

2. Ma'lum doiradagina qo'llaniladigan, iste'mol doirasi chegaralangan sohaviy leksika.

O'zbek tili leksik sathining asosiy qismini qo'llanilishida tegishli hudud yoki ma'lum faoliyat sohalari bilan chegaralanmagan leksika tashkil qiladi. Jamiyat a'zolarining deyarli barchasiga tanish bo'lgan bunday so'zlar toifasi sohaviy leksikadan farqli, ijtimoiylashgan so'zlardir. Ijtimoiy leksika tarkibida yangi so'zlar qatorida eskirgan so'zlar, shuningdek, ijtimoiy dialektal birliklar, o'zlashgan so'zlar, sohaga oid ayrim termin va atamalar, jargonlar uchraydi.

Hamma qo'llaydigan umumiste'mol so'zlarni uslubiy betaraf so'zlar deb hisoblash noto'g'ri. Chunki ijtimoiy leksika tarkibida alohida nutqiy vaziyatdagina qo'llanishi mumkin bo'lgan so'zlar ham bor. Masalan, *falak*, *pinhon*, *chehra*, *jamol*, *gulgun* singari so'zlar badiiy uslubda ishlatilgani holda, *qizgina*, *jonon*, *jinnivoy*, kabi so'zlar ilmiy, rasmiy-idoraviy, ommabop uslubda mutlaqo qo'llanmaydi.

Ijtimoiy leksika tarkibidagi so'zlarning bosh ma'nosi ko'pincha aniq bo'ladi, agar boshqa tildan o'zlashgan so'zning ma'nosi noaniqroq bo'lsa, mazkur xalq o'z hayot tajribalari va tushunchalaridan kelib chiqib, u so'zlarga ma'no aniqligini kiritadi. Bunday hollarda:

a) ma'noni oydinlashtirish uchun boshqa tildan kirgan so'z bilan o'z so'zimiz birga qo'llanadi. Masalan, *chang-to'zon*, *harsang tosh*, *bulka non*, *bosh-oyoq sarupo*, *o'rta miyona*, *og'ir-vazmin*, *osmoni falak*, *norasida go'dak* kabi¹⁴.

Ijtimoiy chegaralanmagan leksika kishilik jamoasining keng ijtimoiy-maishiy hayoti, siyosiy-ijtimoiy tuzum shart-sharoiti, millat madaniyatidagi o'zgarishlar, xalqning ma'naviy rivojlanish darajasi, milliy-mental xususiyatlari, dunyoqarashini yaqqol aks ettirganidan, jamiyat taraqqiyoti bilan birga sekin-asta o'zgarib, rivojlanib boradi.

Ijtimoiy leksikaning boyish manbalari quyidagilardir:

1. So'z ma'nosining taraqqiyoti va hosila ma'no (ko'chma ma'no) evaziga. Masalan, *ko'z* so'zi ma'nosining taraqqiyoti tufayli *daraxtning ko'zi*, *uzukning ko'zi*, *elakning ko'zi*, *ignaning ko'zi* kabi ko'p ma'noli so'zlar yuzaga kelgan bo'lsa, *kosa* so'zi ma'nosining taraqqiyoti *bosh kosasi*, *ko'z kosasi*, *tizza kosasi*, *parda* so'zining negizi esa *qorin pardasi*, *homila pardasi*, *diafragma pardasi* singari xalqona tibbiy atamalarni hosil qilgan. So'z ma'nosining taraqqiyoti nafaqat ijtimoiy leksika, balki sohaviy leksikaning boyishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, *gul*, *sariq*, *chechak* so'zlari ma'nosining ko'chishi evaziga tibbiy atamalar, *sichqon*, *kuchuk* so'zlaridagi hosila ma'no esa axborot sohasiga tegishli *sichqon(cha)*, *kuchuk(cha)* atamalarining shakllanishiga sabab ko'rsatgan. Albatta, bu so'zlar, garchi sohaga oid bo'lsa-da, uning uslubiy faolligi so'zlashuv uslubida ham yaqqol kuzatiladi. Shunga muvofiq, bu singari atamalarni ijtimoiy shartlangan leksik birliklar deb hisoblash kerak.

2. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga. Chet tillardan o'zlashtirilgan so'zlar muqobiliga ega bo'lmasa, o'z holicha qo'llaniladi. Bunday bir ma'noli so'zlarga: *qalam*, *qal'a*, *samolyot*, *vertolyot*, *samokat*, *raketa*, *oftoba*, *professor*, *akademik*, *maket*, *jarima*, *nay*, *reklama*, *rekord*, *karavot*, *karam*, *pomidor*, *banan*,

¹⁴ Ўзбек тили лексикологияси. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Фан, 1981.

kaptar, karantin, karnay, ekspert, televizor, marketing, futbol, boks kabi atamalarni misol qilish mumkin.

O'zlashma so'zlarning ayrimlari nutqda o'z ma'nodoshlari bilan birga baravar qo'llanilishi mumkin. Jumladan, *xirurg (jarroh), plan (reja), ikra (uvildiriy), sharh (izoh), egoist (xudbin), kliyent (mijoz), makiyaj (pardo), pedagog (o'qituvchi), vrach (shifokor), kontrakt (shartnoma), ekskursiya (sayohat), kanikul (ta'til), karta (xarita)* kabi so'zlar publitsistik, badiiy, ilmiy, rasmiy uslub qatori so'zlashuv uslubining ham faol unsuri bo'la oladi.

O'z ma'nodoshi bilan birga qo'llanish o'zlashma so'zlarning juft so'zlar shaklida kelishida kuzatiladi: *tuz-namak, rizq-nasiba, nasl-nasab, izzat-ikrom, shart-sharoit, buxanka-non, osh-ovqat, osh-palov, faqir-fuqaro* kabi.

Qo'llanilish jihatdan chegaralangan leksika uch xil: 1) dialektal leksika, 2) maxsus (professional-terminologik) leksika va 3) jargonlar.

Jargonlarning bir qismi dialektal leksikaga mansub bo'lib, ijtimoiy xoslangan dialektal birliklar – sotsiolektlar hisoblanadi. Masalan, *tanka, shapka, quloq, soqqa* kabi so'zlar oila a'zolarining, talabalar, tadbirkorlar, turli soha vakillarining kundalik nutqida uchrashi mumkin. Bu vaziyatda jargon unsuri tor ijtimoiy guruhning "mahfiy tili" vazifasini o'tamay qo'yg'an bo'ladi.

Ma'lum kasb-hunar, soha vakillari nutqida maxsus qo'llanadigan so'zlar soha leksikasi deyiladi: *dizel yoqilg'i, intervyu, antrakt*.

Soha leksikasi aniq va bir ma'noli, uslubiy betaraf so'zlardan tashkil topib, soha terminlari dubletlar (ma'nodoshlar)dan xoli bo'lishi lozim. Ammo sohalararo qo'llanuvchi terminlar hamda o'zga tillardan so'z qabul qilish evaziga terminlarning dubletlardan xolilik sharti ko'p ham o'zini oqlamaydi.

Maxsus leksikaga birinchi navbatda terminlar kiradi. Terminlar — ilmiy texnika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, har bir fan va sohaning o'z terminologiyasi hamda leksikasi mavjud.

Terminlar umumiste'mol so'zlardan ma'lum sohadagina ishlatilishi va tegishli me'yorga solingani bilan farq qiladi. Biroq bitta so'z bir necha sohaning termini bo'lishi mumkin. Unda u har bir sohada alohida tushunchani ifodalaydi.

Sohaga doir leksik birliklar o'zaro sinonimik va omonimik munosabatda bo'lishi mumkin. Odatda, terminlararo ma'nodoshlik bir soha doirasida qo'llanadigan maxsus so'zlarda kuzatiladi. Ya'ni chet tildan so'z o'zlashtirilishi evaziga o'zbek tilida mavjud atamaning ma'nodoshi paydo bo'lishi mumkin va o'zaro ma'nodoshlik hosil qilgan terminlar nutqda baravar qo'llanilishi mumkin: *tilshunoslik – lingvistika, ma'nodoshlik – sinonimiya, pragmatik tilshunoslik – pragmalingvistika, shartnoma – kontrakt, menejer – ish boshqaruvchi, lingvokulturologiya – lingvomadaniyatshunoslik, appenditsit – ko'richak, praktika – amaliyot, pristup – yurak xuruji, saraton – rak, usul – metod, interaktiv – interfaol, tizim – sistema, absolyut – mutlaq, analiz – tahlil, dissertant – tadqiqotchi, prinsip – tamoyil, norma – me'yor* va b.

Kasb-hunar leksikasi bir qancha xususiyatlari bilan terminologik leksikadan ajralib turadi.

Terminlar mutaxassislar va davlat atama qo'mitalari tomonidan nazorat qilinsa, kasb-hunar leksikasi esa muayyan kasb-kor kishilari tomonidan asrlar davomida yaratiladi. Masalan, hozirgi artellarning kulolchilik sexlarida ishlovchi kulollar nutqidagi leksik boyliklarning katta bir qismi qadimdan davom etib kelayotgan, qo'llanilayotgan so'zlardir.

Kasb-hunar leksikasining dialektal variantlari ham mavjud. Kasb-hunar leksikasi ma'lum sohadagi kasb-hunarga oid so'zlar bo'lishi bilan terminlarga yaqin tursa, o'zida dialektal farqni aks ettirishi bilan ma'lum darajada dialektal leksikaga o'xshab ketadi.

Nazorat savollari

1. Tilning lug'at tarkibi to'g'risidagi bilimlaringizni bayon qiling.
2. Bir ma'noli so'zlar deb nimaga aytiladi?
3. Ko'p ma'noli so'zlar qanday so'zlar? Ularning omonim (shakldosh) so'zlardan qanday farqi bor? Ko'p ma'noli so'zlarga misol keltiring.
4. Terminlarning umumiste'mol so'zlaridan farqini ta'riflang.
5. Kasb-hunar leksikasi deganda nimani tushunasiz?
6. Ijtimoiy va sohaviy leksika o'rtasidagi farq, sizningcha, nimada?

Adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2006-2008. Б ҳарфи. – Б. 335.
2. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изохли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
5. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке. Автореферат канд. дисс. – Ташкент, 1966.
7. Малаховский Л.В. Теория лексической и грамматической омонимии (на примере англ. языка: Автореф. дис.... д-ра филол. наук. – Л., 1989. – С. 7–8.
8. Содиков Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида боғлама. – Тошкент: Фан, 1984.
9. Hamroyev M. va b. Ona tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
10. <http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/sheriyat/212-lirik-janr.html?showall=1>.

4-mavzu. TIL VA TERMINOLOGIYA

Reja:

1. Til va terminologiya.
2. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari.
3. Tilning lug'at tarkibi.
4. O'zbek leksikografiyasi.
5. Umumiy va maxsus lug'atlar.
6. Akademik, ommabop va o'quv lug'atlari.
7. Sohaviy lug'atlarda terminlar.

Tayanch tushunchalar: *tilning lug'at sathida terminlar qatlami, o'zbek terminologiyasi va lug'atshunosligining tadrijiy rivoji, lug'atlar tipologiyasi, soha terminologiyasi.*

Til va terminologiya

Termin – bu fan, texnika, san'at va hokazolarda tushunchaning rasmiy ravishda qabul qilingan va qonuniylashtirilgan nomi bo'lgan so'z (yoki so'zlarning birikmasi). Atamalar yuqori darajada ixtisoslashgan va nafaqat ushbu bilim sohasidagi mutaxassislar tomonidan anglanishi, balki keng omma tomonidan tushunilishi va ishlatilishi mumkin.

Har qanday termin dastlab ilmiy matnda yuzaga keladi, davr o'tib, ommalashgandan keyin nutqning: gazeta, jurnal, radio, televideniye va so'zlashuvning boshqa uslublariga o'tishi mumkin. Negaki maxsus ixtisoslashgan va umumqo'llaniluvchi atamalar orasidagi chegaralar o'zgaruvchandir.

Hozirda maxsus ixtisoslashgan terminlarning bir qismi umumiy qo'llaniluvchi atamalar tarkibiga o'tmoqda, bu ko'pincha terminlarni atamalardan farqlashda murakkablik keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonda aholining umumiy ma'lumot darajasining o'sishi muhim rol o'ynaydi, shuningdek, hozirgi paytda ma'lum bir fanning, iqtisodiyot tarmog'i ahamiyatining o'sishi ham ma'lum qism terminlarning ijtimoiylashib, atamaga aylanishini tezlashtiradi. Qolaversa, ommaviy axborot vositalari tomonidan mazkur iqtisodiyot tarmog'i yoxud fan yutuqlarini keng targ'ib qilishi ham bu jarayonga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Bu holda terminning maqomi ikki yoqlama xususiyat kasb etadi. Agar termin keng ijtimoiy-maishiy hayotda muqim o'rinishib, tilning umumiste'mol so'zlari toifasiga qo'shilsa, unda uni termin deb emas, atama deb hisoblagan ma'qul (*daftar, chizg'ich, kitob, qalam, sumka, stakan, qaymoq, achitqi, zamburug', antenna, sirkul, albom, piyola, samovar, ko'zoynak, grafin, traktor, kombayn, tufli, hamyon, modem* singari). Aksincha, termin qat'iy iste'mol chegarasini saqlasa, lug'aviy sathda termin maqomini yo'qotmaydi (jumladan, *irrigatsiya, melioratsiya, marketing, geshtalt, kognitsiya, fonologiya, gnoseologiya, sorbent, bazalt, fosfat, absissa, diskriminant, ego* singari terminlar). Tilda bunday terminlarning miqdori nihoyatda katta bo'lib, fan-texnikaning muttasil rivoji til lug'at sathining terminlar evaziga boyib borishini ta'minlaydi.

So'z atash vazifasidan tashqari ekspressivlik, emotsionallik, modallik vazifalarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, birgina yuz so'zining ma'nodoshlik

qatoridan joy olgan ko'plab so'zlar bir vaqtning o'zida odam tanasining bosh qismi old yuziga tegishli ham ijobiy, ham salbiy bo'yoqli ma'noni ifodalaydi. *Chehra, jamol, husn* singari so'zlar bilan *aft, turq, bashara* so'zlari o'zaro ma'noviy ziddiyatga kirishsa-da, tananing bosh qismini atovchi so'z bo'lib qolaveradi. Mazkur so'zlar yuz leksemasining semantik ko'lamdorligini ifodalab qolmay, bitta tushunchaning turli nutqiy vaziyatga mos ifodaviy, tasviriy qiymatini ham belgilab beradi.

Biroq termin haqida bunday deb bo'lmaydi. Terminida atash vazifasi eng asosiy vazifadir va u ekspressiv-emotsionallik ifodalash uchun ishlatilmaydi. Hatto oddiy so'z yoki birikma terminologik ma'no kasb etganda ham uning ekspressiv-emotsionalligi so'ndiriladi. Masalan, *bananxo'r, yalqovlar, asalxo'r, olaxurjunlar, xon qizi* kabi zoologiya terminlari, *sichqoncha, kuchukcha* kabi AKT terminlari, *bez* (tibbiyotda), *bo'tako'z, maymunjon* (botanika), *oshiq-moshiq* ("oshiq-ma'shuq"dan) atamaları ekspressiv-emotsionallikdan mahrumdir. Ularda "qotib qolgan" yashirin ekspressivlik mavjud.

Terminning ma'nosini tushunish va atamani umuman tushuniladigan so'zlar turkumiga o'tkazish uning tuzilishi bilan ham bog'liq: tashkil etgan elementlari ma'nosi ancha tushunarli bo'lgan terminlar odatda oson o'zlashtiriladi: *yelim beton, raketadrom* va boshqalar. Terminlarning oson o'zlashtirilishi ular ma'nosining qayta talqin qilinishi bilan ham bog'liq. Masalan, uy jihozlariga o'xshash mexanizmlarning ko'pgina qismlari, tashqi ko'rinishi, funktsiyalari va boshqalarning nomlarini takrorlovchi: *vilka, rozetka, keys* (ta'limda va texnik uskunalarni ishlab chiqarishda) va boshqalar shular jumlasidandir.

Termini ommalashtirishda badiiy adabiyotning ham o'rni katta (masalan, bunga Jyul Vernning asarlarini misol qilsa bo'ladi).

Yuqorida aytilgani kabi, ko'pgina terminlar so'zlarni qayta talqin qilish yoxud metaforizatsiya asosida hosil bo'ladi.

D.S.Lotte terminlarga quyidagi: tizimlilik, kontekstga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik, aniqlik, oddiylik, tushunarlilik, tatbiq etilganlik darajasi va b. talablarni yuklaydi.

Fanda terminologik ta'limotlar asosan V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, N.A. Baskakov, A.A. Reformatskiy, V.G. Gak, D.S. Lotte, B.N. Golovin, V.M. Leychik, V.P. Danilenko, O.V. Zagorovskaya, T.L. Kandelak, A.A. Superanskaya, S.V. Grinev, L.A. Kapanadze, A.S. Gerd, S.D. Shelov tomonidan ilgari surilgan. *Termin* (lot. *terminus* – chek-chegara; ingl. *term*, fr. *terme*, nem. *fachwort*, isp. *término*, *tecnicismo*) so'zining o'zi esa maxsus yoki texnik tilga xoslangan so'z va so'z birikmalari; fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi, atama, abbreviatura, ramz, harf-ramzlar birikmasi, so'z va raqamli ramzlar birikmasi ma'nosini bildiradi.

O'zbek tilshunosligida terminlar: A. Hojiyev, E. Begmatov, R. Doniyorov, G. Abdurahmonov, A. Madvaliyev, N. Mahmudov, H. Dadaboyev, H. Jamolxonov, N. Mahkamov, S. Akobirov, F. Abdullayev, O. Ramazonov, H. Shamsiddinov, A. Sobirov, A. Mamatov, B. Mengliyev, M. Abdiyev, I. Pardayeva, Z. Mirahmedova,

O.Tursunova, I.Yuldashev, G'.Ismoilov, O.Ahmedov, Sh.Ko'chimov, Sh.Abdullayeva, D.Qadirbekova singari tilshunos olim va tadqiqotchilar tomonidan tadqiq va tahlil etilgan.

Terminning: so'z (V.N. Shevchuk); bir ma'noli, aniq so'z (A.A. Reformatskiy); ilm va fanni ta'riflovchi (V.P. Danilenko); aniq va mavhum tushunchalarni ifodalovchi (V.M. Leychik) birlik ekani uning iste'moli chegaralangan lug'aviy unsur ekanini tasdiqlaydi.

Ilmiy bilimning rivojida mavjud bilimlarning moddiy in'ikosini ta'minlovchi belgilar tizimiga ehtiyoj tug'algach, bilimlar mazmunini ramzlar orqali yetkazib beruvchi til (kod) hamda matnlarning turli ko'rinishlarini shakllantirish sharti yuzaga kelgan. Shu zaylda lisonda yana bir sath – terminlar tizimi shakllangan.

Terminlar tizimi o'z tarkibiga birlashtirgan terminologik elementlar orqali ichki strukturaviy tasvirni rasmiy jihatdan tegishli semantik belgilar yordamida namoyon qiladi. Bunda: a) terminning muayyan terminologik guruhlarini shakllantiradigan mazmundorlik jihati (semantika)ni; b) terminologik tizim shakllanishida terminlarning o'zaro munosabatiga ta'sir etuvchi so'z yasash va derivatologik, strukturaviy jarayonni; v) terminologik tizimdagi polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiyaning shakllanishidagi leksik-semantik jarayonni inobatga olish muhimdir.

Har qanday termin nominativ vazifani bajaradi. Binobarin, terminda maxsus bilimlar bilan mustahkamlangan nom kategoriya, tushuncha, operatsiyalar (munosabatlar), belgi va xususiyatlarni ifoda etadi.

Termin muayyan fan, ilmiy sohaga taalluqli bilimlarni aks ettiruvchi birlik sifatida evristik vazifani bajaradi. Terminlar yangilikni kashf etadi.

Terminlarning tasnifi ularning semantik, paydo bo'lish davri, geografik tarqalganligiga nisbatan amalga oshiriladi. Bunda formal, semantik, etimologik, qo'llanish doirasiga ko'ra me'yoriylik, davriylik singari mezonlarga tayaniladi.

Xususan, XX asr ikkinchi yarmida mavjud o'zbek tilshunosligidagi qarashlarda quyidagilar ilgari suriladi: 1) termin bir ma'noli yoki monosemantik bo'lishi kerak; 2) termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi; 3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir; 4) termin stilistik jihatdan neytraldir; 5) terminologik leksika alohida sistemadir; 6) termin funksiyadir va b.

Yuqorida aytilganidek, terminlar to'g'risidagi ta'limotning rivojida o'z hissalarini qo'shgan olimlar qatorida A.A. Reformatskiyning ham ulkan xizmatlari e'tirof etiladi. Biroq olimning qarashlarida terminni atamadan farqlash kuzatilmaydi. Chunonchi, olim o'zi misol o'rnida keltirgan *miltiq mushkasi*, *utka* (tibbiy idish), *traktor gusenitsasi* va umuman, *bo'yin*, *og'iz* (*ko'zaning og'zi*, *inning og'zi* – misollar bizniki. M.Sh.), *dasta* (*eshik dastasi*, *belkurak dastasi*, *dastro'mol*), *oyoq* (*stol oyog'i*, *stul oyog'i*), *quloq* (*qozonning qulog'i*), *qopqoq* (*miya qopqog'i*, *choynak qopqog'i*, *ruchka qopqog'i*) so'zlari bilan yasalgan terminlarning umumiste'mol so'zlar yoki termin ekanligi borasida tahlillar bermaydi. Aksincha, ularning barchasini termin

o'rnida baholaydi. Shunga qaramay, olim mazkur so'zlarning aynan metaforik usulda yasalganini alohida qayd etadi.

Fanda terminlarga tegishli tasniflar orasida V.M.Leychik tomonidan keltirilgan tasnif eng maqbul va eng to'liq tasnif sifatida tan olingan:

1. Ifodalanayotgan tushunchaning tipiga ko'ra (terminlar tipologiyasi) – umumilmiy va umumtexnik terminlar, sohalararo terminlar, tor ixtisoslikka oid terminlar;

2. Bilim sohasiga ko'ra (nomlash obyekti bo'yicha tasnif) – ilmiy terminlar, texnik terminlar, ma'muriy-siyosiy terminlar, ijtimoiy-madaniy terminlar;

3. Mantiqiy kategoriyalarga ko'ra (mantiqiy tasnif) – obyektlar terminlari, jarayonlar terminlari, belgilar terminlari, kattaliklar terminlari;

4. Abstraksiya (mavhumlashtirish) darajasiga ko'ra (falsafiy tasnif) – nazariy terminlar, kuzatuvga oid terminlar;

5. Mualliflikka ko'ra – jamoaviy terminlar, individual terminlar;

6. Qo'llanish sohasiga ko'ra – universal terminlar, unikal (noyob) terminlar, konseptual-mualliflik terminlari.

7. Keyingi ikkita: 5- va 6-raqam ostidagi ta'riflar, V.M.Leychikning fikricha, sotsiologik tasnif uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

8. Vazifasiga ko'ra (ilmshunoslik tasnifi) – bilimlarni qayd qilish terminlari, terminlar – bilish vositalari (jumladan, o'qitishga oid terminlar);

9. Shakliga ko'ra – termin-so'zlar, termin-so'z birikmalari, termin-abbreviaturalar, terminlar-simvol-so'zlar va sh.k.:

10. Mazmuniga ko'ra – bir ma'noli terminlar, ko'p ma'noli terminlar, terminlar-erkin so'z birikmalari, terminlar-turg'un so'z birikmalari (jumladan, frazeologizmlar);

11. Motivatsiyalanganligiga ko'ra – to'liq motivatsiyalangan terminlar, qisman motivatsiyalangan terminlar, motivatsiyalanmagan terminlar, soxta motivatsiyalangan terminlar;

12. O'z va o'zlashgan qatlamga tegishlilikiga ko'ra – "o'z tili" (V.M.Leychik tomonidan kiritilgan termin), ya'ni ona tili asosida yaratilgan terminlar, o'zlashma terminlar, baynalmilal terminlar, gibrid terminlar;

13. So'z turkumiga mansubligiga ko'ra – termin-otlar (va substantivatsiyalangan so'z birikmalari), termin-fe'llar, termin-sifatlar, termin-ravishlar;

14. Matnda uchrash chastotasiga ko'ra (statistik tasnif) – yuqori chastotali terminlar, o'rta chastotali terminlar, past chastotali terminlar;

15. Normativligiga ko'ra (normativ tasnif) – standartlashtirilgan terminlar, tavsiya qilingan terminlar, yo'l qo'yib bo'lmaydigan terminlar, tavsiya qilinmagan terminlar, parallel yo'l qo'yiladigan terminlar;

16. Zamonaviylikka munosabatiga ko'ra (tarixiy tasnif) – termin-neologizmlar (termin-yangi so'zlar), termin-istorizmlar (termin tarixiy so'zlar), termin-arxaizmlar (termin-eskiringan so'zlar).

Aytilganlarga ko'ra terminlar quyidagicha tasniflanadi.

1. Shakliy mezonga ko'ra, terminlar:

- 1) soʻz, birikmali,
- 2) abbreviatura,
- 3) belgi-terminlarga boʻlinadi. Shunga mos ravishda terminlar: tub, affiksial, murakkab turlarga boʻlinadi. Tub terminlar leksik qatlamning biror sathidan yoki oʻzga tillardan shaklan oʻzgartirilmay qabul qilingan soʻzlar asosida vujudga kelsa, yasama terminlar, yaʼni morfologik yoʻl bilan yasalgan terminlar esa soʻzning maʼlum qismini ixchamlashtirish (tushirib qoldirish) oqibatida yuzaga keladi. Morfologik-sintaktik yasallishga koʻra terminlar:

- 1) kompozit (oʻzaklarning qoʻshilishi evaziga),
- 2) elliptik (asos birikmadagi ikki soʻzdan birining tushirilishi),
- 3) abbreviatura singari turlarga boʻlinadi.

Birikmali terminlarga misol qilib: boʻlinuvchan a) erkin birikmalar va b) komponentlari alohida ajratilganda terminlik xususiyatini yoʻqotuvchi terminlar (semantik oʻzaro tobe birikmalar)ni qayd etish mumkin. Shu kabi, soʻz-ramzlar hamda boʻlinmas termin hisoblangan termin-frazeologizmlarni tilga olish mumkin.

2. Semantik mezonga koʻra terminlar:

- 1) bir maʼnoli terminlar,
- 2) koʻp maʼnoli terminlar,
- 3) erkin soʻz birikmasi orqali ifodalanuvchi terminlar,
- 4) turgʻun birikmali terminlarga boʻlinadi.

Shuningdek,

- 1) aniq va bir maʼnoli terminlar;
- 2) termin-sinonimlar;
- 3) koʻp maʼnoli terminlar yoki polisemantik terminlar;
- 4) differensiyalanmagan terminlar;
- 5) tasviriy terminlar ajratiladi.

V.M. Leychik, S.V. Grinev nazariyasiga muvofiq, motivlanganligiga nisbatan terminlar:

- 1) motivlangan terminlar;
- 2) toʻliq motivlangan terminlar;
- 3) qisman motivlangan terminlar;
- 4) motivlanmagan terminlar;
- 5) soxta motivlangan terminlarga boʻlinadi.

3. Etimologik mezonga nisbatan terminlar:

- 1) oʻz qatlam terminlari;
- 2) oʻzlashgan qatlamga tegishli terminlar;
- 3) internatsional terminlar;
- 4) gibrid-terminlarga ajratiladi.

A.A. Reformatskiy esa, terminlarni oʻzlashgan va oʻz qatlamga oid terminlarga boʻladi.

4. Qoʻllanishiga koʻra terminlar:

1. Umumilmiy, umumtexnik terminlar;
2. Sohalalararo terminlar;
3. Sohaviy terminlar;

4. Tor soha terminlari;

5. Tor doiraga ixtisoslangan terminlarga bo'linadi.

5. Me'yoriylik mezon. Til qonuniyatlariga amal qilishiga ko'ra terminlar:

1. Standart;

2. Tavsiyaga ko'ra;

3. Nojoiz;

4. Qo'llab bo'lmaydigan;

5. Parallel qo'llanuvchi turlarga bo'linadi.

6. Xronologik mezon bo'yicha a) eskirgan terminlar, b) termin-neologizmlar farqlanadi. Terminlar o'zlashtiriladi yoki mavjud tilning ichki manbalari evaziga shakllantiriladi. Terminlarga berilgan ta'riflarni umumiy holda ikki toifaga: XX asr ikkinchi yarmidan XX asr 90-yillari oralig'idagi ilmiy qarashlar hamda XX asr 90-yillardan bugungi kungacha bo'lgan oraliqdagi ilmiy yondashuvlarga ajratish mumkin bo'ladi. Dastlabki holatda o'zbek terminologiyasini o'zlashgan qatlam (to'g'rirog'i, "baynalminal" tamg'asi ostida asosan rus tiliga urg'u berish, uning mavqeyini ko'tarish) evaziga shakllantirish masalasi dolzarb hisoblangan bo'lsa, mustaqillik yillari va hozirga qadar o'zbek atamashunosligida mavjud o'zlashgan qatlam unsurlarini ona tilimizning imkoniyatlaridan kelib chiqib, muqobili bilan almashtirish mavzusi o'tkir muammolardan sanaladi.

Keng ma'noli terminlar terminologik tizimda faqat birgina ma'noni anglatib, o'zlarida ekspressiv-emotsional konnotatsiyani ifodalamaydi. M.V.Antonova, V.M.Leychikning fikriga, bunday terminlar "fikrning chuqur mohiyati"ni o'z tarkibiga qamrab olgan bo'ladi. Bunday terminlar tarkibida ko'p ma'noqlik yashirin shaklda namoyon bo'lishini kuzatish mumkin.

Terminlar berilishida omonimlik maqbul, me'yoriy holat hisoblanmasa-da, terminlararo omonimiyaga yo'l qo'yiladi. O.S. Axmedovga ko'ra bu hol tarjimada omonimik terminning semantik ma'nosi noaniq bo'lishiga olib keladi. Chunki faollik darajasi turli xil omonimlar muloqot jarayonida ko'proq uchraydi. Biroq bizningcha, bunday omonimlar nafaqat kundalik muloqot, balki ilmiy diskursda ham nihoyat darajada ko'p uchraydi. Mas., *oliy maktab ta'lim funksiyasi*, *publitsistika tili funksiyasi*, *ish yuritish tili funksiyasi*; *assimilyasiya* (madaniy A; lisoniy A; etnik A); *ichki faktor*, *tashqi faktor*; *korreksiya* (tahrir, logopediya, defektologiya va b. s.), *grafika* (nutq, tasviriy san'at, AT); *marker*; *tahlil (analiz)*; *kalka*; *idiom*, *rol*, *o'rin*, *geshtalt* (psixologiyada; lingvistikada; iqtisodda: brendga nisbatan asosiy belgilar yig'indisi); *depressiya* (lot. *deprimo* – "pastga tushirish, ezish") – psihologiyada: o'z-o'zini anglashning pasayishi, ruhiy tushkunlik; iqtisodda: xo'jalikning turg'unlik holati, narxlar darajasi past bo'lishi, tovarlarga talab kuchsizligi, ommaviy ishsizlik va h.); *donor*; *bo'g'in* (segment); *penalti* (shartnoma buzilgan holatlardagi to'lovlar, futbolda jarima zarbasii) terminlari tom ma'nodagi omonimlik xususiyatni ifoda etadi.

Terminlardagi omonimiyaning bir ko'rinishi termin bilan oddiy so'z o'rtasidagi polisemantik munosabat orqali sodir bo'ladi. Masalan, matematikada qo'llanuvchi *ildiz* so'zi termin, garchi u umumiste'moldagi *ildiz* so'zi bilan ma'noviy aloqadorlik hosil qilsa-da, biologik jarayondan butkul boshqa hodisani – matematik amalga doir tushunchani ifodalaydi. Binobarin, umumadabiy tilga xos bo'lgan so'zlar

terminologik ma'noga ega bo'lganda ular o'rtasidagi "polisemiya bir-biridan shuncha uzoqlashib ketadiki, natijada omonimiya yuzaga keladi".

Terminlar omonimiyasining ikkinchi ko'rinishi terminologik sistemalar orasidagi omonimiyadir. Bunda turli fanlarga oid bo'lgan terminlar o'zaro omonim bo'ladi. Jumladan, *morfologiya*, *o'zak*, *assimilyatsiya* terminlari tilshunoslik va biologiya, botanika uchun birdek tegishli, *yadro* – fizika, biologiyada, *to'qima* – tibbiyot va biologiya, farmatsevtikada, *valentlik* – kimyo va tilshunoslikda, *sistema* (*tizim*), *metod*, *metodologiya*, *obyekt*, *predmet*, *nazariya*, *model*, *konstruksiya* – barcha fanlarda, *stereotip* – tilshunoslik va sotsiologiyada, *freym*, *slot*, *ssenariy* – kognitiv fanlarning barchasida, AKT sohalarida va b.

Terminlar omonimiyasining uchinchi bir ko'rinishi terminologik sistemalararo va oddiy so'z o'rtasida sodir bo'ladi. Masalan, *yuza*, *tekislik*: 1) oddiy leksik birlik; 2) geometriya termini; 3) geografiya termini; *to'qima*: 1) oddiy leksik birlik, 2) adabiyotshunoslik termini, 3) botanika termini; *tugun*: 1) oddiy so'z, 2) matematikada, 3) adabiyotshunoslikda termin sifatida ishlatiladi; *kesim*: 1) oddiy so'z, 2) tilshunoslik, 3) matematika terminlaridir; *tuproq*: 1) oddiy so'z, 2) geografiya, 3) kimyo, 4) botanika termini; *tengsizlik*: 1) oddiy so'z, 2) matematika, 3) falsafa termini va boshqalar.

Terminlar omonimiyasi bir fan doirasida sodir bo'lmaydi.

Terminlar polisemiyasi. Endi terminlararo omonimlik holatidan o'zga vaziyatni ko'rib chiqsak. L1– L2 (til 1– til 2) dioxotimiyasini olaylik. Aslida *til* leksemasi omonimik xususiyatli termindir. Ammo L1 konseptual sharhda: "til 1" – "ilk o'rganilgan til" (*origin*), "qo'llanish darajasi yuqori bo'lgan til" (*function*), "hammadan ko'proq mashhur bo'lgan til" (*competence*), "etnik, milliy, ijtimoiy va hokazo mansublikka ega til" (*identity*) ma'nolarini anglatadi. Bu holatda sotsiolingvistika fanida terminlarni to'g'ri talqin qilishga yo'nalish beruvchi so'z ma'noviy ko'lamining sintaktik qurilmada berilishi omiliga tayaniladi. Binobarin, *jahon tillari*, *hududiy tillar*, *tub milliy til*, *kichik etnik guruh tili* singarilar omonim emas, polisemantik terminlar hisoblanadi.

Terminologiyadagi polisemiya metonimiya va sinekdoxaga asoslanadi. Bunda bir predmet-hodisani anglatuvchi termin shunga bog'liq bo'lgan boshqa narsa va hodisaga ko'chiriladi. Masalan, *frazologiya* termini bir o'rinda iboralar yig'indisi, majmuasi ma'nosida, ikkinchi bir o'rinda ularni o'rganuvchi tilshunoslikning bir sohasi, fan o'rnida ishlatilishi mumkin.

Bu hodisa boshqa fanlar terminologiyasida ham bor. Masalan: qopqog: *buyrak qopqog'i*, *chap bo'lmacha-qorincha qopqog'i*, *tizza qopqog'i*; qanot: *burun qanoti*, *yonbosh suyak qanoti*, *kulrang qanot* (*adashgan nerv uchburchagi*), *xo'roz toji qanoti*; parda: *yiring parda*, *shox parda*, *nog'ora parda* kabi tibbiy terminlar misol bo'ladi.

O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari

O'zbek terminologiyasining shakllanish tarixi M.Koshg'ariy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al Farg'oniy, Chag'miniy, Az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy singari qomusiy olimlarning turli fanlarga oid asarlarining yaratilishi bilan bog'liq. Ushbu noyob ilmiy ahamiyatli tarixiy manbalarda qo'llangan atamalar bugungi kunda

tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa, tarix, pedagogika, psixologiya, biologiya, tibbiyot, geografiya, astronomiya, fizika, matematika, huquqshunoslik, kimyo, geologiya, minerologiya, falsafa, iqtisod kabi yuzlab zamonaviy fanlar sohasida keng qo'llanilmoqda.

Ilm-fan, texnik taraqqiyotga o'z izlanishlari, tadqiqotlari bilan hissa qo'shuvchi har bir ilm va ixtiro egasining tegishli soha terminologiyasi rivojida tegishlicha ulushi bo'ladi.

Jumladan, Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al Farg'oni (bir ming yuz yil muqaddam Nil daryosi chuqurligini o'lchovchi murakkab gidrotexnik qurilma yasab, Yevropada *Afraganis* deya tanilgan mashhur matematik va astronom), Abu Rayhon Beruniy (astronomik asboblarga o'g'risida 9 ta asar yozgan mashhur alloma meridianlar yo'nalishini aniqlovchi "hind doirasi" deb ataluvchi, boshqacha aytganda, uzoq yillar kompas vazifasini o'tab kelgan asboblarni kashf etgan. Shuningdek, bir nechta yangi turdagi astrolyabiyar konstruksiyasini, kuzatishlar uchun mo'ljallangan 7,5 metrli devoriy kvadratni, hajm o'lchagich asboblarni, avtomat suvdonni, avtomat lampani ixtiro qilgan) singari ajdodlarimiz texnikaga oid terminologiyaning rivojiga munosib hissa qo'shganlar¹⁵.

O'zbek tilining terminologik tizimlari P.Shamsiev, S.Ibrohimov, S.Mutallibov, E.Fozilov, A.Hojiev, T.Aliqulov, O.Usmon, R.Doniyorov, R.Qo'ng'urov, Sh.Rahmatullaev, E.Umarov, B.Yusuf, H.Dadaboev, A.Madvaliev, T.Urunov, A.Qosimov, K.Xurramov, K.Sapayev, I.Yuldashev, N.Usmonov, Z.Mirahmedova, N.Mamatov, M.Saidova, G.G'ulomova, O.Ahmedov kabi qator tilshunos olimlarning ishlarida tadqiq qilingan.

O'zbek tili terminologik leksikasi rivoji va taraqqiyoti qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqloq davri o'zbek tili terminologiyasi misolida namoyon bo'ladi.

Qadimgi turkiy til terminologiyasi asosan sof turkiycha tub hamda yasamalardan hamda buddaviylik va moniylik ta'sirida so'g'd, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan o'zlashmalardan tashkil topgan edi. Jumladan, barg'u (*o'lja*), taj, tayilay (*toychoq*), buyra (*tuya yetishtiruvchi*), atan (*tuya*), qarg'u (*soqchi, dozor*), tamg'a (*mug'r*), ko'rug (*ayg'oqchi*), elchi (*elchi; hukmdor, yurtboshi*), joydu (*uzun yol*), yo'lchi (*sardor*), chig'ay (*yo'qsil, kambag'al*), qishlag'(q) (*qo'shinning qishki qarorgohi*), ayg'uchi (*davlat maslahatchisi*), atly (*otlyq*), yada (*piyoda askar*), tutmah (*dushmanlarning kuchini bilishga ajratilganlar*), ierchi (*qo'shinga yo'l ko'rsatib boruvchi*) singari asl turkcha, amrta (*ambroziya*), amra (*mango-meva*) cherig/cherik (*qo'shin, armiya*), sart (*tojir, savdogar*) kabi sanskritcha, xatun/qatun (*malika*), kent (*qishloq; shahar*) singari so'g'dcha, qag'an (*hukmdor*), xan (*hokim*), tegin (*xonzoda, shahzoda*), yabg'u (*xoqondan keyingi oliy lavozim egasi*), sengun (*xitoy generali*), su (*armiya*), yezak su yoki iigky sy (*ilg'or otryadda boruvchilar*), tarqan (*tarxon*), tutug' (*tuman hokimi*) kabi xitoycha, shad (*Turk xoqonligida oliy lavozim*), shadapit singari eroncha terminlar faol qo'llanishda bo'lgan.

¹⁵ Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1973.

Shevashunos olimi X.Fayzieva Surxondaryo qipchoq shevasida qadimiy turkiy tilining qipchoq lahjasi va qadimgi uyg'ur tiliga mansub alqin (*tugash, yo'qolish*), böz (*bo'z* – rang), qut (*baxt, baraka*), tabyishg'an (*quyon*), yuyqa (*yuqa*), əgəch (*egachi, opa*), ayaq // azaq (*oyoq*), chychlaq (*jimjiloq*), otrik (*yolg'on*), og'laq (*uloq, echki bolasi*), alqyind', men, iyrim, mertilmaq, bəkəvyl, djukl'//yykli, djezza//jezdə//yəzna//djezna, kəməch, iyıyq (*kasallik*), ini, gələ (*pada*), əpəl'-ykalı (*opa va uka*), or (*tepalik, balandlik*), ychə, chəch atamaları uchrashini qayd etadi.

Ilmiy manbalarda sanskrit, eron, xitoy tillariga oid bitiklarning turkiy tilga qilingan tarjimalariga mansub ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, flora va fauna, astoronimiya va h.k. sohalarga xos terminlar keyinchalik deyarli qo'llanmagani, chunki turkiy tillar, chunonchi, o'zbek tili ularni qabul qilmagani haqida ma'lumotlar beriladi.

Tadqiqotchilar R.Nabiyev, Z.Nabiyevlar, A.V.Shabashovlar mashhur turkiyshunos olimlar V.D.Arakin, N.A.Baskakov, N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov, P.M.Melioranskiy kabilarning ta'limotlariga tayanib, rus tiliga o'zlashgan qadimgi turkiy tilga xos ayrim turdagi terminlarni quyidagicha tasniflaydilar. Jumladan:

1) qarindoshlik terminlarini anglatuvchi shaxs otlari; 2) turkcha ko'p komponentli shaxs otlarining tarkibiy qismlari; 3) mazmunidan qarindoshlik ma'nosi anglashilgan maqom, daraja nomlari; 4) qarindoshlik terminlariga aloqador ijtimoiy tushunchalar; 5) etnonimlar doirasidagi qarindoshlik terminlari; 6) o'zlashmalar.

Shuningdek, qadimgi turkiy tildan rus tiliga ko'chgan ayrim yuridik terminlar esa: 1) huquqiy institutlar va ijro etuvchi xizmatlar; 2) prosessual dalil vositalari; 3) huquqiy munosabat subyektlari; 4) holatga doir huquqiy dalillar; 5) me'yoriy-huquqiy aktlar toifasini tashkil qilgan ekan.

Yana bir yirik olim, hozirgi zamon turkiyshunosi O.Mudrak turkiy tillar, xususan, Chig'atoy ulusining merosxo'ri, "chig'atoy tili" sanalgan o'zbek tilini Markaziy Osiyo hamda Volgabo'yi hududlarida amal qilgan turkiy tillarning bosh shahobchasi deb bilib, rus tiliga turkiy tillarning ta'sirida dastlab Amir Temurning o'rnini alohida qayd etadi. Olim Mahmud Qoshg'ariyning "Lug'at"ini turkiy tillarda yaratilgan lug'atlar orasida eng mukammali va benaziri deb topadi.

Sakkizinchi asrdan boshlab arab tili va alifbosi, islom mafkurasining Turonzaminda qaror topishi, bir qator mahalliy sulolar (qorxoniyalar, g'aznaviyalar, saljuqiylar)ning hukmronligi davrida eski turkiy til (XI-XIV)ning terminologik leksikasi ko'lam jihatidan bir qadar kengaydi. Eski turkiy til terminologiyasi mavjud lisoniy qonun-qoidalar doirasida shakllandi va rivojlandi.

Qadimgi turkiy tildan farqli o'laroq, eski turkiy tilda sanskrit, so'g'd, xitoy tiliga oid o'zlashmalarning ishlatilish sur'ati pasayib, aksincha, arabcha va forschatojikcha o'zlashmalarning miqdori oshdi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining o'zagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom edi. *Alim* (qarz, kredit), *berim* (to'lov, qarzni qaytarish), *beglig* (beklik), *bitigchi* (mirza, munshiy, kotib), *yatg'aq* (tung soqchi), yarisha (ko'rshapalak), yarg'u (ajrim), yarg'uchi (qozi, sudya), *qaryn*, (*qaryndaş* kabi turkiycha, *rabat* (karvonsaroy), *malik* (hukmdor), *siyasat* (siyosat), *omil* (ish yurituvchi), *tib* (meditsina, tibbiyot), *nujum* (astrologiya), *handasa* (geometriya) singari arabcha, *lashkar* (qo'shin), *mayfurush* (may ichuvchi; may

sotuvchi) singari forscha-tojikcha, *darug'a* (qal'a, qo'rg'on komedanti), *murān* (daryo), *nukar/navkar* (navkar, askar) kabi mo'g'ulcha terminlar bu davr terminologik tizimida nisbatan keng o'rin egallagan.

Eski o'zbek adabiy tili davrida terminologik birliklar Alisher Navoiy, Lutfiy, O'to'y, Sakkokiy, Yaqiniy, Bobur, Ogahiy, Munis kabi mutafakkirlar yaratgan asarlar misolida lisoniy tartiblandi. Shunga qaramay, arab, fors-tojik, mo'g'ul tillaridan o'zlashgan terminlar miqdori shiddat bilan oshib bordi. Chet tillardan kirib kelgan so'z yasovchi qo'shimchalar ham terminlar yasashda muhim o'rin egalladi. Harbiy qurol-yarog', texnika bilan bog'liq *to'p* (zambarak), *qazan* (og'ir to'p), *tufang* (miltiq) kabi asl o'zbekcha terminlar bilan yonma-yon arabcha *ra'd* (yonib turgan neftni dushman tomon irg'ituvchi to'p), *arroda* (palahmon), *manjaniq* (katapult), forscha-tojikcha *zarbzān* (zambarak turi), *farangiy* (Yevropa, Kichik Osiyoda quyilgan to'p), *zanburak* (zambarak) kabi terminlar sohaga muvofiq faol qo'llandi.

Tilning lug'at sathini o'rganish muammolari o'tmish davrlardayoq dolzarblik kasb etib, jumladan, atqli lug'atnavis Mahmud Koshg'ariyning 1074-1075 yillarda tuzilgan "Turkiy so'zlar devoni" - "Devonu lug'otit turk" arab millati vakillari uchun turkiy xalqlar til xususiyatlari, chunonchi, alifbosi, tovush qurilishi, lug'at boyligi, so'z turkumlari va gap qurilishi haqida ma'lumot bergani bilan qimmatlidir. Asar 1800 atrofidagi ilmiy izlanishlarda e'tirof etilgan. Arab lug'atchiligi an'analari va qoidalari asosida tuzilgan bu lug'atda taxminan sakkiz minga yaqin so'zlar, birikmalar, iboralar, maqol va matallar, xalq og'zagi ijodi namunalari jamlangan. Asarda qoraxoniylar davri eski turkiy tilining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilib berilganligi esa uning yana bir ilmiy ahamiyatini ko'rsatadi. Lug'atda, shuningdek, atqli otlar, joy nomlari, geografik obyektlar nomi, gidronimlar, hayvonot (fauna) va o'simlik dunyosi (flora) nomlari izohlangan.

Hozirgi kunda jahon tilshunosligida qadimiy turk tiliga doir lug'atlarni chop etish ishlari jadal kechmoqda. Jumladan, 1969 yilda nashr qilingan "Древнетюркский словарь" (*Qadimgi turkiy lug'at*) 2016 yilda qayta to'ldirilgan holda nashr etildi. Tilshunos olim *Anna В.Дыбо* mazkur lug'at va u bilan bir davrda nashr qilingan shu turdagi lug'atlarning o'zaro farqli jihatlarni quyidagi jadvalda beradi (1-jadval):

1-jadval

	Caf. EUS	Qadimgi turkiy tillar lug'ati	EDT	EDT Röhrborn	Nadjip
So'zlikning qaysi yozma yodgorlikka tegishli ekanligi	Faqat qadimgi uyg'ur	Runik, qadimgi uyg'ur yozma manbalaridan Altun Yaruq, qoraxoniylar davriga aloqador, O'g'uznoma"	Runik, qadimgi uyg'ur (Altun Yaruq, juda kam), qoraxoniylar davriga aloqador	Faqat qadimgi uyg'ur	Faqat "Xusrav va Shirin" asari
Yozma yodgorlik leksikasining qamrovi	Tuzilish davriga nisbatan to'liq, shaxs otlari,	Tuzilish davriga nisbatan to'liq, shaxs otlari, o'zlashmalar	Tuzilish davriga nisbatan to'liq (avvalgi tuzatishlarni hisobga olgan	Tuzilish davriga nisbatan to'liq (barcha yozma yodgorliklar	Tegishli manbaga nisbatan to'liq (arabcha, forscha so'zlar

	o'zlashmalar		holda), shaxs otlari, o'zlashmalar kiritilmagan	leksikasi qamralgan), shaxs otlari, o'zlashmalar	izohsiz, ro'yxat shaklida berilgan), shaxs otlari, o'zlashmalar kiritilmagan
Tegishli so'zning yana qaysi yozma yodgorliklarda uchrashi haqidagi ma'lumotlar	Ma'lum emas	Tegishli so'zning yana qaysi manbalarda uchrashi to'liq qayd etilmagan, ya'ni qaysi manbalarda uchrashmasligi haqida ma'lumotlar mavjud emas	Tegishli so'zning yana qaysi manbalarda uchrashi to'liq qayd etilgan	Tegishli so'zning yana qaysi manbalarda uchrashi to'liq qayd etilgan	Ma'lumotlar tasodifiy tarzda berilgan
Semantik tavsiflarning ko'lami	Faqat turk tilidan tarjimasi berilgan	Talab darajasidan ko'proq: misollar keng ko'lami kontekstlarda keltirilgan, iboraviy ifodalar yaxshi izohlangan	Izohlar minimum darajada qisqa	yetarlicha to'liq izohlangan	yetarlicha to'liq izohlangan
Yakunlanganlik darajasi	Yakunlangan	Yakunlangan	Yakunlangan	Faqat a va ä harfidan boshlanuvchi so'zlar izohlangan (yakuniga yetkazilmagan)	Faqat unli harfdan boshlanuvchi so'zlar izohlangan

1-jadval. Qadimgi turkiy til lug'atiga doir bir davrda chop etilgan lug'atlarning farqli jihatlari

Jahonning ko'plab mamlakatlarida ham mazkur turdagi lug'atlarni tuzish ishlariga ilmiy-amaliy ahamiyatli masala sifatida qaraladi. Biroq turkiyshunos olim O.Mudrak ta'kidlagani kabi, bu lug'atlarning hech biri Mahmud Qoshg'ariyning turkiy tillar, qiyosiy tilshunoslik oldidagi tengsiz xizmatlarini takrorlay olmaydi. Mazkur lug'atning hanuzgacha qayta-qayta nashr qilinishi esa, uning turkiyshunoslikdagi eng benazir manba ekanini takror isbotlaydi.

Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi tizimi. Eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tiliga xos ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarning salmoqli miqdori hozirgi qarindosh turkiy tillarning terminologik leksikasiga mutanosib tushadi. Turkiy leksik (terminologik) materialga tegishli terminlardan 503 tasi ajratib olinib, ba'zi qarindosh turkiy tillarning muvofiq leksik (terminologik) birliklari bilan qiyoslanganda XI – XIV asr yozma manbalari tilida ishlatilgan 503 termindan 348

tasi uyg'ur tilida, 230 tasi qozoq tilida, 244 tasi qirg'iz tilida, 370 tasi turk tilida, 390 tasi o'zbek tilida qo'lanishda qolayotgani aniqlangan. Hatto ushbu taxminiy tahlil ham eski turkiy til davri qo'lyozma manbalari o'zbek tili qatori boshqa turkiy tillar terminologiyasining shakllanishi va qaror topishida asos vazifasini o'taganligidan dalolat beradi.

Qadimgi turkiy xalqlarning nomaishiy texnikaga oid terminlari tilshunos olim R.Doniyorov tomonidan quyidagicha tasniflangan¹⁶:

1. Mexanik mehnat vositalari: *kin* – har narsaning qolipi, *təgirmān* - tegirmon, *chə kjk* – temirchining bolg'asi, *amachig'* – omoch, *kōjdā* – tilla kumushlar eritib tozalanidan, qo'ra vazifasidagi idish, *kōryk* – temirchilar dami, *tjrbjyk* – o'roq, chopqi, randa, *amach* – omoch, omoch-bo'yinturuq, *bichg'u* – narsalarni kesuvchi asbob, *jefshān* – qo'y yungini qirquvchi katta qaychi;

2. Transport vositalarining nomlari: *tar* – kichik qayiq, *sal* – novda yoki meshlardan yasalgan qayiq, sol, *kemi, kimi* – kema, *uluq* – kichik qayiq, *qayli* – og'ir yuk ortilgan ikki g'ildirakli arava;

3. Nomaishiy texnik asbob-uskunalar, qurollar, jihozlar, transport vositalari qism va detallari: 1 *bashaq* – o'q va nayza uchidagi temir, 2 *bashaq* – nayza uchi, *bōri* – o'q uchiga o'tkazilgan temir xalqa, *itaku* – tegirmon toshi o'rnatilgan yog'och parrak,

4. Asbob-uskunalar, qurollar bilan mehnat qiluvchi, ularni yaratuvchi shaxslarning nomi: *oqchi* – o'q yasovchi, *ugitchi* - tegirmonchi, *ajaqchi* – kulol, *temirlug* – temiri bor kishi;

5. Ishlab chiqarish jarayonlari nomi: *jonushdi* – yo'nishdi, randalashdi, *suqlushdi* – joylashdi, o'rinishdi, *quwshaldi* – egovlandi;

6. Ishlab chiqarish qurollari vositasida yuzaga keltirilgan ashyolar, buyumlar, kiyim-kechaklar va hokazolarning atamalari: *jariq* – jang uchun temir ko'ylak (zirh) va qalqon, *jataq* – paxtani, yungni titadigan yoy, *jula* – chiroq, qandil, *jjgun jigi* – yugan so'lig'i, *oqluq* – o'q solinadigan asbob, sadoq, *ashich-buqach* – qozon-tovoq, *juligjy* – soch olinadigan ustara, *kəzlik* – xotinlar olib yuradigan kichkina pichoqcha.

7. Nomaishiy texnika vositalarini yaratishda ishlatilgan metallar va boshqa kimyoviy elementlarning nomlari: *sun altun* – yaxlit oltin, *təmyr* – temir, *chozin ashich* – mis qozon, *qarag'u* – zok, kuporos, *qurg'arin* – qo'rg'oshin, *qurch temyr* – po'lat.

Harbiy leksika o'zbek tilining qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, uning hamma rivojlanish bosqichlarida kuzatiladi. Hozirgi o'zbek harbiy terminologiyasi qadimiyligi VII-XIX asrlarga borib taqaluvchi ko'pgina so'zlarni o'z tizimida saqlab qolishga erishgan. Bunday terminlar sirasiga: 1) askariy qism va qo'shilmalar, jangchilar, asosiy harbiy harakat va amaliyotlar nomlarini ifodalovchi: *qamal, yurish, kechuv, ko'rik, pistirma, qo'shin, ilg'or, soqchi, qorovul, ayg'oqchi, to'pchi, dengizchi, chopar, mergan, qochoq* va h.k.; 2) qurol-yarog' va anjomlar nomini anglatuvchi: *to'p, qurol-yarog', kema, o'q, qo'ndoq, qalqon, sol, kiyim, quloqchin* va h.k.; 3) urush, tinchlik, g'alaba, mag'lubiyat kabi mavhum ma'noni ifodalovchi leksik birliklar oiddir.

¹⁶ Донiyorов Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1973.

O'zbek tili zoologik terminologiyasi ham uzoq yillik tarixga ega bo'lib, o'tmishda qo'llangan ayrim terminlar hozirgi kunlarda ham faol ishlatiladi. Masalan, XI-XIV asr eski turkiy til yozma obidalarida tilida qo'llangan 432 ta zoonimning 365 tasi asl turkiycha, 33 tasi forscha-tojikcha, 26 tasi arabcha, 5 tasi mo'g'ulcha, 3 tasi esa hind-yevropacha ekanligi aniqlangan. Sof turkiycha 365 zoonimlar tub (158) hamda yasamalarga (207) taqsimlanadi. Yasama zoonimlarning 132 tasi morfologik, 59 tasi sintaktik, 5 tasi esa semantik yo'l bilan hosil qilingan. Chunonchi, siġin, azġir, bota, inġan, dāvā, qisir, qilġaqġi, biyā, ilik, yilqi, donan, kōšāk, buġra, atin, soqqaq//suuqaq, jayran, kāzik, āškāk//ešāk, qulaġi uzun, qaġir, qotur//qotuz, yaġan, qoy, saġliq, tišāk//shishak qoġinār//qoġqar, ayġiraq//azġiraq, kāġi, ġābiš//ġāpiš, tākā irkāġ, inġāk, buzaġu, tana, sārka, singlarlar. Arabiy, forsiy zoologik terminlarning eski turkiy til lug'at tarkibiga kirib kelishi tilda sinonimik qatorlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan: iviq —soqaq—āhu; ešāk—dārāzġuš, qulan — gor va h.

Tilshunos olim B.Abdushukurov XI—XIV asr turkiy obidalar tilidagi tuyoqli hayvonlar nomini anglatuvchi terminlarni quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratib tasnif qiladi: 1) ot va tuyalar nomini ifodalovchi atamalar; 2) tuyoqli yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi zoonimlar; 3) mayda shoxli hayvonlar nomini bildiruvchi atamalar; 4) yirik shoxli hayvonlarni ifodalovchi terminlar.

Ilk marta VII- XIV asrlar yozma yodgorliklari matnlarida qayd etilgan *elchi*, *elchilik*, *elchixon*a, *yorliq*, *sulh*, *sulhnoma*, *xabar*, *josus*, *tashrif*, *ijozat*, *qabul*, *noma*, *muhr*, *dushmanlik*, *nishon* va boshqa asl o'zbekcha (turkiycha) hamda boshqa tillardan o'zlashgan so'z va so'z birikmalari zamonaviy o'zbek diplomatik terminologiyasi tizimida keng ishlatilmoqda.

O'zbek leksikografiyasining shakllanishida Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" (*Adab ilmiga muqaddima*, *adabiyotshunoslikka kirish*, *filologiyaga kirish*) asari ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Otsiz Xorazmshohga bag'ishlab tuzilgan asarda arabcha so'zlar ostida forscha va turkiycha tarjimalarning berilishi ushbu lug'atni o'zbek leksikografiyasidagi ilk etimologik lug'at deya hisoblashga asos tug'diradi. Lug'at besh qismdan iborat bo'lib, ot, fe'l, bog'lovchi hamda ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida fikr yuritiladi. Lug'atda o'sha davr arab tilida qo'llanishda bo'lgan hamma so'zlar, iboralar qamrab olinib, ularning etimologiyasiga oid izohlar berilgan. Lug'at arabchadan fors, eski o'zbek tili (chig'atoy tili), mo'g'ul hamda turk tillariga ilk bor 1706 yilda Xoja Is'hoq afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan. Ushbu asarda she'rshunoslik, uslubshunoslik xususida ham bahs yuritilgan. Badiiy tasvir vositalariga aniq, lo'nda izohlar keltirilgan. Chunonchi, kinoya va tarz badiiy san'atlari orasidagi farq ko'rsatib berilgan. Olimning "Asos al-balog'a" nomli lug'ati ham mavjud bo'lib, notiqlik san'atiga bag'ishlab yozilgan.

O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi rivojida XIV asrga oid arab tilida yozilgan ayrim grammatik (filologik) risolalar ham alohida o'rin tutadi. Xususan, Abu Hayyoning "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok" (*Turkiy tilning grammatikasi*), 1245-yilda Mamluklar davlati (1250-1517)da Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko'nyaviy tomonidan yaratilgan "Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug'ali", muallifi noma'lum "Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya",

Jamoluddin Turkiyning “Kitob bulg’at al-mushtaq fi-l-lug’ataturk va-l-qifchaq”, XVI asr boshida Qohirada ta’lif etilgan “Al-qavoninu-l kulliy li-zabtil-lug’atit-turkiya” singari asrlarda turkiy tilning so’z boyligi va terminlar tizimi ma’lum darajada ifodasini topgan. Mazkur davrda yaratilgan “Tarjumoni turki va ajami va mug’ali” asarida turkiy til leksikasi, terminlar sistemasi quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratilgan: kishi nomlari – *Alaqush, Aqtay, Altuntash, Baybars, Sonqur* va h.k.; astronomlar: *Ulkar*; geografik nomlar: *Sham, Misr*; zoonimlar: *at, okuz, qatir, bog’a, ayg’ir* va h.k.; yirtqich hayvonlar: *aslan, sirtlan, bori, tulku* va h.k.; qush va hashoralar: *qartal* (burgut), *sarcha* (chumchuq), *qaz, qarlag’ach, qarg’a* va h.k.; harbiy asbob-anjomlar: *ya, kirish* (yoy ipi (tetiva)), *sungu* (nayza), *qalqan, choqmar* va h.k.; tibbiy terminlar: *yig’ik* (kasallik, illat), *ag’ri* (og’riq), *sokan* (bemor, kasal), *isitma, oturmak* (yo’tal) va h.k.; musiqiy terminlar: *duduk* (musiqa asbobi), *tomru* (do’mbira), *yaqliq* (rubob), *sibizg’u* (sivizg’a) va h.k.

O’zbek leksikografiyasining shakllanishida Alisher Navoiy va o’zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlariga tuzilgan lug’atlarning ahamiyati sezilarlidir. Jumladan, Husayn Boyqaro ko’rsatmasiga binoan 1405-yilda Toli Imoni Hiraviy tomonidan tuzilgan “Badoe ul-lug’at”, Turkiya (Rum)da yaratilgan muallifi noma’lum chig’atoycha(eski o’zbekcha)-usmonli turkcha “Abushqa” (XVI asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o’zbekcha-forscha “Sangloh” (1748), Fathali Kojar Qazvinining 1862-yilda tuzilgan “Lug’ati atrokiya”, Ya’qub Chingiyning “Kelurnoma”, Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug’ati chig’atoyi va turki usmoniy” kabi asrlar o’zbek lug’atnavisligining durdonalari safidan o’rin olgan.

XIX asrning 70-yillaridan e’tiboran o’zbek terminologiyasi va leksikografiyasi rus tili orqali G’arbiy Yevropa tillaridan kirib kelgan o’zlashmalar ta’sirida rivojlandi. Markaziy Osiyo, shu jumladan, O’rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bilan butun mamlakatdagi boshqaruv-nazorat organlarida barcha hujjatlar rus tilida yuritiladigan bo’ldi. Mustabid tuzumga qarshi qaratilgan 1917-yil oktabr to’ntarishi ham bu sohada jiddiy o’zgarishlar bo’lishiga olib kelmadi.

XIX asrning 60-yillaridan 1905-yilgacha bo’lgan davrdagi o’zbek terminologiyasi. Bu davr leksikasi uch manba asosida boyib bordi. Ya’ni:

1. O’zbek tilining o’z ichki imkoniyatlari hisobiga.

Ruslardan kirib kelgan yangi predmet va hodisalarni o’zbek tilida nomlashda quyidagi usullardan foydalanildi:

a) o’zbek tilining o’z so’zlarini moslashtirish bilan. Masalan: *jahonnoma* (geografiya) (Furqat, Asarlar, II, 1960, 123- bet), *manzil* (stansiya), *usta* (dirijyor) (Furqat, Tanlangan asarlar, II, 1960, 28-bet), *bosmaxona* (tipografiya) (Furqat, II, 14-bet), *tabib* (vrach) (Muqimiy, Tanlangan asarlar, II, 1960, 67-bet), *nishon* (orden), *muallif* (avtor) kabi; b) rus tilidagi terminlarni kalka yo’li bilan o’zbek tiliga tarjima qilish orqali. Tarjimada bir so’z bir so’z bilan, ayrimlari ikki so’z bilan beriladi. Masalan: ruscha физический кабинет birikmasini *hikmatxona* deb berish, похвальная грамота (poxvalnaya gramota – maqto’v yorlig’i) – *ta’rifnoma*, ambulatoriya – *tabibxona*, управитель – *boshqaruvchi*; железная дорога – *temir yo’l*, белый царь – *oq podsho*; повестка – chaqiruv qog’ozi, керосин – *yeryog’i*,

штраф – *jarima puli*, ручка – *fulod qalam*, поезд – *otash arava*, пароход – *otash kema kabi*.

XIX asrning ikkinchi yarmida ayrim soʻzlarning tarjimasini bir necha soʻzlar bilan berilgan. Masalan, тюрьма soʻzi maʼnosida *turma, turmaxona, hibsxona, bandixona, oboxta, mahbusxona*; поезд soʻzi maʼnosida *poʻyiz, otash aroba, oʻt aroba, temir aroba* kabi soʻzlar ishlatilgan.

2. Oʻzbek adabiy tili xalq jonli tili asosida boyidi. Bu davr soʻz sanʼatkorlari XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Maxmur, Gulxaniy anʼanasini davom ettirib, “avomcha” hisoblangan xalq tilidan foydalanib, adabiy tilni boyitdilar va yangi tushunchalarni ifodaladilar. Masalan: *boʻzchi, kosov, bezgak, paxsa, loy, iskaptopar, qirchangʻi, arava* kabi.

3. Oʻsha davr adabiy tili taraqqiyotida uchinchi manba rus tili boʻldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, texnikaviy sohalariga tegishli terminlar, kundalik turmushda zarur boʻlgan ust-bosh kiyimlarning nomlari oʻzbek tiliga qabul qilindi. Jumladan:

1) ijtimoiy-siyosiy, harbiy-politsiya rejimiga oid soʻzlar: *uyezd, volost, дума, пристав, konsul, soldat, tyurma, shtraf*: ...gʻineral gubernoturining va uzednoy (uezd) hokimlarining farmoyishlarini oʻqub bilmogʻimiz zarurdir (Turkiston vioyatining gazetasi, 1883, № 3);

2) transportga oid soʻzlar: *poyezd, vagon, kolyaska, vokzal, stansiya* kabilar: Xoʻqand vokzolidin 28 chaqirim rel temirlarni boshlab bosgan ekan (TVG, 1901, № 69);

3) pochta va telegrafga oid soʻzlar: *pochta, telegraf, konvert, marka, adres*: Maning ismimga adris etib yuborsalar (TVG, 1901, №30);

4) sanoat, savdo-sotiq va moliyaviy ishlarga oid soʻzlar: *zavod, fabrika, kupets, mashina, neft, vistavka, magazin, yarmarka, bank, veksel* kabilar: Bobo, hoji boʻlsang kupes, moldor (TVG, 1903, №2);

5) fan, madaniyat va maorifga oid soʻzlar: *gimnaziya, teatr, muzika, muzey, gazeta, shkola*: Bolalarni ushqoʻlgʻa bermoq uchun xohish qildilar (TVG, 1902, №12). Gazetaga alhol ham tarjimonlikda turibman (TVG, 1890, № 33);

6) meditsinaga oid soʻzlar: *gospital, doktor, lazaret, feldsher* kabilar;

7) sud ishlariga oid soʻzlar: *sudya, sud, zakon* kabilar: Oʻz asrida boʻlgʻon naroʻdnoʻy sudyalargʻa qorogʻanda oʻzi boshqa alohida odamdur (TVG, 1893, M 26);

8) baʼzi hujjat va mukofotlar nomi: *bilet, pasport, orden, medal* kabilar;

9) kundalik turmushda kerak boʻlgan buyumlar va ust-bosh kiyimlarining nomlari: *samovar, stol, stul, podnos, tarelka, lampa, fonar, pech, galoshi, sitets, drap* kabilar;

10) oziq-ovqat tovarlarining nomlari: *pivo, kvas, limonad, kofe, konfet, kartoshka, suxari* kabilar;

11) oʻlchov birliklarining nomlari: *pud, chetvert, sejen, vershok, minuta* kabilar;

12) etnik va toponimik nomlar: *Moskva, Rossiya, ingliz, fransuz, rus* kabilar. Masalan: Eronistongʻa faransaviy zarur (Isʻhoqxon).

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan o'zbek tiliga ba'zan ehtiyoj tufayli, ba'zan ehtiyojsiz ham so'z qabul qilinaverdi. Masalan, "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalarida o'zbek tilida *harbiy, qonun, shahar hokimi* kabi so'zlar bo'lgani holda *военный, закон, городничий* so'zlari uchraydi. Ayrim o'rinlarda rus so'zlari o'zbekcha so'zlar bilan parallel qo'llaniladi. Masalan: *начотный-смотритель* – *izzatlik nozirlik, управляющий* — *boshqaruvchi, starosta* — *oqsoqol* kabilar. Bu davrda ayrim yangi tushunchalarni ifodalash uchun o'zbek tilida so'zlar yo'q edi. Shuning uchun bunday so'zlar rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri qabul qilindi. Bular sanoat, transport, pochta, telegraf, maorif va madaniyat sohalari bilan bog'liq so'zlar edi. XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan qabul qilingan so'zlarning bir qismi aslida turkiy so'zlar edi. Ular yangicha ma'no va fonetik o'zgarish bilan o'zbek tiliga qayta qabul qilindi. Masalan: *tovar, istikon* (stakan), *karandosh* (карандаш); *kagan, boyarin, bek, bashmak, qalpoq, kabluk, cherdak, qalancha, lachuga, tamg'a, dengi, karaul, yarliq, yam, yamshik, altin, kabak* va boshqalar.

Rus tilidan qabul qilingan so'zlarning ko'pchiligi G'arbiy Yevropa tillari hamda arab va fors tillariga mansub so'zlardir. Masalan, arab tilidan: *admiral, azimut, algebra, algorifm, alkogol, arsenal, magazin, tarif, shuba* so'zlari; fors tilidan: *divan, neft, chamadon* so'zlari; lotin tilidan *doktor, kolitet, konsul, mashina, minut, nomer, stansiya, fabrika* so'zlari; yunon tilidan: *gimnaziya, muzika, teatr, telegraf*; italyan tilidan: *bank, gazeta, kassa, lazaret, soldat*; nemis tilidan: *yarmarka, shiraf, tyurma, marka, kontora, veksel*; fransuz tilidan: *adres, jondarm*; ingliz tilidan *kerosin, vagon* kabi so'zlar; golland tilidan: *sitets, kran* kabi so'zlar qabul qilindi.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan qabul qilingan so'zlarning ba'zilari ruscha-o'zbekcha komponentlar asosida juft so'zlar holida berildi. Jumladan, *istarshina* – oqsoqol (TVG, 48, 1894), *fanor* – fonus (TVG, 45, 1894), *gir* – tosh (TVG, 40, 1885), *suruk* – muddat (TVG, 19, 1884), *zakunlar birla qonun* (Furqat) kabi.

Bundan tashqari, o'sha davrda rus tilidan qabul qilingan so'zlarni izohlashda *ya'ni, degan, nom, nomli, ismli* so'zlari qo'llandi. Masalan: *turmada*, *ya'ni* oboxtada yotibdur (TVG, 16, 1877), *faraxo't*, *ya'ni* otash kema (TVG, 15, 1879), *kirasin degan chirog'* *yog'i* (TVG, 23, 1883), *karita nom aroba* (TVG, 18, 1874) kabi.

1924-yilga kelib sobiq sho'rolar davlati tarkibida O'zbekiston Respublikasi tashkil topdi. Shu yilning 31-dekabrida O'zbekiston Respublikasi inqilobiy komiteti "Ishlarni o'zbek tilida yurgizish hamda O'zbekiston jumhuriyatining inqilobiy komiteti huzurida markaziy yerlashtirish hay'ati va mahallalarda muzofot yerlashtirish hay'atlari tuzilishi to'g'risida" 48-raqamli qaror qabul qildi. Unda hukumat, kooperativ, xo'jalik idoralari, muassasa, tashkilot va korxonalarda butun yozuv ishlarini faqat o'zbek tilida yurgizishga majbur etish vazifasi qo'yilgan edi. 1928-yilga kelib "Davlat idoralari o'zbeklashtirish" hamda "O'zbekiston Respublikasida idora, korxon va tashkilotlari ishchi xodimlarini o'zbek tiliga majburiy o'rgatish to'g'risida" ikkita tarixiy qaror qabul qilinadi. Ularda davlat idoralari o'zbeklashtirish Markaziy Komissiyasiga idoralarda ish yuritish hujjatlarini mahalliy va rus tiliga o'tkazish, idoralarni asta-sekin ikki tilni biladigan xodimlar bilan to'ldirish, o'zbek tilini o'rganish uchun bir, ikki, uch yillik to'garaklar

tashkil etish vazifasi yuklatilgan edi. Idora va muassasalarga 1929-yil 1-oktabrdan boshlab o'zbek tilini bilmaydigan xodimlarni ishga olmaslik, o'zbek tilini mensimagan yoki unga nisbatan g'ayri munosabatda bo'ladiganlarni o'zbek tilini biladigan xodimlar bilan almashtirish huquqi berilgan edi.

1931-yili O'zR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti tomonidan idoralarni o'zbeklashtirish to'g'risida yana bir qaror qabul qilinib, unda 1933-yil 1-aprelgacha butun O'zbekiston bo'ylab o'ta muhim bu ishni tugallash belgilangan edi. Ming afsuski, qisqa muddat ichida ketma-ket qabul qilingan bu qarorlarning birortasi ham hayotga tatbiq etilmasdan qog'ozlarda qolib ketdi.

Mamlakatda nafaqat ziyolilar, balki ozgina mustaqil fikrlashi mumkin bo'lgan dehqon-u ishchilarga qarshi qaratilib, takror-takror o'tkazilgan qatag'on qirg'inlari, mash'um ikkinchi jahon urushi, millionlab begunoh insonlar yostig'ini quritgan shaxsga sig'inish davri, talon-tarojliklar avjiga chiqqan turg'unlik yillari sobiq shurolar davlati tarkibida bo'lgan, nomigagina teng huquqli hisoblangan respublikalarning milliy tillariga bo'lgan eskicha – o'gay munosabatlarni mustahkamlab keldi, xolos.

XX asrning boshi va ikkinchi yarmida o'zbek terminologiyasi. XX asr 20-yillarida o'zbek adabiy tilining rivojlanishi bir qator xususiyatlarga ega edi. Ko'plab darsliklar muallifi va shoir Elbek 550 tacha so'z-terminlarni to'plab, avval "Turkiston" gazetasida (1923, 168-198), so'ngroq "Inqilob" jurnalida e'lon qilgan edi. Lug'atning kirish qismida muallif quyidagilarni yozgan edi: "Bu lug'atni tuzishdan maqsad barcha chet so'zlarni tilimizdan haydab chiqarish va haqiqiy o'zbek atamalarini (terminologiyasini) yaratishdir. Lug'atni tuzishda biz jonli tilda qo'llanilayotgan so'zlardan foydalandik, hozirgi tilimizda bo'lmagan so'zlarni eski tilda yozilgan asarlardan oldik, qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, biz bunday so'zlarni o'zimiz sun'iy yasadik".

Shuningdek, 1929-yil Samarqand Til-imlo konferensiyasi qaroriga muvofiq, ilmiy terminologiyani yaratishda rus-internatsional manbalaridan so'z olish ham keng ko'lamda joriy qilindi. Eski vaqtlarda kirib o'zlashib qolgan arab va tojik so'zlaridan ham shu maqsadlarda foydalanish ijobiy natija berdi.

30-yillarda hududiy dialektlarimizdan adabiy tilga ko'plab so'z va terminlar olindi. Paxtachilik, chorvachilik, pillachilik va ipakchilik, bog'dorchilik, baliqchilik, sabzavotchilik va sh. k. ayrim xo'jalik tarmoqlari rivojlangan yirik iqtisodiy hududlarda tarqalgan jonli shevalar adabiy tilimiz leksikasining rivojlanishida juda muhim manba vazifasini ado etdi: *paxta* (o'simlik), *tola* (hosil), *g'o'za*, *chanoq*, *tomir*, *ildiz*, *ko'sak*, *ko'rak* (g'o'zani sovuq urgandan so'ng yaxshi pishmay qolgan hosili) kabi.

Urush yillarida arabcha *hujum*, *xuruj*, *hamla*, ruscha *ataka* so'zlari ishga solina boshladi; turli mansab, unvonlarni ifodalash uchun asosan rus-internatsional leksikasidan foydalanildi: *general*, *komandir*, *leytenant*, *asov*, *polkovnik*, *kapitan*, *starshina*, *soldat*, harbiy qismlarni ifodalash uchun aralash imkoniyatlar ishga solindi: *diviziya*, *polk*, *vzvod* kabi. Juda kam uchraydigan arabcha *muxosara* so'zi (qurshov, o'rov) o'zbekcha *qamal* so'zi bilan almashtirilgan edi, lekin *blokada* ma'nosini berish ehtiyoji yana o'sha arabcha so'zdan foydalanishni taqozo qildi.

Harbiy terminologiya yaratishda ruschadan aynan tarjima qilish (kalka) usulidan keng miqyosda foydalanildi: огневая точка – o‘t ochish nuqtasi, наблюдательный пункт – kuzatish punkti kabilar ruschadan shu holicha olindi.

O‘tgan asrning so‘nggi choragida o‘zbek tiliga kirgan rus so‘zlari kundalik turmush-tirikchilikda tez-tez uchrab turadigan va ko‘pchiligi og‘zaki til orqali o‘tganligi uchun, ularning tashqi qiyofasi – fonetik shakli anchagina o‘zgargan edi: do‘g‘a (ruscha: дуга), xomit (хамут), sarjin (сажен), so‘qa (соха), talinka (тарелка), *pamil choy* (фамильный чай), *cho‘t* (счёт), *cho‘tka* (щётка), *patnis* (поднос), *choynak* (чайник), *samovar* (самовар), *istarapil* (стропило), *podvol* (подвал), *kalish* (галoши), *cherkov* (церковь). Garchi A. K. Borovkov o‘zining bir ishida *chit* so‘zining ham ruscha *cumeц* so‘zidan olinganini yozsa-da, lekin Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida allaqachon *chit* – ola-bula gullari bor gazlama, deb izohlagan edi. Alohida ta‘kidlash lozimki, ruscha-baynalminal so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘rnashishi XIX asrning oxirida boshlangan bo‘lsa, turkiy so‘zlar bobkalonimiz Amir Temur davri, hatto undan avvalgi davrlardayoq rus tilining lug‘atidan joy olib ulgurgan edi (ruscha *utyog*, *кабардак*, *карандаш* kabi so‘zlar sof turkiy so‘zlar, aslida).

Rus tilidan kalkalash (aynan tarjima qilish) yo‘li bilan shanbalik (субботник) so‘zi o‘zbek adabiy tilida 1920-yildan ilgari paydo bo‘lishi ehtimoldan uzoqdir, chunki bu so‘z shu ma‘noda rus tilining o‘zida 1919-yilda ishlatila boshlagan (aniqrog‘i, 1919-yil 10-maydan).

Tojik va o‘zbek tillarining o‘zaro ta‘siri ikki yoqlama (og‘zaki va yozuv orqali) bo‘lganligi uchun ikki tilning bir-biriga ko‘rsatgan ta‘siri ayniqsa, kuchli edi. Masalan, o‘zbek tilining leksikasida tojik so‘zlari anchagina foizni tashkil qiladi (8-10 %); o‘zbek tilining grammatik sathi ma‘lum miqdordagi tojik elementlarini o‘ziga singdirgan, so‘z yasashda bir qator tojikcha affikslar o‘zlashgan; o‘zbek tili fonetikasiga bu ta‘sir ayniqsa, kuchli bo‘lgan (unlilardagi singarmonistik ziddiyatning yo‘qolishini olimlar tojik tilining ta‘siri bilan izohlaydilar); shuningdek, o‘tmishda mumtoz arab adabiy tilining o‘zbek adabiy tiliga ko‘rsatgan ta‘siri ayniqsa, leksikada ochiq ko‘rinadi.

60-70-yillar ichida (asosan 31 ta davriy matbuot tilida) o‘tkazilgan statistik tekshirishlar hozirgi adabiy tilimiz leksikasida arab leksik qatlamining hajmi taxminan 16-18 foizga borishini aniqladi (o‘tmishda, tabiiy, uning miqdori ancha ko‘p bo‘lgan).

Arab tilining o‘zbek tiliga ko‘rsatgan ta‘siri tojik tiliga nisbatan uncha chuqur emasdi, arab tilidan kirib o‘zlashgan leksik qatlamning katta qismi kitobiy xarakterga ega bo‘lib, asosiy ko‘pchiligi ot kategoriyasiga taalluqli va semantik jihatdan mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar edi. Shuning uchun ham yangi davrga kelib, arab leksik elementlarining anchagina qismi nisbatan osonlik bilan o‘z o‘rinlarini asli o‘zbek so‘zlariga yoki internatsional elementlariga bo‘shatib berdi. Tojik tilidan kirib o‘zlashgan unsurlar asosan konkret, hayotiy zarur tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar bo‘lgani uchun tojikcha so‘zlarning tilimizdagi o‘rni nisbatan barqaror va turg‘undir. Masalan, vaqtli matbuot tilida tojik so‘zlari, materialning xarakteriga qarab, leksikamiz umumiy miqdorining 8-10 foizini tashkil qiladi. So‘nggi 70-80 yil ichida tojikcha leksik elementlarning foiz nisbati deyarli

o'zgarishga uchramadi; arab leksik qatlamining foiz nisbati (gazetalar tili bo'yicha) ancha kamayib hozirda umum leksikamizning 18-20 foizini tashkil qiladi. Agar eski adabiy tilimiz leksikasida arab so'zlarining foizi ba'zan 33-35 ga borganligini esga olsak, turli manbalarga aloqador bo'lgan leksik qatlamlarning foiz nisbatida naqadar katta o'zgarishlar sodir bo'lganligini anglash qiyin emas.

Totalitar tuzum yillarida adabiy til va uning turli-tuman usublari va janrlari rivojlangan sari ko'pgina arabcha so'zlar o'zbekcha yoki rus tilidan kirgan so'zlar bilan almashtirildi. Masalan, A. K. Borovkov 20-yillarning o'rtalarida vaqtlı matbuot tili leksikasida arab so'zlari 32,1 foizni, tojikcha so'zlar 5,5 foizni, internatsional so'zlar 2 foizni, asli o'zbek so'zlari 60 foizni tashkil qilganini yozadi (hisob "Zarafshon" gazetasining 1923-yil 25-mart soni bo'yicha o'tkazilgan). Yana o'sha muallif qiyoslash uchun K. K. Yudaxin tuzgan lug'atga sarf etilgan so'zlarni hisoblab chiqqan. Natija shuni ko'rsatdiki, arabcha so'zlar 28,6, tojikcha so'zlar 16,9, rus-internatsional so'zlar 4,7, asli o'zbek so'zlari 50,3 foizni tashkil qilgan. 30-yillarda esa shoir Uyg'unning bir maqolasidagi so'zlarni hisoblash ("Adabiyotda menshevizmga qarshi", 1935-yil) quyidagi natijalarni bergan: maqoladagi jami 10086 so'zning 55 tasi o'zbekcha so'zlar, arabcha so'zlar 22,5, tojikcha so'zlar 11,8, ruscha va internatsional so'zlar 10,7 foizni tashkil qilgan.

1950-yillarga kelib manzara birmuncha o'zgartirildi: arabcha so'zlar vaqtlı matbuot tilida 18-0 foizni, internatsional elementlar 14-16 foizni tashkil qilgan.

O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1989-yilning 21-oktyabrida "Davlat tili haqidagi" Qonunning qabul qilinishi o'zbek tili so'z boyligining asosiy qatlamlaridan hisoblanmish terminologik leksikaga yangicha munosabatda bo'lishni taqozo etdi.

XX asr boshlarida totalitar tuzum orqali tilimizga o'rnatilgan: *sotsrealizm, staxanovchilik, tarixiy materializm, ilmiy kommunizm* kabi termin va birikmalar mustaqillik yillarida o'z ahamiyatini yo'qotib, nutqiy muomaladan chiqdi. Aksincha, istiqloq yillarida davlatchilik tizimi, davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning demokratik va jahon andozalariga mos isloh qilinishi, o'zbek milliy-mental qarashlaridagi tub o'zgarishlar o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida: *vazir, bosh vazir, vazirlik, viloyat, tuman, qo'rg'on, hokim, viloyat hokimi, tuman hokimi, hokimlik yoki hokimiyat, rahbariyat, oqsaqol, qishloq oqsoqoli, yig'in singari, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, qishloq va xalq xo'jaligi, og'ir va yengil sanoat singari turli sohalarga tegishli: jarayon, ma'ruza, amaliyot, tadqiqot, mavzu, loyiha, mezon, tamoyil, islohot, ulush, sherikchilik, hamkorlik, boshqaruv, majmua, uzluksizlik, tarmoq, kimyo, buyurtma, taqsimot, yuklama, bitim, moliya, ta'mir, ta'til, nafaqa, ilg'or, malham, tashxis, dorixonona, shifokor, bosh shifokor, saraton, qora son, hay'yat, bo'hron, muhr, yorliq, taftish, kurash, halol singari* unutilgan so'zlarning qayta tiklanishiga sabab bo'ldi. O'zbek xalqining ma'naviy hayoti, dunyoqarashi, tafakkur tarzidagi o'zgarishlar esa o'zbek ma'naviy-termiy, diniy leksikasining qayta shakllanib, to'lg'azilishiga turtki berdi. Natijada o'zbek lingvomadaniyatida avvaldan mavjud bo'lgan: *istiqloq, mafkura, imon, insof, e'tiqod, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, zikr, halollik, poklik, ezgulik, savob, gunoh, oxirat, farz, lafz, oqibat, qadriyat, barkamol, oriyat, shafolat, inoyat* kabi so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibi, kundalik so'zlashuv nutqidagi qayta o'rin egalladi.

Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinayotgan paytda vaqtli matbuotda bir qator baynalminal atamalarni tilimizdan quvib chiqarish, uni arab yoki fors-tojik tilidagi muqobili bilan almashtirish holati kuchaydi: *radio* o'rniga *ovoznigor*, *samolyot* o'rniga *tayyora*, *aeroport* o'rniga *tayyoragoh*, *institut* o'rniga *oliygoh*, *rayon* o'rniga *nohiya* va b. Biroq yangi qo'llanilayotgan atamalarining qaysi tushuncha uchun ishlatilayotganligini izohlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Ana shunday sharoitda atamalarni tartibga solish ehtiyoji tug'ildi. Shuning uchun Vazirlar Mahkamasi qoshida atamashunoslik qo'mitasi tuzildi. Tilshunos olim H.Dadaboev o'zbek tili jonkuyarlari, qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan Atamashunoslik qo'mitasining samarali mehnati evaziga *muxtoriyat*, *ma'muriyat*, *ma'mur*, *muqobil*, *hakam*, *tashrif*, *insonparvarlik*, *xususiy lashtirish*, *boshboshdoqlik*, *qoldiq (saldo)*, *iqtisodiyot*, *ma'lumotnoma*, *reja*, *dastur*, *kengash* singari juda ko'p ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar qaytadan qo'llanishga kiritilganini ta'kidlaydi. Biroq bu kezlarda terminlarni almashtirish va ishlatishda ma'lum chalkashlik hamda xatoliklarga ham yo'l qo'yildi. Terminologiyaga xos me'yorlarga har doim ham amal qilinmagani, ilgari mavaffaqiyatli qo'llangan terminlarni muomaladan zo'rma-zo'raki siqib chiqarish, ularni so'z yasalish qonuniyatlariga javob bermaydigan leksik birliklar bilan almashtirish harakati avj olganini qayd etgan olim misol tariqasida *aeroport* termini o'rnida *qo'nalg'a*, *tayyoragoh*, *bandargoh* terminlari, *institut* termi o'rniga *oliygoh*, *ilmgoh*, *bilimgoh*, jurnal termini o'rnida *oynama*, *majalla*, *jarida*, *oybitik* so'zlari ishlatilganini aytadi¹⁷. *Chetpul* (valyuta), *pultopar* (biznes), *hujjatasrov* (arxiv), *nusxakash* (notarius), *naqliyot* (transport), *malakasinov* (attestatsiya) singari yangi yasamalar sun'iyliigi, termin yasash me'yorlariga javob bermasligi bilan ajralib turar edi. Bunday shoshqaloqlik oqibatida o'zbek terminologiyasi tizimida noilmiy terminlar paydo bo'ldi, terminlar tarkibida sinonimiyaning kuchayishiga olib keldi.

Globallashuv va kompyuterlashtirish asrida o'zbek terminologiyasi.

Globallashuv va kompyuterlashtirish asrida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy va h.k. aloqalar ko'lamining kengayishiga olib keldi. Bunday munosabatlarning ijobiy natijalari so'nggi yillarda o'zbek terminologiyasining: *akademik litsey*, *kollej*, *magistr*, *magistratura*, *bakalavr*, *tender*, *preferensiya*, *investitsiya*, *litsenziya*, *diler*, *megapolis*, *ekologiya*, *ekspert*, *kemping*, *inflyasiya*, *kliring*, *supermarket*, *mini market*, *giper market*, *chat*, *paynet*, *elektorat*, *narkobiznes*, *milliy aviakompaniya* kabi mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar hisobiga boyishiga sabab bo'ldi.

Mamlakatimiz olimlarining dunyo olimlari bilan o'rnatgan ilmiy-texnik munosabatlarining jadallashuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borayotganliklari, yoshlarimizning nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi yoxud malaka oshirishi mos terminlarning yaqinlashuviga ko'mak beradi. Hozirda o'zbek terminologiyasiga G'arb tillari, ayniqsa, ingliz tilidan ko'plab terminlarning quyilib kelishi, shuningdek, o'zbek tili terminlarining boshqa tillar tomonidan o'zlashtirilayotgani ajablanarli hol emas. Jumladan, 1999-yilda o'zbek kurashi bo'yicha jahon birinchiligining o'tkazilishi, keyinchalik bu sport

¹⁷ Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Нодирабегим, 2020.

turining dunyo arenasiga chiqishi natijasida *kurash, yonbosh, chala, halol, g'irrom* kabi terminlar xalqaro sport terminologiyasining mulkiga aylandi. Sharq taronalari (vostochnye melodiy), o'zbek modeli (uzbekskaya model), *fuqarolar yig'ini, fuqarolar yig'ini raisi, oqsaqol* va h.k. terminlar o'zga tillar lug'atidan joy oldi.

Bu davrda xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o'z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash asosida o'zbek terminologiyasi: *aksiyadorlik jamiyati* (акционерное общество), *erkinlashtirish* (либерализация), *tijorat banki* (коммерческий банк), *muzyorar* (ледокол), *kichik biznes* (малый бизнес), *soliq stavkasi* (налоговая ставка), *tadbirkor* (предприниматель), *xususiy sektor* (частный сектор), *infratuzilma* (инфраструктура), *ekologik xavfsizlik* (экологическая безопасность), *siyosiy ekstremizm* (политический экстремизм), *potensial xavf-xatar* (потенциальная угроза), *mintaqaviy mojaro* (региональный конфликт) va h.k. terminlar bilan boyidi.

Chet tili terminlarini so'z yasalish usullari (so'z yasovchi modellar) asosida yangidan yuzaga kelgan yasamalar bilan almashtirish jarayonida o'zbek tili lug'at fondida *oluvchi* (adresat), *jo'natuvchi* (adresant), *tavsiyanoma* (характеристика), *buyurtma* (заявка), *narxnota* (preyskurant), *ma'lumotnoma* (spravka), *fuqarolik* (подданство), *daxlsizlik* (immunitet), *ishbilarmon* (предприниматель), *ta'mirchi* (restavrator) singari ko'pgina terminlar mustahkam o'rinni topdi.

O'zbek tili terminologiyasida muayyan tushunchalarning muqobili bo'lmaganligi bois ruscha-baynalmilal terminlar donor tilda qanday shaklda bo'lsa o'zbek tiliga ayni shu shaklda tayyor tarzda qabul qilinadi. Masalan: *byudjet* – *бюджет*, *kredit* – *кредит*, *atom* – *атом*, *gidrolokatsiya* – *гидролокация*, *deduksiya* – *дедукция*, *gerb* – *герб*, *auditor* – *аудитор*, *repatriatsiya* – *репатриация*, *kommunikatsiya* – *коммуникация*, *fraksiya* – *фракция*, *profitsit* – *профицит*, *integratsiya* – *интеграция*, *diplomatiya* – *дипломатия*, *texnologiya* – *технология* va h.k.

O'zbek tili terminologiyasining hozirgi holatida o'z hamda o'zlashma paralellarning yonma-yon qo'llanayotganini ko'rish mumkin: *aksiya* – *harakat*, *aksiya*, *arxeolog* – *qadimshunos*, *arxeolog*, *blok* – *ittifoq*, *blok* (*denymatckий*), *veto* – *veto*, *ta'qiq*, *ofitser* – *zobit*, *ofitser*, *reanimatsiya* – *jonlantirish*, *reanimatsiya*, *termin* – *atama*, *termin*, *embargo* – *embargo*, *ta'qiqlash*, *sivilizatsiya* – *sivilizatsiya*, *tamaddun*, *kollegiya* – *hay'at*, *kollegiya*, *denonsatsiya* – *denonsatsiya*, *bekor qilish* singarilar kiritilmoqda.

Ba'zi vaziyatlarda, mabodo biror bir tushuncha ikki, ya'ni o'z va o'zlashma termin bilan ifodalansa, shubhasiz, afzallik o'zbekcha variantga beriladi – *tilshunoslik* (*lingvistika*), *nazoratchi* (*inspektor*), *qalam haqi* (*gonorar*), *nizom* (*ustav*), *giyohvandlik* (*narkomaniya*), *zahira* (*rezerv*), *tenglik* (*paritet*), *hokim* (*mer*), *jarroh* (*xirurg*) va h.k.

O'zlashma terminlarning ma'lum guruhi o'zbek tili qonunlariga bo'ysungan tarzda uning fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashadi. Chunonchi, o'zlashma terminlarning o'zbek tili fonetikasiga moslashuvi quyidagi jihatlari bilan oydinlashadi: 1) fonemalarning qisqarishi: *avianoсец* – *avinos*, *raketanoсец* –

raketanos; 2) fonemalardagi tovush almashinuvi: маяк – mayoq, ochag – o‘choq, плащ-палатка – plashch-palatka va h.k.

O‘zbek tilida qurilishi jiddiy o‘zgarishlarga uchragan o‘zlashma terminlar toifasiga: комитет – qo‘mita, бомбардировка – bombardimon, командующий – qo‘mondon, подряд – pudrat kabilarni kiritish o‘rinlidir. Hozirgi o‘zbek terminologiyasi tizimida o‘zlashmalardan o‘zbekcha so‘z yasovchi affiksalar ishtirokida yangi hosil qilingan terminlar keng miqyosda qo‘llanishga kirib kelmoqda. Xususan, бомбардировщик – bombardimonchi, дозиметрист – dozimetrichi, генеральский – generallik, комиссарият – komissarlik, патронный – patronli, гусеничный – gusenitsali, бетонирование – betonlash, ионизация – ionlanish; ionlash, модернизация – modernizatsiyalash kabi misollar qayd etilgan fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Tilning lug‘at tarkibi

Ma‘lumki, til birliklari, ularga birlashtirilgan lisoniy belgilar qotib qolgan yoxud turg‘un tabiatni ifoda etmaganidan, zamon va makonning ta‘siri ostida doimiy ravishda yangilanish hamda o‘zgarish jarayoniga yuz tutib boradi. Binobarin, leksikologiya tilning lug‘at tarkibini tizimli va muntazam tadqiq doirasida tutuvchi soha sifatida shu tarkibga mansub bo‘lgan jami birliklar, ularga tegishli lisoniy hodisalarni namoyon etadi. Tilning lug‘at tarkibini o‘rganuvchi soha *leksikologiya* deb ataladi. Aslida “leksika” (yun. *lexis* – so‘z, ifoda, *lexikos* – so‘zga taalluqli) so‘zi tilning so‘zlar jamlanmasi yoxud tilning lug‘at tarkibini anglatadi. Bunda so‘z leksik birlik o‘rnida qabul qilinsa-da, lug‘aviy birlik qatoriga, shuningdek, turg‘un birikmalar ham mansub qilinadi. Leksika o‘rnida lug‘at tarkibining turli qatlamlari: maishiy leksika, kitobiy leksika, so‘zlashuv leksikasi, poetik leksika (shu kabi muayyan ijodkorning leksikasi) ham tushuniladi.

Lug‘aviy qiymatga ega bo‘lgan so‘zlar hamda turg‘un birikmalar (iboralar) leksikologiyaning obyektini hisoblanadi.

Leksikologiyaning quyidagi tadqiq sohalarini mavjud:

Semasiologiya (lug‘at tarkibidagi so‘zlarning ma‘no ko‘lamini tekshiradi).

Etimologiya (lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganadi).

Onomasiologiya (tildagi barcha atoqli otlarning yig‘indisi bo‘lib, atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi).

Terminologiya (tildagi atama va terminlarning yig‘indisi bo‘lib, ularning shakllanishi va lisoniy xususiyatlarini tekshiradi).

Leksikografiya (muayyan til doirasida yaratilgan lug‘atlarning yig‘indisini namoyon etib, lug‘atchilikka doir ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyatga ega lingvistik asoslarni ifoda etadi).

Frazeologiya va idiomatika (tildagi ko‘chma ma‘nodagi turg‘un birikmalar (iboralar) hamda paremiologik qatlamga tegishli ma‘lum qism turg‘un birikmalar, antroponimik, toponimik birikmalar va h. yig‘indisini bo‘lib, ularning lisoniy tabiatini tekshiradi).

Metaforologiya (so‘z ma‘nosining ko‘chishi va u bilan bog‘liq yangi hosil qilingan ma‘no va nomlarning shakllanish tabiatini tekshiradi).

I.A. Sternin lugʻat tarkibidagi soʻzlarni ikki asosiy: kitobiy va soʻzlashuv uslubiga boʻladi hamda qolgan uslublarning ana shu ikki asosiy uslublar negizida tarkib topishini qayd etadi.

Atoqli olim E. Begmatov hammualliflikda yaratilgan “Oʻzbek tili leksikologiyasi” nomli qoʻllanmada oʻzbek tilining lugʻat tarkibi quyidagi lugʻaviy guruhlariga taqsimlanishini koʻrsatadi:

1. Umumisteʼmoldagi soʻzlar.
2. Maxsus leksika (terminologiya va professionalizmlar).
3. Dialektal leksika (dialektizmlar).
4. Ijtimoiy – sinfiy jargonlarga oid soʻzlar.
5. Atoqli otlar tizimi.

Qoʻllanish va umumisteʼmol darajasiga koʻra til lugʻat tarkibi birliklari faol va nofaol (arxaizm, neologizm, terminologiya kabi) birliklarga ajratiladi.

Faol lugʻat (til lugʻat tarkibining faol qoʻllaniluvchi qismi (qoʻllanilishi faol soʻzlar jamlanmasi)) – zamonaviy til lugʻat tarkibidagi insoniy hamjamiyatning barcha sohalarida amalga oshadigan kundalik nutqda erkin va faol qoʻllanadigan soʻzlar jamlanmasi.

Nofaol lugʻat (til lugʻat tarkibining nofaol qismi (qoʻllanilishi kam yoxud nutqiy isteʼmoldan chiqqan soʻzlar jamlanmasi)) – lugʻat tarkibining til sohiblariga tushunarli boʻlgan, biroq kundalik nutqda kam qoʻllanuvchi soʻzlardan iborat qismi boʻlib, asosan kitobiy nutqda ishlatiladigan qator soʻzlar nofaol lugʻatni tashkil etadi. Zero, bu nutq doirasida eskirgan, yangi soʻzlar (neologizmlar, okkazonalizmlar va b. toifadagi lugʻaviy birliklar nisbatan koʻp ishlatiladi.

Til lugʻat tarkibidagi oʻzgarish ikki muhim jarayon asosida sodir boʻladi. Bular:

1. Lugʻat tarkibining yangi soʻzlar hisobiga boyib borishi va eski soʻzlarning yangicha maʼno kasb etishi.
2. Ayrim soʻzlarning eskirishi va isteʼmoldan chiqishi, ularga tegishli maʼnoning soʻnishi.

Bu ikki jihatning birinchisi lugʻat tarkibining taraqqiyotidagi eng muhim jarayon hisoblanadi.

Tilning lugʻat tarkibi lisoniy tizimning boshqa sathlariga nisbatan davriy kesimdagi global oʻzgarishlardan koʻproq taʼsirlanadi va shunga mos holda lugʻat sathining maʼlum qismi muttasil ravishda yangilashish, arxaiklashish va deaxaiklashish jarayoniga yuz tutadi. Negaki til millat madaniyati va tarixiy tajribasi, ruhiyatini oʻzida bevosita aks ettiruvchi hodisa sifatida ichki lisoniy, nutqiy, ekstralingvistik, hamda ijtimoiy omillar taʼsirida tegishli sathlardagi mavjud ayrim birliklarni (bu lugʻaviy birlik ham, sintaktik-morfologik birlik ham boʻlishi mumkin) mudom yangilab turadi. Mazkur yangilanish jarayoni eskini yangi bilan almashtirish emas, eskini takomillashtirish evaziga sodir boʻladi, holbuki, bugungi lisoniy oʻzgarishlar va taraqqiyotning jadal surʼati muayyan lugʻaviy birlikning oʻzga birlik tomonidan lugʻat tarkibidan siqib chiqarilishini tabiiy, tadrijiy qonuniyatlar asosida tushuntirish imkonini bermaydi.

Til lug'at tarkibida eski so'zlarning paydo bo'lishini asosiy ikki: ichki lisoniy va nolisoniy sabablar bilan izohlash mumkin bo'lib, ichki lisoniy omillar quyidagi uch toifaga bo'linadi:

- 1) ma'nodoshlik hodisasining ta'siri.
- 2) lug'aviy ma'noning taraqqiyoti: ma'no hajmining kengayishi yoki torayishi.

So'zlarning eskirishini keltirib chiqaruvchi nolisoniy (ekstralingvistik) omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- a) madaniyat;
- b) iqtisodiyot;
- c) ijtimoiy-siyosiy aloqalar;
- d) ijtimoiy hayot.

Eskirgan lug'aviy birliklar xalq tarixi haqidagi ma'lumotlarning asliy manbasi hisoblanadi, ular millatning tarixiy ildizlaridan darak beruvchi lisoniy unsurlardir.

Okkazional so'zlar til tizimi, uning lug'at tarkibidan joy olishga urinmaydi, neologizmlar esa jamiyat talablarini qondirgan holda davr o'tib, umumiste'mol so'zlar singari lug'atlardan joy olishi mumkin. Okkazional so'zlarning bosh maqsadi – nutqqa ekspressivlik bag'ishlash, so'zlovchining voqelikka munosabatini ifodalash, nominativ vazifa esa okkazional so'zlarning ikkilamchi xossasidir.

Lug'at tarkibining milliy xoslangan birliklari. Dialektlar (yun. *dialektos* – sheva, lahja), ma'lum hudud aholisi nutqida mavjud bo'lgan so'zlar majmuyi bo'lsa, tilning mavjud sheva va lahjalarini o'rganuvchi soha dialektologiya (*dialekt* – sheva, *logos* – ta'limot, sheva haqida ta'limot) deb nomlanadi. Dialekt tushunchasini faqat shevalar misolida tushunish noto'g'ri. Bu termini, shuningdek, hududiy, ijtimoiy, kasbiy (professional) jihatdan o'zaro aloqador kishilar, hamjamo o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida tushunish kerak. Shunga ko'ra dialektlar hududiy va ijtimoiy (sotsial) dialektlarga ajratiladi. Ilmiy manbalarda dialektizmlarning asosan shaharlashmagan, qishloq aholisi nutqida kuzatilishi ta'kidlansa-da, bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Negaki poytaxt shahar tub aholisi nutqining ham o'ziga xos shevaviy, ijtimoiy xoslangan belgilari kuzatiladi.

Dialektizmlarda xalq madaniyati va tarixiy tajribasiga muhrlangan madaniy kodlar o'z ifodasini topadi. Unutmaslik kerakki, dialektizmlarning areal jihatdan tasniflanuvchi turi (sheva, lahja) adabiy tildan fonetik, morfologik, sintaktik va leksik jihatdan farq qiladi. Biroq ijtimoiy tabaqalashgan dialektizmlar adabiy til unsurlaridan faqat leksik tomondan farq qiladi. Hatto adabiy tilga mutlaqo begona, original so'zlar ham asosan dialektlarda uchraydi.

1. Leksik dialektizmlar – shevada so'zlovchilardan o'zga til sohiblarida na fonetik, na leksik va boshqa o'xshashliklarga ega bo'lmagan so'zlar (surx.-sam. *kadi, lali, satil, hokandoz, sanjab, piyova, jilob, xor.-qapi, uchak, taka, nichik, gashir, patinjon*). Mazkur so'zlar umummilliy tilda ular anglatgan ma'noga yaqin ma'no, predmetni anglatuvchi so'zlar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi.

2. Etnografik dialektizmlar – aynan bir hududga tegishli narsa, predmetlarni nomlovchi so'zlar: *yupqa* – 'yuqa yoyilib, shu hoida qizib turgan tovada yog'siz qovurilgan, so'ng ikki tarafiga qaymoq surilib tayyorlanadigan o'ziga xos

chalpak'; 3. Leksik-semantik dialektizmlar – dialektida noodatiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar: *qidirmoq* – mehmondorchilikka bormoq, *qochirmoq* – mollarni urug'lantirish', *jiji* – 'chaqaloq', *taka* – 'yostiq', *hangoma* – 'dildan suhbat qurmoq', *tovoq* 'lagan', *samovar* 'choyxona', *opoqdada* – 'bobo', *otamlashish* – 'ulfatchilik, suhbat', *jonlimisiz* (jollimisiz) 'bardammisiz', *jonimni yoqma* – 'jahlimni chiqarma', *oqshom* – 'kechagi kun' va b. Bu toifadagi dialektizmlar milliy tilda mavjud lug'aviy birliklarga omonim (shakldosh) so'zlar hisoblanadi.

4. Fonetik dialektizmlar – dialektida alohida talaffuz etiladigan so'zlar. Masalan, *shulla*, *shu'la* – 'shovla', *qichirmoq* – 'qichqirmoq', *izarlamoq* 'izlamoq', *shibirtki*, *shipirtki* – 'supurgi', *devol*, *dovol* – 'devor', *sag'zi* – 'sabzi', *voxt* – 'vaqt', *dayro*, *dayra* – 'daryo' singari.

5. So'z yasovchi dialektizmlar – shevada alohida yasaliş xususiyatiga ega so'zlar: *olvoli* (olxo'ri), *biyi* (buvi), *xonim* (xunon), *apka*, *apcha* (opacha), *amak* (tog'a, amak, aka, og'a, birodar), *kesartki*, *kaltakalos* (kaltakesak), *panshoxa* (shoxa), *qo'ngshi*, *qo'mshii* (qo'shni), *talinka* – 'likopcha, tarelka' va b.

6. Morfologik dialektizmlar – so'z shakllarining adabiy tilga xos bo'lmagan shakllari: *kettu* (ketdik); *biza* (bizlar), *kelatu* (kelyapmiz), *kevomman* (kelyapman), *boraychiydim* (borardim), *qilaychiydim* (qilardim), *azgincha* (ozgina) va b.

7. Frazеologik dialektizmlar – shevalarda mavjud turg'un birikmalar, iboralar.

Dialektal xossalar nafaqat fonetik va lug'aviy, shuningdek, tilning sintaktik sathida ham o'z belgilariga ega.

Lakuna. Tillarda ham, madaniyatlarda ham farqlarni ko'rib chiqishda, ko'pchilik tadqiqotchilar "lakuna" atamasini afzal ko'rishadi (lot. *lacuna* – o'yiq, chuqurlik; fr. *lacune* – bo'shliq, mavhumlik).

Tilshunoslikka "lakuna" atamasini birinchi bo'lib kanadalik olimlar J.P. Vine va J. Darbelne olib kirganlar. Ular buni "bir tilda mavjud bo'lgan so'zning boshqa tilda muqobili topilmay qolishi bilan bog'liq, har safar takrorlanib turuvchi hodisa" deb ta'riflaydilar.

Milliy tilga boshqa tillardan qo'shilgan unsurlar, asosan, o'zlashma so'zlar va varvarizmlar umumiy qilib, ekzotizmlar yoxud ekzotik leksika deb ataladi. Bu birliklar "begona" madaniyat realiyalarini ifodalovchi so'zlar bo'lib, o'zga xalq, madaniyat va turmush tarzining o'ziga xosliklarini namoyon etadi. Mahalliy kolorit, milliy an'ana va urf-odatlariga ishora qilishi bilan ekzotizmlar etnografizmlarga yaqin turadi (fanda ular ma'nodosh terminlar o'rnida qo'llaniladi). Biroq etnografizmlar aniq bir hududga tegishli realiyani nomlovchi unsur sifatida etnotil tizimidagi tub birlik sanaladi. Boshqacha aytganda, etnografizm dialektal so'z sifatida adabiy tilning birligi hisoblanmaydi. Ekzotik leksika esa, aksincha, ekstralingvistik omillar evaziga adabiy tilning lug'atida mavjud, biroq uning nafaol qatlamidan o'rin olgan so'zlardir. Shunga qaramay, ekzotizmlardan ayrimlarining ma'nosi uzoq qo'llanilish davriga ko'ra umum tomonidan tushunarli bo'lib qoladi. Jumladan, o'zbeklarda *madam*, *salyut*, *okay*, *papa*, *mama*, *kimono*, *restoran*, *kafe*, *bar*, *grant*, *ayfon*, *marketing*, *supermarket* kabi so'zlarni misol qilish mumkin. Leksikologiya ekzotik leksikaga tilda unga teng lug'aviy birlikning mavjud emasligiga asosan muqobilsiz leksika

sifatida yondashadi. Biroq muqobilsiz leksika deganda faqat ekzotik lug'aviy birliklarni tushunish noto'g'ri.

Ekzotik leksemalarning sinonim, antonim juftlari mavjud emas, kontekstual jihatdan ham alohida so'zlar bilangina sintagmatik aloqaga kirisha oladi. Bu esa ularning paradigmatic aloqadorligi past darajada ekanini isbotlaydi. Aytilganlardan farqli, umumiy denotatga ko'ra bitta mavzuviy guruhga birika oluvchi ekzotizmlargina o'zaro paradigmatic qatorni tashkil qila oladi.

Ekzotizmlarning neologizmlardan yana bir farqi – ularning yozma nutqda lotin alifbosida berilishi. Ko'pincha, mashhur olimlarning nomlari, alohida olingan ilmiy atama va terminlar bunga misol bo'ladi. O'zbek tilidagi ekzotik lug'at tarkibini asosan, arabizm, slavyanizm, anglisizm, gallitsizm, forsizmlar tashkil qiladi.

O'zbek leksikografiyasi

Leksikografiya (lug'at tuzish nazariyasi va amaliyoti) eramizdan oldingi davrlarda paydo bo'lgan. Turkiy leksikografiyada dastlabgi lug'atlar XI-XII asrlarda yaratilgan bo'lsa, Evropada, xususan, Rossiyada lug'at tuzish ishlari XVII asrlardan boshlangan.

Lug'at tuzishda: 1) didaktik tamoyil; 2) lingvodidaktik tamoyil; 3) tanlash-saralab olish tamoyili; 4) ehtiyojni qondirishga muvofiqlikni ta'minlash; 5) lug'atdan foydalanishning osonligi-qulayligini ta'minlash tamoyili; 6) berilgan materialning aniqligi, to'g'riligi va to'liqligini ta'minlash tamoyili (imlo, orfoepik, sinonim, omonim, antonim, frazema, paremlar lug'atlari shu tamoyilni ham nazarda tutib tuziladi. Masalan, imlo lug'ati so'zni to'g'ri yozishni ta'minlashni nazarda tutib tuzilgan); 7) til va nutq me'yorlariga amal qilish tamoyili; 8) ta'limiy tamoyil; 9) tarbiyaviy tamoyilga amal qilinadi.

Lug'atlar uch nuqtai nazardan tasniflanadi.

1. Hajm nuqtai nazaridan;
2. So'zlikning berilish usuli nuqtai nazaridan;
3. Maqsad nuqtai nazaridan.

Leksikografiya tamoyillari lug'atlarning turlariga mos ravishda o'zgarishi mumkin. Qaysi tamoyilning tayanch vazifasini bajarishi lug'atning maqsad va ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jumladan, "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" o'zbek tilidagi lug'aviy birliklarning to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlashni nazarda tutilib tuziladi, ya'ni so'zni oson – qulay talaffuz qilishni ta'minlash tamoyiliga amal qilish muhim. Shu kabi lingvistik (filologik) yoki ensiklopedik (qomusiy) lug'at yaratishning o'ziga xos umumiy va xususiy tamoyili bo'lishi mumkin. Shuningdek, lingvistik lug'atlarning izohli hamda tarjima turlarida umumiy tamoyillardan tashqari (foydalanishga qulaylik tamoyili), so'z ma'nolarini to'la yoki qisman izohlash kabi o'ziga xos xususiy tamoyillar katta ahamiyat kasb etishi ham mumkin.

Lug'atlarda maqolalarning joylashtirilishi har bir lug'atda ko'zda tutilgan maqsaddan, qaysi tamoyilga asoslanganlikdan, lug'at turi, xarakteri, hajmi kabi jihatlarni hisobga olgan holda tartiblashtiriladi. Shunga ko'ra:

- 1) alfavit tartibli lug'atlar;
- 2) tematik lug'atlar;

3) uyali lug'atlar ajratiladi.

Alfavit tartibli lug'atlarda so'zlikni tarkib toptirgan so'zlar ro'yxati alfavit tartibida beriladi. Unda so'zlar avvalo birinchi harflari asosida, har bir harf doirasida esa ichki harflari alfavit tartibida joylashtiriladi. Leksikografiyada so'zning birinchi harfi bo'yicha qilingan tartib "sirtqi tartib", keyingi harflar bo'yicha qilingan tartib "ichki tartib" deb yuritiladi.

Hozirgi o'zbekcha lug'atlar deyarli alfavit tartibli lug'atlardir. Chunki alfavit tartibli lug'atlar foydalanish uchun nihoyatda qulayligi bilan xarakterlanadi.

Tematik (mavzuviy) lug'atlarda so'zlikni tarkib toptirgan so'zlar ro'yxati ma'lum temalarga bo'lib beriladi. Ro'yxatni temalarga bo'lish turli ko'rinishlarda bo'ladi. Ko'p hollarda ular avval so'z turkumlari bo'yicha ajratib olinib, keyin ot, sifat, fe'l turkumiga oid so'zlar ichki tematik bo'linishlar bilan beriladi. Ba'zan esa so'zlik to'g'ridan-to'g'ri tematik qismlarga, uning ichida turkumlarga ajratiladi. Uning ichida alfavit tartibi qo'llanishi ham mumkin.

Uyali lug'atlarda tub so'z, undan yasalgan so'zlar shu so'z ichida beriladi. Tub so'zlar odatda alfavit tarkibida qayd etiladi. Qo'shma so'z va turgun birikmalar esa yetakchi komponenti hisoblangan tub so'z maqolasiga kiritiladi. Masalan, *tur* tub so'z, *turmoq, turma, turmak, turmaklamoq, turmachi, turmush, turmushlamoq, turum, turumtoy, turush, turshak, turg'un, turg'unlik* kabi yasama so'zlar bilan bir uyada beriladi.

Lug'atlar izohlash materiali, xarakteri va tuzilishiga, mohiyat-mazmuniga ko'ra, avvalo, ikki turga ajratiladi: ensiklopedik lug'atlar (qomusiy lug'atlar) va filologik (lingvistik) lug'atlar.

Ensiklopedik lug'atlarda til birliklari emas, balki so'z va birikmalar bilan ifodalangan narsalar, tarixiy voqealar, tarixiy va alohida mavqega ega bo'lgan shakllar, ijtimoiy va tabiiy hodisalar, geografik nomlar (mamlakatlar, shaharlar, okeanlar, dengizdan va hokazolar) haqida ma'lumot beriladi. Ularda so'zlarning ma'nolari, uslubiy va grammatik xususiyatlari izohlanmaydi. Ensiklopedik lug'atlarda faqat ot turkumiga mansub birlik – atoqli ot ifodalagan tushunchalar (mamlakatlar, shaharlar, ayrim shaxslar, narsa, hodisa-voqealar)ga izoh beriladi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", "Tibbiyot ensiklopediyasi", "Diniy ensiklopediya" kabi lug'atlar shu tipga kiradi.

Lingvistik lug'atning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan so'zlar, frazemalar, paremlar – ya'ni, til birliklarining ma'nolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berish.

Har ikki turdagi lug'atlar ma'lum tartibda (alifbo tartibida) tuzilgan so'zlikka, materialga ega bo'ladi. Shunga qaramay, ular bir-biridan tubdan farq qiladi: lingvistik lug'atning obyektiga lug'aviy birlik ko'rinishidagi materialni qamrab olib, so'z, uning ma'nosi, grammatik, uslubiy va boshqa xususiyatlari, so'zdan katta birlik (frazema, parema, grammatik ko'rsatkich (grammatik ma'lumot), toponim birliklar) kabilar haqida ma'lumot beradi. Shunga ko'ra, lingvistik lug'atning so'zligi barcha so'z turkumiga aloqador birliklardan tashkil topadi.

Har ikki lug'at tipi turli jihatiga ko'ra, yana ichki guruhlarga ajratiladi.

Jumladan, lingvistik lug'at turli maqsadda tuzilganligiga ko'ra:

1) umumiy lug'at; 2) xususiy (maxsus) lug'atga ajratiladi.

Umumiy lug'atda tilning umumiste'moldagi barcha so'zi o'z ifodasini topishi mumkin. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbekcha-ruscha lug'at", "Imlo lug'ati", "Orfoepik lug'at" kabi.

Maxsus lug'atda ma'lum sohaga yoki biror qatlamga aloqador so'z beriladi:

"Geografiya terminlari lug'ati", "Omonimlar lug'ati", "Paronimlar lug'ati" kabilar.

Lingvistik lug'at leksikografik tavsif mazmuni, vazifasi va usuliga ko'ra: 1) izohli lug'at (bunday lug'atda so'zning ma'nolari, qo'llanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyati ko'rsatib beriladi: "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1981-yilda Z.Ma'rufov tahriri ostida; 2006-2008-yillarda 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" kabilar); 2) xorijiy so'zlar lug'ati (bunday lug'atlarda muayyan tilga o'zlashgan, ammo o'zlashmaligi sezilib turgan boshqa til so'z va terminlari izohlanadi. Masalan: "Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati"ni (mas., O.Usmon., R.Doniyorov. - Toshkent: Fan, 1965; 2-nashri. -Toshkent: O'zbekiston, 1972)); 3) tarjima lug'at turlariga bo'linadi.

Tarjima lug'atlari qanday lug'aviy birlikni qamrab olishiga ko'ra ham turlarga ajratiladi: a) leksik birliklar tarjima lug'ati; b) frazemalar tarjima lug'ati; c) paremlar tarjima lug'ati (maqol, aforizmlar tarjima lug'ati) kabi. Shuningdek, ular hajm jihatdan ham alohida turga ajratiladi: "Katta hajmli lug'atlar"; "O'rtacha hajmli lug'at"; "Kichik hajmli (cho'ntak) lug'at" kabi.

XIX asrgacha arab-o'zbek, fors-o'zbek, turk-o'zbek ikkitilligiga asoslanib yoki aksincha tartibda tuzilgan tarjima lug'atlari yaratilgan. Bunga Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (XI asr), Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimatul adab" (XII asr), "Abushqa" o'zbekcha-turkcha izohli lug'ati (XVI asr, Turkiya), Toli Imoni Hiraviyning "Badoeul lug'at" o'zbekcha-forscha lug'ati (XVI asr boshi, Hirot), Muhammad Rizo Xoksorning "Muntaxabul lug'at" forscha-o'zbekcha lug'ati (XVIII asr oxiri, Xiva), Mirzo Mehdiyxonning "Sangloh" o'zbekcha-forscha lug'ati (XVIII asr, Eron), Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" chig'atoycha-turkcha lug'ati (XIX asr, Turkiya)ni misol qilib ko'rsatish mumkin. XX asrda ular qatoriga rus, ingliz, nemis, frantsuz, ispan, hind, yapon tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lug'atlar ham qo'shildi.

5) Dialektal (sheva) lug'at. Lingvistik lug'atlarning bu turida muayyan tilning lahja va shevalariga xos bo'lgan, fonetik yoki semantik jihatdan adabiy tildagi so'zlardan farq qiladigan so'zlar ko'rsatiladi (mas., F.Abdullaevning "Xorazm shevalari. 1-qism" (1961), S.Ibrohimovning "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" (1-kitob 1956, 2-3-kitoblar 1959), akademik Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida nashr etilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati" (1972), T.Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari" (2011), B.To'ychiboev., Q.Qashqirliylarning "Zominning til qomusi" (2012) asarlari);

6) etimologik lug'at – bunday lug'atlar so'zlarning kelib chiqishini, manba tildagi ma'nosini, tarkibiy tuzilishini, tovush yoki ma'no jihatdan o'zgarishini ko'rsatib beradi (Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (1-

kitob: turkiy soʻzlar, 2000; 2-kitob: arab soʻzlari, 2003; 3-kitob: fors-tojikcha birliklar, 2009));

7) qiyosiy lugʻat. Bunday lugʻat bir oilaga mansub tillardagi soʻz boyligini solishtirib, taqqoslab, ulardagi tafovut qonuniyatlarini oʻrganish maqsadida tuziladi. Ularning dastlabkisi Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asaridir;

8) imlo lugʻati. Bunday lugʻat soʻzlarning mavjud imlo qoidalariga binoan toʻgʻri yozilish shaklini qayd etadi. 1929-yildan to hozirgi kungacha kirill va lotin alifbolariga asoslangan oʻzbek yozuvida oʻzbek tilining turli hajmdagi 20 dan ortiq imlo lugʻati yaratilgan;

9) talaffuz (orfoepik) lugʻati. Bunday lugʻatda soʻzlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi (M.Sodiqova., Oʻ.Usmonova “Oʻzbek tilining orfoepik lugʻati” (1977), E.Begmatov “Oʻzbek adabiy talaffuzi lugʻati” (1984);

10) morfem lugʻatda tildagi soʻzlarning morfem tuzilishi koʻrsatiladi. “Oʻzbek tilining morfem lugʻati” 1977-yilda A.Gʻulomov hamuallifligida yaratilgan;

11) frazeologik lugʻat – bunday lugʻatlarning soʻzligi frazeologik birliklardan, barqaror iboralardan tashkil topadi (mas., Sh.Rahmatullayevning “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati” (1978), M.Abdurahimovning “Qisqacha oʻzbekcha-ruscha frazeologik lugʻat” (1980), E.Umarovning “Frazeologicheskii slovar “Xazoyinul maoniy” Alisher Navoi” lugʻati (1971);

12) chastotali lugʻat – bunday lugʻatlarda soʻzlarning qoʻllanish miqdori va foizi haqida maʼlumot beriladi (I.Kissenning “Slovar naibolee upotrebitelnykh slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka” (1972), S.Rizayevning “Oʻzbek bolalar adabiyoti tili leksikasining chastotali lugʻati” (1980), S.Rizayev., N.Boʻronovlarning “Abdulla Qahhor “Sinchalak” povesti tili leksikasining chastotali lugʻati” (1980));

13) ters (chappa) lugʻat – bunday lugʻatlarda soʻzlar teskari (soʻng) tomonidan oʻqilishi boʻyicha alifbo tartibida joylashtiriladi (R.Qoʻngʻurov, A.Tixonovlarning “Oʻzbek tilining chappa lugʻati” (1968), B.Yusufning “Turk tilining ters lugʻati” (2006));

14) mavzuviy (mavzuli) lugʻat – bunday lugʻatlar soʻzligini tarkib toptiruvchi soʻzlar roʻyxati maʼlum mavzularga boʻlib beriladi (A.Tixonov hamuallifligidagi “Russko-uzbekskiy tematicheskii slovar” (1975));

15) omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar lugʻatlarining soʻzliklari shakldosh (omonim), maʼnodosh (sinonim), zid maʼnoli (antonim) hamda talaffuzdosh (paronim) leksik birliklardan tashkil topadi va lugʻatda ularning izohi beriladi (Sh.Rahmatullayevning “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati” (1984), A.Hojiyevning “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati” (1974), Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurovlar tomonidan yaratilgan “Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati” (1980), A.Maʼrufovning “Paronimlar lugʻati” (1974), R.Rasulov va I.Umirovlarining “Oʻzbek tili tasviriy ifodalarining izohli lugʻati”, A.Omonturdiyevning “Oʻzbek tilining qisqacha evfemik lugʻati”, N.Mahmudov va D.Xudoyberganovlarning “Oʻzbek tili oʻxshatishlarining izohli lugʻati” (2013));

16) antroponimik va toponimik lugʻatlarning soʻzligi atoqli ot yoki joy nomlaridan tashkil topadi (E.Begmatovning “Oʻzbek ismlari” (1991), “Oʻzbek

ismlari ma'nosi. 14600 ism izohi. (1998, 2006), S.Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?" (1970), "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" (2005), Z.Do'simov, X.Egamovlarning "Joy nomlarining izohli lug'ati" (1977), B.O'rinboevning "Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlari izohli lug'ati. 2003), T.Nafasovning "Qashqadaryo qishloqnomasi" (2009) lug'ati);

17) yozuvchi yoki asar tilida qo'llangan so'zlarni izohlovchi lug'atlar. Bunday lug'atlarni tuzish o'zbek leksikografiyasi tarixida XVI asrdan Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganish maqsadida boshlangan (birinchisi "Abushqa"). XVI-XIX asrlar mobaynida turli hajmdagi 10 ga yaqin lug'at yaratilgan. Bugungi kunda ham bu tipdagi lug'atlar yaratilmoqda: "Alisher Navoiy asarlari lug'ati" (1972), "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" (1-4 jildlar, 1983-1984), "Qur'oni karim" so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli lug'ati" (B.Xasanov, 1995), "Alpomish" dostonining izohli lug'ati" (T.Mirzaev va b., 2007);

18) terminologik lug'at – bunday lug'atlarning so'zligi ma'lum bir fan va texnika tarmog'i, ijtimoiy yoki xo'jalik hayotining biror sohasiga oid so'z-terminlardan iborat bo'ladi. Bunday lug'atlar so'zlikning berilishi va izohlanishiga ko'ra, entsiklopedik lug'atlar bilan lingvistik lug'at belgilariga ega bo'ladi. Ular bir, ikki va undan ortiq tilli, izohsiz (ekivalent lug'aviy birliklarni yonma-yon keltirishdan iborat), izohli hamda entsiklopedik xarakterda bo'lishi mumkin.

XX asrdagi dastlabgi terminologik lug'at – Nazir To'raqulovning "Rus-o'zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamali lug'ati" 1922-yilda nashr etilgan. Shundan keyingi o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda fan va texnikaning deyarli barcha soha va bo'limlari bo'yicha 300 ga yaqin turli hajm va turli xarakterdagi terminologik lug'at nashr etildi.

Sohaviy lug'atlarda terminlar

Maxsus lug'at – bu asosan ma'lum bir bilim sohasi, kasb vakillari tomonidan ishlatiladigan va tushuniladigan so'zlar va so'z birikmalaridir: mat. *logarifma, normal; nerd. polen, inflorescence* va boshqalar. Maxsus so'zlar orasida atamalar va professionalizmlar katta qismni tashkil qiladi.

Terminlardan tashqari maxsus lug'at tarkibiga kasbiy mahorat – yarim rasmiy xarakterdagi so'zlar va iboralar ham kiradi, ular uchun ushbu fan, texnika sohasi va hk.da rasmiy ravishda qabul qilingan belgi mavjud bo'lmagan ba'zi bir tushunchalar mavjud. Bularga, masalan, AKT professionalizmlaridan: o'lim moviy ekrani (kompyuter operatsion tizimidagi xatoliklar) va boshqalar kiradi. Shuningdek, hunarmandchilikdagi ba'zi tushunchalar va obyektarning nomlari ham professionalizm deb ataladi.

Professionalizmlar professional jargon bilan birgalikda – ma'lum bir kasb vakillari, har qanday professional jamoaning nutqida keng tarqalgan maxsus va maxsus bo'lmagan tushunchalarining norasmiy belgilanishi. Har qanday kasbda shu faoliyat turiga xoslangan jargonlar ham mavjud bo'ladi.

Professional jargon, atamalar va professionalizmlar birgalikda kasbiy muhitning o'ziga xos voqeligini tasvirlab, uning lisoniy manzarasini shakllantirishda ishtirok etadi.

O'zbek terminologik lug'atlari fan sohasining deyarli barchasini qamrab olgan deyish mumkin.

Tilshunos olim A.Madvaliev zamonaviy terminografiyasining XX asrning 20-yillaridan boshlanganini qayd etib, dastlabki terminologik lug'at N.To'raqulovning 1922 yilda chop etilgan "Rus-o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy lug'ati" ekanini ta'kidlaydi.

Olim zamonaviy terminografiyaga oid lug'atlarni umumiy holda 48 ta guruhga bo'lib keltiradi. Bular:

1. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya;
2. Iqtisodiyot, bozor munosabatlari, bank-moliya terminologiyasi;
3. Falsafa terminologiyasi;
4. Huquqshunoslik terminologiyasi;
5. Ma'naviyat va ma'rifat terminologiyasi;
6. Pedagogika va psixologiya, uslubiyat terminologiyasi;
7. Ish yuritish terminologiyasi;
8. Kutubxonachilik va bibliografiya terminologiyasi;
9. Tarix terminologiyasi;
10. Harbiy terminologiya;
11. Tilshunoslik terminologiyasi;
12. Onomastika terminologiyasi;
13. Adabiyotshunoslik terminologiyasi;
14. Tasavvuf terminologiyasi;
15. Musiqa terminologiyasi;
16. Jismoniy madaniyat va sport terminologiyasi;
17. Matematika terminologiyasi;
18. Chizmachilik terminologiyasi;
19. Astronomiya terminologiyasi;
20. Fizika terminologiyasi;
21. Mexanika terminologiyasi;
22. Kimyo terminologiyasi;
23. Tibbiyot terminologiyasi;
24. Anatomiya terminologiyasi;
25. Farmatsevtika terminologiyasi;
26. Ekologiya va tabiat muhofazasiga oid terminologiya;
27. Fiziologiya terminologiyasi;
28. Biologiya terminologiyasi;
29. Zoologiya terminologiyasi;
30. Botanika terminologiyasi;
31. O'simlikshunoslik terminologiyasi;
32. Tuproqshunoslik terminologiyasi;
33. Neft va gaz sohalari terminologiyasi;
34. Geodeziya va kadastr terminologiyasi;
35. Gidrotexnika, melioratsiya, suv xo'jaligi terminologiyasi;

36. Hidrologiya, gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi terminologiyasi;

37. Meteorologiya terminologiyasi;

38. Metrologiya terminologiyasi;

39. Geografiya terminologiyasi;

40. Geologiya va konchilik terminologiyasi;

41. Elektrotexnika terminologiyasi;

42. Energetika terminologiyasi;

43. Umumtexnika, texnika soha texnologiyalari terminologiyasi;

44. Temir yo'l terminologiyasi;

45. Paxta va to'qimachilik terminologiyasi;

46. Qurilish, qurilish texnologiyasi va materiallari terminologiyasi;

47. Qishloq xo'jaligi va uning sohalari terminologiyasi;

48. O'zlashma terminologiya¹⁸.

O'zbek terminologiyasini takomillashtirish masalalari: sohaviy terminologiyada amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat miqdor, shuningdek sifat o'zgarishlarga ham yuz qo'ydi. O'zbek tili imkoniyatlaridan foydalangan tarzda terminlar tizimini tartibga solishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nazorat savollari

1. Til lug'at sathining terminlar evaziga boyib borishi qanday kechishini tushuntiring.

2. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari to'g'risida ma'lumot bering.

3. Tilning lug'at tarkibi qanday unsurlar tashkil topadi.

4. O'zbek leksikografiyasining rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot bering.

5. Umumiy va maxsus lug'at turlari haqida gapiring.

6. Akademik, ommabop va o'quv lug'atlari qanday lug'atlar?

7. Sohaviy lug'atlarda terminlarning berilishini o'zbek sohaviy lug'atlari misolida tushuntiring.

Adabiyotlar

1. Ўзбек тили лексикологияси / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, Фан, 1981.

2. Антонова М.В., Лейчик В.М. Роль концептуальной структуры в формировании отраслевой терминологии // Термины и их функционирование. – М., 1987. – С. 28 – 29.

¹⁸ Мадвалиев А. Термин – терминологик лугат – изохли лугат // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. № 6.

3. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – М.: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1957. – С. 3.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966.
5. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? – Тошкент: Фан, 1972.
6. Ахмедов О.С. Солиқ ва божхона терминларини инглиз тилидан ўзбек тилига берилиши: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011.
7. Будагов Р. А. Введение в науку о языке. – М., 1965. – С. 33, 36.
8. Быкова Г.В. Лакуарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: Изд-во БГУ, 2003. – 276 с.
9. Гак В. Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблем терминологии. — В сб.: Стилистические проблемм языков науки, терминологии и информатики, ч. 1. – М., 1971. – С. 9.
10. Дадабоев Х. Немотивированные термины узбекского языка // Материалы международной практической конференции “Проблемы и перспективы развития высшего образования в современной конкретной среде”. II том. 30- Наурыз. – Шымкент, 2017. – С. 95-100.
11. Дадабоев Х. Ўзбек тилида морфологик усул билан термин яшаш // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VII. – Тошкент, 2016. – Б. 4-10.
12. Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Нодирабегим, 2020.
13. Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1973.
14. Xasanov B. Javohir hazinalari. – Toshkent, 1989.
15. Umarov E. Eski o‘zbek lug‘atlari. – Toshkent, 1992.
16. Даниленко В. П. Как создаются термины // Русская речь. № 2. 1967. – С. 58.
17. Древнетюркский словарь / под ред. Д.М.Насилова, И.В. Кормушина и др.; сост. Т.А. Боровкова, Л.В. Дмитриева, А.А. Зырин, И.В. Кормушин и др. 2-е изд., пересмотр. – Астана: Ғылым, 2016. – 760 с.
18. Косимов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1982.
19. Кутина Л. Л. Формирование терминологии физики в России. – М. – Л., 1966. – С. 267.
20. Лейчик В.М. Издание 3-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2007.
21. Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1986.
22. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017.
23. Мадвалиев А. Термин – терминологик луғат – изоҳли луғат // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. № 6.

24. Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1995.
25. Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол.фан.ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994.
26. Мудрак О.А. Классификация тюркских языков и диалектов: (с помощью методов глоттохронологии на основе вопросов по морфологии и исторической фонетике). – М.: РГГУ, 2009. 191 с. (Orientalia et Classica. Труды Института восточных культур и античности. Вып. XXIII).
27. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 34.
28. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). – Владимир, 1975. – 96 с.
29. Normamatov S. O'zbek leksikografiyasi asoslari. – Toshkent, 2020.
30. Пиотровский Р. Г. К вопросу об изучении термина // Уч зап. ЛГУ. № 161. Серия филол. наук, выш. 18. – Л., 1952. – С. 34.
31. Реформатский А. А. Введение в языковедение / Под ред. В.А. Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996. – С.45.
32. Реформатский А. А. Что такое термин и терминология. — В сб.: Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 51.
33. Саидова М. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996.
34. Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2005.
35. Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1984.
36. Словарь социолингвистических терминов. – М., 2006. – С. 312.
37. Урунов Т. Узбекская, овцеводческая терминология (на материалах Кашкадарьинской области): Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1964.
38. Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси: Филол.фан.ном. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1994.
39. ЎТИЛ. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 73.
40. Хуррамов К. Узбекские народные географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1984.
41. Юлдашев И.Ж. Библиотечно-библиографическая терминология узбекского языка: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1988.
42. Abdushukurov B., Sindarov L. 2019. XI — XIV asr turkiy yozma manbalarda qoʻllanilgan zoonimlar // Oltin bitiglar. 1: 67—94.

5-mavzu. TERMINLARNING YASALISHI

Reja:

1. Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalar
2. Sohaviy terminlarning morfologik, sintaktik, semantik usul bilan yasalishi.

Tayanch tushunchalar: *o'zbek tilida terminlar hosil bo'lish, yasalish usullari, terminlarning tuzilishiga ko'ra turlari.*

Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalar

Tub terminlar o'zbek terminologiyasi tizimining barcha shakllanish va rivojlanish bosqichlarida ko'zga tashlanadi. Xususan: *to'ra, tamg'a, qin, kung, qul, yov, qorin, jag', o'pka* kabi tub terminlar deyarli barcha terminologik tizimlar uchun xosdir. Yasama terminlar o'zbek terminlogiyasining katta qismini tashkil etadi. Yasama terminlar morfologik va sintaktik yo'l bilan hosil qilinadi.

Affiksial usul bilan yasalgan ot turkumli termin (turdosh ot)lar

O'zbek tili terminlari tizimi o'zga qarindosh turkiy tillardagidek sodda, yasama, qo'shma, qisqartma va so'z birikmali terminlardan iborat.

O'zbek tili termin yasalishida morfologik (affikslar yordamida so'z yasalishi), sintaktik hamda semantik usullar o'ta mahsuldor va faol hisoblanadi. O'zbek tili terminologiyasi asosan ot, sifat, ravish va fe'l so'z turkumlariga xos so'zlardan iborat. Biroq ularning katta miqdorini ot – terminlar, sifat – terminlar tashkil etadi.

O'zbek tilida affiksial (qo'shimchalar yordamida) termin yasalishi o'zbek tili so'z yasalish tizimida ustuvor maqomga ega.

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifat – terminlar.

Morfologik usul bilan hosil qilingan sifat – terminlar quyidagi ikki guruhga taqsimlanadi: 1) ismlardan yasalgan sifat-terminlar; 2) fe'llardan yasalgan sifat-terminlar.

Ot (sifat) turkumli so'zlardan yasalgan terminlar –chi affiksli so'z yasovchi model

O'zbek tilida termin yasashning –chi affiksi modeli. X.Dadaboev hozirgi zamon o'zbek tilida termin yasashning –chi affiksli modeli haqidagi quyidagilarni bayon qiladi.

O'ta sermahsul va turg'un hisoblanmish –chi affiksli model hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida amaliy qo'llanishda bo'lgan terminlarda kuzatiladi. Mazkur model turdosh otlar yasovchi modellar qatorida eng mahsuldorligi va faolligi bilan ajralib turadi. Mazkur model ot so'z turkumidan aksariyat shaxs oti, ish - harakatni bajaruvchi, biror kasb bilan shug'ullanuvchi, ijtimoiy mansublik kabi ma'nolarni ifodalovchi otlarni hosil qiladi.

-chi affiksining tarixiy taraqqiyoti jarayonida harakat-holat, kasb-hunar, mutaxassislik ma'nolari ifodalashi ravshan namoyon bo'ladi.

VII-XIV asr qadimgi turkiy run hamda eski turkiy til yozma manbalarida ushbu affiks ishtirokida yasalgan *bedizchi*, *bitkachi*, *ayg'uchy*, *alymchy* singari juda ko'p terminlar uchraydi.

Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub "Muqaddimat ul-adab" lug'atida bu qo'shimcha ishtirokida yasalgan, turli kasb va hunar egalarini anglatuvchi yigirmadan ortiq nomlar qayd etilgan: *paxsachy*, *yag'chy*, *chag'yrchy*, *byshaqchy* va h.k.

Yetuk mutafakkir Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida -chi affiksining: *qurchy*, *xizanachy*, *yarag'chy*, *chavganchy*, *payzachy*, *shukurchy*, *yurtchy*, *shilanchy*, *axtachy*, shuningdek: *qushchy*, *barschy*, *qoruqchy*, *tamg'achy*, *jibachi*, *yorg'achy*, *halvachy*, *kemachi*, *qo'ychy* singari turfa mansab va rutbalarni ifodalovchi, shuningdek, *qazchy*, *qivchy*, *turnachy*, *kiyikchi*, *tavushqanchy* kabi qush ovi bilan bog'liq ko'pgina ot-terminlarni yasashdagi faolligini qayd etadi.

Ushbu modelning ilmiy-texnikaviy inqilob davrida, globallashuv va kompyuterlashtirish asrida so'z yasalişdagi vazifasi o'zbek tilining terminologik so'z yasaliş me'yorlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

-chi bilan yasalgan otlarning ma'noviy o'ziga xosliklari u qo'shilayotgan o'zakka hamda uning o'ziga tegishli bo'lgan xususiyatlar ta'sirida shakllanadi. -chi affiksli ot - terminlar semantik strukturasi ko'ra bir qancha guruhlariga bo'linadi.

1. Biror bir kasb-hunar, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi subyekt nomini ifodalovchi terminlar: *traktorchi*, *sportchi*, *vositachi*, *neftchi*, *suvoqchi*, *elektrchi*, *ekskavatorchi* va h.k.

Umumiy hodisalar hamda kasb-hunar, mutaxassislik terminlari qatori ularning o'z terminologiyasiga ega bo'lgan turli soha va yo'nalishlari ham mavjuddir.

1) -chi affiksi kasb-hunar, mutaxassisliklarning umumiy ma'nosini bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, ushbu kasb-hunar va mutaxassisliklarga taalluqli ot-terminlarni yasaydi: *xizmatchi*, *jangchi*, *chorvachi* va h.k.;

2) muayyan kasb-hunar, mutaxassislikning aniq sohasida band bo'lgan shaxsni anglatuvchi ot-terminlarni hosil qiladi: *tankchi*, *avtomatchi*, *dozimetrchi*, *zenitchi*, *pontonchi*, *karatechi*, *gimnastikachi*, *voleybolchi*, *bo'yoqchi*, *betonchi*, *montajchi*, *payvandchi*, *g'ijjakchi*, *skripkachi*, *rubobchi*, *nog'orachi* va h.k.

-chi affiksli model kasb-hunar, faoliyatning aniq sohasini ifodalovchi nomlardan rang-barang mazmun-ma'noli otlarni yuzaga chiqaradi. Chunonchi:

a) biror narsa-predmet, buyum, ashyo yaratuvchi subyekt nomini bildiruvchi terminlar yasaydi: *taqachi*, *gilamchi*, *domnachi*, *muqovachi*, *beshikchi* va h.k.;

b) tegishli faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi, muayyan xatti-harakat egasi bo'lgan shaxs nomini anglatuvchi terminlarni hosil qiladi: *izlanuvchi*, *ayg'oqchi*, *qo'poruvchi*, *ixtirochi*, *arendachi*, *auksionchi*, *surushtiruvchi*, *taftishchi* *isyonchi*, *bosqinchi*, *navbatchi*, *jinyoatchi*, *to'quvchi*, *terimchi*, *namoyishchi*, *himoyachi*, *marofonchi*, *muzokarachi*, *kuzatuvchi*, *nazoratchi*, *boshqaruvchi* va h.k. va h.k.;

v) muayyan kasb-hunar sohasida qo'llanuvchi asbob-uskuna, jihoz, buyum, texnika vositalari nomlaridan ushbu texnika vositalarini boshqaruvchi shaxslar otini

yasaydi: *mototsiklchi, tankchi, buldozerchi, to'pchi, granatamyotchi, mashinachi, greyderchi, ekskavatorchi* va h.k.;

g) biror bir obyektga mas'ul, mutasaddi kishi nomini ifodalovchi terminlarni yuzaga keltiradi: *omborchi, do'konchi, korxonachi, dorixonachi* va h.k.;

d) aniq faoliyat, kasb-hunar soha yo'nalishini anglatuvchi asoslarga qo'shilib, mazkur soha bilan band shaxslar nomini bildiruvchi terminlar yasaydi: *dengizchi, yo'lchi, atomchi, metallchi, metrochi, donnachi* va h.k.;

ye) fanning turli sohalarida xizmat qiluvchi mutaxassislar, xodimlar nomini ifodalovchi terminlar yasaydi: *tarixchi, adabiyotchi, folklorchi, lug'atchi, matnchi, tilchi* va h.k.;

j) muayyan narsa-predmet, buyum, mahsulotni tayyorlovchi yoki uni sotuvchi subyekt nomini bildiruvchi terminlarni voqelantiradi: *morschi, gazetachi, holvachi, sutchi, qandolatchi, pishiriqchi* (1. Qandolatchi, 2. Qandolat mahsulotlari, pishiriq sotuvchi) *paxtachi* (1. Paxta yetishtiruvchi, terimchi, 2. Paxta sotuvchi), *pashmakchi* (1. Holvachi, 2. Pashmak sotuvchi), *qalpoqchi* (1. Qalpoq tikuvchi, 2. Qalpoq sotuvchi), *beshikchi* (1. Beshiksoz, 2. Beshik sotuvchi) va h.k.

l) Muayyan ijtimoiy-siyosiy kuch, guruh, yo'nalish, oqim tarafdori nomini anglatuvchi terminlarni hosil qiladi: *monarxiyachi, respublikachi, separatchi, oppozitsiyachi, kantchi* va h.k.

3. Sport jamiyatlari va klublar nomlarini ifodalovchi so'zlarga qo'shilib, shu jamiyat yoki klublar a'zolarini anglatuvchi terminlar yasaydi: *paxtakorchi, dinamochi, navbahorchi* va h.k.

So'nggi vaqtlarda fan, texnika, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi natijasida *-chi* affiksi ishtirokida narsa-predmet, buyum, apparatlar nomlarini atovchi terminlarning miqdori yanada ortdi. Jumladan: *bombardimonchi, qiruvchi aviatsiya, shturmchi, fotorazvedkachi samolyot* singarilarni misol qilish mumkin.

6. Zoonimlar yasalishida ishtirok etadi: *kemiruvchi, ninachi, baliqchi, sutemizuvchilar* kabi.

-lik affiksli termin yasovchi model. Ushbu qolip o'zbek tilidagi o'ta sermahsul so'z yasovchi modellardan biri bo'lib, uning ko'magida nafaqat sof o'zbekcha (turkiycha), balki o'zlashma so'zlardan ham quyidagi turdagi ot-terminlar hosil qilinadi:

1) Ruhiy holat ma'nosini ifodalovchi ot-terminlar: *safarbarlik* ("mobilizatsiya"), *jangovorlik* ("боевые качества"), *ishtahasizlik* ("giporeksiya") va h. k.;

2) belgi – xususiyat, sifat yoxud holatni ifodalovchi ot-terminlar: *zichlik, suyuqlik, tenglik, ko'rlik* ("ablepsiya"), *sarosimalik, gomogenlik, debillik* va h.k.;

3) qandaydir yumush, mashg'ulot, vazifaga mo'ljallangan narsa, buyum, ashyo nomini ifodalovchi terminlar: *urug'lik, qishlik, qishlik, paxtalik, taglik* va h.k.;

4) mansab, lavozim otlari: *boshliq*;

5) ma'lum bir joy, yerni nomlovchi ot-terminlar: *tog'lik, qirlik, jarlik, qumlik, bo'shliq* va h.k.;

6) shaxsning ijtimoiy, ma'muriy maqomi, kasb-hunari, yashash joyi kabi ma'nolarni ifodalovchi ot-terminlar: *askarlik, fuqarolik, prezidentlik, rektorlik, jarrohlik, mashinistlik, radistlik, shaharlik* va h.k.;

7) hosil qiluvchi asosning ko'lami, hajmi yoki sifati natijasi ma'nolarini ifodalovchi ot-terminlar: *yettilik, birlik, ko'plik, ikkilik, to'rtlik*;

8) pul birliklari nomlarini bildiruvchi terminlar: *so'mlik, dollarlik, markalik* va h.k.;

9) shaxsning faoliyat turi nomlarini atovchi terminlar: *temirchilik, payvandchilik, aviasozlik, po'latsozlik, mashinasozlik* va h.k.;

10) sodir etilgan, amalga oshirilgan muayyan xatti-harakat belgilarini anglatuvchi ot-terminlar: *jinoyatchilik, huquqbuzarlik, homiylik, vasiylik, badihago'ylik, maddohlik, liberallik* ("liberalizm") va h.k.

-lik//liq affiksi yasama so'zlar bilan birikib, asl o'zbekcha terminlarni voqelantiradi. Bunday holatlarda u tubandagi qo'shimchalar ishtirokida turfa termin - derivatlar yasaydi: -siz + lik: *vaznsizlik, uyqusizlik* ("agripniya"), *shuursizlik, daxlsizlik, madorsizlik* va h.k.;

-dosh + lik: *o'rindoshlik, quoldoshlik, qarindoshlik* va h.k.;

-mas+lik: *chanqamaslik* ("adipsiya"), *suvo'tmaslik, yurolmaslik* ("abaziya"), *bitmaslik* va h.k.;

-chan+lik: *eruvchanlik, zirhteshuvchanlik, sezuvchanlik, cho'ziluvchanlik, oquvchanlik, yashovchanlik, o'zgaruvchanlik* va h.k.;

-li+lik: *chidamlilik, kalloriyalilik, daromadlilik* va h.k.;

-qoq+lik: *botqoqlik, yopishqoqlik, chanqoqlik, qayishqoqlik* va h.k.;

-(i)sh+lik: *yanglishlik, cheklanishlik, yemishlik* va h.k.;

-roq+lik: *yaltiroqlik, chinqiroqlik, o'troqlik, baqiroqlik* va h.k.;

-lik// -liq affiksi chet tillardan kirgan so'z yasovchi morfemalar yordamida yuzaga chiqqan yasama so'zlardan ot-terminlar hosil qiladi: -don+ lik: *bilimdonlik*;

-soz+lik: *mashinasozlik, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik, traktorsozlik, shaharsozlik* va h.k.;

-dor+lik: *chorvadorlik, aybdorlik, unumdorlik, quldorlik, hosildorlik, gumondorlik, homiladorlik* va h.k.;

-vor+lik: *ulug'vorlik, tantanavorlik* va h.k.;

-kor(-gor, -kar)+lik: *sholikorlik, g'allakorlik, gunohkorlik, hamkorlik* va h.k.;

-boz+lik: *miltiqbozlik, fohishabozlik, guruhbozlik, kartabozlik, gurungbozlik, qimorbozlik*;

-do'z+lik: *yelkando'zlik, etikdo'zlik, telpakdo'zlik* va h.k.;

-kash+lik: *chizmakashlik, pillakashlik* va h.k.;

-xo'r+lik: *qonxo'rlik, odamxo'rlik, tekinxo'rlik, poraxo'rlik*;

-paz+lik: *somsapazlik, oshpazlik* va h.k.;

-shunos+lik: *o'lkashunoslik, tuproqshunoslik, metallshunoslik, tilshunoslik, huquqshunoslik, qonunshunoslik* va h.k.;

-bon+lik: *posbonlik, bog'bonlik, qo'ychibonlik* va h.k.;

-parvar+lik: *kambag'alparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik* va h.k.;

-furushtilik: *odamfurushtilik, bangifurushtilik, terifurushtilik* va h.k.;

-parastlilik: *butparastlilik, otashparastlilik, mansabparastlilik, shaxsiyatparastlilik, aqidaparastlilik* va h.k.;

-xonlilik: *dostonxonlilik, gazetaxonlilik, navoiyxonlilik, kitobxonlilik* va h.k.;

-garlilik: da'vogarlilik, savdogarlilik, zargarlilik va h.k.

Ot (sifat) + lik/liq modeli mavhum ma'nosini bilan hozirgi o'zbek tilida, xususan, termin yasashda juda sermahsul va faol qolip hisoblanadi.

-lik/-liq affiksi: a) qurol, asbob, moslamalar nomlari; b) hosil qiluvchi so'z asosida shakllangan joy, yer nomlari; v) pul birliklari nomlarini yasashda kammahsuldir. Aksincha, murakkab tarkibga ega -chilik (-chi+lik) qo'shimchali model termin yasash jarayonida faol qatnashadi. Ushbu qolip quyidagi terminlarni hosil qiladi:

1) kasb, hunar, mashg'ulot va soha nomlari: *uzumchilik, qorako'chilik, me'morchilik, tutchilik* va h.k.;

2) umumlashtiruvchi nomlar: *qurg'oqchilik, mo'chilik, mahaliychilik, ma'muriyatchilik, rasmiyatchilik* va h.k.;

3) tegishli ta'limot, ijtimoiy-siyosiy oqim nomi: *so'chilik, ozchilik, neokantchilik* va h.k.

-lash affikli termin yasovchi model. Jarayon, xatti-harakat nomini ifodalovchi terminlar yasaydi: *kurtaklash, payvandlash, qo'zilash, standartlash, liofillash, parmash, xromlash, frezerlash, alyuminlash, geperinlash, toblash, presslash, modernizatsiyalash, mexanizatsiyalash* va h.k.

-lashtirish affikli termin yasovchi model. *-lash* affikli so'z yasovchi model singari asosan ruscha-baynalmilal o'zlashmalardan "hosil qiluvchi asosning nomi bilan atalgan ta'minot, asbob-uskuna, jihoz" umumiy ma'nosini ifodalovchi terminlarni vujudga chiqaradi: *avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, telefonlashtirish, elektrlashtirish, pasportlashtirish, gazlashtirish* va h.k.

-cha affikli termin yasovchi model. O'zbek tili grammatikasiga doir asarlarda *-cha* ot turkumli so'zlarning kichraytirish - erkalash shaklini yasovchi mahsuldor, urg'uli affiks tarzida baholanadi.

Mazkur affiks (o'ziyurar) aravacha, shponka ariqchasi, havo yostiqchasi, ko'chma vagoncha kabi bir qator texnika terminlarini hosil qilishda qatnashadi.

Tibbiyot va biologiyada ushbu qo'shimcha bilan yasalgan terminlar katta miqdorni tashkil qiladi: *miyacha, qalpoqcha, katakcha, tangacha, tayoqcha, pufakcha, teshikcha, qiltiqcha, kokilcha* va h.k.

-dosh affikli termin yasovchi model terminlar hosil qilishda mahsuldor bo'lib:

1) ijtimoiy sharoit, umumiy faoliyat, hamkorlik munosabatidagi shaxslar nomini ifodalovchi ot-terminlar yasaydi: *yurtdosh, maslakdosh, quroldosh, kursdosh, polkdosh* va h.k.;

2) umumiy belgi, sifat, xususiyatni anglatuvchi terminlarni shakllantiradi: *jinsdosh, ohangdosh, yo'ldosh* va h.k.;

3) ba'zi bir tilshunoslik terminlarini voqelantiradi: *sifatdosh, ravishdosh, undosh, shakldosh, ma'nodosh, o'zakedosh* va h.k.

Mazkur model o'zbek tili texnika terminlarini yasashda qatnashmaydi. Ammo botanika terminlari tizimida o'ta sermahsulligi bilan ajralib turadi: *chinniguldosh, ayiqtovondoshlar, boshqodosh, chuchmomadoshlar, ziradosh, ra'nodosh, tokdosh, gulnavshodadosh* va h.k.

-soz affiksli termin yasovchi model. Forscha-tojikcha *-soz* suffiksli mazkur so'z yasovchi model shaxs nomini ifodalovchi ot-terminlar yasashda nisbatan faolligi bilan ajralib turadi. *-soz* suffiksi bilan hosil qilingan qator derivatlarning o'zbek tili texnikaviy terminologiyasi tizimidagi miqdori nisbatan katta: *samolyotsoz, kemasoz, soatsoz, traktorsoz, vertolyotsoz, metallsoz, asbobsoz, vagonsoz, stanoksoz* va h.k.

-gar // -kar, -kor // -gor affiksli termin yasovchi model. Fors-tojik tilidan kirib kelgan ushbu suffiksli model yordamida muayyan kasb-hunar, faoliyat, xatti-harakat egalarini anglatuvchi terminlar yasaladi: *chilangar, zargar, da'vogar, sholikor, javobgar, tadbirkor* va h.k.

-kash affiksli termin yasovchi model. Kelib chiqishi forscha-tojikcha hisoblanuvchi *-kash* affiksi ishtirokida yasalgan terminlar ma'lum kasb-hunar bilan mashg'ul shaxsni ifodalaydi: *chizmakash, arrakash, ko'chirmakash* kabi. O'zbek tili texnika terminlarini hosil qilishda o'ta kammahsuldir.

-dor affiksli termin yasovchi model. Fors - tojik tilining elementi bo'lmish -dor suffiksli ushbu kammahsul model: 1) shaxs nomini: *bayroqdor, nishondor*; 2) mavjudlik, egalik sifatlarini yasashda qatnashadi: *zarbdor, mahsuldor, chiqimdor* va h.k.

-boz affiksli temrin yasovchi model. Ushbu model ilmiy terminologiya tizimida asl o'zbekcha (turkiycha), arabcha, forscha-tojikcha hamda ruscha-baynalmilal leksik birliklardan juda oz holatlarda biror-bir narsa bilan qiziquvchi shaxs nomini anglatuvchi, asosan salbiy bo'yoqdorlikni anglatuvchi terminlarni yuzaga chiqaradi: *qog'ozboz, buyruqboz, mushakboz, safsataboz, miltiqboz, ishqiboz, xotinboz* va h.k.

-do'z affiksli termin yasovchi model. Forscha-tojikcha *-do'z* suffiksli mazkur kammahsul model biror - bir narsa, buyumni tikuvchi shaxs nomini bildiradi: *mo'ynado'z, etikdo'z, kavushdo'z, yelkando'z* va h.k.

-shunos affiksli termin yasovchi model. Kelib chiqishi forscha-tojikcha hisoblanuvchi - *shunos* suffiksli bu qolip o'zbek tili terminologiyasi tarkibida aksariyat rus tilidagi ikkinchi komponenti *-ved* suffiksli yasamalarga mos tushuvchi, mazmunan shaxs nomini ifodalovchi terminlarni shakllantiradi: *qonunshunos, sharqshunos, mashinashunos, ruhshunos, xitoyshunos, tilshunos, eronshunos, matnshunos, siyosatshunos* va h.k.

-xo'r affiksli termin yasovchi model.

Bu kammahsul model ba'zan : 1) shaxsni: *shirinxo'r, tekinxo'r*; 2) zoonimlarni yasashda qatnashadi: *asalxo'r, morxo'r, chumolixo'r, o'laksaxo'r, go'shtxo'r, o'txo'r* va h.k.

-parast affiksli termin yasovchi model. Fors-tojik tiliga tegishli suffiks yordamida voqelangan ushbu model shaxsni nomlovchi terminlarni hosil qiladi: *mansabparast, shaxsiyatparast, aqidaparast, shahvatparast* va h.k.

-don affiksli termin yasovchi model. Fors-tojik tilidan o'zlashgan suffiksli ushbu model:

1) biror narsa saqlanadigan idish, narsa, shuningdek, tegishli modda to'planuvchi tana a'zosi nomini yasaydi: *tuxumdon, urug'don, bachadon, olovdon, o'qdon, kuldon, siyohdon* va h.k;

2) shaxsga xos sifat, xususiyat, fazilatni tavsiflovchi sifat-terminlarni hosil qiladi: *hisobdon, bilimdon* va h.k.

-parvar affiksli termin yasovchi model. Fors-tojik tilidan o'zlashgan *-parvar* suffiksi ishtirokidagi bu kammahsul model shaxs otini anglatuvchi oz sonli terminlarni yasaydi: *yetimparvar, vatanparvar, insonparvar, xalqparvar, sulhparvar, oilaparvar* va h.k.

- furush affiksli termin yasovchi model. Fors-tojik tiliga xos *-furush* suffiksli kammahsul model bilan shaxs otini anglatuvchi terminlar yasaladi: *vatanfurush, og'ufurush, tamakifurush, odamfurush* va h.k.

- goh affiksli termin yasovchi model. Fors-tojikcha *-goh* affiksli model asosdan anglashilgan voqea-hodisa sodir bo'luvchi o'rin, joy nomini ifodalaydi: *janggoh, o'yingoh, bandargoh* va h.k.

- noma affiksli so'z yasovchi model. Forscha-tojikcha so'z-affiksli ushbu model asosan hujjat, yozuv, xat, hujjat nomini anglatadigan terminlarni yasaydi: *bayonnoma, vasiyatnoma, guvohnoma, ahdnoma, shartnoma, ma'lumotnoma, axborotnoma, shahodatnoma.*

Ismlardan sifat-terminlarning yasalishi

-li affiksli termin yasovchi model. Sof o'zbek (turkiy)*cha -li* affiksli so'z yasovchi model quyidagi terminlar yasalishida qatnashadi:

a) tegishli predmetlik belgisiga egalik, majudlik, borlikni ifodalovchi: zaharli (zahar), *misli*(mis), *sharikli*(sharik), *kislotali* (kislota), *tuzli* (tuz), *yaroqli* (yaroq), *fosforli* (fosfor)), *dukkakli* (dukkak) va h.k.;

b) sifatiy belgiga egalikni ifodalovchi: *zararli* (zarar), *muddatli* (muddat), *maqsadli* (maqsad), *qimmatli* (qimmat), *nuqsonli* (nuqson), *foydali* (foйда), *yaroqli*(yaroq), *yeyimli* (yeyim), *yeyishli* (yeyish), *xavfli* (xavf), *ichimli* (ichim)va h.k.

- siz affiksli termin yasovchi model. *-siz* affiksli sifat-terminlar *-li* affiksli sifat-terminlarning antonimi, ya'ni ziddi (*gilzali-gilzasiz, stvoll-i-stvolsiz, mo'ynali - mo'ynasiz , gazli - gabsiz, temirli-temirsiz* va h.k.) bo'lib, asosdan anglashilgan belgi, predmetning mavjud emasligini anglatuvchi terminlarni yasashga xizmat qiladi: *ishsiz* (ish), *aybsiz* (ayb), *gunohsiz* (gunoh), *nikohsiz* (nikoq), *xavfsiz* (xavf), *dalilsiz* (dalil), *jarangsiz* (jarang), *quolsiz* (qurol), *jirsiz* (jir), *tuzsiz* (tuz), *suvsiz* (suv) va h.k.

- chan affiksli termin yasovchi model. *-chan* qo'shimchali ushbu kammahsul model tub hamda fe'llardan yasalgan ot turkumli so'zlardan "qat'iy ravishda namoyon bo'luvchi fazilat, xarakter belgisi va moyillik"ni ifodalaydagan terminlarni hosil qiladi: *yashovchan* (yashov), *o'zgaruvchan* (o'zgaruv), *sezuvchan* (sezuv), *uchuvchan* (kimyo: uchuv), *eruvchan* (eruv), *ko'rimuvchan* (harb.ko'rinuv), *tovlanuvchan* (tovlanuv), *sochiluvchan* (fiz. sochiluv), *egiluvchan* (egiluv) va h.k.

– **chil affiksli termin yasovchi model.** *-chan* qo‘shimchasining fonetik turi bo‘lmish kammahsul *-chil* affiksli so‘z yasovchi bu model biror narsaga bo‘lgan “moyillik, berilganlik” ma‘nosini anglatuvchi chegaralangan miqdordagi terminlarni yasashda qatnashadi: *dardchil* (dard), *izchil* (iz), *xalqchil* (xalq), *epchil* (ep) va h.k.

– **simon affiksli termin yasovchi model.** Mazkur model hozirgi o‘zbek tili tibbiyot, zoologiya hamda biologiya terminlari tizimida o‘xshashlik, bir xillik ma‘nosini ifodalovchi nisbatan salmoqli miqdordagi leksemalarni hosil qilishda qatnashadi. –simon affiksli sifat-terminlar ma‘no jihatidan rus tilidagi ikkinchi komponenti “...подобный”, “...образный”, “видный” elementlaridan tashkil topgan qo‘shma sifatlarga muvofiq kelib, boshqa terminologik tizmlarda ham faol ishlatilishi bilan ajralib turadi: *ivasasimon* (kit), *odamsimon* (odam), *tumshuqsimon* (tumshuq), *zanjirsimon*, *qisqichbaqasimon* (qisqichbaqa), *kitsimon* (kit), *krotsimon* (ko‘rsichqonlar) (krot), *o‘rgimchaksimon* (o‘rgimchak), *maymunsimon* (maymun), *ishkomsimon* (maxs.: ishkom), *bargsimon* (med: barg), *gazsimon* (gaz), *qalqonsimon* (anat: qalqon) va h.k.

– **aro so‘z - affiksli termin yasovchi model.** Asl turkiycha *-aro* so‘z - affiksli ushbu sermahsul model ilmiy va texnikaviy sohaga xos terminlarni yasashda faol ishtirok etadi: : *xalqaro* (xalq), *qit‘alararo* (harb. qit‘a), *fakultetlararo*, *planetalararo* (planeta), *fanlararo* (fan), *millatlararo* (millat), *xo‘jaliklararo* (xo‘jalik), *hujayralararo* (biol. hujayra), *qobirg‘alararo* (tib.qobirg‘a), *turlararo* (biol.tur), *zonalararo* (zona), *banklararo* (bank) va h.k.

be- prefiksli termin yasovchi model. Kelib chiqishi fors - tojik tiliga xos *be-* prefiksli ushbu kammahsul model asosdan anglashilgan sifat, fazilatning mavjud emasligi, yo‘qligini ifodalaydi: *betaraf* (taraf “tomon”), *bevosita* (harb. vosita), *begunoh* (gunoh), *bexatar* (xatar) va h.k.

no- prefiksli termin yasovchi model. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan *be-* old qo‘shimchali mazkur kammahsul model ishtirokida sifat-terminlar yasaladi: *noqonuniy* (qonun), *noma‘lum* (harb. ma‘lum), *nodavlat* (davlat), *notijorat* (tijorat), *noaniq* (lingv.aniiq), *norasmiy* (rasmiy), *nostandart* (standart), *nobiologik* (biologik) va h.k.

ser- prefiksli termin yasovchi model. Forscha – tojikcha *ser* – prefiksli bu mahsuldor model ot so‘z turkumli so‘zlardan asosdan anglashilgan belgining ko‘plik ma‘nosini ifodalovchi sifat-terminlarni yasaydi: *sersuv* (suv), *sergo‘sh* (go‘sh), *seryomg‘ir* (yomg‘ir), *serdaromad* (daromad), *serildiz* (ildiz), *serkepak* (kepak), *sersut* (sut), *sertola* (tola), *serchiqit* (chiqit), *sermahsul* (mahsul), *serunum* (unum) va h.k.

kam - prefiksoidli termin yasovchi model. *Kam-* o‘zbek tili grammatikasiga tegishli ba‘zi bir asarlarda qo‘shma sifatlarning birinchi komponenti tarzida baholansa, boshqa birlarida esa prefiksoid sifatida belgilanadi. Ilmiy terminologiyada ancha mahsuldor hamda faol hisoblanuvchi kam- prefiksoidi qatnashgan model boshlang‘ich asosdan anglashilgan belgi miqdorining ozligi ma‘nosini ifodalovchi sifat-terminlarni yasaydi: *kamqon* (qon), *kamsut* (sut), *kamsuv* (suv), *kamhosil* (hosil), *kamdaromad* (daromad), *kamxarj*, *kamxarajat* (xarj, xarajat), *kamquvvat* (quvvat), *kamchiqim* (chiqim), *kammahsul* (mahsul) va h.k.

– (v) iy affiksli termin yasovchi model. Arab tilidan o‘zlashgan - (v) iy affiksli model ot turkumidan sifat-terminlarni yasash uchun xizmat qiladi. O‘tgan asrning 60-yillarida kammahsul deb topilgan –(v)iy affiksi hozirgi vaqtga kelib nisbatan unumli affiksga aylangan bo‘lib, -(v) iy affiksli model unli fonemalar bilan tugagan otlardan tubandagi terminlarni hosil qiladi: *konstitutsiyaviy* (konstitutsiya), *yadroviy* (yadro), *kimyoviy* (kimyo), *fizikaviy* (fizika), *ma‘naviy* (ma‘no), *fuqaroviy* (fuqaro), *samoviy* (samo), *kolliziyaviy* (kolliziya) va h.k.

Undosh fonema bilan tugagan otlardan nisbiy sifat-terminlar yasaydi: *miqdoriy* (miqdor), *ma‘muriy* (ma‘mur), *harbiy* (harb), *tibbiy* (tib(b)), *qonuniy* (qonun), *intizomiy* (intizom), *iqtisodiy* (iqtisod) va h.k.

-(v)iy affiksi qo‘shilishi natijasida –a, –at bilan tugaydigan arabcha otlar ushbu qo‘shimchalarini tushirib qoldiradi: *milliy* (millat), *siyosiy* (siyosat), *ijtimoiy* (ijtimoiyot), *moddiy* (modda), *ma‘naviy* (ma‘naviyat), *intizomiy* (intizom), *ma‘rifiy* (ma‘rifat) va h.k.

O‘zbek terminologiyasida o‘zlashmalar yordamida yasalgan terminlar

O‘zlashmalar har qanday til taraqqiyoti va boyishi qonuniyatining manbalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy – siyosiy, tijoriy-iqtisodiy, diniy munosabatlar, madaniy aloqalar, bir tildan boshqa tilga qilinadigan adabiy tarjimalar va h.k. natijasida u yoki bu til lug‘at tarkibida o‘zlashmalar paydo bo‘ladi. Boshqa qarindosh bo‘lmagan tillardan kirgan katta miqdordagi o‘zlashmalarning bir qismi o‘z holicha nutqiy muomalaga kirs; bir qismi milliy tilning fonetik, grammatik xususiyatlariga moslashtirilgan holda qo‘llaniladi.

Kalkalash so‘z o‘zlashtirishning yorqin turi bo‘lib, u chet so‘zni tarjima qilishda o‘zbek tilidagi leksik muvofiq so‘zlar bilan almashtirishni angalatadi. Kalkalash jarayoni o‘zbek tilining barcha terminologik tizimlariga xosdir. Chet tildan so‘z o‘zlashtirishning bu shakli asosan ikki: a) struktur (so‘z yasash), b) semantik kalka turi orqali amalga oshadi. Bu jarayonda struktur kalkalar yetakchilik qiladi. Struktur (so‘z yasash) kalkalar sirasiga o‘zbek adabiy tili vositalari yordamida boshqa tillarga oid modellardan, ularning morfologik qismlarini tarjima qilish bilan yasalgan terminlar kiradi.

Muayyan tilning leksik – so‘z yasash materiallari negizida hosil qilingan struktur kalkalar tom ma‘nodagi o‘zlashma hisoblanmaydi.

Hozirgi o‘zbek terminologiyasi tizimida chet tillarga xos elementlarning alohida miqdori mavjud bo‘lib, ularni kalkalashga hech qanday hojat ham, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda muqobili bilan almashtirishga imkoniyat ham yo‘q. Masalan, *telefon*, *telegraf*, *traktor*, *tank*, *izotop*, *indikator*, *orden*, *bolt*, *arfa*, *ring*, *xokkey*, *departament*, *parlament*, *mina*, *import*, *eksport*, *antenna*, *armatura*, *prokuror*, *aerobus*, *avtobus*, *metro*, *ampermetr*, *motor*, *dizel*, *astronavi*, *mexanik*, *radiotexnik*, *proton*, *neytron*, *elektron* kabilar. Bu holat turkiy tillar uchun umumiy holat hisoblanadi.

Hozirda o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va h.k. sohalari terminologiyasi tizimida qismlari o‘zbek tili so‘z yasaliş qoidalariga muvofiq tarzda

soʻz yasovchi elementlar bilan almashtirilgan ulkan miqdordagi oʻzlashma terminlar qoʻllanmoqda.

Soʻz yasovchi suffiksi oʻzbek tili affiksi bilan almashtirilgan oʻzlashma – terminlar

Soʻz oʻzlashtirish jarayonida kam miqdordagi terminlar soʻz yasovchi suffikslari bilan birga oʻzlashtiriladi (*metallist, militarist, motorist, nigilist, sotsialist* va h.k.). Biroq aksariyat hollarda terminlar yasashda qatnashgan suffikslar oʻzbek tilining aynan bir xildagi, oʻxshash affikslari bilan almashtiriladi.

Soʻz yasovchi suffikslari –chi affiksi bilan almashtirilgan terminlar:

a) - *ist*: tank-chi (танкист), *traktor*-chi (тракторист) *shtanga* –chi (штангист), *parashyut*-chi (парашютист), *roman*-chi (романист), *torpeda*-chi (торпедист), *radiometr*-chi (радиометрист), *monarxiya*-chi (монархист), *futbol*-chi (футболист) va h. k.;

b) - *nik*: *transport*-chi (транспортник), *montaj*-chi (монтажник), *neft*-chi (нефтяник), *desant*-chi (десантник) va h. k.;

v) - *uyik*: *armatura* – chi (арматурщик), *tunnel*-chi (туннельщик), *tramvay*-chi (трамвайщик), *falsovka*–chi (фальсовщик; фалсовщица), *postanovka*-chi (постановщик), *signal*-chi (сигнальщик), *armatura*-chi (арматурщик) va h. k.;

g) - *chik*: – *proход*-chi (проходчик), *raketa*-chi (ракетчик), *gazvedka*-chi (разведчик), *prokat*-chi (прокатчик), *parketchi* (паркетчик) va h. k.;

d) - *ovshik*// -*lishik*: *kran*-chi (крановщик), *seyalka*-chi (сеяльщик), *nivelirovka*-chi (нивелировщик), *shtamp-lovchi*, *shtampovka*-chi (шатмповщик) va h.k.;

ye) – *yor*: *lift*-chi (лифтёр), *bashnya*-chi (башнёр), *eksport*-chi (экспортёр), *import*-chi (импортёр), *boks*-chi (боксёр) va h. k.;

yo) – *tor*: *aviatsiya*-chi (авиатор), *eksperiment*-chi (экспериментатор), *ekspropritsiya*-chi (экспропритатор), *evakuatsiya*-chi (эвакуатор), *dekoratsiyachi* (декоратор) va h.k.;

j) - *sk* (iy): *gvardiya*-chi (гвардейский; гвардеец), *politsiya*-chi (полицейский) va h.k.;

z) - *smen*: *rekord*-chi (рекордсмен), *sport*-chi (спортсмен), *politsiya*-chi (полисмен), *yaxta*-chi (яхтсмен) va h. k.

i) - *ant*: *diversiya*-chi (диверсант) va h. k.

Mazkur jarayonda: a) oʻzlashma terminning asosi oʻzgartirilmagan holda yangi termin yasaladi(*respublika*-chi – республиканец, *dozimet*-chi – дозиметрист); b) oʻzlashmaning asos shakli toʻla tiklanib, tegishli affiks qoʻshilgach, yangi termin yuzaga keladi (*seleksiya* - chi – селекционер, *seyalka* - chi – сеяльщик) va h.k.

Oʻzbek tiliga oʻzlashgan feʻldan yasalgan ot - terminlar

Maʼlumki, rus tilida feʻldan yasalgan ismlar – ni(ye), -k(a), -atsi(ya), -izatsi(ya), -fikatsiya singari suffikslar koʻmagida hosil qilinadi. Mazkur suffiksli terminlar oʻzbek tili terminologiyasi tizimiga oʻzlari ifodalovchi realiyalar va tushunchalar bilan birgalikda tayyor til birliklari sifatida kirib keladi. Masalan, amortizatsiya,

anneksiya, assimilyasiya, artikulyasiya, alliteratsiya, aeronavigatsiya, kooperativ, kniminalistika, kriminologiya va h.k.

Shu bilan bir qatorda, fe'ldan yasalgan ot – terminlar o'zlashtirish jarayonida o'zbek tili ta'siriga uchraydi va fe'ldan ot yasovchi suffikslar hech bir qiyinchiliksiz o'zbekcha –lash, lashtirish kabi faol affikslar bilan almashtiriladi. Masalan:

a) - ni (ye): akkredit-lash (аккредитование), kod-lash (кодирование), asfalt-lash (асфальтирование), avtomat-lashtirish (автоматизация) va h.k. *Торможение, кооперирование, изолирование* singari o'zlashma terminlarning asosi o'zbek tilida mustaqil ma'no ifodalamaydi. Bunday vaziyatlarda o'zbek tilida o'zlashmaning asosi qayta tiklanadi va unga o'zbekcha affiks qo'shiladi. Masalan, tormoz-lash ot (торможение), abstrakt-lash ot (абстрагирование) va h.k.;

b) – atsi(ya), -izatsiya, -fikatsiya, -k(a): sian-lash (цианизация), ion-lash (ионизация), menanika-lash (механизация), gaz-lashtirish (газификация), germet-lash (герметизация), kondens-lash (конденсация), tabul-lash (табуляция), vals-lash (вальсовка), frez-lash (фрезеровка), legal-lashtirish (легализация), pasport-lashtirish (паспортизация) va h.k.

O'zbek tiliga o'zlashgan ruscha-baynalmilal terminlar

Ruscha so'z + ruscha so'z yoki baynalmilal so'z + ruscha so'z strukturali qo'shma terminlar o'zlashish jarayonida o'zbek tili qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Ruscha-baynalmilal qo'shma terminlarning o'zbek tilida o'zlashishi quyidagi usullar bilan amalga oshadi:

1. Ruscha-baynalmilal terminlarning rus tiliga xos ikkinchi komponenti o'zbek tilidagi mos so'z bilan emas, balki so'z yasovchi affiks bilan almashtiriladi. Oqibatda, ruscha-baynalmilal qo'shma termin o'zbek tilida yasama terminga aylanadi:

- soz: mashina-soz (машиностроител), vagon-soz (вагоностроител), samolyot-soz (самолыотостроител), raketa-soz (ракетостроител), shahar-soz (градостроител) va h.k.;

-sozlik: mashina-sozlik (машиностроение), vagon-sozlik (вагоностроение), pribor-sozlik (приборостроение), raketa-sozlik (ракетостроение) va h. k.;

-shunos: material-shunos (материаловед), mashina-shunos (машиновед) va h.k.;

-shunoslik: material-shunoslik (материаловедение), mashina-shunoslik (машиноведение) va h. k.

2. Ruscha-baynalmilal qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti o'zbekcha ayni mutanosibi bilan almashtiriladi yoxud kalka usuli bilan tarjima qilinadi: bomba - qidirgich (бомбоискатель), bomba-pana (бомбуубежище), giper – tovush (гиперзвук), kino – qurilma (киноустановка), elektr-hisoblagich (электросчётчик), elektr-sim (электропровод), radio-niqoblash (радиомаскировка) va h.k.

Ushbu metod ruscha-baynalmilal xarakterdagi qisqartma qo'shma terminlarni o'zlashtirish jarayonida ham qo'l keladi: aero-chana (аэросани), tele-markaz (телецентр), termo-qarshilik (термосопротивление), gelio-qurilma (гелиоустановка), tele-sharhlovchi (телекомментатор), avia-soz (авиастроение), avto-yo'l (автодорога) va h.k.

3. Ruscha – baynalmilal terminning har ikki komponenti o‘zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoki kalka qilinadi): havoisitgich (vozduxonagrevatel) haqosovutgich (воздухоохладитель), havotozalagich (воздухоочиститель) va h.k.

Ruscha-baynalmilal murakkab qo‘shma terminlarning o‘zlashishi

Hozirgi o‘zbek terminologiyasi tizimida haddan ziyod miqdordagi ruscha-baynalmilal murakkab qo‘shma terminlar qo‘llanmoqda. Ushbu terminlarning ma’lum qismi o‘zbek tiliga tayyor, asl holda o‘zlashtiriladi: general–mayor, unter – ofitser, shtab – kvartira, samolyot – snaryad, pistolet–pulemyot, marsh–parad, radiometr–rengenometr, shtab-kvartira va h.k. Bunday. o‘zlashmalar o‘zbek terminologiyasining salmoqli ulushini tashkil etadi.

Boshqa bir guruh murakkab qo‘shma terminlarning so‘z tartibi o‘zbek tiliga o‘zlashish asnosida o‘zgaradi: uchuvchi –inspektor (лётчик-инспектор), kosmonavt-uchuvchi (лётчик-космонавт), mexanik - injener (инженер-механик), amfibiya - tank (танк-амфибия), buldozer – tank (танк-бульдозер), urolog-vrach (shifokor) (врач-уролог) va h.k.

Ruscha-baynalmilal murakkab qo‘shma terminlarning uchinchi bo‘lagi o‘zlashish jarayonida qisman yoki to‘la o‘zbekcha leksik birliklar bilan almashtiriladi:

1) murakkab qo‘shma terminning komponentlaridan biri o‘zbekcha so‘z bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi): shlem-niqob (шлем-каска), lingvo-madaniyat (лингвокультурология), samolyot – nishon (самолёт-мишень), havo desanti (воздушно-десантный), o‘qchi–radist (стрелок-радист), mina – tuzoq (мина-ловушка), odam-amfibiya (человек-амфибия), kilovatt-soat (киловатт-час), maktab-internat (школа-интернат), alfa-nurlar (альфа-лучи), alfa-yemirilish (альфа-распад), gamma-nurlar (гамма-лучи) va h.k. Bunga o‘xshash terminlar o‘zbek tiliga o‘zlashish chog‘ida so‘z tartibini saqlab qoladi.

2) Murakkab qo‘shma terminlarning komponentlaridan biri o‘zbek tilidagi mutanosib so‘z bilan almashtiriladi (yoki kalka yo‘li bilan tarjima qilinadi). Bunday holatda murakkab qo‘shma terminlarning so‘z tartibi o‘zbek tilida o‘zgaradi: tutuvchi – samolyot (самолёт-перехватчик), buzg‘unchi – samolyot(самолёт-нарушитель), raketaeltar-samolyot (самолёт-ракетаносец), demokrat-shoir (поэт-демократ) va h.k.

3) Murakkab qo‘shma terminlarning har ikki komponenti o‘zbekcha ekvivalenti bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi). Bunday vaziyatda o‘zlashma terminning so‘z tartibi o‘zgarishga uchramaydi: o‘ra-tuzoq (яма-ловушка), uchish – qo‘nish (взлётно-посадочный), harbiy-havo (военно-воздушный), harbiy-dengiz (военно-морской), harbiy-dala (военно-полевой), ijtimoiy-iqtisodiy (общественно-экономический) va h.k.

4) O‘zlashma murakkab qo‘shma terminlarning har ikki komponenti o‘zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi), bunda murakkab qo‘shma terminlarning so‘z tartibi o‘zgaradi: mutaxassis – askar (солдат-специалист), mo‘ljalchi-o‘qchi (стрелок-наводчик), lingvistik pragmatika (прагмалингвистика),

qiruvchi-uchuvchi (лётчик-истребитель), kuzatuvchi-uchuvchi (лётчик-наблюдатель), sinovchi – uchuvchi (лётчик-испытатель) va h.k.

Hozirgi o‘zbek tili terminologiyasida kalkalash yo‘li bilan yangi termin yasash masalasiga alohida diqqat qaratiladi. Ruscha-baynalmilal terminlarni to‘la yoki qisman tarjima qilish usuli bilan hosil qilingan o‘zbek tili terminlari mavjud terminologiya tizimining yana ham kengayishi va boyishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yasama terminlarni kalkalash

Chet tili (rus tili) yasama terminlarini kalkalash jarayonida o‘zbek tilida bor bo‘lgan mutanosib asos hamda so‘z yasovchi affiks tanlanadi. Buning natijasida o‘zbek tilida mutlaqo yangi termin hosil bo‘ladi, bunday terminlar ayniqsa ilm-fan va texnika terminologiyasi tizimida keng ko‘lamda aks etgan: to‘g‘rilagich (выпрямитель), taqsimlagich (распределитель), ko‘targich (подёмник), itargich (толкатель), tebranish (апмлитуда), oziqlagich (питатель), iqlimlashish, iqlimlashtirish (акклиматизация), o‘rmonshunos (лесовод), issiqxona (теплица), davlatshunos (государствовед), hissador (дольщик), vasiyatchi (завещатель), buyurtmachi (заказчик), tamg‘alash (клеймение), moydon (маслёнка), portlatgich (взрыватель) va h.k.

Qo‘shma terminlarni kalkalash

Qo‘shma terminlarni kalkalab tarjima qilish jarayonida ularning har ikki komponentiga mutanosib tushadigan o‘zbekcha so‘z tanlanadi. Xususan: yarimo‘tkazgich (полупроводник), shaltoqsepgich (жыжеразбрасыватель), ariqkovlagich (канавакопатель), suvo‘lchagich (водомер), gazo‘lchagich (газомер), tezotar (скорострельный), moyjuvoz (маслобойка), bug‘tarqatgich (парораспределитель), tulkiquyuq (лисохвост), yog‘och kesuvchi (лесоруб), muzyogar (ледокол), kamqonlik (малокровие), arzonbaho (малоценный), junqanot (zool. шерстокрыл), asalxo‘r (zool. медоед), qisqa metrajli (короткометражный), qiziltan (краснокожий), qizilqanot (zool. красноперка), kartoshkaekkich (картофелесажалка), kartoshkaqazgich (картофелекопатель), suvgul (bot. водокрас), suvqovoq (bot. горлянка) singari katta miqdordagi terminlar ayni shunday hosil qilingan.

O‘zlashayotgan qo‘shma terminlarning ikkinchi komponenti ma’no nuqtai nazardan unga mos tushuvchi o‘zbekcha so‘z bilan har vaqt ham almashtirilavermaydi:

-xona: ko‘chatxona (лесопитомник), -zor: ko‘chatzor (лесопитомник), -dor: yerdor, zamindor (землевладелец), -chan; yonuvchan (легковоспламеняющийся), -xo‘r: qasamxo‘r (клятвопреступник), -soz: kemasoz (кораблестроитель), -qich: yirtqich (кроважадный), -ish: nurlanish (лучеиспускание) va h.k.

O‘zbek tili terminologiyasi tizimida ruscha-baynalmilal prefiksoidlar yordamida hosil qilingan kalkalar tez-tez qo‘llanadi. Bunday usulda yasalgan terminlar sirasiga quyidagilarni kiritish o‘rinli:

avia-: aviaaloqa (авиасвязь), aviaqism (авиачасть), aviato‘p (авиапушка), aviasanoat (авиапромышленность), aviakorxonа (авиазавод) va h.k.;

avto-: avtonozir (автоконтролёр), avtoyo‘l (автодорога), avtoyuklagich (автогрузчик), avtohavoskor (автолюбитель), avtotirkama (автоприцеп), avtosug‘orgich (автополивщик), avtomaktab (автошкола), avtopo‘yga (автогонки), avtopo‘ygachi (автогонщик) va h.k.;

aero-: aeropurkagich (аэроприскиватель), aerochanglagich (аэропылитель), aerotadqiqot (аэроисследование) va h.k.;

agro-: agrosanoat (агропромышленность), agrokimyó (агрохимия), agromadaniyat (агрокультура), agroiqlim (агроклимат), agroo‘rmon (агролес) va h.k.;

anti-: antizarra (античастицы), antimodda (антивещество), antidunyo (антимир), antijismlar (антитела) va h.k.;

geo-: geosiyosat (геополитика), geokimyó (геохимия) va h.k.;

gidro-: gidroinshoot (гидросооружение), gidroko‘targich (гидроподёмник), gidrokuchaytirgich (гидроусилитель) va h.k.;

giper-: gipertekislik (гиперплоскость), gipertovush (гиперзвук), giperchiziq (гиперлиния), giperloyiha (гиперпроект) va h.k.;

izo- : izochiziq (изолинии), izomoy (изомасло) va h.k.;

kvazi-: kvaziyulduz (квазизвезда), kvaziquloq (квазиухо), kvaziqavariq (квазивыпуклость) va h.k.;

infra-: infratovushlar (инфразвуки), infraqizil (инфракрасный), infratizim (инфраструктура) va h.k.;

makro-: makroiqlim (макроклимат), makrosanoat (макропромышленность), makrokoinot (макрокосмос), makrotuzilma (макроструктура), makromaydon (макрополе), makroiqtisodiyot (макроэкономика) va h.k.;

mikro-: mikroiqim (микроклимат), mikrofonusxa (микрофотокопия), mikrotuzilma (микроструктура), mikromaydon (микрополе), mikrotuman (микрорайон) va h.k.;

moto-: motoaravacha (мототележка), motopo‘yga (мотогонки), motopo‘ygachi (мотогонщик) va h.k.;

pnevmo-: pnevmoboshqarish (пневмоуправление), pnevmbolg‘a (пневмолоток), pnevmoyuklagich (пневмогрузчик), pnevmoqisish (пневмодавление);

tele-: teledastur (телепрограмма), teleminora (телебашня), teleboshqarish (телеуправление), telealoqa (телесвязь), telequrilma (телеустановка), teleloyiha (телепроект), teleusta (телемастер) va h.k.

O‘zbek tilida terminlarning semantik yo‘l bilan hosil qilinishi

Terminlarni hosil qilishda metafora usulidan foydalanish – bu vosita orqali yuzaga kelgan istilohning lisoniy hamjamiyat tomonidan tez va oson qabul qilinishiga, ma‘no ko‘lamining sun‘iy tarzda yaratilgan terminlarga nisbatan birmuncha tushunarli va yengil tushunilishiga olib keladi. Taqqoslaymiz: 1. Terminlar ham zamon va makonda dunyoga kelib, o‘z umrini yashaydi, ba‘zilari yo‘qlikka singib ketsa, boshqalari barhayot yashab qoladi yoki yangisiga o‘z o‘rnini

*bo'shatib beradi*¹⁹; 2. *Geoiqtisodiyot fani nuqtai nazaridan olganda, megapolislar qatorida yaqin kelajakda butunlay yangi texnika va texnologiyalarga asosan "texnopolislar" va "ishlab chiqarish-tijorat aglomeratsiyalari" dunyoga keladi, trans-milliy kompaniya va korporatsiyalar mavqei yanada yuksalib, ma'lum bir mamlakatning jahon bozoridagi o'rni iqtisodiyot va ishlab chiqarishning ma'lum bo'g'ini yoki segmentiga ixtisoslashuvdan iborat bo'lib qoladi*²⁰. Shuningdek, tilshunos ...yuridik tilga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri sifatida aniqlikni ko'rsatadi. Bu talabni bajarish uchun esa ko'plab ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, shuningdek, hayotning turli sohalaridan olingan terminlar qatorida iboralarni ham sanab o'tadi va ularni terminlarga yaqin turadi deb xulosa qiladi. Xususan, *jazoni yengillashtirmoq, aybni og'irlashtirmoq, aybini bo'yniga olmoq, aybini bo'yniga qo'ymoq, jinoyat ishi qo'zg'atmoq, ishni ochiq ko'rmoq* singari turg'un birikmalar shular jumlasidan²¹.

Ko'rinadiki, ma'lum sohaga ixtisoslashgan terminlar umumilmiy, umumiste'mol so'z va terminlar farqli, yagona ma'noni kasb etsa-da, ularning faqat ilmiy diskursda qo'llanilishi metaforaning ishtirokini cheklab qo'ya olmaydi, aksincha, sof terminlar (tub terminlar) ham o'z ma'noviy ko'lamini to'liq namoyon etishi uchun metaforik talqinga suyanadi. Ushbu jihat metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan iqtisodiy terminlarning yuzaga chiqishida yetakchi belgi hisoblanadi. Misol uchun, *agressiv qimmatli qog'ozlar* (ingl. aggressive securities) — kapital shitob bilan o'sishini ta'minlovchi qimmatli qog'ozlar²².

Bayon etilganlarga qo'shimcha ravishda yana shuni ham alohida qayd etish lozim: muayyan milliy (etnik) jamoa a'zolariga xos bo'lgan barqaror xususiyatlar, dunyoni idrok etish xususiyatlari, harakatlar motivlari (g'oyalar, manfaatlar, din)ni o'zida aks etgan milliy xarakter istalgan milliy tilning terminlar tizimida ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ya'ni milliy xarakterni ifodalovchi temperament, his-tuyg'ular, his-tuyg'ularni ifodalash xususiyatlari; milliy xuroftlar; umumiy odatlar, an'analar, stereotiplar; xulq-atvorning xususiyatlari; o'xshatish etalonining lingvomadaniy kodlari tilda milliy termin va atamalarning hosil bo'lishiga sabab tug'diradi. Negaki milliy xarakter, eng avvalo, ijtimoiy-madaniy (axloqiy) me'yorlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi, demakki, millat lisoniy manzarasining qaror topishida muhim omil hisoblanadi (mas., *suvchechak, ko'kyo'tal, eshakyemi, saraton, gul* va b.).

Sohaviy terminlarning semantik usul bilan yasalishi

Metafora terminlarni hosil qilishda faol ishtirok etadi. Zotan, metaforaga, badiiyatda bo'lgani kabi, fanda ham ehtiyoj katta. Xususan, tibbiy soha terminologiyasi asosan tashqi shakl-shamoyilga ko'ra o'xshashlik kasb etuvchi metaforalar evaziga shakllanadi.

¹⁹ Юқоридаги манба. — Б. 4.

²⁰ Юқоридаги манба. — Б. 4.

²¹ Юқоридаги манба. — Б. 4.

²² Юқоридаги манба. — Б. 10.

№	Tibbiy atama va termin – metaforalarning hosil bo'lish usuliga ko'ra	Foizda
	Shakliga ko'ra o'xshashlik	66, 06%
	Rangiga ko'ra o'xshashlik	29,69%
	Vazifaviy o'xshashlik (funktional o'xshashlik)	4,24%

13-jadval. Tibbiy termin – metaforalarning hosil bo'lish usuliga ko'ra farqlanishi (foizda)

Metafora asosida yuzaga kelgan terminlar evristik quvvatining ikkilanishi, yanada yuksak bo'lishi mutlaqo tabiiy bo'lib, yaxshi topilgan metafora bevosita ko'rish, tasavvur qilish mumkin bo'lmagan obyekt-obrazlarni aniq gavdalantirib beradi, ularning ichiga kirish, mohiyat-mexanizmini “qo'lga olib ko'rish” imkoniyatini yaratadi. Binobarin, “metafora termin yasalishining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, asosan muayyan soha terminologiyasi shakllanishining ilk davrlariga xos bo'ladi, ammo tamoman o'tib bo'lingan bosqich hisoblanmaydi, yangi paydo bo'lgan fan sohalari terminologiyasining yaratilishida faol bo'ladi, yetakchilik qiladi”, binobarin, “aksariyat fan sohalarining asosiy, fundamental tushunchalari metaforik nominatsiya vositasida ifodalanganini sezmaslikning imkoni yo'q, eng muvaffaqiyatli terminlar metaforik tafakkur natijasida yuzaga kelgan”.

Ma'lumki, metaforik qiyosda har xil turdagi yoxud turli tasnifga ega obyektlar o'rtasidagi o'xshashlikni payqash motivatsiyasi yotadi. Xuddi shunday, ilmiy matndagi metaforik terminlar tasodifan tanlanmasdan, predmetlararo o'ziga yarasha o'xshash jihatlarini belgilash sababidan hosil bo'ladi. To'plangan materiallar asosida ma'lum bo'ladiki, metaforik terminlar atributiv xususiyatiga ko'ra asosan: uy-ro'zg'or anjomlari va tabiat bilan bog'liq ashyolarga taqqos negizida hosil bo'larkan. Masalan, o'zbek tilidagi kuchukcha (@) foydalanuvchining elektron manzilini anglatadi va bu so'z rus tilida ham sobachka tarzida qo'llanadi. Lisoniy hamjamiyatda ijtimoiylashganligi evaziga bu so'zni termin deb emas, atama deb qarash lozim bo'ladi. Negaki, sobachka rus tilining o'z qatlami asosida metaforik ko'chim ta'sirida hosil bo'lmoqda. Mazkur so'zni atama deb qarashimizga sabab sobachka so'zi metafora evaziga aniq otdan aniq otni ifodalashga xizmat qilmoqda. Mazkur so'z rus tilidan o'zga tillarga kalka evaziga o'tganini hisobga olsak, kuchukcha (sobachka) o'z hoida rus tilidagi atamaning o'zbek tilida ham atama bo'lib kelishini isbotlaydi. Xuddi shu singari, o'simlikni anglatuvchi gul va xalq tilida qizamiqni bildiruvchi gul so'zlari misolida ham shunday fikrni bildirish mumkin. Ya'ni fors-tojik tilining o'z qatlamiga mansub gul so'zi metaforik yo'l bilan gul kasalligining nomini yasagan. O'zbek va tojik xalqlarining tarixiy qardoshligi, o'zaro zich aloqada bo'lib kelganligi har ikki so'zning o'zbek tiliga o'z holicha kirib kelishiga asos bo'lgan. Demak, tojik tilidagi gul (o'simlik) hamda gul (kasallik)ni anglatuvchi so'zlar tojik tili va o'zbek tili uchun atama sifatida qaralishi kerak. ATda qo'llanuvchi termin-metaforalarning tillararo universal tabiatida ham yuqoridagi belgilarni ko'rish mumkin. Tabiiyki, metaforik asosli bu terminlar kalkalanish evaziga hosil bo'lgan hamda ularning semantik asosida konnotativ semalarning ustuvorligi yaqqol namoyon bo'lmoqda (14-jadval).

Terminning ma'nosi	O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Ro'yxatdan o'tmagan foydalanuvchining tarmoqqa yoxud xizmatga kirishi	mehmon	гость	a guest
Matnni xavfsizlik uchun shifrlash maqsadida ishlatiladigan raqamli kod	kalit	ключ	key
Obyektga bezakni (dizaynni) ko'chirishda qo'llanadigan shablon	niqob	маска	mask
Kompyuterga birlashtiriladigan ko'rsatish uskunasi	sichqon/ sichqoncha manipulyatori	мышь	mouse
Shaxsiy kompyuterning asosiy qurilmalari — tezkor xotira, qattiq disk va boshqa qurilmalar o'rnatiladigan ko'p qatlamli muhr plata. Aynan ona plata bir-biridan farq qiluvchi qurilmalarni birlashtiradi va boshqaradi	ona platasi	Материнская плата	motherboard
Kompyuterdagi o'chirilgan, yo'q qilingan ma'lumotlarni saqlash va qayta tiklash imkonini beradi	savatcha	корзина	bag

14-jadval. ATda qo'llanuvchi termin-metaforalarning tillararo universal tabiati

E'tibor qilinsa, jadvaldan o'rin olgan aksariyat o'zga qatlamga oid so'zlar orasida faqat ona platasini termin deb qarash mumkin bo'ladi. Negaki mehmon, kalit, savatcha, sichqoncha singari so'zlar o'zga madaniyatlarning o'z qatlami negizida aniq otdan aniq otni yasamoqda, shuningdek, mazkur so'zlar ko'plab madaniyatlarda allaqachon ijtimoiylashgan so'zlar hisoblanadi. Biroq plata so'zi fransuzcha plat – yassi ma'nosini anglatadi va u rus va ingliz tiliga mansub so'z emas. Demak, plata so'zining ijtimoiylashmagan so'z ekani inobatga olinsa, uning atama emas, termin ekani ma'lum bo'ladi. Bu o'rinda keltirilgan atama/terminlarning o'zlashgan qatlam evaziga qabul qilingani emas, ularning o'zbek tilida ham metaforik nom ko'chishi orqali hosil bo'lgani e'tiborga molik jihat. Bu esa o'zlashgan qatlamga tegishli aniq otning metaforik nom ko'chishi evaziga aniq otni yasashi – davr o'tib neologizmlarning terminlik xususiyatidan atama holiga o'tish imkonini belgilaydi. Demak, o'z va o'zlashgan qatlamga mansub aniq otning ko'chim ta'sirida mavhum otlarni nomlashidan hosil bo'lgan, ijtimoiylashmagan so'zlar – terminlar, o'zlashgan qatlamga mansub aniq otdan metaforik ko'chim ostida aniq otlarni nomlashdan hosil bo'lgan, ijtimoiylashgan so'zlarni atama deb hisoblash kerak.

Lingvistik terminlarning shakllanishida metaforalar yetakchi o'rinni egallaydi va bu holat XX asr boshlarida yaratilgan terminlarda ham kuzatiladi. Tilshunos I.R. Ermatov metaforaning terminlarni hosil qilishdagi o'rniga alohida e'tibor beradi hamda oila so'zining "bir umumiy kelib chiqishga ega bo'lgan kishilar guruhi" degan tushunchani anglatishiga qarab, tilshunoslikda o'zaro o'xshashliklari, kelib chiqish

asosining umumiyliги bilan izohlanadigan tillar guruhining ham tillar oilasi termini bilan yuritilishini qayd etadi. Fanga oid: bog'lovchi, bo'g'in, ko'makchi, savod, tartib, tasnif, to'ldiruvchi, to'xtam, o'ram, shaxs kabi bir komponentli, bobo til, eski so'z, hisob so'zlar, kirish so'z, so'z uyasi, tovushlar zanjiri kabi ikki komponentli tilshunoslik terminlari ham metafora yo'li bilan hosil qilingan.

O'zbek va ingliz tillaridagi soliq va bojxona terminlarini antropotsentrik yo'nalishda tekshirgan O.S. Ahmedov metaforik usulda hosil bo'lgan SB terminlari orasida: *brainpower* (kalka tarjimasi – “miya kuchi”, u tizim termini sifatida “aql-zakovatning oliy darajasi” (soliq mexanizmini takomillashtirish borasida)); *brainstorming* (“aqliy hujum”, tizim termini sifatida “sohaga oid muammoning jamoaviy muhokamasi” ma'nosi); shuningdek, a) uy hayvonlari; b) yovvoyi hayvonlar LSGga birikuvchi *bull* (ho'kiz – iqtisodiyot, SB termini sifatida chayqovchi (narxni o'ynatib turishga ta'sir qiluvchi shaxs); *sash-cow* (sog'in sigir – foyda keltiradigan uy hayvoni, reklama qilish uchun alohida sarf-harajat talab qilmaydi, foydali biznes); b) *bear* (ayiq – 1) chayqovchi, (spekulyant); 2) *broker* – narx tushishiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxs. Bear market – ayiq bozori, valyuta kurs narxlari tushib ketadigan bozor; *covered bear* – himoyalangan ayiq-spekulyant (chayqovchi), aksiya sotuvchi shaxs (naqd)) singari terminlarni keltiradi.²³ Tilshunos ingliz va o'zbek tillari SB terminologik birliklarining: 1) affiksatsiya; 2) kompozitsiya; 3) konversiya; 4) akronim va abbreviaturalar orqali yasallishini qayd etadi hamda tarjimada terminlarning ikki tilga xos bo'lgan integral va differensial xususiyatlarini e'tiborga olib, integral xususiyatga ega bo'lgan terminlarni kalka usulida, differensial xususiyatga ega bo'lgan terminlarni esa turli transformatsion usullarda tarjima qilish ma'qul bo'lishini ta'kidlaydi²⁴.

Bozor terminologiyasiga tegishli o'zlashgan qatlamga oid birliklar orasida ham metaforik yasallishga ega terminlar mavjud. Xususan, *avariya* terminini olib qaraylik.

Ma'lumki, xalqaro tranzit va dengiz savdosida faol ishtirok etgan arablardan ham jahon xalqlariga ko'plab istilohlar qatorida “avariya” termini ko'chib o'tgan. “Avariya” arabcha “al-avarat” (‘awâr), italyancha *avaria*, frans. *avarie*, “zarar”, “halokat” ma'nosini anglatib, “dengizda yo'l bosayotganda tabiiy ofat ro'y berganda kema va ekipajini qutqazib qolish uchun ortiqcha yukdan xalos bo'lish” tushunchasini bergan²⁵. Biroq bugungi kunda “avariya” atamasi/termini bir necha ma'nolarda talqin etiladi: 1. Huquqiy himoyaga va kompensatsiyaga arziydigan hodisa²⁶; 2. Inshootlar va texnik qurilmalarning vayron bo'lishi, nazoratsiz portlash va xavfli moddalarning chiqarilishi ko'rinishida ifoda etilgan inson va hayvonlar hayoti va salomatligi, ekologik xavfsizlik uchun xavfli bo'lgan favqulodda vaziyatlarning bir turi.

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida chanaq so'zi 1) o'yib yasalgan kichik hajmdagi yog'och idish; 2) kosa, tovoq, lagancha ma'nolarida qo'llanangan. Bu leksema eski o'zbek adabiy tilida “hayvonlar suv ichadigan idish”

²³ Ahmedov O.S. Солиқ ва bojxona terminlarini ingliz tilidan ўzbek tiliga berilishi: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2010.

²⁴ Юкоридаги манба.

²⁵ Маркетинг терминлари изоҳли луғати: асосий тушунчалар ва истилоҳлар. - Тошкент: Sharq, 2012. – Б. 4.

²⁶ Юкоридаги манба. – Б. 4.

ma'nosini anglatgan. Fanning keyingi rivoji bosqichlari davrida kuzatilayotgan so'z tibbiyot terminologiyasi tizimiga maxsus ma'noni ifodalovchi termin sifatida kirgan hamda "tos suyagi, dumg'aza suyagi" va "kosasimon o'yiqli suyak" ma'nolarini ifodalashga yo'naltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan vaziyatda hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotgan umumiste'mol so'z ma'nosidan metaforik ko'chim asosida maxsus terminning yasaliş jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi. Chunonchi, chanoq tibbiy termini quyidagi sintagmatik birikmalar tarkibida faol qo'llanishi bilan diqqatni tortadi: katta chanoq ("таз большой"), bolalar chanoq'i ("таз детский"), infantil chanoq ("таз инфантильный"), kichik chanoq ("таз малый"), karlik chanoq ("таз карликовый"), yassi chanoq ("таз плоский"), yorilgan chanoq ("таз расщепленный"), keng chanoq ("таз широкий"), tor chanoq ("таз узкий") va h.k.

Qoraxoniylar davri eski turkiy tilga sof turkiycha kuch leksemasining sinonimi sifatida arab tilidan o'zlashgan quvvat so'zi mavhum "kuch, qudrat, mador" ma'nosini ifodalash uchun kirib kelgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu o'zlashma umum tomonidan qo'llanuvchi so'z sifatida nafaqat o'z o'rnini mustahkam saqlab qolishga erishgan, balki fizika fani sohasida "energiya, quvvat" ma'nosini anglatuvchi termin tarzida ham keng ishlatiladi. Asl turkiycha kuch so'ziga kelsak, u ko'lam chegalari keng ko'pma'noli so'z sifatida "kuch-qudrat, quvvat" ma'nosida umumadabiy tilda hamon qo'llanib kelmoqda.

Nazorat savollari

1. Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalar haqidagi bilimlaringizni bayon qiling.
2. Sohaviy terminlarning morfologik, sintaktik, semantik usul bilan yasaliş qay tarzda sodir bo'ladi?

Adabiyotlar

1. Толикина Е. Н. Некоторые лингвистические проблемы изучения термина. — В сб.: Лингвистические проблемы научно-технической терминологии, М.,
2. 1970, с. 57.
3. Даниленко В. П. Русская терминология. М., 1977, с. 65.
4. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. АКД. — Т., 1965.
5. Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. — Тошкент, 2019.
6. Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. — Тошкент: Нодирабегим, 2020.
7. Ёкубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. Филол. фан. ном. дисс... — Т., 1994.
8. Абдувалиева, Д. А. Статистический анализ самостоятельных слов в исторических трудах Алишера Навои // Филологические науки в России и за рубежом : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, июль 2015 г.). — Санкт-Петербург : Свое издательство, 2015. — С. 52-56. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/138/8348/>.

6-mavzu. MATN VA UNING TURLARI

Reja:

1. Mikro matn va makro matn.
2. Ilmiy va ilmiy-ommabob matnlar.

Tayanch tushunchalar: *matn turlari, ilmiy va ilmiy-mmabob matnlar, ular o'rtasidagi farq.*

Mikro matn va makro matn

Lisoniy jihatdan matn – nutqning yakunlangan, muallifning o'z fikriga munosabatini ifodalovchi, vazifaviy xoslangan bo'lagi. So'z va matn o'rtasidagi farq shundaki, so'z – tilning, matn esa kommunikatsiya birligi hisoblanadi. So'z ma'lum bir ma'noni anglatasa, matn esa muayyan bir mazmun kasb etadi. Tegishli so'zning yakka holda ifodalagan ma'nosi matniy qurshovda o'zgacha talqin topishi mumkin. Shu tarzda matn kishi ongi, ruhiyati, ma'naviyati, fe'l-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etish kuchiga ega bo'ladi. Matn bir vaqtning o'zida ham o'quvchi, ham muallifning o'ziga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ikki yoqlama hodisadir.

Matnlar o'z qurilishi, tashkil topishi, vazifaviy tegishliligiga ko'ra farqlanadi.

Matn qurilishidagi eng kichik sintaktik birlik – gap. Ayni paytda gap – nutqning eng kichik birligi. Iсталgan fikr gap shaklida voqelanadi. Biroq bu har qanday gap fikr ifodalaydi, degani emas. Shuningdek, bitta gap bir necha fikr-mulohazani ifodalab kelishi mumkin bo'lgan holda, matn alohida gaplar bilan emas, yaxlit fikriy mazmunga ega jumlar bilan ish ko'radi. Masalan, *Bozorda non sotilmoqda* va *Bozorda hozirgina tandirdan uzilgan shirmoy nonlar sotilmoqda* gaplari o'zaro mazmuniy tarkibga ko'ra farq qiladi: 1-gapda bozorda (do'konda emas) non sotilayotgani, 2-gapda esa bozorda issiq, qizarib pishgan non sotilayotgani haqidagi xabar mavjud.

Ifoda matni kommunikativ sifatlariga ko'ra ikki turda bo'lib, bular: 1) tasviriy, tavsifiy, bayon tipidagi axborotdan iborat ifodalar hamda 2) tasdiq yoki inkor mazmunni tashuvchi ifodalardir. Tegishli fikr bayonidan iborat alohida gaplar (masalan, *onamning tug'ilgan kuni; bog'da qizil gul ochilibdi; gulga ko'zim tushdi va gulni uzdim*) orasida jumllararo butunliklar (yoki murakkab sintaktik qurilmalar) yuzaga chiqadi (*bog'da ochilgan gulga ko'zim tushib, onam uchun gulni uzdim; bog'da ochilib turgan gulga ko'zim tushdi va uni onam uchun uzdim; bugun onamga deb bog'da ochilgan gulni uzdim* va h.). Bu butunlik matnning ikkinchi semantik-sintaktik birligi sanaladi va u ikki va undan ortiq gaplarni o'zida umumlashtirib keladi.

Bo'lajak mutaxassisning lisoniy kompetentsiyasini shakllantirish turli asarlarning kontekstlaridagi birliklar asosida bo'lg'usi kasbiy faoliyat va ushbu faoliyat kontekstiga muvofiq vaziyatlarni hisobga olgan holda leksik vositalarni to'g'ri tanlash shartini qo'yadi²⁷. So'zning ma'nosi uni turli kontekstlarda va turli nutqiy asarlarda takroran idrok etish va ishlatish natijasida anglanadi. So'z joylashgan

²⁷ Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. – 2-е изд., дораб. – М.: Просвещение, 1986. – 223 с

bu turdagi ma'noviy qurshov, so'z leksik ma'nosini ochiqlovchi ushbu kichik (minimal) muhit mikromatn (mikrokontekst) hisoblansa, leksik birlik – so'zning jami vazifaviy xususiyatlarini bog'lanishli nutq misolida izchil namoyon etuvchi yaxlit matn – makromatn (makrokontekst) sanaladi.

So'z birikmasi va gap mikromatnning, bitta mavzu doirasidagi ikki va undan ortiq abzatsdan tashkil topgan matn parchasi, shuningdek, yaxlit asar hajmiga teng matn makromatnning obyektini hisoblanadi.

Bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy nutqini rivojlantirish ularning sohaga doir terminologik lug'atini shakllantirishsiz kechmaydi, shunga ko'ra ulardagi lisoniy layoqatni sohaga doir lug'aviy birliklarning turli matnlar misolidagi ma'noviy talqini orqali oshirish tavsiya etiladi.

Matn gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matnni hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratamiz: **Minimal matn** (mikromatn) va **maksimal matn** (makromatn). Shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o'rta va katta hajmli matnlar. "Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, drammatik asarlar, trilogiyalar kiradi".²⁸ Lekin bu tarzdagi bo'linish ayrim chalkashliklarni yuzaga chiqaradi. Shunday dostonlar borki, hajm jihatidan romandan katta. Nafaqat hajm jihatidan balki, ichki mazmun, xarakterlar tasviri, ruhiyat talqini jihatidan ham uncha-muncha romandan qolishmaydigan dostonlar bor. Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi go'zal dostonlarimiz shakl va mazmun jihatidan yirik hajmli asar hisoblanadi. Yoki kichik hajmli she'rlarni ham o'rta matn hisoblaymizmi? Umuman bu tarzdagi tasnif jiddiy asosga ega emas. Shuning uchun matnni tilshunoslikda keng tarqalgan ikkiga ajratib tekshirish tamoyili asosida o'rganishni ham mantiqan ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Badiiy uslubda **minimal matn** deyilganda biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamlar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan:

O'qing va o'rganing. Jiddiy kitoblarni o'qing. Qolganini hayotning o'zi tushuntirib beradi. F.Dostoevskiy.

Yana: Barchamizda iqtidor bor. Lekin baliqni daraxtga tirmashib chiqish qobiliyati bor-yo'qligi masalasida muhokama qilsangiz, u o'zini bir umr lapashang his qilib o'tadi. A.Eynshteyn.

Yoki: Agar мантиққа боғланиб қолганимизда, келажак бизга афсус-надоматлар олиб келарди. Мантиқдан муҳимроқ нарсалар бор. Биз одамлармиз. Эътиқод ва умидга эгамиз, меҳнат қила оламиз. J.I.Kusto.

²⁸ Қилйчев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро: Бухоро университети, 2000. 6-7-б.

O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi Bitiklar" turkumiga kiritilgan **Sadoqat** deb nomlanuvchi lavhada boshqacharoq holatni ko'rishimiz mumkin.

Qadim zamonda bir yurt bor ekan. Xalqi mehnatkash, podshosi odil, hayoti tinch, turmushi farovon ekan. Boshqa bir mamlakatning shohi g'ayrligi kelib, o'sha yurtni bosib olmoqchi bo'пти. Biroq daf'atan hujum qilishga jur'at etolmay, o'sha yurtga o'z xufiyasini yuboribdi. "Qanday qilib bo'lmasin, podshoning ishonchiga kirasan, yurtning sir-asrorini bilib kelasan" debdi.

Xufiya o'sha yurtga boribdi. Vaqti kelib, chindan ham podshoning ishonchiga kiribdi, mulozimlaridan biriga aylanibdi. So'ng, o'z mamlakatiga qaytib borib, shohiga "Bu yurtni olib bo'lmaydi!" debdi. "Nima, qal'asi mustahkammi?"-deb so'rabdi shoh. "Gap qal'ada emas",-debdi xufiya. "Bo'lmasa gap nimada o'zi?"-debdi shoh darg'azab bo'lib. Shunda xufiya o'zi guvoh bo'lgan bir voqeani aytib beribdi:

-Bir kuni o'sha podsho shikorga chiqdi. Yonida qirq nafar yigiti ham bor edi. Men ham ularga qo'shildim. Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo'ydi. Hammamiz unga ergashdik. Kiyik cho'qqiga qarab yugurdi. Podsho ham uning ortidan ot surib ketaveradi. Bir mahal kiyik cho'qqi tepasiga etganda tubsiz dara ustidan sakradi-da, narigi cho'qqiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Podsho noiloj jilov tortib, ortidan tushdi. Terlab ketgan edi. Yonidan ro'molcha chiqarib, peshonasini artmoqchi bo'lgan edi, nogahon shamol kelib, ro'molchani daraga uchirib ketdi. SHunda qirq yigitning hammasi o'zini tubsiz jarlikka otdi. Qanchasi parcha-parcha bo'lib ketdi. Qanchasi mayib-majruh bo'ldi. Omon qolgan bir yigit ro'molchani olib chiqib, podshoga topshirdi.

U yurtda bunaqa yigitlar ko'p. Bunaqa yurtni engib bo'lmaydi...

Mazkur matn sadoqat haqida, Vatanga, yurtga vafodorlik haqida. Biz matnning nima haqda ekanligini dastlab sarlavhadan bilib olamiz. Bu so'z matn ichida boshqa qaytarilmaydi, lekin sarlavha sifatida kelgan shu so'z matnning ham **motivatsion yaxlitligini** ham **kompozitsion butunligini** ta'minlashga xizmat qilyapti. Shunga ko'ra yozuvchi **mazmuniy o'qni** nom darajasiga ko'tarish orqali maqsadiga to'la erishgan deyishimiz mumkin. Sruni aytib o'tish kerakki, hamma nomlar ham bunday vazifani bajaravermaydi.

Mutaxassislar ba'zan bittagina gap ham mikromatn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Masalan: Bahor... Bu jumlada "tabiatning jonlanishi", "hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi", "atrof-muhitning go'zal tusga burkanishi" kabi yashirin mazmun mavjuddir. Lekin bu tipdagi ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb atash mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, ona degan so'zni oladigan bo'lsak, bu so'zning ham moddiyflashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzatsga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, Omon Muxtorning "To'rt tomon - qibla" trilogiyasi uchta romandan iborat. Yoki Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani alohida nom bilan ataluvchi qismlardan iborat yaxlit asardir.

Makromatnning tashkillanishini quyidagi sxema asosida yanada yaqqolroq ko'rishimiz mumkin:



Fikriy ifodaning bu kabi ko'p variantlilik murakkab sintaktik qurilmalarning chegarasini, o'zaro mantiqiy ketma-ketligi, izchilligini belgilashda o'ziga xos murakkablikni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda matnni alohida abzatlarga ajratish zarurati yuzaga keladi.

Tilshunoslikda abzats (satr boshi) termini ikki ma'noda talqin qilinadi:

1. Satr boshida o'ngga qarab joy tashlash (bu fanda qizil satr deb ham ataladi).
2. Yozma nutqning bir xatboshidan ikkinchi xatboshigacha bo'lgan, murakkab sintaktik butunlik sifatida reallashgan va adabiy matnning nisbiy tugallangan qismini tashkil etuvchi bo'lak²⁹.

Abzats murakkab qo'shma gaplarga teng kelsa-da, hajman ulardan farq qiladi (bitta abzats bir necha murakkab qo'shma gaplardan tashkil topishi mumkin) – abzats murakkab gaplardan kattaroq sintaktik butunlikdir. Shunga qaramay, ko'p tarkibli murakkab qo'shma gaplardan iborat matnlar bir necha abzatlarga – murakkab butunlikning alohida qismlariga urg'u berish maqsadida abzatlarga bo'lib beriladi. Odatda, badiiy, ilmiy, rasmiy-idoraviy uslublarda abzats o'ziga xos bayon usuli hisoblanadi.

²⁹ Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. -Л.: Просвещение, 1973, с. 244.

Bayon va ifoda usuliga ko'ra abzats:

- 1) Analitik-sintetik abzats;
- 2) Sintetik-analitik abzats;
- 3) Ramka-abzats turlariga ajratiladi.

Analitik-sintetik abzats birlamchi tahliliy bayon bilan boshlanadi va so'ngra umumlashtiruvchi, xulosalashtiruvchi fikrlar bilan yakunlanadi. **Sintetik-analitik abzats** esa urg'u berilayotgan eng asosiy fikrdan boshlanib, shu fikrning mazmun-mohiyati keyingi qismlarda ochib beriladi.

Ramka-abzatsda dastlab bayonning mavzusi aniqlashtirilib, so'ng tushuntiruvchi, izohlovchi bayon keladi va abzats umumlashtiruvchi jumla bilan yakunlanadi. Mazkur abzats turining "ramka-abzats" deya tasniflanishida ham "chegara" tamoyili mavjud: abzats mavzusining ochiqilanishi hamda abzatsning xulosaviy jumlar bilan "berkitilishi" evaziga mazkur abzats tipi shunday deya nomlanadi.

Makromatnning eng kichik birligi abzatsdir. Abzats qisqa xabar (abzatsda aytilmoqchi bo'lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), oldingi xabar bilan keyingi xabarni bog'lovchi vositalar (bog'lovchi vositalar abzatsni o'zidan oldingi abzatsga bog'laydi, shuningdek, abzats ichidagi xabar jumlarini bir-biriga bog'laydi), xabarning to'ldirilishi (dastlabki xabar to'ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) va xulosa (xabar yakunlanadi, natija aytiladi) qismlarni o'z ichiga oladigan butunlikdir.

Abzatlarning strukturasi ko'ra quyidagi ko'rinishlari mavjudligi sanab o'tiladi: 1) Sodda gapdan iborat bo'lgan abzatslar; 2) Qo'shma gapdan iborat bo'ladigan abzatslar; 3) Periodik nutq formasidan iborat bo'lgan abzatslar; 4) Superfrazali sintaktik butunlikdan iborat bo'lgan abzatslar; 5) Ko'chirma-o'zga gapli abzatslar.³⁰ Bunga aralash tipdagi nutq formalaridan tashkil topgan abzatslarni ham kiritish mumkin. Abzatsdagi "xabar" tema-rematik munosabatdagi gaplarda ifodalanadi. Tema (yunoncha thema – asos bo'lgan narsa) deb gapning aktual bo'linishida so'zlovchi va tinglovchi (o'quvchi) uchun ma'lum (tanish) bo'lgan narsani ifodalovchi, yangi narsani ifodalashga o'tish uchun asos xizmatini bajaruvchi qismga aytiladi. Rema (rheme-commentaire – ma'lumot, sharh) esa temadan keyin kelib so'zlovchi tinglovchiga (o'quvchiga) bildirmoqchi, aytmoqchi bo'lgan yangi xabar mazmunini ifodalovchi qism, gapning yangi ma'lumot (axborot) qismi.³¹ Odatda gapning ega sostavi tema, kesim sostavi esa rema vazifasida keladi: *Ahmad //darsga kelmadi. Sotvoldi // nima qilishini, qayoqqa borishini bilmay, hayron turardi. U // Sotvoldining dadasi To'lagan edi.*

Ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar

Ilmiy-ommabop uslub – ilmiy nutqning uslubiy turlaridan biri. Jamiyat a'zolari o'rtasida ilm-fan, texnikaga oid qo'shimcha aloqa-axborot almashinuv vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan uslub. Ilmiy-ommabop matn – subtil³²ning bosh vazifasi esa ilm-fanni jamiyat a'zolari o'rtasida keng targ'ib qilish,

³⁰ Мамажонов А. Текст лингвистикаси. –Тошкент: ТДПИ, 1989, 39-40-б.

³¹ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: ЎМЭ, 2002.

³² Услуб ичидаги кичик услуб.

ommalashtirishdan iborat. Ilmiy-ommabop matn asosan jurnal, risola, kitob yoki shu singari nashrlar tarkibiga kiruvchi maqolalar shaklida namoyon bo'ladi.

Ilmiy ommabop uslub quyidagi xususiyatlarga ega. a) umum iste'mol so'zlari va umum ilmiy atamalar ko'proq qo'llaniladi. b) Ilmiy ommabop adabiyotlar ilmiy tahlil qilish vazifasini o'z oldiga qo'ymaydi. v) Formula jadval va tajriba xulosalariga tayanmaydi. g) Ilmiy-ommabop uslub axborot berish vazifasini bajaradi.

Ilmiy-ommabop asarlarni yaratish tarixi kitob bosish ixtiro qilinganidan ko'p asarlar muqaddam (Xitoyda mil. av. 12—10-a. lardan, qad. Misrda mil. av. 2-ming yillikning o'rtalaridan) boshlangan. O'rta Osiyoda Abu Nasr Forobiy ("Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi"), Abu Rayhon Beruniy ("Mineralogiya"), Abu Ali ibn Sino ("Donishnoma", "Tib qonunlari"), adabiyotshunos Olim Sharafiddinov ("Navoiy hayoti va ijo-di") asarlari ilmiy-ommabop asarlarning ayni namunalaridir.

O'zbekistonda ilmiy-ommabop asarlarni nashr etish ishi XX asrning 80-yillar oxirida keng avj oldi. Respublikada bunday kitob va risolalarni "O'zbekiston", "Fan", "O'qituvchi", "Hilol nashr", "Akademnashr", Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti chop etadi. Matbaa ishlarining rivoji bilan bugun yurtimizda xususiy korxonalarda ham bu turdagi asarlar ko'plab nashrdan chiqarilmoqda. Respublikada "Fan va turmush", "Tafakkur" jurnallari ilmiy-ommabop vaqtlilik nashrlar sanaladi. Bundan tashqari, respublikada chop etiluvchi aksar gazetalarda ham ilmiy-ommabop maqolalar dunyo yuzini ko'radi.

Ilmiy-ommabop uslubning ilmiy uslub bilan qiyoslanganda farqli belgilari uning dastavval ijtimoiy qamrovdorlik jihati va soha mutaxassislariga qaratilgan ilmiy matnni ixtisoslashgan, mutaxassis bo'lmagan ommaga tarjima qilish zaruratida kuzatiladi.

Ilmiy-ommabop matn asosan keng kitobxonlar doirasiga mo'ljallangan fan, fan yutuqlari va olimlar haqidagi adabiyotlar, adabiy asarlar tilidir. Ilmiy-ommabop adabiyotlar soha mutaxassislari singari shu sohaga aloqador bo'lmagan ixtisoslik egalari ham qaratilgan bo'ladi.

Ilm-fanni ommalashtirish – bu ilmiy bilimlarni zamonaviy va ma'lumot olish uchun ma'lum darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlarning keng doirasi uchun ochiq shaklda tarqatish jarayoni.

Vaholanki, ilmiy uslub fan va o'qitish sohasida qo'llaniladi va uning asosiy xususiyatlari: umumlashtirish va mavhumlik, xos terminologiya doirasidan chetlashmaslik, mantiqiylikka asoslanishdan iborat. Ilmiy uslub – adabiy tilning fan va ishlab chiqarish sohasiga xizmat qiluvchi va turli janrdagi maxsus matnlarni moddiy in'ikos etuvchi vazifaviy shakli. Ilmiy uslub janrlariga maqola, monografiya, taqriz, taqriz, xulosa, referat, izoh, darslik, o'quv qo'llanma va boshqalar kiradi.

Ikkilamchi belgilari: bir ma'nolilik, semantik aniqlik, standartlik, obyektivlik, qisqalik, qat'iylik, aniqlik, shaxssizlik, baholovchi mezonning mavjudligi va boshqalar.

Ilmiy uslub tarkiban: sof ilmiy uslub (maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy ma'ruzalar, ilmiy konferentsiyalardagi ma'ruzalar, bahslar), ilmiy-ma'rifiy (ma'ruzalar, darsliklar), xabarlar, insholar).

D.S.Lixachev 1) ilmiy uslubga qo'yiladigan talablar badiiy adabiyot tiliga qo'yiladigan talablardan keskin farq qilishini, 2) ilmiy ish tilida metafora va turli obrazlardan foydalanishga ma'lum bir fikrga mantiqiy urg'u berish zarur bo'lgandagina joiz bo'lishini, 3) ilmiy uslubda tasvir faqat ishning asosiy g'oyasiga e'tiborni jalb qilish uchun zarur bo'lgan pedagogik vosita ekanligini qayd etadi. Olimning fikricha, ilmiy matn chindan ham ravon bayon uslubiga ega bo'lsa, o'quvchi uning ilmiy matn ekanligini payqamasligi lozim. Ya'ni u fikr ifodalangan til uslubini emas, balki faqat fikrni sezishi, anglashi kerak kerak; ilmiy tilning asosiy afzalligi uning qisqa, yengil, sodda va aniqligida ko'rinadi.

Ilmiy uslub matnida ergash gaplardan minimal darajada foydalanishni nazarda tutadi. Iboralar qisqa bo'lishi kerak, bir jumladan ikkinchisiga o'tish o'zaro uyg'un, tabiiy va mantiqiy bo'lishi kerak.

Olmoshlarga ko'p ham murojaat qilinmaydi, bu o'quvchining gap nima haqida ketayotganligini anglashiga xalaqit beradi.

Ilmiy matnda takrorlarga ham yo'l qo'yiladi, agar ular alohida ilmiy tushunchaga aloqador bo'lsa. Bitta va bir xil tushunchani bir xil atama bilan berish kerak, uni sinonim (ma'nodoshi) bilan almashtirib bo'lmaydi. Biroq terminlarni qo'llashdagi takror bilan jumalar takrorini bir-biri bilan adashtirmaslik lozim: fikr va jumalar takrori matnni siyqalashtiradi.

Ilmiy uslub so'zlarning sifatiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi (bu, ko'pincha, kirish so'zlar bilan ishlashda ko'zga tashlanadi). Masalan, *albatta o'rniga tabiiyki, rostdan ham o'rniga darhaqiqat, shaksiz o'rniga shubhasiz, benihoya o'rniga eng, muhim, katta, ixtilof o'rniga farq, tafvut* so'zlarini ishlatgan ma'qul.

Ilmiy uslub matnlari: til vositalarining xususiyatlari

- yuklamalar, bog'lovchilar, kirish so'zlar, nisbiy so'zlar, shtamp va klishelar (*chunki, va, ham, hamda, agar, xuddi, garchi, hatto, yoxud, shunday, nechog'liq, qanchalik, qaysiki, yordami bilan, asosida, bilan solishtirganda, qiyoslanganda, fikricha, qayd etishicha, binobarin, ...iga ko'ra, kuzatiladi, tekshirilganda, aniqlandi, tadqiq etildi, ... bilan bog'liq holda* va hokazo)dan foydalanishning yuqori chastotasi (taxminan 13%),

- qo'shma gaplar (ayniqsa, murakkab qo'shma gapli qurilmalar);

- ravishdosh oborotli, hol turkumli ergash gaplar bilan tuzilgan qo'shma gaplarning faol qo'llanishi.

Ommabop ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyati – unda ikki qutbli uslubiy xususiyatlarning: mantiq va emotsionallik, obyektivlik va subyektivlik, mavhumlik va konkretlikning uyg'unligida aks etadi. Ilmiy nashrdan farqli o'laroq, ilmiy-ommabop adabiyotlarda maxsus atamalar kamroq qo'llaniladi yoxud sohaga oid xos terminlarning xalq tilidagi muqobillari (agar mavjud bo'lsa) dan foydalaniladi.

Ilmiy-ommabop matnning vazifasi adresatni ma'lum bir bilim sohasi bilan tanishtirish va ushbu sohaning hodisalariga dastlabki kognitiv qiziqishni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, ilmiy-ommabop asarlar (kitob, maqolalar, jurnal va risolalar kabi) ilmiy masalaning mohiyatini to'la saklagan holda uni keng omma uchun tushunarli uslubda bayon etadi, o'quvchining g'oyaviy-ilmiy saviyasini o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Ilmiy-ommabop matn

alohida adresatga, ya'ni umumiy auditoriyaga qaratiladi. Shunga ko'ra ilmiy-ommabop matndagi nutq predmeti nafaqat mutaxassislarni qiziqtiruvchi, balki omma uchun birdek tushunarli bo'lgan, muayyan fanning eng umumiy tushunchalardan iborat bo'ladi, ilmiy-ommabop matnning o'zi esa umumtildagi qoliplar bilan ish ko'radi. Nutq mavzusining ommaviy xususiyatiga qaramay, ilmiy-ommabop matnlarda har doim qiziqarli, muammoli (va shuning uchun eslab qolish oson bo'lgan) ko'plab misollar, ayni paytda u yoki bu nazariy qarashni aniq tasdiqlovchi dalillar mavjud. Misollar keltirish mazmunning aniqlanishini ta'minlaydi bu esa matnda ko'tarilgan ilmiy muammoni ommalashtirish usullaridan biridir. Ilmiy-ommabop matnni o'quvchiga yaqinlashtirishning usullaridan biri bayon shaklini kundalik muloqotga yaqinlashtirish hisoblanadi.

Ilmiy-ommabop maqolaning ilmiy muammolarni tahlil qilish va tushuntirish kabi kommunikativ maqsadlarga qaratilganligi ushbu nutq janrining matnning analitik turiga mansubligini belgilaydi. Natijada tarkibiy ko'rinishi ilmiy va publitsistik funksional uslubga xos murakkab axborot tahliliiy funksional mazmunga ega bo'ladi.

Ilmiy-ommabop matn mazmuniga qo'yilgan maqsad ilmiy-ommabop maqolaning ilmiy-ommabop uslubning asosiy xususiyatlarini yaratadi. Bular: axborot mazmuni, analitiklik, ommaboplik. Janr sifati nutq janrining kompozitsion qismlarining funksional sifatlaridan iborat: sarlavha, kirish, izohlovchi asosiy qism va xulosa-mulohaza. Ilmiy uslub va ilmiy-ommabop subtil o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular umumiy maqsadni belgilash va ma'lum miqdordagi ilmiy bilimlarni uzatish orqali ifodalangan umumiy kommunikativ vazifaga asoslanadi. Biroq ilmiy-ommabop sub-uslub matnlari tegishli ilmiy ishlardan ma'lum kommunikativ vazifalari, faoliyatning turli sohalari va yorqin namoyon bo'luvchi pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ilmiy-ommabop adabiyotlarning adresati bu muammoga qiziqqan, lekin maxsus atamashunoslik bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan keng kitobxonlar, tinglovchilardir. Shunga qaramay, ilmiy-ommabop usulda ilmiy haqiqatlarni taqdim etishning asosiy maqsadi ilmiy ma'lumotlardan foydalanishga qodir bo'lgan odamlar doirasini kengaytirishdir.

Ilmiy-ommabop asarda badiiy obraz hosil qiluvchi vositalar, jumladan, metafora ham keng qo'llaniladi. Ilmiy-ommabop matnda metaforadan keng foydalanishning sababi, metafora o'quvchining ilmiy-ommabop matnni ijodiy idrok etish layoqatini o'stiradi. Favqulodda noyob, obrazli, topilma, original fikrlar metaforaning oldindan taxmin qilib bo'lmaz mo'jizakor tabiati tufayli vujudga keladi. U insonning tafakkur imkoniyatini kengaytirib, muayyan ilmiy haqiqatni anglashda odatiy g'oyalardan tashqariga chiqishga imkon beradi (garchi metafora orqali kishi ongida tevarak-olam narsalari va hodisalariga assotsiativ munosabat muntazam faollashib turadi). Metafora o'quvchining ijodiy faolligini uyg'otadi, uni yangi bilim hamda g'oyalarni kashf etishga yo'naltiradi. Metaforaning ilmiy-ommabop asardagi yetakchi vazifasi ilmiy tushunchaning mohiyatini ochish – kognitiv, evristik funktsiyadir. Ta'kidlash joizki, metafora ko'pincha ilmiy atamalarni paydo qiladi va muomalaga kiritadi. Lekin ilmiy-ommabop matnda metaforaning vazifalari ancha

xilma-xildir: odatda, yangi bilimlarni tatbiq etishda, shuningdek, eski, avvaldan ma'lum ilmiy qoidalarni sharhlashda metaforaga murojaat qilinadi. Ilmiy-ommabop matnning yangi tushunchalar yoki nazariyalar bayoniga qaratilgan qismlarida metafora baholovchi xususiyatga ega bo'ladi. Umuman esa, ilmiy-ommabop matnda metaforalar konstruktiv element rolini o'ynashi mumkin: metaforalar badiiy obraz yaratmasdan ham, obrazli talqinning ma'lum bir tizimini yuzaga keltirishi mumkin. Metafora butun matn, bob yoki matnning bir qismi darajasida joylashtirilgan, murakkab jarayonni tushuntirishda ishtirok etgan, muallifga ilmiy fikrni rivojlantirishga, murakkab muammoni tushuntirishga yordam beradigan bunday misollar juda tez-tez uchraydi:

Dialektika e'tirofdan ko'ra e'tirozga ko'p yon bosadi. U har ne mavjudot zahirida qarama-qarshilik pinhon deya ta'lim beradi. Binobarin, neki mavjud esa uni rad etmoq yoki bo'ysundirmoq imkoni ham mavjud deb biladi. Uning qonuniyatlariga ko'ra, dunyoni yengish, haqiqat – asov otni jilovlash mumkin. Ammo amalda tamomila aksi: haqiqat insonga emas, inson haqiqatga bo'ysunib yashaydi.

Qarama-qarshilik – taraqqiyot asosi degan gap ham, bizningcha uncha to'g'ri emas. Aks holda besh-olti yildan buyon siyosiy qarama-qarshiliklar ichida to'lg'anayotgan ... (davlati) taraqqiyot bobida barchani dog'da qoldirib ketmog'i lozim edi. Afsuski, bunday holat yuz bergani yo'q. Jamiyatda nisbiy muvozanat, nisbiy uyg'unlik bo'lmas ekan, bunga erishish ham dargumon. Zero, ta'kidlanganidek, "fikr erkinligini fikrlar qarma-qarshiligi deb tushunish" biryoqlamalik bo'lgani kabi, uyg'un va yagona olam qarama-qarshilik asosidagina taraqqiy etadi, deyish ham puxta o'ylanmagan gapdir.

E'tirof etish lozim, qarama-qarshiliklar kurashi islom ta'limotida ham mavjud. Ammo u sof ruhiy jarayon bo'lib, iymon va nafs o'rtasidagi kurash tarzida kechadi. Ta'bir joiz bo'lsa, u – iymon dialektikasidir.

Dialektika – mantiq ilmi. Ammo sho'rolar zamonida haloldan haromni, pokdan nopokni farqlay olmaydigan "faylasuf"lar dialektikadan saboq berib keldilar.

U zamonda faqat G'arb ilmiy amaliyotida sinalgan narsalargina joziba kasb etdi. Moddiy ehtiyoj sohasida bo'lgani kabi, ilm va tafakkur borasida ham "import" hodisasi – "tovar"ning chetdan keltirilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Holbuki, o'z milliy tafakkur tariximizda ham o'rganishga loyiq jihatlar ko'p ekan. Buni G'arbda yangicha tafakkur uslubi deb ta'riflangan ijtimoiy hodisa – murosa, kenglik abi xususiyatlar bizda azaldan muomala-munosabat mezonini va oddiy hayot tarzi sifatida qadrlanib kelganidan ham bilsak bo'ladi.

Maqolada qayd etilgan bosqichma-bosqichlik, murosa, ajralib chiqish tamoyillari, adashmasak, tasavvufdagi tariqat maqomlarida ham aks etgan. Ya'ni unda bir maqomga yetshmay turib keyingisiga o'tib bo'lmaydi. Deylik, shariatni egallamagan solik tariqatga kirolmaydi.

Alqissa, dunyo falsafa ilmidagi yangiliklardan mudom boxabar bo'lib tursak, o'z ma'naviy va tafakkur merosimizga yanada yaqinlashaverar ekanmiz. Buning esa foydasi beqiyos.

(M.Qarshiboy, "Murosa falsafasi"ga murosasiz so'ngso'z. – "Tafakkur" jurnalining 1996 yilgi sonidan)

Kuzatilgani kabi, metafora ko'magida insonga xos belgilarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, tushuncha va g'oyalarga ko'chirish orqali ham voqea-hodisalarning, tuzum va unga doir ma'naviy evrilishlarning manzarasini yaqqol gavdalandirish mumkin. Qolaversa, bu kabi majoziy talqin ilmiy-nazariy qarashlarning metaforadan xoli izohidan ko'ra anchayin jonli, tushunarli va ishonchli ifodasiga xizmat qiladi.

Ilmiy-ommabop matnlarning kompozitsion va semantik tuzilishining elementlari, shuningdek, zamonaviy ilmiy-ommabop maqola janriga xos bo'lgan sarlavha, epigraf singarilar ham ilmiy-ommabop asarning umumiy kommunikativ vazifasiga bo'ysundiriladi. Shunday qilib, ilmiy-ommabop asarning o'ziga xosligi, birinchi navbatda, uning alohida o'quvchilar ommasiga yo'naltirilganligi hamda tegishli ilmiy-nazariy bilimlarni ommalashtirishning eng maqbul shakl va usullarini tanlashda ko'rinadi. Shu bilan birga, ilmiy-ommabop uslub hamda nutqning qator uslubiy vositalari ko'p jihatdan bir-biriga mos keladi, ular faqat foydalanish chastotasi va kommunikativ vazifalari bilan farqlanadi.

Maqoladan parcha:

Jahon iqtisodiyoti, deb yozadi muallif, ertami-kechmi Quyosh tizimining moddiy-energetika resurslaridan kamida bitta sabab – Yer xomashyo resurslarining tugashi tufayli foydalanishga majbur bo'ladi. Ammo faylasuf B. Rasselning 1952 yilda bildirgan fikrlaridan kelib chiqadigan bir psixologik jihat bor. B. Rassel, qachondir Yer yuzida umumbashariy tinchlik o'rnatilsa, odamlar sarguzashtlarga bo'lgan istaklarini vayronkorlik, jangu-jadallardan emas, balki izlanishlar zamiridan izlay boshlaydilar, deb hisoblardi. Quyosh tizimi va yulduzlar haqidagi bilim esa, ehtimol, halokat energiyasini siqib chiqarib, jiddiy psixologik muammoni hal qiladigan sarguzashtga aylanishi mumkin. Bunday kuchli madaniy va intellektual yuksalish insoniyatga turg'unlikdan qutulishga yordam beradi.

Bu ilmiy-ommabop usulda yozilgan matn.

Unda qo'llanilgan so'zlar lug'ati quyidagi unsurlardan iborat:

umumiste'mol so'zlari: muallif, sabab, odamlar, fikr, sarguzasht, yulduz, istak; terminlar: turg'unlik, Quyosh tizimi, moddiy-energetik resurslar, Yer xomashyo resurslari, halokat energiyasi;

umumfan atamalari: faylasuf, energiya, izlanish, iqtisod;

mavhum ma'noli so'zlar: dunyo, bilim;

ilmiy frazeologiya: moddiy resurslar, psixologik jihat, intellektual yuksalish.

Ushbu matnning morfologik ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Tegishli matnda ot turkumidagi so'zlarning fe'llarga nisbatan miqdor jihatdan ustunligi;

mavhum tushunchani bildiruvchi otlarning katta miqdori: bilim, izlanish, istak, tinchlik, sabab, yuksalish, turg'unlik;

ikkinchi shaxsdagi fe'llarning yo'qligi (ham birlik, ham ko'plik), chunki ular ilmiy nutq uchun odatiy emas;

nisbiy sifatarning ustunligi: moddiy, psixologik, madaniy, intellectual, jiddiy.

Sintaktik jihatdan mazkur matn quyidagi xususiyatlarga ega:

Shart ergash gapli, shuningdek, ravishdosh oborotli jumlar qurish tendentsiyasi mavjud: *B. Rassel, qachondir Yer yuzida umumbashariy tinchlik o'rnatilsa, ..., deb hisoblardi;*

O'zga gapli konstruksiyalarga murojaatlar ustun;

jumlalarda odatiy so'z tartibi qo'llaniladi: *Ammo faylasuf B. Rasselning 1952 yilda bildirgan fikrlaridan kelib chiqadigan bir psixologik jihat bor;*

gapning maqsadiga ko'ra, darak gaplarning ustunligi yaqqol namoyon bo'lgan.

Ilmiy uslubning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) sof ilmiy – ilm-fan, texnikaning tegishli soha mutaxassislariga qaratilgan bayon usuli. Fan va texnika sohasiga xizmat qiluvchi vazifaviy uslub, uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy matnlar orqali tabiat, inson va jamiyat haqida obyektiv ma'lumotlarni adresatga etkazish maqsadi bilan bog'liq. U yangi bilimlarni qabul qiladi, saqlaydi va uzatadi. Ilmiy til (matn) – bu sun'iy tillar elementlari (hisob-kitoblar, grafiklar, belgilar) bilan maqsadga muvofiq uyg'unlashgan tabiiy til. Janrlari: monografiya, maqola, annotatsiya, taqriz, hisobot kabilar),

2) ilmiy-o'quv (ma'rifiy) – ilmiy uslubning ilm-fan, texnikaning tegishli sohasida ta'lim oluvchilariga dunyoning ilmiy manzarasini o'zlashtirishda asos bo'luvchi uslub ko'rinishi. Janrlari: darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruza va b.

3) ilmiy-texnikaviy – ilmiy uslubning texnik va texnologik soha mutaxassislariga fundamental fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish usul va yo'llarini o'rgatuvchi, tadqiq etuvchi ko'rinishi. Janrlari: annotatsiya, referat, patent tavsifi, lug'at, ma'lumotnoma, katalog kabilar.

4) ilmiy-ommabop – ilmiy uslubning jamiyatning barcha a'zolariga ilm-fanning yutuqlari haqida ma'lumot berish orqali umumiy madaniy darajasini oshirishga qaratilgan ko'rinishi. Janrlari: maqola, risola va b.

Ilmiy uslubning barcha turlariga:

- 1) bayonot haqida oldindan o'ylash;
- 2) nutqning monologik tabiati;
- 3) til vositalarini qat'iy tanlash;
- 4) qat'iy standartlashtirilgan nutq talablariga amal qilish;
- 5) uzatilgan ma'lumotlarning aniqligi, dalillarning ishonchligi;
- 6) mavhum tushunchalarni umumlashtirish;
- 7) mantiqiy ketma-ketlik;
- 8) izchillik;
- 9) qisqalik, ixchamlik kabi xususiyatlar xos.

Ilmiy-ommabop uslub keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan, shuning uchun ilmiy ma'lumotlar matnda qulay va qiziqarli tarzda taqdim etilishi kerak. Mazkur uslub ko'rinishi qisqalikka, ixchamlikka intilmaydi, balki jurnalistikaga xos lingvistik vositalardan foydalanadi.

Ilmiy matnning lingvistik xususiyatlari

Abstraksiya va umumlashtirish. Ilmiy matnda deyarli har bir so'z mavhum tushuncha yoki mavhum mavzuning belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, *tezlik, vaqt, miqdor, sifat, muntazamlik, rivojlanish.*

Ayrim mavhum ma'noli so'zlarning ko'plik shaklida ishlatilishi kuzatiladi. Shu jumladan: *kattaliklar, chastotalar, kuchlar, kengliklar, bo'shliqlar, tezliklar* singari.

Ilmiy uslub lug'atining asosiy xususiyatlari:

takrorlanuvchanlik (fikr, yoxud jumlar takrori bundan mustasno);

baholovchi, hissiy-ekspressiv vositalarning deyarli ishlatilmasligi;

mavhum otlarning faolligi;

qisqartmalar, logografemalar, morfografemalarning faolligi.

Ilmiy matn sintaksisi asosan qo'shma gaplar (qo'shma gaplarning ergash gapli tipi nisbatan faol), shaxssiz gaplar qo'llanilishi bilan farqlanadi. Muammoga e'tiborni jalb qilish uchun asosan deklarativ, so'roq gaplar qo'llaniladi.

Ilmiy uslubda "men" olmoshi qabul qilinmaydi (ilmiy etikaga muvofiq, nokamtarlik sifatida talqin qilinadi), u "biz" bilan almashtiriladi ("bizning nuqtai nazarimizdan", "bu bizga aniq ko'rinadi").

Ilmiy matnda mantiqiy ketma-ketlik esa uning barcha darajalarida talab qilingan asosiy xususiyatlardan sanaladi: mavzular o'rtasidagi o'zaro mantiqiy bog'lanish va izchillik, jumlani tarkib toptiruvchi bo'laklar orasidagi ketma-ketlik va h.

Mantiq tamoyili:

1) bitta tushunchani ifodalovchi terminlarni takror qo'llash yoxud ularni ko'rsatish olmoshlari bilan almashtirib ishlatish;

2) ko'makchi vositalardan unumli foydalanish: *avval, keyin, so'ng, doir, uchun, kabi, ko'ra, qaraganda, nisbatan, holda, ravishda, tarzda* kabi.

3) gap qismlari o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalovchi kirish so'zlaridan foydalanish: *demak, ikkinchidan, binobarin, vaholanki, zotan, zero, jumladan, xususan, masalan*.

4) bog'lovchilardan unumli foydalanish - chunki, negaki.

Ilmiy matnda ilmiy tavsifning alohida o'rni mavjud. Ilmiy tavsif narsa-hodisalarning odatiy tasviri, tavsifidan farq qiladi, unda syujet va personajlar yo'q. Ilmiy tavsifdan maqsad - obyekt, hodisa belgilarini ochib berish bo'lib, ta'riflar odatda qisqa bo'ladi. Batafsil, biroq ixcham tavsiflar ilmiy jihatdan to'g'ri tavsif sanaladi. Ushbu turdagi matnning markazida ko'pincha obyektlarni guruhlash, ularning xususiyatlarini taqqoslash va umumlashtirish masalasi turadi. Tavsif ilmiy nutq uslubining deyarli barcha janrlarida mavjud.

Ilmiy matni mantiqiy tashkil etish usullari: deduksiya, induksiya, masala bayoni, analogiya.

Mulohaza yuritishning deduktiv usuli ilmiy munozaralarda, munozarali masalalarga bag'ishlangan nazariy maqolalarda, universitetlarda o'tkaziladigan seminarlarda faol qo'llaniladi.

Deduktiv fikrlashning tarkibi uch bosqichdan iborat:

1) tezis (yunon tilidan - haqiqati isbotlanishi kerak bo'lgan pozitsiya) yoki gipoteza (yunoncha - asos, taxmin) ilgari suriladi.

2) fikrlashning asosiy qismi tezisni ishlab chiqish, haqiqatni isbotlash yoki rad etishdir. Bu erda dalillarning har xil turlari qo'llaniladi. Ularning barchasi mulohazalarni mantiqiy jihatdan isbotlovchi dalillar bo'lishi shart.

3) Xulosalar va takliflar.

Induktiv usul (lot. - yo'l-yo'riq) - bu fikrning xususiylikdan umumiyga, alohida faktlarni bilishdan umumiy qoidani bilishga, umumlashtirishga qaratilgan tarzi.

Induksiya tarkibi:

1) ilmiy matnning kirish qismida dissertatsiyaning umumiy mazmuni haqidagi ma'lumotlar ilgari surilmaydi, lekin olib borilayotgan tadqiqot maqsadi aniqlanadi.

2) asosiy qismda to'plangan faktlar bayon qilinadi, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi tavsiflanadi, olingan materialni tahlil qilish, taqqoslash va sintez qilish amalga oshiriladi.

3) ilmiy matnning xulosalar qismida tadqiqot materialining xususiyatlari borasida tugal konsetsiya, aniqlangan qonuniyatlar bayon etilishi kerak. Konferentsiyalardagi ilmiy ma'ruzalar, monografiyalar, tadqiqot ishlari bo'yicha hisobotlar loyihasi induktiv fikrlash tarziga quriladi.

Muammo bayoni muammoli masalalarni qo'yish orqali aqliy faoliyatni faollashtirishni o'z ichiga oladi, ularni hal qilishda nazariy umumlashtirishga, qoidalar va qonuniyatlarni shakllantirishga yondashish mumkin. Bu usul uzoq tarixga ega bo'lib, mashhur "Sokratik suhbatlar"dan kelib chiqqan, o'shanda mohirona qo'yilgan savol-javoblar yordamida mashhur donishmand o'z tinglovchilarini haqiqiy bilimga yetaklagan. Hozirgi vaqtda muammoni taqdim etishning asosiy afzalliklaridan biri tinglovchining haqiqatni bilish yo'lida ekanligi, kashfiyotga qodir ekanligi, tadqiqotchilikka jalb qilinganligida namoyon bo'ladi. Ilmiy muammoni to'g'ri qo'ya bilish aqliy va hissiy qobiliyatlarni faollashtiradi, o'zini o'zi qadrlash darajasini oshiradi va shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Muqobilik (analogiya). Uning mohiyatini quyidagicha tushuntirish mumkin: agar ikkita hodisa bir yoki bir nechta jihatlari bo'yicha o'xshash bo'lsa, ular boshqa jihatlarda ham o'xshashdir. Analogiya bo'yicha chiqarilgan xulosalar taxminiydir, shuning uchun ko'pchilik o'xshashlikni ilmiy uslub janrlari uchun kamroq maqbul deb hisoblaydi. Biroq, analogiya vizual tushuntirishning juda samarali vositasidir, shuning uchun uni ilmiy adabiyotlarda qo'llash ayniqsa muhimdir.

Ilmiy matnda uslubiy xatolar

Ilmiy matnda so'z tanlash muammosi boshqa uslublarda bo'lgani kabi, ilmiy uslubning xos xususiyatlariga (ixchamlik, aniqlik, bir ma'nolilik, obraz va tasviriylikdan xolilik va b.) to'laqonli amal qilish bilan belgilanadi. Bu talab kontekstda so'zning semantikasi, uslubiy bo'yoqlari va uslubiy mansubligi nuqtai nazaridan o'rinli foydalanishni nazarda tutadi. So'z bir ma'noli bo'lishi, til me'yoriga mos kelishi, uslubiy jihatdan mos bo'lishi kerak. So'zni tanlashda aniqlikka e'tibor bermaslik qo'pol uslubiy xatolarga olib keladi. Solishtiramiz: *Bizni 100 yil aldashedi: Titanik haqida 8 ta dahshatli fakt!* (internet xabarlaridan); *Uzoq ezilish krash-sindromi(UES)da oyoq-qo'llarning uzoq vaqt siqilishi, og'ir narsalar va boshqalar dahshatli oqibatlariga olib keladi.* Bunda so'zlashuv uslubiga xos dahshatli so'zi 2-misolda no'rin qo'llangan bo'lib, ilmiy matn talabi bilan uni *og'ir, asoratli* so'zlari bilan almashtirish maqsadga muvofiq. Yoki: *Ushbu kiyimlarda siz har qanday*

diskotekaning epitsentriga aylanishingiz mumkin. Bunda *epitsentr* soʻzi ikki maʼnoga ega: 1) yer yuzidagi zilzila ustidagi hudud, 2) biror narsa eng katta kuch bilan namoyon boʻluvchi joy. Demak, bu holatda ... *siz diqqat markaziga aylanishingiz mumkin* deb yozish toʻgʻri boʻladi.

Shunday qilib, soʻz tanlash sinonimik qatordan maʼlum bir sinonim, antonimik juftlikdan antonim, atama, jargon, frazeologik birlik va boshqa leksik vositalardan asosli foydalanish muammosini oʻz ichiga oladi. Soʻzni tanlashda uning leksik va stilistik muvofiqligini hisobga olish kerak.

Uslubiy muvofiqlik – bu soʻzlarning hissiy va ekspressiv xususiyatlarini, shuningdek, uslubga tegishlilikini hisobga olgan holda foydalanish. Koʻpchilik soʻzlar stilistik jihatdan neytral, yaʼni har qanday nutq uslubida ishlatilishi mumkin. Ammo zamonaviy ommaviy axborot vositalarida ekspressivlikni oshirish tendentsiyasi mavjud, jurnalistlar neytral boʻlmagan til vositalaridan foydalanishga moyil: *Misrdan topilgan yangi shahar olimlarni qoʻrqitib yubormoqda.* Mazkur misolda mubolagʻali va gʻayritabiiy mazmun mavjud boʻlib, jumlaning gʻalizligi olimlarga *qoʻrquv* tushunchasining birlashtirilishida kuzatilmoqda. Shuningdek, matn ekspressivligi ayrim qoʻllanishi chegaralangan birliklardan foydalanish evaziga ortadi. Masalan, uslubiy betaraf matnda jargondan foydalanish soʻzlarning uslubiy muvofiqligini buzishiga doir holat: *Gʻulommiddin domla tik toker qizlani yedirdi* (Amirxon Umarov tok-shousidan). Uslubiy muvofiqlik bir xillik shartlariga rioya qilishni nazarda tutadi. Turli uslubdagi lugʻatdan maqsadga nomuvofiq foydalanish (masalan, kulgili effekt yaratish) uslubiy xatoga olib keladi.

Lugʻaviy ortiqchalik, takrorlar – bir xil yoki oʻxshash maʼnoli soʻzlarni takrorlash. Fikrning ortiqchaligi sinonimlarni ishlata olmaslikdan kelib chiqadi. Fikr va soʻz ortiqchaligining 2 turi mavjud: tautologiya va pleonazm. Tautologiya – bir xil asosli soʻzlarning takrorlanishi. Tautologiya nutqning taʼsirchanligini oshirishga xizmat qilsa, masalan, maqollar, matallar, barqaror folklor birikmalarida xato boʻlmaydi: *Mehnat – mehnatning tagi rohat.* Tilning uzual onomastik birliklari uchun tautologiya xato emas: Toshkent shahri, Chimkent shahri; *Maqolada bugungi kunning eng muhim muammolari koʻtarilgan (bugungi – bu kungi: kun).* Beixtiyor, tasodifiy yuzaga keladigan tautologiya esa chindan uslubiy gʻalizlikni keltirib chiqaradi: *Berilgan topshiriqni mustaqil oʻrganayotgan talabalar mustaqil fikrlashni oʻrganadilar; Yozuvchi bu haqda shunday yozadi (yozuvchi – yozadi); ...ning deya qalam tebratishlari uning oʻtkir qalam sohibi ekanini anglatadi.* Tautologiya sinonimlarni toʻgʻri tanlash bilan tuzatiladi.

Pleonazm – bu mazmunni takrorlaydigan soʻzlarni qoʻllashda yuzaga keladigan fikr ortiqchaligi: *monumental yodgorlik; qisqa bliits.* Pleonazm, agar u tizimli ravishda aniqlangan boʻlsa, xato emas, masalan: *Bu odamni hech qachon koʻrmaganman* (ikki marta salbiy); *Sentyabr oyida (sentyabrda); Peterburg shahri;* fakt bayoni (rasmiy ish va ilmiy uslub shartlari). Nutqning ekspressivligiga pleonastik folklor birikmalari, shuningdek, turgʻun birikmalar yordam beradi: *shaxsan uchrashish; oʻz koʻzining bilan koʻr va oʻz qulogʻing bilan eshit; piyoda yurmoq; haqiqat - haqiqat; yoʻl, yoʻl va boshqalar.*

Pleonazm uslubiy xato sifatida ma'noni takrorlaydigan so'zlarni iboralar va jumalarga birlashtiradi: *Yosh figurali uchuvchining birinchi debyuti; Yosh bola vunderkind qobiliyatlari bilan barchani hayratda qoldirdi.* Ko'pincha, pleonazm bir xil ma'noga ega bo'lgan o'zlashma so'z va tilda mavjud birliklarni birlashtirganda paydo bo'ladi: Ichki; narxlar ro'yxati; unutilmas suvenir; dengiz sayohati; hot-dog.

Nazorat savollari

1. Matn turlari haqidagi bilimlaringizni bayon qiling.
2. Mikro matn va makro matn o'rtasidagi farqni tushuntiring.
3. Ilmiy va ilmiy-ommabor matnlar o'zaro nimasi bilan o'xshash va farqli?

Adabiyotlar

1. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. –Тошкент: ТДПИ, 1989, 39-40-б.
2. М.Мукаррамов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2002.
4. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро: Бухоро университети, 2000. 6-7-б.

7-mavzu. ADABIY NUTQ VA UNING USLUBLARI

Reja:

1. Uslub tushunchasi va uning lingvistik talqini.
2. So'zlashuv uslubi.
3. Ilmiy uslub.
4. Publitsistik uslub.
5. Rasmiy uslub.
6. Badiiy uslub.

Tayanch tushunchalar: tilshunoslikda uslub tushunchasining talqini, matnning uslubiy xususiyatlari, so'zlashuv, ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik va badiiy uslublar va ularning lingvistik xususiyatlari.

Tilshunoslikda *ustlub* tushunchasi ikki: 1) til va nutqning vazifaviy xoslangan shakli hamda tegishli matn yoxud ijodkorning bayon uslubi ma'nosida talqin qilinadi.

Jahon tilshunosligida uslub tushunchasi va u bilan bog'liq tadqiqotlar antik davrlarda boshlangan, 18-asrda Fransiyada esa nutqning: quyi, o'rta, yuqori uslubi farqlab berilgan. Nutqiy uslublarni tasniflash, o'zaro tafovutlarini chegaralash oqibatida esa milliy tillarning uslubiy xususiyatlarini o'rganishda sezilarli siljishlar sodir bo'ldi. O'zbek tilshunosligida tilning vazifaviy uslublarini tekshirish o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan.

Matnning uslubiy xususiyatlarini belgilash, nutq uslublarini tasniflash masalasida ikki asosiy omilga tayaniladi. Ya'ni 1) ekstralingvistik (nutqiy aloqa va

muloqot doirasi, sohasi) va 2) lingvistik (til birliklarining uslubiy belgilari – farqlari) omillar. Til uslublarining tasnifida har ikki omil teng ahamiyatga ega. Jumladan, ekstralingvistik omil tilning mohiyati, ijtimoiy ong shakllari va ularga mos keluvchi inson faoliyati turlari (fan, sanʼat, huquq, adabiyot, madaniyat va b.) bilan bogʻliq. Bu ijtimoiy ong shakllarining har biriga mos umumiy yoki konkret fikrlash tipi hamda ularning inʼikos shakli (ilmiy tushuncha, badiiy obraz, huquqiy meʼyor kabilar) nutqiy munosabat doirasini ham belgilab beradi³³.

Uslubni hosil qiluvchi faktorlarga tilning ifodalanish shakllari (yozma va ogʻzaki), nutqning turlari (monologik, dialogik nutq), aloqa usullari (ommaviy va shaxsiy), nutq janrlari (ocherk, maqola, roman, doston, monografiya, hikoya, maʼruza, bahs-munozara), fan turlari va sohalari (fizika, matematika, informatika, tibbiyot, kimyo, psixologiya, tarix, geologiya, lingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, korpus tilshunosligi va b.), fikrni bayon qilish usullari (tasviriy, munozarali, tanqidiy, grafik, maxsus belgilar yordamida – formulalarda va b.) kiradi. Ushbu xilma-xil omillar tegishli matnlarni alohida nutqiy shakllar – uslublarga ajratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Har bir uslub bir mazmuni ifodalashda oʻzining ichki meʼyorsa va variantiga asoslanadi. Ifoda shaklining variantlik darajasi har bir uslubda turlicha boʻladi. Masalan, rasmiy-hujjat nutqida ifoda shakli bir xilda boʻladi. Badiiy va publitsistik (qisman ilmiy) matnlarda individual uslub asosida ish koʻrilgani sabab, u yoki bu bayon shaklini tanlashda erkinlik bor. Rasmiy-hujjat nutqi individuallikka yoʻl qoʻymaydi. Chunki bu uslubning individual nutq uslubi yoʻq. Shuning uchun rasmiy-hujjat uslubi keng maʼnoda ijodiy uslub emas. Bu uslubning ariza, tilxat kabi nutq turlarida daho shoir ham, oʻta rasmiyatchi odam ham bir xil yozishi mumkin. Chunki bu hujjat turlarida yangi bir oʻy, fikr, gʻoya haqida fikr yuritilmaydi.

Tilshunoslik tarixida vazifaviy uslublar 4 tadan to 7 tagacha boʻlingan. Jumladan, yaqin yillargacha oʻzbek tilshunosligida nutq uslublarining 5 ta ekanligi eʼtirozsiz qabul qilinib kelingan boʻlsa, soʻnggi yillarda diniy uslubni ham mavjud uslublarning oltinchisi sifatida qabul qilish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Yaʼni: 1) soʻzlashuv; 2) rasmiy-hujjat; 3) ilmiy; 4) publitsistik; 5) badiiy uslub.

Nutq uslublarining har biri ichki boʻlinishga ega va ular podstillar (uslub – *stil* degani, *podstil* – uslubiy boʻlinish, uslub ichida guruhlanish deganidir) deb ataladi. Xususan, oʻzbek tilidagi ilmiy uslub uchta uslubiy boʻlinishga ega. Bular: 1) soʻf ilmiy uslub, 2) ilmiy-oʻquv uslub va 3) ilmiy-ommabop uslub.

Soʻzlashuv uslubi

Hozirgi oʻzbek tilida soʻzlashuv uslubining ikki asosiy shakli mavjud: adabiy soʻzlashuv uslubi va oddiy soʻzlashuv uslubi.

Adabiy soʻzlashuv uslubi tilning adabiy meʼyorlariga mos, tartibga solingan nutq shaklidir. Bu nutq turi nutq madaniyati va til sofligiga putur yetkazuvchi unsurlardan xoli boʻlib, nisbatan sodda, varvarizm, sheva, parazit soʻzlar hamda jargon elementlaridan xolidir. Adabiy soʻzlashuv uslubi umummilliy tilda

³³ Кожина М. Н. К основам функциональной стилистики. Пермь, 1968. – Б. 142-154.

soʻzlashuvchi kishilar uchun tanish va maʼlum boʻlganidan jamiyat aʼzolari oʻrtasida aloqa-aralashuv jarayonini yengillashtiruvchi asosiy uslub hisoblanadi. Tilning adabiy soʻzlashuv uslubi kundalik muloqot uchun eng maqbul boʻlgan nutq turidir.

Oddiy soʻzlashuv uslubiga esa emotsionallik, tilning adabiy meʼyorlariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik-frazeologik birliklar, shuningdek, sheva elementlarini erkin qoʻllash xos boʻlib, bu belgilar mazkur uslubning leksik-grammatik xususiyatlarida yaqqol koʻrinadi.

Soʻzlashuv uslubida umumadabiy tilga hamda ogʻzaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlari kuzatiladi.

Nutq sifati, talaffuz xususiyatiga koʻra soʻzlashuv uslubining orfoepik belgilarini ikki turga boʻlish mumkin. Birinchi tur belgilari – soʻz ustalari, boshlovchilar, diktorlar, notiqlar nutqiga tegishli belgilardir. Bejizga nutq madaniyatining talaffuz meʼyorlarini oʻzlashtirishda koʻrsatilgan soha vakillarining nutqiga taqlid qilish tavsiya qilinmaydi.

Talaffuzning ikkinchi tur meʼyori esa, asosan, ogʻzaki nutqda uchraydi. Bu meʼyor quyidagi belgilarga ega:

1. Soʻz tarkibidagi tovushlarning oʻrin almashinishi: *dayro* (daryo), *toʻrgʻa* (toʻgʻra), *turpoq* (tuproq), *supra* (surpa), *duyno* (dunyo) kabilar.

2. Soʻz tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi: *quflamoq* (qulflamoq), *tashamoq* (tashlamoq), *koʻkartmoq* (koʻkartirmoq), *baqala* (baqlajon), *muomala* (momila), *saodat* (sodat) kabi.

3. Biror tovushning orttirilishi: *chechmoq* (yechmoq), *qamchin* (qamchi), *kista* (kissa), *yangitdan* (yangidan), *supurtki* (supurgi).

4. Tovush almashinishi: boʻqoq (buqoq), moʻnchoq (munchoq), koʻmirchak (kemirchak), koʻynak (koʻylak), nusqa (nusxa), qimillamoq (qimirlamoq), tiqillatmoq (tiqirlatmoq), boylamoq (bogʻlamoq), maxtamoq (maqtamoq) va b.

5. Affikslar qoʻshilishi natijasida oʻzak-negizlarda hosil boʻladigan qisqartmalar: opti (olipti), kepti (kelibdi), opkepti (olib kelibdi).

Soʻzlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari. Soʻzlashuv uslubida ishlatiladigan lugʻatning asosiy qismini qoʻllanishi faol soʻzlar (suv, non, ovqat, tuz, yer, osmon, quyosh, yulduz, uy, doʻkon, bozor, kishi, bola, er, xotin, oʻrtoq, oyoq, qoʻl, koʻz, ota, ona, kitob, qalam, xalq, olmoq, kelmoq, uxlamoq, sen, biz, u, bu va b.) tashkil qiladi.

Soʻzlashuv uslubi kundalik ijtimoiy-maishiy turmushning barcha sohalarini oʻzida aks ettiruvchi uslub sifatida siyosat, sanʼat, madaniyat, sport va soʻzlovchining kasb-hunariga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy soʻzlarga boy uslub hisoblanadi.

Soʻzlashuv uslubining asosini tashkil etuvchi umumadabiy leksika “maxsuslik” xususiyatiga ega boʻlmay, balki har qanday nutq uslubida ham, turli xil faoliyat doirasida va ijtimoiy muhitda ishlatilishi jihatdan uslubiy betaraf hisoblanadi. Soʻzlashuv uslubiga asosan soʻzlashuv boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar xos.

Soʻzlashuv uslubi salbiy va ijobiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv leksikaga juda boy. Masalan, *xasis*, *mumsik*, *quruq*, *ziqna* soʻzlari oʻzaro maʼnoviy aloqador, yaqin maʼnoni anglatuvchi soʻzlardir. Ularning ayrimlari badiiy uslubda

ham ancha faol qo'llanadi. Shuningdek, o'zaro ma'nodoshlik hosil qiluvchi chetdan o'zlashgan so'zlarning ham uslublararo faolligi kuzatiladi. Masalan, *do'kon, supermarket, bozor, gipermarket, ekobozor, magazin* kabi.

So'zlashuv uslubida tasviriy so'zlardan yasalgan fe'llar ham ko'p ishlatiladi. Masalan: *akillamoq, laqillamoq, sho'rqillamoq, gurillamoq, bobillamoq, valdiramoq, do'ng'illamoq, ming'illamoq, po'killamoq, po'ng'illamoq, to'ng'illamoq, ting'illamoq* kabi.

Ilmiy uslub

Har qanday nutq narsa va hodisani aniq tasvirlashga harakat qiladi. Ilmiy nutq narsa va hodisani logik fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish orqali izchil bayon etadi. Aniqlik hodisasi predmet ma'nosini anglatuvchi so'zlarning nominativ ma'noda qo'llanishida, monosemantik xarakterga ega bo'lishida, sinonimiyaning bir qadar chegaralanishida, terminlarning ilmiy nutqqa mos qo'llanishida ko'rinadi. Obyektivlik narsa va hodisalarning haqqoniy mavjudligida, ularning to'g'ri fan tushunchalari asosida izohlanishida, fikrning misollar, faktik materiallar, teorema va formulalar bilan isbot qilinishida, bunga kishining to'liq ishonch hosil qilishida ko'rinadi.

Qisqalik ilmiy nutqqa xos belgidir. Ilmiy bayon ortiqcha tasvirni, izohni talab etmaydi. Shuning uchun ilmiy byonda narsa va hodisalar tasviri uchun uzundan-uzoq o'xshatish, sifatlash, parallelizm kabi tasviriy vositalar qatnashmaydi. Bu kabi ortiqcha bayon fikrni chalg'itib, diqqatni bo'ladi. Shu sababli ilmiy bayon doimo qisqalikka intiladi. U, asosan, yoyiq sodda gaplardan tuziladi. Qo'shma gaplar tarkibida bog'lovchilar ko'proq ishlatiladi.

To'liqlik ilmiy nutqning sintaktik belgilarida ko'rinadi. Tushuncha ma'nosini anglatgan so'zlar aniq ma'noni to'la qamrab olishga harakat qilar ekan, nutqda shu ma'noni tashuvchi aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim kabi bo'laklar tushirib qoldirilmaydi. Ilmiy nutqda to'liqsiz gaplar uchramaydi. Bunga ilmiy nutqning monologik xarakterda bo'lishi ham sababchidir.

Ilmiy nutqda so'zlovchi (men) o'z nutqini II shaxs orqali barchaga qaratadi. Ilmiy uslubda III shaxs, o'zga ishtirok etmaydi. O'zganing fikri avtor tomonidan bayon etilishi mo'mkin (masalan, u bunday degan edi, uning fikricha, u o'z asarida...kabi o'zganing fikri keltiriladi).

Ilmiy nutqda tinglovchi xabarni o'zi oladi, lekin o'zgaga xabar qilish ma'nosida nutq tuzilmaydi (masalan, unga aytib qo'ying, unga tushuntirib qo'yinglar tarzidagi nutq yo'q). Shu bilan birga, tinglovchi o'zganing fikrini so'zlovchiga o'tkazadigan nutq ham yo'q. Ya'ni yozma ilmiy tekstda tinglovchi faqat informatsiya oladi, lekin informatsiya bermaydi. Ilmiy tekst shunday xarakterda tuzilsa-da, lekin baribir "yashiringan" dialog xarakterga egadir. Avtor o'zining yozgan asariga qachondir javob bo'lishini kutadi. Shuning uchun u "avtorning mana bu fikriga qo'shilmayman" degan javobga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

Avtorning ko'z oldida o'ta talabchan kitobxon namoyon bo'lib turadi. Buning uchun avtor o'z fikrini isbotlash uchun juda ko'plab faktik materiallarni keltirish

bilan tinglovchining ishonchini qozonadi. Shu maqsadda ilmiy nutqda har bir soʻz aniq, toʻgʻri maʼnoda qoʻllanilib, aytmoqchi boʻlgan fikr toʻliq bayon etiladi.

Neytrallik unda qoʻllangan til birliklarida koʻrinadi. Ilmiy bayondagi har bir soʻz, har bir grammatik forma adabiy tilga xos birlik sanaladi. Soʻzdagi ekspressiv-emotsionallik, ijobiy va salbiy baho ilmiy nutqda boʻrtib turmaydi, yaʼni qoʻshimcha maʼnolarni berish uchun ishlatilmaydi. Soʻzlar figural maʼnoga, alohida leksik qoʻllashga xos boʻlmaydi. Intellektual leksika asosiy oʻrinda turadi. Ekspressiv leksika chegaralanadi. Maqol, matal, soʻz oʻyini ishlatilmaydi. Emotsional undovlar (ie, voy, hoy-hoy, e, obbo, evoh v. b.), imperativ undovlar (hyey, allo, bex-bex, pish-pish, mah-mah v. b.), tovushga taqlid soʻzlar (qars-qars, kirt-kirt v. b.), obrazga taqlid soʻzlar (lip-lip, yalt-yalt, lop-lop, jiq-jiq va b.) qoʻllanmaydi. Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlgan vazifaviy uslubdir. U oʻz ichida yana ilmiy-texnikaviy, ilmiy-hujjat, ilmiy-ommaviy, oʻquv-ilmiy, publitsistik kabi bir necha sof ilmiy turlarga boʻlinadi.

Ilmiy-texnikaviy uslub ifodada qatʼiy ilmiy-akademizm uslubi bilan xarakterlanadi. Bu turning tipik janrlari maqola, monografiya va ilmiy maʼruza kabilardir. Bu uslub ichida yana uning oʻquv-ilmiy uslubi deb ataluvchi turini ajratish mumkin.

Ilmiy-hujjatiy uslubga esa ixtiro uchun olinadigan hujjat (patent) ning yoki shu patentga tegishli adabiyotlarning tasvirlanishi, bayon qilinishi asosdir. Bu uslubning asosiy vazifasi — ilmiy axborot toʻgʻrisida maʼlumot berish va uni huquqiy jihatdan himoya qilishdir.

Ilmiy-ommabop uslub ilmiy maʼlumotni, axborotni ommabop qilib tushuntirishdir. Bunda koʻproq maʼlum soha toʻgʻrisida gapirilganda bu soha boʻyicha mutaxassis boʻlmagan kishilar nazarda tutiladi.

Har bir yordamchi ilmiy uslub-oʻz ichida til xususiyatlari, nutqiy vositalar tarkibi, ifodalash, bayon qilish usuli bilan bir-birlaridan farqlanib turadi. Masalan, ilmiy-texnikaviy uslubda bayon qilinadigan fizika, kimyo, tarix, matematika kabi fanlarning tili bir xil emas. Chunki, ularning har biri oʻziga xos atamaları, lugʻaviy va frazeologik vositalarga ega. Lekin bu farqlar ularning har birini alohida uslub sifatida ajratishga imkon bermaydi. Bu farqlar, eng avvalo, fanlarning mundariyasi, oʻrganish obyekti bilan bogʻlangan boʻlib, ilmiy ifoda uslubi ular uchun umumiy hisoblanadi.

Ilmiy uslubning hozirgi zamon taraqqiyoti bilan bogʻliq ravishda quyidagi umumiy xususiyatlarini koʻrsatish mumkin:

a) axborot-ning obyektivligi, aniqligi; b) nutqning maʼlumotlarga boyligi; v) fikrning qisqa, loʻnda ifodalanishi.

Matnda maʼlumotni koʻproq berishga intilish siqiq sintaktik qurilmalarni tanlash, ortiqcha soʻzlarni ishlatmaslikni taqozo qiladi. Binobarin, gaplarning ana shunday tuzilishi ilmiy uslubningtalablaridan biridir.

Ilmiy nuqtning kitobiy uslubga tegishliligi unda aytiladigan fikrning oldindan oʻylab qoʻyilishida, uning monologik xarakterga ega boʻlishida, mantiqiylik, fikr bayonotining qatʼiy tartibida, adabiy til meʼyorlariga qatʼiy amal qilishda, uslubiy bir xillik xarakteriga ega ekanligida koʻrinadi.

Fanning u yoki bu sohasiga tegishli tushunchalarni ifodalovchi atamalarga boyligi ilmiy uslubning eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Masalan: teorema, aksioma, sinus, kosinus kabi. Atamalar ilmiy uslubning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi asosiy lug'aviy xususiyat hisoblanadi. Ilmiy uslubda atamaviy xarakterga ega bo'lmagan so'zlar, asosan mavhum ma'noni ifodalovchi so'zlardan tashkil topadi. Bu esa obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarni umumlashtirib aks ettiradigan tushunchani shakllantiruvchi ilmiy tafakkurning xarakteri bilan izohlanadi.

Ilmiy uslub leksikasi uchun ko'proq kitobiy, neytral so'zlarni to'g'ri (nominativ) ma'nosida qo'llash xarakterlidir. Bu uslub uchun begona unsurlarni (jumladan, oddiy so'zlashuv nutqi unsurlari, lahjaviy so'zlar, jargonlar), tilning obrazli vositalarini qo'llash, odatda, xarakterli emas. Ilmiy uslubda ishlatiladigan frazeologizmlar ham neytral xarakterda bo'ladi va unda tarkibiy atamalar (masalan, qaynash nuqtasi, ijtimoiy-iqtisodiy formatiya, qo'uch ma gap kabi), tipiklashgan nutqiy oborotlar (masalan, ana sh ulardan ma'lum, bo'ladiki, sh unday qilib, xulosa qilib sh uni aytish mumkinki kabi) ko'p bo'ladi. Bundan tashqari ilmiy uslub kitobiy bo'yoqqa ega bo'lgan tasviriy oborotlarga (masalan, eksperiment o'tkazmoq, ta'sir ko'rsatmoq, reaksiyaga kirmoq, kabp) boy bo'ladi. Umuman, ilmiy nutq frazeologiyasi uslubiy bir xillik bilan xarakterlanadi. Kitobiy bo'yoqqa ega bo'lib, unda emotsional-ekspressiv oborotlar odatda bo'lmaydi. Shunday qilib, sof lisoniy omillar muallif nutqi nazarini to'g'ri va ochiq oydin ifodalashga imkoniyat yaratadi. Qayd qilish lozimki, qoliplangan til birliklari boshqa vazifaviy uslublarda ham mavjud.

Publitsistik uslub

O'zbek tilida publitsistik uslub quyidagi janrlardan iborat:

Xabar, reportaj, korrespondensiya, bosh maqola, siyosiy maqola, siyosiy mazmunli maqola, iqtisodiy mazmunli maqola, ilmiy mazmunli maqola, ocherk, feleton, pamflet (ingl. pamphlet — *broshyura, buklet, risola* ma'nosidagi asosan, siyosiy mazmunli o'tkir satirik maqola), lavha, hukumat farmon va qarorlari, axborot, turli sharhlar, taqriz, ijtimoiy-siyosiy esse, hisobot, ochiq xat, xalqaro xabar, chaqiriq, murojaatnoma kabilar.

Fanda publitsistik janrlarning tasniflanishi va guruhlanishi quyidagicha beriladi³⁴:

1. Axborot (informatsion) janrlari.

1) Xabar janri: xronika-xabar, axborot-xabar, tanqidiy yoki satirik mazmunli xabar, maxsus sarlavhalar ostidagi qisqa xabarlar, kengaytirilgan xabarlar.

2) Hisobot janri: oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuviy hisobot.

3) Intervyu (suhbat janri): intervyu-monolog, intervyu-dialog, intervyu-lavha, portret-intervyu, davra-suhbat, matbuot konferensiyasi.

4) Reportaj janri: kundalik voqealar haqidagi reportaj, mavzuli reportaj, mavzuli reportaj, muammoli reportaj.

5) Lavha (zarisovka) janri.

³⁴ Абусайдов А. Таснифи. Қаранг: Публицистик услуб ва газета тилида жанрлар масаласи / Ўзбек филологияси масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2001.

2. Tahliliy (analitik) janrlar.

1) Korrespondensiya janri: axborot korrespondensiya, tahliliy korrespondensiya, muammoli korrespondensiya, ijobiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, portret korrespondensiya, mulohaza korrespondensiya.

2) Maqola janri: bosh maqola, nazariy maqola, muammoli maqola, tanqidiy maqola, tashviqot xarakterdagi maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola.

3) Xat janri: gazetxon xati, ochiq xat, murojaat, tabrik, yozuvchi xati.

4) Xalqaro sharh janri.

5) Sharh: umumiy sharh, mavzuli sharh, axborot sharhi, matbuot sharhi.

6) Matbuot sharhi: mavzuli sharh, umumiy sharh, axborot sharh.

7) Taqriz janri.

3. Tasviriy (badiiy-publitsistik) janrlar.

1) Ocherk janri: ocherk-portret, safarnoma (yo'l ocherki), muammo-ocherk, ocherk-lavha.

2) Feleton janri: hujjatli feleton.

3) Esse janri.

4) Lavha janri.

Publitsistik uslubda quyidagi turg'un vositalar ko'p ko'zga tashlanadi: *qonli to'ntarish, vaziyatni keskinlashtirish, ilg'or an'analarga sodiqlik, siyosiy iqlimni me'yorlashtirish, ilg'or tajribalarni keng joriy qilish, resurslardan samarali foydalanish, intensiv rivojlanish yo'li, ishlab chiqarish potentsiali, ratsionalizatorlik harakati, iqtisodiy tejamkorlik* va boshqalar.

Publitsistik uslubning belgilaridan yana biri unda baholash ma'noli so'zlar va doimiy epitetlarning keng qo'llanishidir: *munosib* (ulush), *tarixiy* (o'zgarishlar, voqealar), *har tomonlama* (munosabat, taraqqiyot), *og'ishmay* (amalga oshirish), *do'stona* (suhbat, uchrashuv), *fidokorona* (mehnat), *ulkan, buyuk* (inshoot, ishlar).

Publitsistik nutqning turli janrlarida badiiy nutqqa xos tantanavor so'zlar yoki so'z birikmalari ishlatiladi: ijodkor yoshlar, muhtasham, ulug'vor, zafar quchmoq, bukilmaz, irodali, barkam o'llik, shijoatkorlik. Shuningdek, publitsistik nutqning o'zigagina xoslangan salbiy ma'no o'ttenkali birliklar ham mavjud: jinoyatchilar to'dasi, talon-taroj, o'g'irik, krtillik, tekinox'rlik, eskilik sarqitlari, surbetlik va boshqalar.

Publitsistik uslub morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi. Morfologik xususiyatlaridan biri so'z yasashida ko'zga tashlanadi. Bu uslubda so'z yasashi, asosan ikki yo'l bilan: a) rus tilidan qabul qilingan so'zlar tarkibidagi qo'shimchalar o'zbek tilidagi qo'shimchalar bilan almashtirilishi yoki moslashtirib olinishi (samosa + chi, sandino + chi, separat + chi, monopoliya + chi, propaganda + chi, militarist + larcha, reygan + cha); ichki imkoniyat yordamida, ya'ni yangi so'z yasashi (davlat + xona, paxta + chi, qurultoy + chi, dil + dosh, qo'l + dosh, p a x t a + shunos, omilkor + lik) tufayli hosil bo'lmoqda.

Yasovchi qo'shimchalar orqali publitsistik uslubda ko'chma ma'no ham hosil qilinadi: davlatxona — hukumat uyi, ro'znomaxona — ro'znoma muharririyati, baxtxona — baxt uyi, da'vatnoma — hukumat notasi, musibatnoma —

ayanchli o'tmishimizni aks ettiruvchi tarixiy asar, barakaxona — tug'ruqxona, sandinochilar — o'z ozodligi yo'lida kurashgan Nikaragua partizanlari, ziyokorlar — o'qituvchilar, sh aharsozlar — quruvchilar va hokazo.

Yangi yasalgan favqulodda (okkazonal) ma'noli she'riy so'zlarning publitsistik uslubda qo'llanishi natijasida bayon etilayotgan fikrga ekspressivlik, emotsionallik bag'ishlanganligi va uning ta'sir kuchi oshganligini ko'ramiz: *asrdosh, barqaror, dilkash, oshufta, nigoron, hokisor, nuktadon, jafokash, nashida* va b.

Rasmiy uslub

Rasmiy uslubning qo'llanish doirasi keng va xilma-xildir. Rasmiy uslub jamiyatdagi ijtimoiy va huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlar o'rtadagi maxsus rasmiy, siyosiy -iqtisodiy, sotsial -madaniy munosabatlar, shuningdek, shaxs bilan shaxs o'rtadagi, shaxs bilan tashkilotlar, korxonalar o'rtadagi munosabatlar, davlat idoralari, sud, prokuratura hujjatlari, qarorlar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lonlar kabi keng doiradagi nutq ko'rinishlarini hamrab oladi, uslub turi boshqa uslublardan hujjatlarga asoslanganligi bilan farqlanadi. Shunga ko'ra bu uslub ham ancha ilgari paydo bo'lganligi bilan xarakterlanishi. Chunonchi, turli davrlarda davlatlarda amr va farmonlar, yorliklar, rasmiy xatlar, arznomalar, vasikalar, xokimliklar, bekliliklar orasidagi turli yozishmalar doimiy mavjud bo'lgan va ular rasmiy uslubni o'sha davrlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Rasmiy uslub belgilangan tartibdagi bir xillikni va o'ta izchillikni talab qiluvchi uslubdir. Masalan: ariza yozish talab qilinsa, albatta arizaning qaysi adresi lavozimi va kimga ekanligidan sung ariza yozuvchining , adresi lavozimi va kimligi bayon qilinib, ariza matniga o'tiladi.

Rasmiy uslubga xos boshqa barcha hujjatlarda ham xuddi shunday belgillangan tartib o'rnini almashtirib bo'lmaydigan izchil-ligi mavjud.

Rasmiy uslub nutqning qisqa, aniq va ixcham tuzishning o'ziga xos shaklidir, Bu uslubning tashkil etuvchi barcha hujjatlar, chunonchi: tilxat, ariza, tushintirish xati, chaqiriq xati, tavsianoma, tafsivnoma, telegramma, ishonch qog'ozi xullas ko'pgina qisqa va ixcham tarzda yoziladi. Rasmiy uslubda oid hujjatlarda kundalik, ixchamlik mavjud bo'lsadabarcha hujjatlarni ham shu tarzda sodda , qisqa jumalalar asosida kuriladi deb bo'lmaydi. Binobarin, rasmiy uslubga oid ayrim nutq ko'rinishlarga fikrlar ketma ket keladi. Va bunday nutq mazmunini tushunish murakkab-liklar tugdiradi. Masalan, huquqiy va xususiy shaxslarni operatsiya-lari hamda hisob rakamlariga doir ma'lumotlar huquqiy va xususiy shaxslarning uzlariga qonunlarga nazorat qilingan hollarda sudlarga, tergov organlariga hakamlilik idoralariga va auditor tashkilotlariga soliq solish masalalariga yuzasidan moliya va soliq idoralariga berilishii mumkin. "O'zbekistonning yangi qonunlariga". 33-modda .Shunga ko'ra rasmiy uslub vujudga keltiruvchi nutq ko'rinishlarini shartli ravishda quyidagicha gruppalariga bo'lish mumkin.

Idoraviy hujjatlar: Bunga ish qog'ozlari (ariza,tavsifnoma va xakoza), akt va buyruqlar kiradi. Idoraviy hujjatlar qisqaligi soddaligi bilan ajralib turadi.

Diplomatik munosabatlarga doir hujjatlar: bayonlar, nota, bitim, shartnoma, dogovor, deklaratsiya kabilar kiradi. Bu hujjatlar odatda umumiy kirim qismi bilan

boshlanib axtlashuvchi tomomlab qayd qilinib, maqsad bayon etiladi, Shundan keyin ahdnomaning asosiy mohiyati bayon etilib doyakuniy qismida hujjatning kuchga Kirishi hujjat tuzilgan va tili joy nusxalari qayd etiladi. Bu hujjatlar ham nisbatan sodda, tushunarli tarzda bayon etiladi.

Huquqiy munosabatlar doirasidagi hujjatlar: qonun, kodeks, fuqarolik va jinoyat aktlari uztav va boshqalar.

Bu xildagi hujjatlarning sintaktik qurilishi nisbatan murakkab. Matnda ketma - ket yuz beradigan voqea hodisalarni ifodalash maqsadida turli shakllardagi uyush bulaklar va har xil tipda boglangan qo'shma gaplar ko'plab uchraydi. Quyidagi matn buning yorqin dalilidir. Xar bir shaxsga uz huquq va erkinliklarini sud orkali himoya qilish, davlat organlari, mansabdosh shaxslar, jamoa birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 41-modda huquqiy munosabatlarni bildiruvchi hujjatlarda ijtimoiy siyosiy rasmiy ma'muriy yetamalar hamda mavjud ma'noli so'zlar ham ko'pdir. Shu boisdan ham bu xildagi hujjatlarning tili nisbatan murakkab. huquqiy munosabatlarni ifodalovchi hujjatlarda sub'ektiv baho berish nutqini bo'yoqdor shaklida ifodalash kabilar mutlaqo yoddir. Chunki bunday hujjatlar obyektivlikda aniqlikda asoslangan qoida buziladi.

Rasmiy uslub o'z oldiga biror narsani isbotlash, tahlil qilish vazifasini kuymaydi undan voqealar, faktlarni isbotlash, talab etildi balki voqea faktlarni belgilash tasdiqlash kabi vazifalarni bajarish bu uslubning muhim xususiyatlaridan biridir. Shunga ko'ra rasmiy uslub axborot berish vazifasini buyruq qarorlar shaklida esa buyurish vazifalarini bajaradi. Masalan, O'zbekiston Oliy kengashi qaror qiladi: Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun - 8 dekabr umumxalq bayrami - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e'lon kiliisin. Rasmiy uslubning lug'aviy xususiyatlari shu uslubning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Avvalo, tilning umumiste'mol so'zlari qatlami rasmiy uslubning ham muhim lug'aviy birligidir. Shuningdek, bu uslubdagi aniq, qisqa va ixchamlik til vositalarining ham ana shu xususiyatlariga mos holda bo'linishni talab qiladi. Rasmiy uslubda shu uslub uchun shtamp shaklida mavjud bo'lgan lug'aviy vositalar qo'llanilib uslublik kasb etadi. Masalan, ariza, tilxat, tushuntirish xati, bayonnoma. tavsifnoma, telegramma, qaror, bayonat, ma'lumotnoma, axborot, tarjimai xoll, e'lon kabi lug'aviy vositalar rasmiy uslubning tayanch uslubiy vositalaridir.

Rasmiy uslub tez -tez takrorlanib turuvchi bir xildagi o'zgarmas jummalarga boy. Bu uslub turida sinonimlar, ko'chma va kup ma'noli so'zlar obrazli vositalar qo'llanilmaydi. Rasmiy uslub ma'lum ma'noda chegaralangan uslubdir, Shuning uchun bu uslubda bir xil kolibdagi, standart vositalar ko'plab qo'llaniladi va shu uslub uchun muhim belgi ekanligi bilan xarakterlanadi.

Rasmiy uslubning aniqlikka tayanishi bu uslubda so'z ma'nolarining ko'chishi va sub'ektiv baho ifodalanishiga imkon bermaydi. Shuning uchun bu uslubni batamom obrazlilikdan holi bo'lgan uslub deyish mumkin.

Rasmiy uslub lug'aviy jihatdan ancha chegaralangan. Chunonchi, boshqa uslublarda barcha uslub turlari uchun xos bo'lgan lug'aviy vositalar erkin

qo'llanilganidek, rasmiy uslubda bunday lug'aviy erkinlik mavjud emas. Rasmiy uslub acocan kitobiy va shu uslub uchun xoslangan atamalardagina iborat bo'ladi. Rasmiy uslubning tayanch lug'aviy vositalari; xalqaro munosobatlarga oid vositalar bayonot, nota elchi bitim, shartnoma, munozara dagovar, rasmiy vizit, dustona munosabat, rasmiy xabar, idora ishlapriga oid so'zlar; qaror, chaqiriq, topshirik, vazifa, buyruq shuningdek huquq sohasidagi so'z va bu birikmalar; qonun, ijro, qonunchilik, bank, kredit, mulk, tinchlik fondi, Konstitutsiya asosiy qonun kabilardir.

Rasmiy uslub material va mazmun jihatidan xilma xil bo'lib uslub turlari orasidagi publistik uslubga ancha yaqin ayniqsa rasmiy uslubning alohida turi hisoblangan diplomatik hujjatlar muayyan ta'sirchanlikka ega bo'lgan ko'rinishdir. Shu jihatdan bu nutq turi publistik uslubga yaqin.

Badiiy nutq uslubi

Vazifaviy uslublar tizimida qaraladigan badiiy nutq uslubi ham o'zining alohida lisoniy belgilariga egadir. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning hamda boshqa vazifaviy uslub unsurlarining ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga — estetik vazifani bajarish ga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi. Chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangandir.

Badiiy stilda individual (yozo'vchi, shoir) stil ham, adabiy oqimlar uslubi ham namoyon bo'ladi. Ya'ni bir ijodkorning bir necha asarlarini tahlil etish bilan individual stilni, bir adabiy oqimga mansub bo'lgan yozuvchi, shoirlarning asarlarini tahlil etish bilan ma'lum adabiy oqim uslubini o'rganish mumkin bo'ladi.

Badiiy adabiyotni faqat uslubistikagina emas, balki tarix, adabiyot nazariyasi, estetika, psixologiya, pedagogika va tilshunoslik fanlari ham o'rganadi. Bu fanlar badiiy adabiyotni o'z metodlari asosida tekshiradi (biz bu o'rinda badiiy adabiyotning boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida fikr yuritmoqchi emasmiz). Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan birga umumxalq tili boyliklarini ham qamrab oladi. Ya'ni, asarning janr va mavzu talabi bilan, yozuvchining individual uslubiga bog'liq holda badiiy nutqda umumxalq tilidagi barcha lug'aviy qatlamlar ishtirok etaveradi. Xuddi shu ma'noda, boshqacha aytganda, til materialini qamrab olish imkoniyatiga ko'ra badiiy adabiyot tili adabiy til doirasidan chiqib ketadi va umumxalq tili boyligining deyarli barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Masalan, adabiy tilda dialektizmlar, jargonlardan, varvarizmlardan, dag'al so'zlardan, eskirgan so'zlardan, oddiy so'zlashuv tili elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy nutqda o'rni bilan qo'llash mumkin. Masalan, eskirgan so'zlar: Hatsorat, g'azab, alam bilan aytilgan uzuq-yu luq gaplardan bu g'alayon.

Ilmiy adabiyotlarda "badiiy adabiyot tili", "adabiy-badiiy stil", "adabiy-belletristik stil", "badiiy nutq" kabi terminlar uchraydi. Bu terminlarning barchasi badiiy nutqda til vositalaridan u yoki bu darajada, ma'lum maqsadni ko'zda tutib foydalanish ma'nosini ifodalagani uchun ular sinonim sifatida qaraladi.

Badiiy adabiyot tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, so'z san'atkorlari faqatgina umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'z va iboralardangina foydalanib qolmasdan, ularni qayta ishlab, yangi-yangi ma'nolarda qo'llaydilar, ma'nolarini kengaytiradilar, boyitadilar. Tilimizning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi so'z va iboralar yaratadilar. Demak, badiiy nutq uslubi qonuniyatlari tilimizning taraqqiyot qonunlari bilan hamohangdir.

Adabiy tilning nutqiy imkoniyatlari to'raligicha badiiy nutq uslubida namoyon bo'ladi deyish mumkin. Vazifaviy uslublarning hych birida, badiiy nutq uslubidagichalik, til o'zining tuzilish jihatlarini, lug'at tarkibi, ya'ni so'zning ma'no boyligi va rang-barangligini, to'g'ri va ko'chma ma'nolarini namoyish qila olmaydi, grammatik qurilishi, ya'ni gaplarning barcha tiplari bilan ishtirok etolmaydi. Til vositalarining qo'llanishida ana shunday keng planlilik bo'lishi bilan birga, badiiy nutq uslubi doirasida ularni qo'llashning ma'lum qoida-qonunlari ham amal qilinadiki, ana shu qoida-qonunlar uni boshqa uslublardan chegaralashga, farqlashga, imkon beradi. Bu, eng avvalo, badiiy nutq uslubining fonetik lug'aviy va grammatik xususiyatlarida ko'zga tashlanadi.

Badiiy nutq uslubining lug'aviy o'ziga xosligi uni ilmiy uslub bilan taqqoslab o'rganganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ilmiy uslubda lug'aviy birliklarning qo'llanishi birmuncha chegaralangan bo'lib, so'zlar asosan bir ma'noda ishlatiladi, matnda tez-tez takrorlanadi. Matndagi asosiy so'zlarni atamalar va turg'un birikmalar tashkil qiladi. Badiiy .nutq uslubida esa umumist'e'molda bo'lgan barcha lug'aviy birliklar erkin ishlatilaveradi va ularni o'z va ko'chma ma'nolarda bemalol qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, non, suv, o't, yer, osmon, quyosh, oy, yu lduz, o'rmon, dala, ishlamoq, yurmoq, turmoq, o'tirmoq kabi "nol" bo'yoqqa ega bo'lgan neytral leksikaning ilmiy uslubda qo'llanilishi birmuncha tor doirada bo'lsa, badiiy nutq uslubida o'zining lug'aviy ma'nosini anglatganidan tashqari o'rni bilan ham badiiy-estetik funksiyani bajaradi, ham ko'chma ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan: Yu lduzlarga kecha-kunduzlar, (Raketalar uchdi basma-bas).

Sinonim so'zlarning bo'nday uslubiy xususiyatlaridan quyidlgan xulosaga kelpshimnz mumkin bo'ladi: badiiy nutq uslubida neytral lekeykaning' yshlatilishi faoldir. Bu narea tilning, qaysi o'rinda bo'lmasin, eng avvalo, xabar bernshlpk harakterda ekanligini tasdiqlaydi. Hissiy ekspressiv bo'yog'i ko'proq bo'lgan so'zlar kitobiy' leksikaning mahsuldor ishlatilishi esa badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyatidir.

Lug'aviy birliklardan tashqari frazeologik birliklarning faol va keng ravishda ishlatilishi ham badiiy nutq uslubining asosiy belgilaridan sanaladi. Ilmiy uslub va rasmiy hujjatlar uslubi uchun frazeologik birlyklarning yshlatilishi xos emas. So'zlashuv uslubida ko'pincha tildagi tayyor birliklardan foydalaniladi; badiiy ijodda shoir va yozuvchilar ulardan foydalanibgina qolmasday, ijodiy o'zlashtiradilar, o'rni bilan yangilarini yaratadilar.

Badiiy nutq uslubida fe'ning barcha nisbatlari ishtirok etsa ham, aniq nisbatda qo'llangan fe'llar soni ko'pdir. Ilmiy nutqda esa, aksincha, fe'llar asosan majhul nisbatda qo'llaniladi.

Badiiy nutq uslubida boshqa soʻz turkumlarining ishlatilishida ham oʻziga xosliklar mavjud. Masalan, sifatlarning ishlatilishi badiiy nutqda ot va olmosh kabi faoldir. Chunki sifatlarning matnda koʻpincha epitet vazifasini bajaradi. Olmoshlardan kishilik va koʻrsatish olmoshlarining qoʻllanishi uning boshqa turlariga nisbatan mahsuldor. Sonlar badiiy nutq uslubida odatda aniq maʼnolarni anglatish bilan birga maʼnosi kengaygan holda ham qoʻllanadi.

Undov va taqlidiy soʻzlarning vazifaviy uslublarda uchrashi ham xarakterli. Bunday soʻzlar ilmiy va rasmiy uslublar uchun xos emas, publitsistik uslubda kam ishlatiladi. Soʻzlashuv va badiiy nutq uslublarida esa ularning qoʻllanishi mahsuldor. Aytaylik, mumkinki, badiiy nutq uslubining “oʻz” undovlari bor: *oh, eh, fu, tfu, dod, be-ye, e-voh, voy-boʻy, voy-dod, hah, eh attang, hayhot* kabi soʻzlar koʻproq badiiy nutq uchun xos. Xuddi shu holat modal soʻzlarda ham kuzatiladi. Masalan, *darhaqiqat, dar voqe, shubhasiz, tabiiy, zotan, zora, zero, darkor, koshki, holbuki, vaholanki, beshak, gʻolibo, shoyad* kabi soʻzlar badiiy nutq uslubida koʻproq ishlatiladi.

Vazifaviy uslublar faqatgina leksik va morfologik jihatdangina emas, sintaktik jihatdan ham bir-birlaridan farq qiladi. Ammo badiiy nutq uslubining sintaktik xususiyatlari haqida bu uslubda yozilgan asarlarning janr boʻlippshlarini eʼtiborga olmasdan turib gapirish qiyin.

Darak, soʻroq va buyruq gaplarning vazifaviy uslubda ishlatilishi bir xil emas. Darak gapning ishlatilishi barcha uslublarda faol. Soʻroq va buyruq gaplarning qoʻllanilishi esa chegaralangan. Masalan, ilmiy nutqda bunday gaplarga faqat kitobxonning diqqatini tortish kerak boʻlgan holatlardagina murojaat qilinadi. Badiiy nutq uslubida bunday gaplar matn sintaksisining ajralmas qismini tashkil qiladi. Undov gaplar ham badiiy nutq uslubi uchun xarakterlidir. Ular kitobxoniga estetik taʼsir oʻtkazishda yozuvchi qoʻlida kuchli qurol hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Umummilliy tilning adabiy shakli xalq tilidan dastlab qaysi belgilari bilan farq qiladi?
2. Umummilliy tilning noadabiy shaklida ham uslublar mavjudmi?
3. Ilmiy va rasmiy-idoraviy uslublar oʻrtasida qanday uygʻunlik va farqli jihatlar mavjud?
4. Soʻzlashuv uslubiga xos belgilarni sanang.
5. Uslublararo munosabat deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Кожина М. Н. К основам функциональной стилистики. – Пермь, 1968. – Б. 142-154.
2. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 102.
3. Каримов С.А. Ўзбек тилининг грамматик услубияти (Маърузалар матни). – Самарқанд, 2012.

4. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнгулов Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.

5. Библиографическая запись: Научный стиль. — Текст: электронный // Myfilology.ru – информационный филологический ресурс: [сайт]. – URL: <https://myfilology.ru/145/osobennosti-funksionalnykh-stilei-russkogo-izyaka/nauchnyi-stil/>.

8-mavzu. ILMIY USLUB VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Ilmiy nutqning lisoniy xususiyatlari.
2. Ilmiy uslubning vazifaviy xususiyatlari.
3. Ilmiy uslub va sohaviy terminlar.

Tayanch tushunchalar: *o'zbek tilida ilmiy uslub va uning vazifaviy xususiyatlari, ilmiy matnning janrovii turlari, ilmiy uslubda terminlar, ilmiy matnga qo'yilgan nutqiy talablar.*

Ilmiy nutqning lisoniy xususiyatlari

Inson ilmiy, ishlab chiqarish faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan ilmiy soha nutqi ilmiy uslub orqali shakllantiriladi. Inson va olam munosabati negizida to'plangan jami bilimlar va axborot ilmiy uslub orqali qayta ishlanadi. Ilmiy uslub o'quvchilar doirasi cheklanmagan badiiy, so'zlashuv uslublaridan farqli, bevosita mutaxassislariga mo'ljallangan nutq turidir, uning asosiy belgisi fikr, tushuncha va axborotning aniqligi, nutqni oldindan o'ylab, rejalashtirib olish imkonining mavjudligi, matn birliklarini saralashda qat'iy qoidalarga bo'ysunish, me'yordagi nutqqa yaqinlik, monologik tabiat, dalillarning ishonchligi, bayonning mantiqiy izchilligida kuzatiladi. Shunga ko'ra ilmiy asarning vazifasi tegishli faraz va ehtimolni isbotlash, ilmiy muammolarni aniq va tizimli bayon qilishdan iborat.

Ilmiy nutqning aniqligi fikrni eng maqbul usulda to'g'ri anglatadigan bir ma'noli nutqiy birliklarni adashmay saralash talabini qo'yadi. Shunga qaramay, ilmiy matnni obrazli (tasviriy) so'zlar, ayniqsa, metaforik ifodalarsiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Garchi bir ma'nolilik mazkur uslubning talab qilingan sharti hisoblandsada, ilmiy tafakkurning imkoniyatlari terminlar tizimida ham termin-metaforalarni (mas., *kirish* – kirish ma'ruza, *kirish* – tadqiqotning kirish qismi; *ildiz* – o'simlikning oziqlanishga mo'ljallangan asosiy qismi, *ildiz* – algebraga tegishli termin va b.) hosil qilish orqali voqe bo'ladi. Ilmiy uslubga yot bo'lgan bu anomol holat aslida ilmiy tafakkur mo'jizaviy imkoniyatlari asosida sodir bo'ladi.

Ilmning bosh maqsadi – ichki qonuniyatlarni aniqlash. Shunga ko'ra ilm – aniqlikni talab qiluvchi, biroq abstrakt fikrlar mahsuli. Ilmiy matnda qo'llanilgan so'zlar tabiati ham, shunga mos ravishda umumiylikni in'ikos etadi.

Ilmiy bilish asoslari ilmiy tilning mantiqiyliigi, qisqaligi, aniqligi, atroflicha o'ylanganligi, fikrlar uzviy ketma-ketligini taqozo etadi. Negaki har bir ilmiy bayon muayyan ilmiy faraz, kuzatuv, qarashning dalilidir. Bunda muallif matnni o'z ichki

“men”idan kelib chiqmasdan, aksincha, ilmiy bilishning umumiy qonuniyatlariga muvofiq shakllantiradi. Masalan, ilm bilan mashg‘ul kishining “*Ushbu maqolada men o‘zga olimlardan farqli, ilk bora o‘zbek tilshunosligining eng og‘ir, murakkab sohalariga aloqador va yechimini kutayotgan, nazariy asoslanishi dolzarb bo‘lgan, tilshunoslikning kelgusi rivojlanish yo‘lini belgilab beruvchi tadqiqotlarga to‘xtalganman hamda bu xizmatlarimdan faxrlanaman*” deb yozishi nojoiz. Hatto tegishli ilmiy muammoga shaxsiy bahosi va munosabatidan qat‘iy nazar, o‘z qarashlarini hissiyotga berilmasdan, ilmiy axloq talablaridan kelib chiqib xolisona bayon etishi lozim.

Ilmiy uslubning vazifaviy xususiyatlari

Ilmiy uslubning xususiyatlari so‘zlarni ularning aniq, predmetli-mantiqiy ma’nosida qo‘llash; abstrakt leksika termin va atamalaridan foydalanish; fikr ifodasida aniqlik va teranlik; bayonning izchilligi, yakunlanganligi (fikrlarning xulosalanganligi), mufassalligi, tahliliy material tavsifida shaxssiz gaplarga murojaat, ramz va belgilarning qo‘llanilishi.

Ilmiy uslubning o‘z xoslangan morfologik-sintaktik ko‘rsatkichlari mavjud. Jumladan, ilmiy uslubda fikrning abstrakt tabiatini ifodalovchi ot turkumidagi (asosan mavhum otlarga tegishli) so‘zlar boshqa turkum birliklariga nisbatan ancha faol qo‘llaniladi.

Ilmiy matnlarda kesim asosan fe‘lning hozirgi zamon noaniq shaklida ifoda topadi, bu ilmiy matnlar uchun xos holatdir.

Tilshunos olim, professor S.A.Karimov ilmiy matnlarga tegishli lingvistik xususiyatlarni quyidagilarda ajratib ko‘rsatadi:

1) ilmiy uslubda II shaxs birligi va ko‘pligi qo‘llanilmaydi. I shaxs birligi ham qo‘llanilmaydi, ko‘pligi esa qo‘llaniladi, ammo o‘z ma’nosida emas. Ilmiy uslubda *men* o‘rnida *biz* qo‘llaniladi. Bu odatda kamtarlik ma’nosida sharhlanadi;

2) o‘zbek tilida *-lar* ko‘plikni anglatishi mumkin bo‘lgani holda, ilmiy uslubda uning vazifasi o‘zgaradi hamda *svular*, *yog‘lar* deyilganda u ko‘plik ma’nosini anglatish doirasidan chiqib, svularning yoki yog‘larning turini anglatish vazifasini bajarishga o‘tadi. Bu terminologik leksikaning shakllanishiga xizmat qilishi mumkin;³⁵

3) ilmiy matnlarda fe‘lning sifatdash va ravishdash shakllari nisbatan faol hisoblanadi;³⁶

4) qo‘shimchalardan: *-iy*, *-viy*, *-gan*, *-simon*, *-on*, *-ik*, *iv*, *-al*, *-shunos* elementlarining birmuncha faolligi seziladi;

5) predmet, narsa-hodisalarning tartibini ko‘rsatuvchi *-(i)nchi* qo‘shimchasining *-dan* qo‘shilgan *-(i)nchidan* shaklida ilmiy uslubga xoslanishi mavjud. *-(i)nchidan* elementli nutq bo‘lagi ta’kidlash, sanash ohangi ilmiy uslubda talab qilinuvchi aniqlikni yuzaga chiqaradi, har bir holat, fikr va xulosani birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan va hokazo tarzida sanash va ta’kidlash orqali fikrlar ketma-ketligini ta’minlaydi;

³⁵ Каримов С.А. Ўзбек тилининг грамматик услубияти (Маърузалар матни). – Самарканд, 2012.

³⁶ Каримов С.А. Ўзбек тилининг грамматик услубияти (Маърузалар матни). – Самарканд, 2012.

6) olmoshlardan: *men, sen, siz, negadir, alla- allanechuk, nechundir, nimadir, negadir* olmoshlari ilmiy uslubda deyarli ishlatilmaydi;

7) bir sinonimik uyada turadigan *atroflicha, har tomonlama, har taraflama, batafsil, mufassal, mukammal, to'la, to'liq, to'la-to'kis* ravishlari, shuningdek, *doim, doimo, hamisha, hamma vaqt, har doim, har mahal, har vaqt* payt ravishlari ilmiy bayonda qo'l keladi;

8) *u, bu, shu, o'sha* ko'rsatish olmoshlaridan ilmiy matn qismlarini o'zaro bog'lash maqsadida foydalaniladi;

9) undovlar ilmiy uslubda qo'llanilmaydi;

10) ilmiy nutqda *chunki, shuning uchun, shu sababli* kabi bog'lovchilar, shart mayli va ravishdosh shakllari, *-dek* affiksi kabilardan keng foydalanilgan ravishda qo'shma gap va uning murakkab ko'rinishlariga murojaat qilinadi. Ilmiy uslubda egasi topilmaydigan gaplar keng ishlatiladi;

11) ilmiy asarlarning isbot, xulosa qismlarida *shunday ekan, aytiladi, deb ataladi, masalan, to'xtab o'taylik, diqqat qilaylik, diqqat qiling, qiyoslang, qiyos qiling* kabi ifodalardan keng foydalaniladi;

12) buyruq gaplar ilmiy uslubga oid mashq va topshiriqlarda ko'p qo'llanadi, ilmiy va o'quv adabiyotlarining savol hamda topshiriqlar qismida esa so'roq gaplarga murojaat qilinadi;

13) shaxsi noaniq gaplar ilmiy adabiyotlarda deyarli qo'llanmaydi: ilmiy asarlarda bajaruvchi shaxsning aniq bo'lishi talab etiladi;

14) ilmiy uslubda uyushiq bo'laklarning qo'llanishida ayrim o'ziga xoslik kuzatiladi: ilmiy matnlarda uyushiq bo'laklar raqam - (1), (2), (3), harf (a), (b), (v) shakllarida ham ko'rsatiladi;

15) ilmiy uslubda undalmaga deyarli murojaat qilinmaydi;

16) kirishlardan *so'zsiz, o'z-o'zidan, aniqki* kabilar ko'proq ilmiy uslub uchun xarakterlidir;

17) kirishlardan *bizningcha, bizning fikrimizcha, uningcha, ma'lum bo'lishicha, ... ning qayd qilishicha, ... ning fikriga ko'ra, ... ning yozishicha* kabilar ilmiy uslub uchun, ayniqsa, uning ilmiy bahs sohasi uchun xarakterlidir. Ilmiy uslubda: *demak, umuman olganda, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan* kabi kirish so'zlar ko'proq uchraydi;

18) kiritmalar foydalanilgan manba nomini o'rni bilan qayd etish, terminlarga izoh berish, manba yoxud biror sitataning egasini o'rni bilan oydinlashtirish maqsadida keltiriladi. Bunday kiritmalarni rasmiylashtirish talablari turli mamlakatlarda davlat standartlari bilan belgilab qo'yiladi;

19) ilmiy uslubda ko'chirma gaplardan muallif o'z fikrini asoslash, to'g'ri ekanligini tasdiqlash maqsadida foydalanadi – shu fikrga mos keladigan qarashlardan sitata – iqtiboslar keltiradi. Yoki, aksincha, o'z fikrining to'g'ri ekanligini tasdiqlash maqsadida unga zid bo'lgan qarashlarni ham keltirishi va uning noto'g'ri ekanligini, unga qo'shila olmasligining sabablarini asoslashi mumkin;

20) ilmiy matnda *va, ammo, lekin, yoki, ya'ni, agar, chunki, shuning uchun* kabi birliklar faol qo'llanilgani holda, *hamda, -u(yu), ham, bilan, bordi-yu, deb, balki, biroq, faqat, holbuki, yo, yo-yo, yoinki, yoxud, -kim, go'yo, go'yoki, ba'zan-ba'zan,*

bir-bir, agarda, garchand, basharti, mobodo, zeroqi, nainki, ammo lekin, goh-goh, dam-dam, xoh-xoh, kim kabi bog'lovchilarning nafaolligi kuzatiladi.

“-ga li konstruksiya hamma stillar uchun umumiy bo'lsa, tomon ko'makchili konstruksiya ko'proq ilmiy stil, yozma nutq uchun xarakterlidir.

Ilmiy uslubning o'z iboralari, turg'un birikmalari mavjud bo'lib, bularga *oy tutilishi, quyosh tutilishi, shimol yog'dusi, jarangsiz va jarangli undoshlar, fe'li birikma, otli birikma, organik modda, biologik faol modda, teskari masala, differensial operatorlar* kabilarni misol qilish mumkin.

Ma'lumki, ilmiy uslub o'zga vazifaviy uslublardan dastlab leksik xususiyatlari bilan farqlanadi. Abstrakt ma'noli lug'aviy birliklar, umumfan terminologiyasi va soha terminologiyasi, baynalminal terminologik qatlamda o'zga til lug'aviy birliklarining mavjudligi, qisqartmalar hamda ramzlardan foydalanish ilmiy uslubning xos xususiyatidir.

Ilmiy matnlar o'zida kitobiy uslub xususiyatlarini namoyon etadi. Biroq bu uslubdan og'ishish ilmiy matnning janri, mavzusi, muloqot vaziyati va muallif idiolekti singari qator omillar evaziga sodir bo'ladi.

Mantiqiylik – matn qismlari (bo'laklari) o'rtasidagi fikriy uzviylik. Bu ko'proq muallifning matn tuzishdagi yuqori darajadagi savodxonligi evaziga ta'minlanadi. Bunda til (ona tili va o'zlashtirilgan xorijiy til)ning grammatik (morfoloqik-sintaktik) qonuniyatlaridan boxabarlik va ular yuzasidan egallangan malaka va ko'nikmaning muhim ahamiyati bor. Xususan, hatto global qidiruv tarmoqlarining xizmat ko'rsatish sur'ati va sifati yuksalgan bugungi kunda ham onlayn tarjima dasturlari orqali muayyan tilga o'girilgan ilmiy matnlarda, ayniqsa, mantiqiylik talabining keskin buzilishi tez-tez uchrab turadi. Ushbu vaziyatda muallifning o'girma matnga qayta ishlov berishi matn tuzishning qat'iy talablaridan biridir. Aks holda bajarilgan mehnat o'zini oqlamasligi mumkin. Masalan, oliy o'quv yurti talabalariga tegishli fanning biror mavzusi yuzasidan kichik esse yozish topshirildi, deylik. Manba ona tilida mavjud bo'lmasa, talabanning xorij materiallariga murojaat qilishi va o'zga tilni o'zlashtirmagani holda onlayn tarjima natijasida o'ta sifatsiz va saviyasiz matnga ega bo'lishi turgan gap. U tarjimaning sifatini aniqlashga layoqatsiz shaxs sifatida matnni shu holda fan o'qituvchisiga topshiradi. Matndan parcha keltiramiz: *“Ilk antik davrga xos bo'lgan jarayon erta stadial antik epik lingvomadaniyatda shaxssiz shaxslar va elementlarning ancha aniq farqlanishiga olib keladi; slavyan xalqlarining dastlabki bosqich folkloriga qarshi. Qadimgi madaniyatda Buyuk ona obrazining beqarorligi (ularning izlarini biz xtonik ayol obrazlarida erkak xtonik mifologik mavjudotlarni mullaqo takrorlaydigan – va birinchi navbatda Gekat obrazida topishimiz mumkin) bog'langan. Nafaqat insonni atrof-muhitdan ajratish jarayoni bilan tabiat, balki shaxsning jinsdan ajralishi, ya'ni jarayon bilan shaxs institutining jadal shakllanishi. Tarixdan oldingi antik davr odami dastlab o'zini o'zi ta'minlovchilardan ajralib turadi xarakterli epik lingvomadaniyatning shakllanishi orqali mifologiyada o'z ifodasini topgan tabiat u ko'plab qahramonlarga sig'inishini aytdi”*. Agar bu vaziyat biror tadqiqotchi bilan sodir bo'lsa, vaziyat yanada ayanchli bo'lishi tabiiy, negaki maqola tarzidagi bunday matnni o'zini hurmat qiluvchi biror

gazeta, ilmiy jurnal tahririyati qabul qilmaydi. Shuningdek, matnning mantiqiyliги muallif qarashlarining "mulohaza va isbot" tamoyili evaziga ta'minlanadi.

Izchillik – matn qismlari o'rtasidagi fikriy aloqadorlik, xulosalarning mulohazalarga muvofiq kelishi. Izchillik – matnning xususiy fikrdan umumiyga yoki teskarisi – umumiy fikrdan xususiya qarab rivojlantirilgan qismlari. Ilmiy matndagi izchillik unga tegishli stereotip lingvistik birliklar – kirish konstruksiyalari (*yuqoridagilarga ko'ra, bayon etilganlarga asosan*; kirish gaplar orqali (*buni ...-bobning ... faslida ko'rib o'tamiz*), (*bunga yuqorida to'xtalgan edik*)) yoxud kirish so'zlar (*demak, ko'rinadiki, binobarin, shuningdek, bundan tashqari, birinchidan, ikkinchidan* va b.) orqali ta'minlanishi ham mumkin.

Aniqlik. Ilmiy matnning keng o'quvchilar ommasiga birdek tushunarli bo'lishini ta'minlovchi jihat. Sohaga oid terminlar va bir ma'noli so'zlardan foydalanish; terminlarning ma'nodoshlaridan foydalanishga, ikki xil ma'no tashuvchi jumalarga yo'l qo'ymaslik; havola, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va o'zga nutqli konstruksiyalarda xatolar, yolg'on ma'lumotlar keltirmaslik ilmiy matn mazmunidagi fikr va axborotning aniqligiga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy matn aniqligi muallifning tegishli ilmiy muammo yuzasidan o'zga olimlarning mazkur mavzu doirasidagi munosabatlari kesimida o'z shaxsiy xuloslari va qarorlarini tushunarli va aniq keltira olishida ham kuzatiladi. Ya'ni o'z mavzusining nazariy asoslarini yoritayotgan tadqiqotchi mavzu obyektiga predmetiga nisbatan munosabatini bayon eta turib, shaxsiy konsepsiyasini aniqlashtiradi.

Ilmiy matnning dialogik xususiyati. Ilmiy matnni tuzishda adresatning ehtimoldagi savollari, reaksiyasini hisobga olib, mazmunni adresatga to'g'ri yo'naltirishga alohida e'tibor berish lozim. Ma'lumki, ilmiy matn monologik xarakterlidir, biroq bu ilmiy matn monoton (bir tusda) matn, degani emas. Unda ham muallifning mavzuni yoritishga doir savollarga javob izlashi asnosida o'z-o'zi bilan suhbatini kuzatish mumkin, bu matnning kommunikativligini ta'minlaydi.

Fikr-mulohazalarning dalillanganligi. Ilmiy nutqda dalillarning yetarli bo'lmisligi yoxud isbotlarning zaifligi mantiqiy va strategik xatolarni keltirib chiqaradi.

Ilmiy uslubning bir necha janrlari mavjud. Ushbu janrlarni bir vaqtning o'zida uslub ichidagi uslub deb atash ham mumkin. Tadqiqotchi ular haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bular: akademik (bevosita ilmiy), o'quv-ilmiy, ilmiy-axborot tashuvchi, ilmiy-ommabop uslublardir.

Ilmiy uslubning o'zga vazifaviy uslublardan farqi uning mantiqiy axborot hamda shu axborotning isbotiga qaratilgan, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikdan xoli matni bilan bog'liq. Mavzuviy tavsifiga ko'ra ilmiy nutq 1) ilmiy-texnik, 2) ilmiy-tabiiy, 3) ilmiy-gumanitar turlarga bo'linadi. Ilmiy uslub o'z ichida yana: ilmiy, ilmiy axborot tashuvchi, ilmiy ma'lumot beruvchi, ilmiy-o'quv, ilmiy-ommabop uslublarga bo'linadi. Mazkur uslubiy uslubiy janrlar ilmiy matnning quyidagi shakllarini o'zida jamlaydi:

akademik (bevosita ilmiy) – monografiya (ilmiy masalalarning birini atroflicha ko'rib chiqishga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishi), maqola, ma'ruza; *o'quv-ilmiy uslub*;

ilmiy axborot tashuvchi – referat (ilmiy tadqiqot ishining qisqacha bayoni), annotatsiya (kitob, asar, maqola singarilarning qisqacha tavsifi), darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma va b.;

ilmiy-ommabop – ocherk, kitob, ma'ruza va b.;

ilmiy-texnik uslub.

Akademik uslub. U bevosita soha mutaxassislariga qaratilgan, qat'iy ilmiy bayondan iborat uslubdir. Mazkur uslubning yorqin belgilari: 1) ma'lumotlarning aniqligi, 2) dalillarning ishonchligi, 3) mulohazalarning mantiqiy izchilligi, 4) bayonning qisqa va tushunarligi. Qonuniyatlarga doir yangiliklarni kashf etish, ixtiro qilish uslubning bosh maqsadidir. Akademik uslub xususiyatlari dissertatsiyalar, ilmiy monografiyalar, maqolalar, bitiruv malaka ishlari, kurs ishlari, taqrizlarda o'z ifodasini topadi.

O'quv-ilmiy uslub o'zida bo'lg'usi mutaxassisga mo'ljallangan o'quv adabiyotlarni jamlaydi. O'quv-ilmiy uslubga tegishli matnlarda asosan, misollar, illyustratsiyalar, tushuntirish va izohlar keltiriladi. Bu xususiyatlari bilan o'quv-ilmiy uslub akademik uslub xususiyatlarini eslatib, undan keskin farqlanuvchi: 1) fanlar, ilmiy sohalarining nazariy asoslarini mavzuviy chegara doirasida yoritish, 2) ta'limiy xarakter va 3) bevosita bo'lajak mutaxassislarga mo'ljallanganlik kabi belgilarga ega. Darsliklar va o'quv monografiyalari, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar, o'quv lug'atlari, ma'ruzalar to'plami, seminar ma'ruzasi o'quv-ilmiy matnning ko'rinishlari hisoblanadi.

O'quv-ilmiy bayonda umumiydan xususiyga qarab borish, qat'iy tasnif, maxsus terminologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy axborot tashuvchi uslub. Obyektga doir aniq tavsifni taqozo etuvchi, huquqiy himoyalangan ilmiy axborot to'g'risidagi xabar ilmiy-axborot tashuvchi uslub sanaladi. Ilmiy-axborot tashuvchi uslub matni o'zining qat'iy belgilangan shakllariga ega bo'lib, referatlar, annotatsiyalar, kataloglar, maxsus lug'atlar, patentlar matni mazkur uslubga xosdir.

Ilmiy-ommabop uslub – keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan, ular e'tiborini tortish maqsadida emotsional bo'yoqdor, obrazli vositalar, umumiste'mol so'zlar yordamida shakllantiriluvchi ilmiy matn turi. Ilmiy-ommabop xarakterdagi kitoblar, OAVlaridagi ilmiy ahamiyatli maqolalar, esse, ocherklar shular jumlasidandir. Mazkur uslub o'zining ravon va nisbatan tushunarli matni, dalillarning hayotiy misollar yoki sodda predmetlar va tushunchalar orqali keltirilishi bilan farqlanadi.

Ilmiy-texnik uslub. Texnika sohasi va texnika fanlari mutaxassislari uchun mo'ljallangan, fundamental fan yutuqlarining amaliyotga joriy etishga xizmat qiluvchi matn turi.

Ilmiy uslub va sohaviy terminlar

Terminlar sohaviy va umumfan terminlar turlariga bo'linadi.

Umumfan terminlari ilmiy uslub doirasida fan va texnikaning bir ma'noli umumiy tushunchalarini ifodalaydi, garchi umumiste'molda bu toifadagi lug'aviy birliklar birdan ortiq ma'noni anglatib kelishi mumkin (*bug', havo, tuproq, suv, gaz, elektr, mexanizm, mashina, avtomat, harorat, shamol, yomg'ir, qor, tog', daraxt, gul, ildiz, barg, temir, kumush, oltin, mis, olmos* leksemalari singari).

Sohaviy (maxsus) terminlar esa fan va texnikaga oid tushuncha va obyektlarni ifodalaydi va, odatda, adabiy til va uning doirasidan tashqarida ham bir ma'noni anglatib keladi (*dinamika, parlament, senat* va b.).

Ilmiy uslub doirasida nafaqat terminlar, balki umumiste'mol so'zlar hamda umumiy abstrak ma'noni ifodalovchi lug'aviy birliklar (*tekshirish, o'rganish, obyekt, predmet, shart, maqsad, mohiyat, ekologiya* va h.) ham qo'llaniladi. Mazkur birliklar umumfan ko'lamida qo'llaniluvchi yangi so'z va terminlarning hosil bo'lishida asos vazifasini o'taydi.

Nazorat savollari

1. O'zbek tilida ilmiy uslub va uning vazifaviy xususiyatlarini gapiring.
2. Ilmiy matnning janrovii turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Ilmiy nutqning lisoniy xususiyatlari nimadan iborat deb o'ylaysiz?
4. Ilmiy uslubning vazifaviy xususiyatlarini bayon qiling.
5. Ilmiy uslub va sohaviy terminlarning o'zaro aloqasini tushuntiring.
6. Ilmiy matnga qo'yilgan nutqiy talablar haqida ma'lumot bering.
7. Mantiqiylik – ilmiy uslubning asosi deganda nimani tushunasiz?
8. Ilmiy uslubning qanday tipik xususiyatlari mavjud?
9. Ilmiy uslubning qanday yordamchi usullarini bilasiz? Ular orasida qanday o'xshash va farqli jihatlar mavjud?
10. Ilmiy uslubning boshqa uslublardan farqini ko'rsatuvchi 5 ta misol va dalil keltiring.

Adabiyotlar

6. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан, 1984. 102-б.
7. Каримов С.А. Ўзбек тилининг грамматик услубияти (Маърузалар матни). – Самарқанд, 2012.
8. Шомаксудов А., Расулов И., Кўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
9. Библиографическая запись: Научный стиль. — Текст : электронный // Myfilology.ru – информационный филологический ресурс : [сайт]. – URL: <https://myfilology.ru//145/osobennosti-funktionalnykh-stilei-russkogo-iazyka/nauchnyi-stil/>.

9-mavzu. SOHA BO'YICHA BELGILANGAN MAVZU ASOSIDA ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH JARAYONLARI

Reja:

1. Maqola matniga qo'yilgan talablar.
2. Annotatsiyaning yozilish tartibi.
3. Tezis, taqriz, rezyume matni talablari.

Tayanch tushunchalar: *ilmiy maqola muallif ilmiy izlanishlarining natijalarini yuzaga shiqaruvshi hujjat, annotatsiya, kalit so'zlar, iqtiboslik, adabiyotlarni rasmiylashtirish talablari, IMRAD nima?*

Maqola matniga qo'yilgan talablar

Bugungi kunda ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanish, ilmiy faoliyat natijalarini chop ettirishning ahamiyati ta'lim muassasalarida ishga kirish, oraliq va yakuniy attestatsiya jarayonlaridan muvaffaqiyatli o'tish, magistratura, doktoranturaga o'qishga kirish, ilmiy maqsadlarda tashkil etiluvchi grantlar tanlovi, vazirlik va oliy ta'lim muassasasi joriy etgan nomdor stipendiyalar tanloviga hujjat topshirish, ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi nufuzli jamg'armalar, davlat tashkilotlarining maxsus tanlovlarida qatnashish imkonining yuzaga kelishida kuzatiladi. Bundan tashqari maqola va tezislar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning qo'lga kiritgan yangiliklarini ommalashtirish, jahon ilm-fanida tanitish maqsadiga ham xizmat qiladi.

Ilmiy maqola muallif ilmiy izlanishlarining natijalarini yuzaga chiqaruvchi hujjat bo'lib, muayyan mavzuning bir yoki bir nechta o'zaro bog'liq muammolarini ko'rib chiqishga bag'ishlab tayyorlangan, dissertatsiyaning kichik modelidir. Uning talab darajasida to'g'ri rasmiylashtirilishi maqola va u orqali tadqiqotchi ilmiy farazlarining ilmiy hamjamiyat tomonidan qisqa fursatlarda ommalashishi va e'tirof etilishiga sabab tug'diradi.

Ilmiy maqolalarning quyidagi turlari mavjud:

4. Ilmiy-nazariy – hodisalar va ularning qonuniyatlarini nazariy izlash va tushuntirish asosida olib borilgan tadqiqot natijalarini tavsiflash.
5. Ilmiy va amaliy (empirik) – ilmiy faraz va real tajriba asosida qurilgan.
6. Sharhlar – so'nggi bir necha yil ichida ma'lum bir sohadagi fan yutuqlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.


Ilmiy maqola tadqiqotga doir xulosalarni va ilmiy tadqiqot, eksperimental yoki tahliliy faoliyatning oraliq yoki yakuniy natijalarini taqdim etishni va shunga ko'ra muallifning ishlanmalari, xulosalari, tavsiyalarini o'z ichiga oladi. Demak, ilmiy maqola, birinchi navbatda, yangilik ta'siriga ega bo'lishi kerak: unda keltirilgan natijalar ilgari nashr etilmagan bo'lishi kerak. Ilmiy maqolani nashr etish orqali muallif tanlangan tadqiqot sohasida ustuvorlikni ta'minlaydi.

Har bir ilmiy maqola shu mavzu doirasida bajarilgan va amalga oshirilgan, pirovardida chop etilgan ilmiy nashrlarni takrorlamasdan, aksincha, o'zining ilmiy yangiligi, mavzuning dolzarbligi, originalligi, ilmiyligi, dalillarning asoslanganligi bilan farq qilishi, tadqiqot natijalari esa amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Maqolaning saviyasi uning ilmiy uslubda yozilganligi bilan belgilanadi. Bunda mavzuga muvofiq soha terminologiyasi va bayon matnining ilmiy uslub talablariga mos kelishi nazarda tutiladi. Ilmiy matn mazmuni esa mantiqiy asoslanganlik va izchillik asosida yoritilgan bo'lishi lozim. Maqola matni jo'n, o'ta sodda, takroriy jumladan xoli bo'lib, bayon etilayotgan fikrlar aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

Ilmiy maqola tarkiban bir necha element va qismlardan iborat. Bular: maqola nomi, muallif(lar) haqida ma'lumot, annotatsiya, kalit so'zlar, kirish, asosiy qism, xulosa va adabiyotlar ro'yxati (1-chizma).

1-chizma



1-chizma. Ilmiy maqolaning tarkibiy qismlari

Maqola nomi qisqa, ko'pi bilan 10-12 so'zdan ortiq bo'lmasligi, turli formula, maxsus belgi, qisqartmalardan xoli hamda maqola mazmunini to'liq qamrab olish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Maqolaning mavzusi qanchalik tor va ixtisoslashgan bo'lsa, shuncha yaxshi.

Mavzuni aniqlab, maqolaning taxminiy rejasini tuzing, materialni qanday va qanday ketma-ketlikda taqdim etish haqida o'ylang. Endi siz to'liq va asosli xulosalar uchun qanday materiallar etishmasligini hal qilishingiz kerak.

Puxta o'ylab qo'yilgan maqola nomi maqola mazmunini to'liq ifodalash hamda o'quvchilar diqqatini jalb eta olish kuchiga ega bo'ladi. Garchi qo'lyozma mazmunini anglatuvchi asosiy tushunchalar kalit so'zlar sirasida berilsa-da, xuddi shunday kalit so'zlarni sarlavhaga kiritish maqola chop etilgach, uni internet tizimida tezkor qidirib topish imkonini oshiradi. Demak, nafaqat maqola annotatsiyasi, balki ilmiy jozibador sarlavhaning o'zi ham uning ommalashuvini tezlashtiradi.

Maqolaga nom tanlashda yo'l qo'yiladigan xatolar:

1. Maqola sarlavhasi unda bayon etilgan fikrlarga nisbatan qamrovi hadsiz masalaga qaratisa. Ya'ni maqola sarlavhasi imkon darajada aniq bo'lishi, matn hajmi, mazmun chegarasiga nisbatan umumiy mazmuni ifodalamasligi shart. Masalan, maqolaga "O'zbek tilida leksemalar" deb sarlavha qo'yish to'g'ri bo'lmaydi, negaki til lug'at tarkibini o'rganishning turli lingvistik jihatlarini, ilmiy paradigmalarda kesimidagi talqini mavjud bo'lib, maqolada leksemaning qaysi lisoniy

tabiati haqida soʻz borishini oydinlashtirish kerak. Bunda sarlavhani leksemalarga oid biror aniq muammoga qaratish lozim (masalan, “Oʻzbek tilida leksemalararo leksik-semantik munosabat” kabi). Xuddi shunday, “Boshlangʻich sinflarda matematika”, “Bozor iqtisodiyoti” yoki “Oʻzbek prozasi”, “Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston” singarilar ham nomukammal sarlavhalar jumlasidandir.

2. Maqola sarlavhasi mazmunga muvofiq boʻlmasa. Bunday sarlavhalar oʻquvchilarda anglashilmovchilikni keltirib chiqaradi.

3. Sensatsion (shov-shuvli) sarlavha. Bunday sarlavhalar publitsistik matnning faqat reklama va yangiliklar janriga mos keladi, zinhor ilmiy uslubga emas! Masalan, “Media savodxonlik bizga nima berdi?” oʻrniga “Media savodxonlikni rivojlantirishning amaliy ahamiyati”, “Ekologik muammolar – tabiat nidosi” oʻrniga “Ekologik xavf va uning oldini olish muammolari” deb sarlavha qoʻyish oʻrinli boʻladi.

4. Agar maqola ilgari oʻrganilgan muammoga qaratilgan boʻlsa-yu, muallif shu masalaning yana bir qirrasiga munosabat bildirishni maqsad qilgan boʻlsa, sarlavhani “... muammosiga doir ayrim masalalar”, “... tadqiqiga oid dolzarb masalalar” deb belgilangan maʼqul.

Maqolada muallifga tegishli maʼlumotlar: muallif ismi, familiyasi, otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi koʻrsatilgan holda keltiriladi. Mualliflar soni birdan ortiq boʻlgan holatda esa ushbu maʼlumotlar har bir hammuallif uchun alohida keltiriladi.

Ilmiy maqolalarni rasmiylashtirishga doir talablar orasida uning tarkibiy qismiga oid qatʼiy mezonlar ham mavjud. Xususan, ayrim ilmiy nashrlar maqola va tezislarni annotatsiyasiz, faqat rezyume va kalit soʻzlarni soʻragan holda anʼanaviy shaklda qabul qiladi, ammo global qidiruv tizimlarida yuqori iqtiboslik koʻrsatkichiga ega nufuzli jurnallar ilmiy maqolalarning hajmi va rasmiylashtirilishiga doir IMRAD mezonlarini qoʻyadilar. Shuningdek, ilmiy maqola va tezisning ham hajm nuqtayi nazaridan keskin farqi belgilangan boʻlib, dunyoning eʼtirof etilgan jurnallari ilmiy maqolaning hajmiga oʻrtacha 0,25 bosma toboq (1 satr oraligʻi, 12 kegelli shrift bilan terilgan 4-5 sahifa, satr oraligʻi 1,5 boʻlgan, 14 kegelli shriftida terilgan matnning 6-7 sahifa) talabini qoʻyadi. 1 bosma toboq bosma belgilar va probellari bilan birga 40000 dan kam boʻlmagan, taxminan 16 sahifaga barobar hajmli qoʻlyozmaga tengdir.

Maqolaning kirish qismi tadqiqotning qaysi maqsadda amalga oshirilgani, uning obyekti va predmeti, mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, bu haqda jahon ilm-fanida mavjud ilmiy-nazariy qarashlarning qisqacha sharhi hamda tadqiqotning shu doiradagi oʻzga olimlarning tadqiqotlaridan afzal jihatlari va mazkur tadqiqotni yuzaga chiqarishdan kutilgan (kutilayotgan) natijalarni ifoda etishi lozim. Aynan kirish qismida maqolada hal qilinishi kerak boʻlgan muammo aniqlashtirilishi shart.

Maqolaning “tadqiqot usullari” bandida tadqiqot uchun tanlangan materiallar yoki tadqiqotda qoʻllanilgan usullar haqida maʼlumot berilishi lozim. Jumladan, tadqiqotning oʻtkazilish vaqti, oʻtkazilish tarzi, manbalar haqidagi qaydlar mazkur bandning asosiy mazmunini tashkil etishi kerak.

Tadqiqotdan olingan natijalarni aks ettiruvchi bandeda tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarning amaliy yechimi, mavzuga oid nazariy qarashlar, ilmiy farazlarning oqlangani, shuningdek, qo'lga kiritilgan yutuqlar, ya'ni qanday ilmiy yangilik ixtiro (kashf) qilangani to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Bu qismda tajriba-sinov ishlarining miqdoriy va sifat natijalari ko'rsatib o'tiladi. Natijani aniq raqamlar (raqamlar noto'g'ri talqin etilishi mumkin) asosida emas, balki "samarador bo'ldi" yoki "samarasiz yakunlandi" kabi umumiy so'zlardan foydalanish orqali berish tavsiya etiladi. Shuningdek, tajriba natijalarini grafik, jadvalli shakllarda berish ham muammoning qo'yilishi va yechimi haqida aniq tasavvur hosil qilishga yo'l ochadi.

Maqolaning muhokama (munozara) qismida esa muallif tomonidan ilgari surilgan ilmiy farazning o'zga olimlar, tadqiqotchilarning mavzu doirasida e'tirof etilgan va mavjud ilmiy qarashlarga muvofiq kelish-kelmasligi, tadqiq mavzusining istiqboli to'g'risidagi fikrlar aks etishi kerak.

Maqolaning xulosa qismida tadqiqot natijalarini qaysi sohaga joriy etish lozimligi, olib borilgan izlanish mavjud tushunchalar yoki nazariy qarashlarni qay darajada boyitgani, tegishli muammoni hal qilishga doir taklif qilingan yangi yo'llari aniqlashtirilishi kerak. Xulosa qismidagi kesimlilik shakllari maqolaning annotatsiya qismidan farqli, kelasi zamon fe'li orqali berilishi maqsadga muvofiq.

Annotatsiyaning yozilish tartibi

Annotatsiya – ilmiy maqolaning maqsadi, mundarijasi, tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalar, erishilgan natijalar haqida ma'lumot beruvchi qisqacha tavsifnoma.

Annotatsiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

Maqola mazmuni haqida umumiy tushuncha hosil qilish, tadqiqotga doir asosiy holatlar, tushunchalar haqida ma'lumotlar berish hamda maqola matni bilan to'liq tanishish zarurati bor-yo'qligi borasida tasavvurni shakllantirish;

Avtomatlashtirilgan qidiruv tizimlarida tegishli ma'lumotga yo'naltirish, maqolaning tegishli mavzuga aloqador-alloqador emasligi (relevantligi)ni aniqlash hamda uni kompyuter tizimida aniq va oson topishga imkon yaratish.

Annotatsiya o'zida tadqiqot maqsadi, umumiy mazmun, obyektga oid mavjud nazariy qarashlar muhokamasi va ilmiy yangilik, erishilgan natijalarni aks ettirishi lozim. Jumalarning kesimi o'tgan zamon fe'li bilan ifodalanishi kerak. Maqolaning asosiy matnidan farqli, annotatsiyada bayon etilgan fikrlarga iqtibos, turli formulalar, tushunilishi qiyin bo'lgan terminlar keltirilmaydi, annotatsiya matni maqolaning asosiy matnini takrorlamasligi shart. Jahon standartiga muvofiq annotatsiya hajmi 300-600 bosma belgilaridan iborat bo'lishi lozim.

Ilmiy qo'lyozmani ko'rib chiqish uchun qabul qilayotgan nashriyotning nizom talablariga muvofiq, annotatsiya bir abzatsdan bir necha abzatsgacha hajmda bo'lishi mumkin, ba'zi hollarda hatto annotatsiyaga ham IMRAD³⁷

³⁷ IMRAD (/ 'imræd/) – inglizcha introduction, materials and methods, results and discussion, ya'ni, ilmiy maqolani tashkil etuvchi asosiy qismlar: kirish, material va metodlar (metodologiya), natijalar va muhokama qismining bosh harflaridan hosil bulgan kiskartma bulib, u ilk bor Lui Pasterning 1876 yilda ezilgan maqolasi uchun asosiy tarixiy vazifasini utagan. 1970-yillardan e'tiboran, ya'ni 1972 va 1979 yillarda

talablari joriy qilinishi mumkin. Nashriyot nizomiga muvofiq, annotatsiya bitta va bir necha tilda adekvat (matni aynan bir xil) mazmunda taqdim etiladi.

Ilmiy maqolaning annotatsiyasini yozishda quyidagi andoza (shablon) jumalardan foydalanish mumkin:

Mazkur maqolada ... muammosi yoritilgan;

... haqidagi ilmiy g'oyalar asoslangan;

.... ligi kuzatiladi;

... qiyosi amalga oshirilgan;

... ning tahlili amalga oshirilgan;

Maqola ... muammosini majmuaviy tekshirishga bag'ishlangan;

... ning tahlili mazkur maqolaning bosh maqsadi etib belgilangan;

... maqola ... hodisasini o'rganishga bag'ishlangan;

... maqola ... masalasining atroflicha o'rganishga qaratilgan;

... muammolari ochib berilgan;

... masalasiga alohida ahamiyat berilgan;

... ga ko'ra muallif ... degan to'xtamga keladi;

Muallif o'z e'tiborini ... ga qaratib, quyidagi xulosalarga keladi;

Maqolada ... doir quyidagi holatlar aniqlangan;

... ning farqli va o'xshash jihatlari yoritib berilgan;

... ni o'rganish natijalaridan quyidagi xulosalarga kelindi;

Maqola ... ning ... usullari asosidagi chuqur tahlilga qaratilgan bo'lib;

Maqola bugungi kunda dolzarb hisoblangan ... masalasiga bag'ishlangan;

Maqola ushbu kunda kam o'rganilgan ... masalasiga bag'ishlanadi;

Maqola bugungacha yetarlicha o'rganilmagan ... masalasiga bag'ishlanadi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kelgusida ...ni atroflicha tadqiq etish zarurligini qayd etish lozim;

... ga tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan;

... ga doir tavsiya va takliflar berilgan;

... tadqiqot ... sohalarining umumiy obyekti hisoblangan ...ga bag'ishlanadi;

... tadqiqotdan olingan xulosalar ... sohasi vakillari va keng tadqiqotchilar

ommasi uchun foydali bo'ladi;

Maqolada ... ga doir masalalar muhokama qilinadi;

Maqolaning xulosa qismida ... ga oid xulosalar o'z ifodasini topgan;

Mazkur maqolada ... muammosiga tegishli tajriba-sinov ishlarining natijalari yoritilgan;

Ushbu maqolada ... ning xarakterli xususiyatlari ochib berilgan;

Maqolada ... ga oid asosiy xulosalar o'z ifodasini topgan;

Maqolada ... ga tegishli qarashlar umumlashtirilgan (muhokamaga tortilgan);

Mazkur maqolada muallif ...ning sabablarini ochishga harakat qilgan va h.

Annotatsiyani tuzishga doir 1-namuna:

Tadqiqot maqsadi Tog'ay Murod asarlarining janroviiy xususiyatlarini o'rganish, muallif bayonining til xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Tog'ay Murod asarlari lingvopoetik xususiyatlarining yoritilganligi, muallif idiolektiga oid aniq xulosalar berilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot xulosalaridan olingan Natijada Tog'ay Murod asarlari til xususiyatlarining lingvomadaniy jihatlari ochib berilgan.

Annotatsiyani tuzishga doir 2-namuna (IMRAD talabi bo'yicha):

Kirish. O'zbek tilidagi termin-metafora va atamalar o'ziga xos kognitiv ko'lamni namoyon etadi. Metaforalar ilmiy bilishning o'ziga xos quroli bo'lib, turli fanlar terminosistemalarining shakllanishida asosiy va mahsuldor omillardan hisoblanadi. Maqolaning maqsadi o'zbek tilidagi terminlar orasidagi termin-metaforalarning hosil bo'lishidagi manbani aniqlash va ularning olam manzarasidagi ahamiyatini belgilashdan iboratdir. O'zbek tilining boy terminologiyasining shakllanishi va rivojidadagi semantik jarayonlarda metaforalarning kognitiv faoliyati mexanizmlari, evristik va nominativ imkoniyatlari hamda lisoniy-kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek antropotsentrik tilshunosligining jadal taraqqiyoti uchun ko'p narsa beradi.

Metodlar. Konseptual-semantik tahlillar, qiyoslash usuli asosida mazkur terminologiyaga daxldor metaforik nominatsiyalarning tillararo universal tabiati tekshirildi va shunga mos xulosalar keltirildi.

Natijalar. Aniqlanishicha, termin metaforalar o'rtasidagi polisemantik, omonimik munosabat – inson xotirasi axiralaridan ongli foydalanish mahsulidir. Termin-metaforalar u yoki bu ilmiy tushunchalarning mohiyatini oson va tushunarli tarzda yetkazish usulidir, bu bilan termin-metaforalar fikrni ixcham, sodda shaklda yetkazish namunasi hisoblanadi. Pirovadida, fikrni ixcham, sodda shaklda yetkazuvchi metaforik nominatsiyalar bunga isbot bo'ladi. Maqolada, shuningdek, metaforik qiyosda har xil turdagi yoxud turli tasnifga ega obyektlar o'rtasidagi o'xshashlikni payqash motivatsiyasi yotganligi, xuddi shunday, ilmiy matndagi metaforik terminlar tasodifan tanlanmasdan, predmetlararo o'ziga yarasha o'xshash jihatlarni belgilash sababidan hosil bo'lishi ko'rsatib berildi. To'plangan materiallar asosida ma'lum bo'ldiki, metaforik terminlar atributiv xususiyatiga ko'ra asosan: uy-ro'zg'or anjomlari va tabiat bilan bog'liq ashyolarga taqqos negizida hosil bo'larkan. Olam terminologik manzarasining olamning milliy manzarasini shakllantirishda ishtirok etuvchi konseptual metafora bilan zich aloqasi ko'rsatib berildi.

Munozara. Terminlarni hosil qilishda metafora usulidan foydalanish – bu vosita orqali yuzaga kelgan istilohning lisoniy hamjamiyat tomonidan tez va oson qabul qilinishiga, ma'no ko'lamining sun'iy tarzda yaratilgan terminlarga nisbatan birmuncha tushunarli va yengil tushunilishiga olib keladi. Ma'lum sohaga ixtisoslashgan terminlar umumilmiy, umumiste'mol so'z va terminlardan farqli, yagona ma'noni kasb etsa-da, ularning faqat ilmiy diskursda qo'llanilishi metaforaning ishtirokini cheklab qo'ya olmaydi, aksincha, sof terminlar (tub terminlar) ham o'z ma'noviy ko'lamini to'liq namoyon etishi uchun metaforik talqinga suyanadi. Ilmiy metafora nominativ vazifa bilan chegaralanmaydi: ilmiy diskursda metafora bir-biriga zid ikki voqelikni o'zaro uyg'unlashtirish vositasi

bo'lib xizmat qiladi. Referentlararo transformatsiyalanuvchi bilimlar ko'lami metaforaning antropotsentrik belgilarini ajratish imkonini tug'diradi.

Xulosa. *Metaforalar ilmiy bilishning o'ziga xos quroli bo'lib, turli fanlar terminosistemalarining shakllanishida asosiy va mahsuldor omillardan hisoblanadi. Bunda metaforalarning kognitiv faoliyati mexanizmlari, evristik va nominativ imkoniyatlari hamda lisoniy-kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek antropotsentrik tilshunosligining jadal taraqqiyoti uchun ko'p narsa beradi.*

Tezis, taqriz, rezюме matni talablari

Kalit so'zlar. Ilmiy maqolada kalit so'zlarni berish maqolalarni qidiruv tizimi orqali izlash hamda ularni mavzular bo'yicha guruhlashda alohida ahamiyatga ega. Nashriyot talabiga ko'ra kalit so'zlar va so'z birikmalarining soni 5-6 tadan 10-12 taga qadar etib belilanishi mumkin. Bu so'zlar maqolaning asosiy mazmunini o'zida aks ettirishi kerak. Sarlavha va annotatsiyada berilgan terminlarni bu qismda takrorlamaslik maqsadga muvofiqdir, aksincha, maqola mazmunini oydinlashtiruvchi atamalar, sohani aniqlashtiruvchi va o'zida boshqa muhim tushunchalarni saqlovchi terminlarni kalit so'zlar tarkibida berish muhim. Bu orqali qidiruv tizimida maqolani topish imkoniyati yanada kengayadi.

Ilmiy maqolada keltirilgan iqtiboslarni rasmiylashtirish maqolaga qo'yilgan texnik talablardan biri hisoblanadi. Maqolani yozishda foydalanilgan bibliografik manbalar quyidagi hollarda qayd etilishi shart:

- iqtibos keltirishda;
- o'zga tadqiqotlarga tegishli formulalar, jadvallar, rasmlar keltirilganda;
- mavzuga doir ilmiy muammo to'liqroq yoritilgan boshqa manbaga murojaat qilinganda;
- nashr etilgan asarlar matni tahlil qilinganda.

Bibliografik havolalarning ikki turi mavjud:

Matn ichidagi iqtiboslar. Ular o'zi tegishli bo'lgan jumlaning ichida keltiriladi hamda adabiyotlar ro'yxatidagi raqamni ko'rsatgan holda qavs ichida beriladi, masalan, (31). Bir fikrning o'ziga bir nechta manbaga havolalar (12-17, 19) shaklida berilishi mumkin. Alohida vaziyatlarda qavs ichida manbaning muallifi va aniq bir sahifasi ham ko'rsatilishi mumkin. Bir tildan boshqa tilga transliteratsiya qilinmaydigan familiyalar aslicha keltirilishi mumkin.

Satr osti iqtiboslar. Ular sahifaning pastki qismida, asosiy matn satrlari ostida joylashtiriladi va butun hujjat bo'ylab doimiy ketma-ketlik asosida raqamlanadi.

Maqolada qayd etilgan iqtiboslar bilan adabiyotlar ro'yxatini tuzish o'rtasida o'zaro o'xshash jihatlar bor, ammo ilmiy qo'lyozmaning adabiyotlar ro'yxatini ilmiy jurnal shartlaridan kelib chiqib rasmiylashtirish lozim, bunda maqola bayonida keltirilgan iqtiboslikka havola berish tartibi ham shu talablarga mos tarzda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar ro'yxatini tuzishda e'tiborni faqat maqolani yozishda foydalanilgan adabiyotlarga qaratish lozim. Maqola mavzusiga aloqador, lekin iqtibos, havola shaklida qayd etilmagan manbalar ro'yxatga kiritilmaydi. Ro'yxatni rasmiylashtirish davlat tomonidan o'rnatilgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ro'yxat ilmiy maqola va tezisning majburiy qismi bo'lib, tadqiqotchining tegishli mavzuni o'rganishda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyati, o'z mavzusiga doir metodologiyani nechog'liq puxta o'zlashtirganini ko'rsatadi.

Manbalarning tavsifi. Kitob yoki maqola haqidagi har bir yozuv asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qisqacha bibliografik yozuvdir. Unda:

- muallifning familiyasi va bosh harflari;
- sarlavha;
- bosma: nashr qilingan joy, nashriyot, chop etilgan yili;
- sahifalar soni aks etishi kerak.

Foydalanilgan manba lotin alifbosida nashr etilgan bo'lsa yoki uning bibliografik ko'rsatkichlari lotin alifbosida berilgan bo'lsa, adabiyotlar ro'yxatiga ham xuddi shu shaklda kiritiladi. Shu kabi, agar manba rus, ingliz va boshqa xorijiy tillarda yozilgan bo'lsa, o'sha manbaning bibliografik ko'rsatkichlari o'zbek tiliga o'girilmasdan asl holicha ro'yxatga kiritiladi.

Namuna: Сысоев П.В. Правила написания аннотации // Иностранные языки в школе. 2009. № 4. – С. 81-83.

Нурмонов А. Мустақиллик даврида ўзбек тилишунослиги тараққиёти // А.Нурмонов. Танланган асарлар. 3-жилд. – Тошкент, 2012. – Б. 39.

“Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони // Lex.uz.

Rahimi Hajieh. *The Effect of Method of Vocabulary Presentation (Code-Mixing, Thematic Clustering, and Contextualization) on L2 Vocabulary Recognition and Production* / Hajieh Rahimi // *Procedia - Social and Behavioral Sciences*. – 2014. –№ 98. – P. 1475 – 1484.

Maqolalarni ingliz tilida nashr etuvchi jurnallar talabi bilan adabiyotlar ro'yxati transliteratsiya qilingan yoki to'laligicha ingliz tiliga o'girilgan holda berilishi mumkin.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar, mualliflik guvohnomalari, patentlar, axborot varaqalari, kitoblar, ko'p tomli kitoblar, chop etilmagan materiallar, hujjatlar, dissertatsiyalar avtoreferatlari, elektron resurslar, kitobdan olingan maqolalar, to'plamdan olingan maqolalar, gazetadan olingan maqolalar, jurnaldan olingan maqolalar, davriy nashr maqolalari, taqrizlar adabiyotlar ro'yxatiga tegishli ketma-ketlik asosida kiritiladi.

Maqolani imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolari bartaraf etilmasdan nashriyotga ko'rib chiqish uchun topshirish maqsadga muvofiq kelmaydi, sanab o'tilgan noqisliklar maqola haqida dastlabki salbiy taassurotni shakllantiradi.

Ilmiy nashrlarni chop etishning axloqiy mezonlari (ilmiy etika talablari). Ilmiy nashrlar etikasi ostida mualliflar, taqrizchilar, muharrirlarning ilmiy nashrlarni yaratishga oid jarayonlarda o'zaro munosabatini tashkillashtiruvchi me'yorlar tizimi tushuniladi. Mazkur me'yorlar nashrlar etikasi Qo'mitasi COPE (Committee on Publication Ethics), ilmiy muharrirlar va nashrlar Assotsiatsiyasi Deklaratsiyasi (ANRI)ning "Ilmiy nashrlarning etik tamoyillari" asosan ishlab chiqiladi.

Ilmiy nashrlar muallifi amal qilishi lozim bo'lgan tamoyillar quyidagilardir:

Muallif yoxud mualliflar jamoasi ilmiy tadqiqotning ilmiy yangiligi, qo'lga kiritilgan natijalar, tadqiqotdan olingan xulosalarning ishonchliligiga oid mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va shunga muvofiq ravishda quyidagi mezonlarga so'zsiz amal qiladi:

- muallif tadqiqotning ilmiy yangiligiga doir ma'lumotlarning ishonchliligi borasida mas'ul, yolg'on yoxud xato ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin emas;

- muallif maqolada aks etgan tadqiqotga doir natijalarning to'liq original ekanini kafolatlaydi, muallif tomonidan o'zga olimlarning qarashlari, ilmiy xulosalari (hatto individual qo'llanilgan termin va atamalar ham) o'zlashtirilib keltirilsa, dastlabki manba, uning muallifi ko'rsatilishi shart. O'zga gapning haddan tashqari o'zlashtirilib keltirilishi, plagiatning turli shakllari (manbasi ko'rsatilmagan sitatalar, o'zga muallif erishgan natijalarini o'zlashtirish, o'zga muallif tomonidan keltirilgan jadval, chizma, rasm, ilova, diagrammalarga havola bermaslik va b.)ga yo'l qo'yilmaydi;

- muallif amalga oshirgan tadqiqotda muhim ahamiyat kasb etgan ta'limot, ilmiy nazariya, qarashlarning mualliflari so'zsiz e'tirof etilishi shart (ularning asarlari, mavjud manbalarga havola keltirish, adabiyotlar ro'yxatiga kiritish yo'li bilan);

- maqola hammualliflari tarkibida tadqiqotning amalga oshuvida xizmati singan shaxslarning barchasi qayd etilishi shart. Aksincha, tadqiqotda ishtirok etmagan shaxslarning muallif sifatida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq emas;

- maqola (tezis, taqriz, monografiya, ilmiy risola, asar va b.)ning chop etilishida barcha mualliflarning roziligi olinishi shart;

- muallif (lar)ning tahririyatga chop etish uchun topshirilgan va ayni vaqtda ko'rib chiqilayotgan ilmiy qo'lyozmani boshqa jurnal tahririyatiga topshirishi maqsadga muvofiq emas;

- tahririyatga ko'rib chiqish uchun topshirilgan yoki nashr etib bo'lingan ilmiy qo'lyozma muallifi o'z maqolasiga doir xatoliklar, noaniqliklarni

aniqlaganda bu haqda jurnal (nashriyot) tahririyatini zudlik bilan ogohlantirishi shart.

Muharrir va noshir faoliyatida kasbiy axloq mezonlari ham ilmiy nashr mualliflaridan kam bo'lmagan mas'uliyatli tushuncha hisoblanadi. O'z faoliyati doirasida ilmiy nashr mualliflarining tadqiqot natijalarini ommalashtirishda mas'uldirlar. Bu borada ular ilmiylik, obyektivlik (xolislik), professionalikka tayanib ish yuritishlari shart. Ilmiy qo'lyozma mualliflari bilan muloqot madaniyati, xolislik, adolatlilik, shaffoflikka amal qilgan holda munosabatda bo'ladilar. Ilmiy izlanish, tadqiqot, ilmiy maqsadlarda o'tkazilgan tajriba-sinov, noyob qo'lyozmalarga oid chop etilmagan ma'lumotlar mualliflarning rasmiy roziligisiz uchinchi shaxslarga taqdim etilishi yoxud shaxsiy maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin emas. Ilmiy nashr muharriri va noshir qo'lyozmada aniqlangan plagiat (ko'chirmachilik), dalillarning soxtalashtirilishi, qo'lyozma matnida ilmiy axloq mezonlarining qo'pol buzilishiga doir vaziyatlarda adolat bilan ish yuritishi hamda mazkur qo'lyozmaning chop etilishining oldini olishi lozim.

Taqrizchi nashriyot nomidan ish olib boradigan ekspert sifatida mualliflik huquqi materiallarini nashr etish imkoniyatini aniqlash uchun ilmiy ekspertizadan o'tkazadi, bunda u quyidagi tamoyillarga rioya qilish orqali qo'lyozmani xolis baholashi lozim:

Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan qo'lyozma maxfiy hujjat sifatida mas'ul shaxsga topshiriladi, qo'lyozmani tahririyatdan ruxsati bo'lmagan uchinchi shaxslarga muhokama qilish uchun berish mumkin emas.

Taqrizchi tadqiqotning bayon etilgan natijalariga xolis va asosli baho berishga majburdir. Muallif shaxsini tanqid qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Taqdim etilgan qo'lyozmalardan ular nashr etilmagan taqdirda taqrizchi tomonidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Biron bir nashr, jurnal, to'plam uchun maqola tayyorlashdan avval, birinchi navbatda unda qabul qilingan maqolalarga qo'yiladigan talablarni o'rganish juda muhim: bu ko'proq hajm, dizayn, mavzular doirasi masalasiga tegishli jihat.

Nazorat savollari

1. Maqola va tezisning o'zaro farqini tushuntiring.
2. Maqola matniga qo'yilgan talablar haqida nimalarni bilasiz?
3. Annotatsiyaning yozilish tartibi maqolani yozish tartibidan nimasi bilan farq qiladi?
4. Tezis, taqriz, rezyume matni talablari haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

1. Ковалева Т.А., Ильина И.В. Как написать аннотацию к научной статье // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. Тамбов, 2016. Т. 21. Вып. 12 (164). С. 173-177. DOI 10.20310/1810-0201-2016-21-12(164)-173-177.

10-mavzu. DASTLABKI ILMYIY TADQIQOT YOZISH

Reja:

1. Dissertatsiyaning tuzilishi.
2. Dissertatsiyalarni rasmiylashtirish talablari.
3. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats).
4. Adabiyotlarni rasmiylashtirish.

Tayanch tushunchalar: *“dissertatsiya” tushunchasi va uning mohiyati, dissertatsiya qismlarini rasmiylashtirish tartiblari, kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats).*

Dissertatsiyaning tuzilishi

Dissertatsiyaning tuzilishi ishning tarkibiy qismlari ketma-ketligidan iboratdir. Tadqiqot tuzilishi va qismlarining mantiqiy ketma-ketligi bir-biriga mutlaq to‘g‘ri kelishi, belgilangan talablarga amal qilgan holda rasmiylashtirilishi shart (-jadval).

Tarkibiy qism	Tavsifi	Hajmi
Titul varag‘i	Dissertatsiyaning birinchi sahifasi: Tashkilot nomi; UDK raqami; Muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi; Dissertatsiya mavzusi; Ixtisoslik raqami va nomi; Izlanuvchi talab qilgan daraja; Ilmiy rahbar familiyasi, ismi, otasining ismi; Himoya joyi va yili	1 bet
Mundarija	Mundarija — boblar, fasllar sahifalari ko‘rsatilgan holda tuzilgan reja. Sahifalarning raqamlanishi arab raqamlarida amalga oshiriladi. Titul varag‘i raqamlanmaydi.	1-2 bet
Maxsus belgi va qisqartmalar ro‘yxati	Ishda qo‘llangan abbreviaturalar, terminlar, qisqartmalar ro‘yxati.	1-2 bet

Kirish	<p>Dissertatsiyaning kirish qismida quyidagilar yoritib berilishi kerak: dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi; dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi (faqat fan doktori (DSc) dissertatsiyasi uchun); muammoning o'rganilganlik darajasi; dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi; tadqiqotning maqsadi; tadqiqotning vazifalari; tadqiqotning obyekti; tadqiqotning predmeti; tadqiqotning usullari; tadqiqotning ilmiy yangiligi; tadqiqotning amaliy natijalari; tadqiqot natijalarining ishonchliligi; tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi; tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi; tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi; dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.</p>	7-10 bet
Asosiy qism	<p>Asosiy qism — boblar va paragraflardan tashkil topadi. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining asosiy qismi kamida uchta bobdan, fan doktori (DSc) dissertatsiyasining asosiy qismi esa, kamida to'rtta bobdan iborat bo'lishi lozim.</p> <p>Birinchi bobda mavzuga aloqador adabiyotlar tahlili bayon etiladi. Vazifa:</p> <p>Atroflicha tahlilni amalga oshirib, mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish;</p> <p>Predmet va obyektning maksimal to'liq tavsifini berish, mavzuning o'rganilganlik darajasini aniq belgilash;</p> <p>Muammoning o'rganilish tarixiga oid ma'lumotlar keltirish, yechimini kutayotgan jihatlarini belgilash va qo'yilgan vazifalar to'g'risida axborot berish.</p> <p>Ikkinchi bob muammoning nazariy tomonlari va ularning yechimi, amaliyotga joriy qilish imkoniyatlarining bayonidan iborat bo'lishi kerak. Mazkur bobda tadqiqotchidan izlaish nazariyasini tavsiflash hamda tegishli natijalar olish shartlari, usullarini yoritib berish talab qilinadi. Bu maqsadda taqdim etilgan dalillar, tajriba natijalari o'ziga tadqiqotchilarning izlanishlarida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi zarur, shu sababli ular qo'llanish uchun qulay, tushunarli va asoslangan bo'lishi lozim.</p> <p>Uchinchi bob tadqiqotdan olingan natijalar tahliliga bag'ishlanadi. Mazkur bobda natijalarni aks ettiruvchi jadvallar, chizmalar, rasmlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.</p> <p>To'rtinchi bob mavzuning omma muhokamasidan o'tganlik darajasi va dissertatsiyalardan olingan natijalarni xulosalashga bag'ishlangan.</p>	Har bir bobning hajmini 40 sahifa oralig'ida rejalashtirish tavsiya qilinadi. Ijtimoiy sohalarda dissertatsiya hajmini 30 foizgacha oshirishiga ruxsat beriladi.
Xulosa	<p>Dissertatsiyaning xulosa qismida muallif kirish qismida qo'yilgan savollar va belgilangan vazifalarning bajarilishiga doir xulosalarini keltirish lozim. Shuningdek, ishning ilmiy yangilini ifodalovchi jihatlariga urg'u beradi, amaliy ahamiyatini bayon qiladi, olingan natijalarni xulosalaydi.</p>	8 betgacha

Adabiyotlar ro'yxati	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida muallifning asosiy matnda foydalangan manbalari jamlanadi. Har bir manba ro'yxatda alifbo tartibida raqamlashtirib joylashtiriladi. Matnda qayd etilmagan manbalar adabiyotlar ro'yxatiga kiritilmaydi.	Hajmi cheklangan
Ilovalar	Mazkur bo'limda asosiy matnga kiritilmagan, biroq xulosalarni ko'rgazmali tarzda ifoda etuvchi jadval, rasmlar, chizmalar, diagrammalar va b. taqdim etiladi. Har bir ilova raqamlanishi va nomlanishi zarur.	Hajmi cheklangan

Dissertatsiyani rasmiylashtirish qoidalari

11. Dissertatsiya ishi kirish qismi, kamida uchta bo'lim, asosiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

Titul varag'i OAK tomonidan tasdiqlangan namuna (2-ilova) bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Dissertatsiya nomi aniq va qisqa bo'lishi tavsiya etiladi.

12. Dissertatsiya ishining mavzusi ilmiy kengash tomonidan tasdiqlanganidan so'ng "OAK Byulleteni" jurnalida nashr qilinishi shart.

13. Dissertatsiya davomida har bir parametrning o'lchami hamma vaqt bir xil bo'lishi zarur.

14. Kirish (so'zboshi) dissertatsiya ishi davomida nimalar kelishi haqidagi o'quvchining tushunchasini yengillashtirishi lozim. Shuning uchun bu o'rinda ilmiy tadqiqotning obyekti aniq va lo'nda yoritib berilishi, mazkur tadqiqotni o'tkazishning dolzarbligini asoslab berish kerak.

Dissertatsiya ishi yangiligi bilan ajralib turishi kerak. Shuning uchun so'zboshida qisqa annotatsiya ko'rinishida muammoning yechilishida (nomzodlik dissertatsiyasi uchun) yoki fan sohasida (doktorlik dissertatsiyasi uchun) muallif tomonidan qilingan yangilik bayon etilgan bo'lishi kerak. So'zboshini muallif himoyaga olib chiqayotgan asosiy holatlarni sanab o'tish bilan tugatishi lozim.

15. Dissertatsiyaning bo'limlari uchtadan kam bo'lmasligi kerak. Bo'limlarda ishning asosiy mazmuni bayon etiladi. Dissertatsiyaning birinchi bo'limida talabgor o'rganilayotgan masalaning bugungi holatiga qisqa baho (nomzodlik ishlari uchun) va fan sohasining holatiga tasnif (doktorlik dissertatsiyalari uchun) berib o'tishi kerak. Bu baho va tasnif dissertatsiyaning kirish qismida ham berilishi mumkin.

16. Talabgor har qanday ilmiy ishga qo'yiladigan quyidagi talablarni bajarishi lozim:

a) materialni bayon qilishda o'quvchiga dissertatsiya bo'limlarining bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi, bo'limlar ichida qismlar va bandlar aloqadorligi haqida aniq tushuncha bera oladigan mantiqiy izchillik;

b) ma'lumotlarning ishonchliligi;

v) bayon qilingan fikrning aniq va qisqa bo'lishi;

g) tadqiqotning har bir bo'limidagi ayrim masalalarni yechishda natijalarni aniq bayon qilish.

So'nggi talabni bajarish uchun talabgor, odatda, dissertatsiya bo'limlarining oxirida qism tarzida bo'lim bo'yicha xulosalar berishi kerak.

Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats)

17. Xulosa butun dissertatsiya tadqiqoti bo'yicha qisqa umumlashtirilgan natijalardan iborat bo'lishi kerak.

18. Dissertatsiya yuzasidan foydalanilgan adabiyotlar 3-ilovaga muvofiq tarzda rasmiylashtirilishi tavsiya etiladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosan so'nggi 10 — 15 yil ichida nashr qilingan adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

20. Ilovalar dissertatsiyaning asosiy matni bilan birga bitta kitobga jamlangan bo'lishi yoki alohida kitob holida chiqarilgan bo'lishi mumkin. Ilovalarga dissertatsiya matnini to'ldiruvchi va tasvirlovchi turli yordamchi materiallar kiritiladi:

- a) oraliq matematik isbotlar, formulalar, hisob-kitoblar;
- b) statistik ma'lumotlar va ularni qayta ishlash metodlari;
- v) aniq tajribalar natijalari;
- g) dastlabki materiallar;
- d) yordamchi nomogrammalar va jadvallar;
- ye) tajribalarda, o'lchash va sinovlarda qo'llanilgan apparatlar va uskunalar ta'rifi;

j) dissertatsiya tadqiqoti jarayonida ishlab chiqilgan EHMda yechilgan masalalar yordamchi algoritmlari va dasturlari, metodlari;

z) yordamchi xarakterdagi illyustratsiyalar (tasvirlar);

i) mukammal izohlar;

k) dissertatsiya ishining natijalarini tatbiq etish bo'yicha dalolatnomalar va boshqalar.

k) dissertatsiya ishining natijalarini tatbiq etish bo'yicha dalolatnomalar va boshqalar.

Ilovalar ketma-ketligi tartibi dissertatsiyada ularga murojaat qilish tartibiga mos kelishi va foydalanish qulayligini ta'minlashi kerak.

Dissertatsiya matnini kompyuterda WORDning 14 shriftida 1,5 intervalda A4 formatli standart oq qog'ozning bir tomonida yozish tavsiya etiladi.

Doktorlik dissertatsiyasining matni 250 betdan, nomzodlik dissertatsiyasi esa 120 betdan oshmasligi kerak. Ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi dissertatsiya hajmi ko'pi bilan 30 foizga oshirilishi mumkin. Ilovalar ko'rsatilgan hajmga kirmaydi.

Dissertatsiya betlarining chap tomoni 30 mm, yuqori tomoni 25 mm, o'ng tomoni 15 mm, quyi tomoni 25 mm bo'lishi tavsiya etiladi. Matndagi formulalar puxta va aniq yozilgan bo'lishi shart. Katta va kichik harflar, yuqori va pastki indeklari formulada aniq berilishi kerak. Formula uchun belgilarning o'lchami quyidagicha belgilanadi: katta harflar va raqamlar 5-6 mm, kichik harflar 3 mm, daraja ko'rsatkichlari va indeklari 2 mm dan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi.

23. Dissertatsiya matni va ilovadagi jadvallar, chizmalar, sxemalar, diagrammalar, grafiklar, fotosuratlar o'ldhami A4 formatli standart varaqda bajarilishi kerak yoki standart o'ldhamdagi oq qog'ozga yopishtirilgan bo'lishi tavsiya etiladi. Foto va rasmlarga izohlar hamda yozuvlar o'ldish uchun qulay holda joylashtirilishi zarur.

Dissertatsiyaning barcha betlari titul betidan oxirgi betgacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi bet titul varag'i hisoblanib, unga raqam qo'yilmaydi, keyingi betga "2" raqami qo'yiladi va hokazo. Tartib raqami betning yuqori tomonining o'rtasiga qo'yiladi. Talabgor tomonidan dissertatsiyaning har bir nusxasi titul varag'iga imzo chekiladi.

25. Bo'limlarning nomlanishi bosh harflar bilan yoziladi. Bo'lim ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Sarlavhalarini yozishda bo'g'in ko'chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo'yilmaydi. Sarlavha va matn orasi 3-4 interval bo'lishi tavsiya etiladi. Sarlavhani tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Dissertatsiyaning har bir bo'limi yangi betdan boshlanadi.

26. Dissertatsiya bo'limlari butun dissertatsiya bo'yicha arab raqamlari bilan belgilanib, raqamdan so'ng nuqta qo'yiladi. Kirish va xulosa qismlari raqamlanmaydi. Bo'lim ichida paragraflar arab raqamlari bilan belgilanadi. Paragraf raqami nuqta bilan ajratilgan bo'lim va paragraf raqamidan iborat bo'ladi. Paragraf raqami oxirida nuqta qo'yiladi, masalan, "2.3."

Har bir paragraf ichida bandlar arab raqamlari bilan belgilanadi. Band raqami nuqtalar bilan ajratilgan bo'lim, paragraf va band raqamidan iborat bo'ladi. Raqam oxirida nuqta qo'yiladi, masalan, "1.1.2."

27. Illyustratsiya (surat)lar ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Agar dissertatsiyani burish lozim bo'lsa, uni soat strelkasi bo'ylab burish kerak. Barcha surat (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)lar "rasm" so'zi va bo'lim bo'yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan suratlar bundan mustasno. Surat raqami bo'lim va surat raqamidan iborat bo'lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan "1.2-rasm" va izoh beruvchi yozuvdan pastga yoziladi.

28. Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Jadvalni rasmiylashtirish namunasi 4-ilovada ko'rsatilgan.

Har bir jadval sarlavhaga ega bo'lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavhaning ostiga chizilmaydi.


Matndagi manbalarga havolalarni satr osti eslatmalarida keltirish yoki manbaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" bo'yicha tartib raqamini kvadrat qavslarda ko'rsatish lozim.

Illyustratsiyalarga qilingan havolalar suratning tartib raqami bilan ko'rsatiladi, masalan, "1.2-rasm". Formulalarga qilingan havolalar formulaning qavs ichidagi tartib raqami bilan ko'rsatiladi, masalan, "(2.2) formulada". Matnda barcha jadvallarga havola berilishi kerak.

31. Har bir ilova yangi betning o'ng yuqori burchagida "Ilova" so'zi bilan boshlanadi. Agar dissertatsiyada bittadan ko'p ilova bo'lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, "1-ilova", "2-ilova" va h.

Ilovalarni alohida rasmiylashtirganda, titul varag'ida dissertatsiya mavzusining nomi ostida katta harflar bilan "ILOVALAR" so'zi yoziladi.

Tadqiqot ilmiy yangiligi bilan qiymat topadi va ilmiy yangilik sifatida quyidagi uch jihat muhim:



Dissertatsiyani rasmiylashtirishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

Dissertatsiyadagi biror-bir bobning nomi uning tarkibiga kiruvchi mavzu (paragraf) bilan mos kelib qolmasligi lozim (mavzular takrorlanishiga e'tiborli bo'lish kerak).

Boblar va paragraflarning nomi bir-birini takrorlamasligi kerak.

Dissertatsiyani amalga oshirish avvalida tuzilgan reja tadqiqot davomida o'zgartirilgan bo'lsa, dissertatsiya tarkibi va tuzilmasi rejaning eng so'nggi o'zgartirish variantiga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Dissertatsiyaning bobga doir xulosa hamda umumiy xulosa qismida dissertatsiyaning kirish qismi yoki asosiy matniga taalluqli ma'lumotlar takrorlanmasligi kerak.

Dissertatsiyaning asosiy matnida fikr bayoni umumiydan xususiya qarab rivojlantirilishi kerak – aksincha emas.

Adabiyotlarni rasmiylashtirish

1.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami

a) bir muallifning: Марчук Г.И. Ҳисоблаш математикасининг усуллари. — Новосибирск: Наука. 1983. — 196 б.

б) butun manbaga havola: Годунов С.К., Рябенский В.С. Разностные схемы (введение в теорию). Учеб. пособие для ВУЗов. — М.: Наука, 1992. — 399 б.

в) ikki muallifning: Годунов С.К., Рябенский В.С. Введение в теорию разностных схем. — М.: Физматгиз, 1982. — 168 б.

г) uch muallifning: Кошляков Н.С., Глинер Э.Б., Смирнов М.М. Математик физиканинг дифференциал тенгламалари. — М.: Физматгиз, 1962. — 67 б.

д) to'rt muallifning: Естественные составляющие метеорологических полей / Мещерская А.В., Руховец Л.В., Юдин М.И., Яковлева Н.И. — Л.: Гидрометеоздат, 1970. — 199 б.

е) mualliflar jamoasi uchun: Планирование, организация и управление транспортным строительством /А.М. Коротеев, Т.А. Беляев ва б.; А.М. Коротеев тахрири остида — М.: Транспорт, 1989. — 286 б.

1.2. Ko'p tomlik kitoblar

а) butun manbaga havola: Флетчер К. Вычислительные методы в динамике жидкостей. В 2-х т. — М.: Мир, 1991. — 504 б.

б) alohida tomning tavsifi: Седов Л.И. Механика сплошной среды. В 2-х т. — М.: Наука, 1983. Т.1. Б. 114—125.

2. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

2.1. Кузнецов Ю.И. Построение информативного базиса в задачах общей циркуляции атмосферы: Дис... канд. физ.—мат. наук. — Новосибирск: ВЦ СО РАН, 1997. — 134 б.

2.2. Фролов В.В. Теоретические проблемы правового регулирования специальных экономических зон: Автореф. дис... канд. юр. наук — М.: МГУ, 1997. — 22 б.

3. Journallardagi manbalarga havolalar

3.1. Бахвалов Н.С. К оптимизации методов решения краевых задач при наличии пограничного слоя // Ж. Вычисл. матем. и матем. физ. — 1969. — № 4 (9). — Б. 841—859.

4. Ilmiy ishlar to'plamlariga havolalar

4.1. Интеллектуальное общение с ЭВМ: Сб. науч. тр. ТашГУ. — Ташкент, 1986. — 270 б.

5. Simpozium va konferensiya ishlariga havolalar

5.1. Петров С.М. Влияние конечной скорости распространения поперечной волны на динамическое поведение высокого сооружения //IV Российская конф. по сейсмостойкому строительству: Тез. докл. — М., 2001. 55 б.

5.2. Иванов П.К. Алгоритм исследования колебаний осесимметричных сооружений с динамическими гасителями //Перспективные информационные технологии: Тез. докл. респ. науч. конф. 21-22 мая 2002. — Ташкент, 2002. 132-133 б.

Nazorat savollari

1. Dissertatsiyaning tuzilishi qanday qismlardan iborat bo'ladi?
2. Dissertatsiyalarni rasmiylashtirish talablari haqida ma'lumot bering.
3. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats)ning o'ziga xos rasmiylashtirish talablari haqida nimalar bilasiz?

4. Adabiyotlarni rasmiylashtirish talablari, sizningcha, barcha mamalakatlarda bir xil mezonlardan kelib chiqadimi?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori. "Doktorlik dissertatsiyasi va dissertatsiya avtoreferatini rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida". (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining Qarori, 23.06.2017-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2665-1)

11-mavzu. RASMIY – IDORAVIY USLUB VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Hujjatchilik va adabiy til me'yorlari.
2. Hujjat va uning turlari.
3. Hujjatlarning zaruriy qismlari.

Tayanch tushunchalar: *rasmiy-idoraviy uslubning vazifaviy ususiyatlari, hujjat turlari, hujjat matniga qo'yilgan talablar, hujjatning zaruriy ismlari – rekvizitlar.*

Hujjatchilik va adabiy til me'yorlari

Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1996-yilda chiqarilgan 267-sonli buyrug'i bilan oliy o'quv yurtlarida "O'zbek tili va adabiyoti" (nofilologik fakultetlarda), "Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik" kurslari o'tilishi yo'lga qo'yilishi bilan bu fanlardan o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratildi. Mazkur fanlar ta'lim oluvchilarda o'zbek tilining xoslangan uslublari, ish qog'ozlari yuritish va ularning tili, atamashunoslik haqida tasavvurlarni paydo qilish, hujjatlar bilan ishlash malakasi va ko'nikmasini shakllantirishni maqsad qiladi. Tabiiyki, har bir bo'lg'usi mutaxassisning sohaga doir, qolaversa, umumiy tartibda amal qiluvchi hujjatlar bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi ularning kelajakda talab qilingan yetuk mutaxassisga aylanish imkoniyatini bir necha barobarga oshiradi.

Rasmiy uslub – bu ma'muriy- huquqiy faoliyat sohalariga xizmat qiladigan uslub. Turli adabiyotlarda mazkur uslub *rasmiy ish uslubi, rasmiy ish qog'ozlari uslubi, rasmiy hujjatlar uslubi, kanselyariya uslubi, oddiy ish xizmati uslubi* nomi bilan beriladi. U davlat idoralari, sudlarda hujjatlar, ish qog'ozlari va xatlarni yozishda, shuningdek, ijtimoiy, huquqiy munosabatlar,

davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarga tegishli turli xil ish yuritishning yozma va og'zaki muloqot shakllarida qo'llaniladi.

Rasmiy uslub – zamonaviy adabiy tilning huquq, hokimiyat, boshqaruv, tijorat, ichki va davlatlararo munosabatlar sohalariga xizmat qiluvchi vazifaviy shaklidir.

Uslubning asosiy vazifalari quyidagilar:

- qarorni ifoda etish (buyruq, qaror, farmoyish, ko'rsatma);
- huquqiy munosabatlarni belgilash (shartnoma, shartnoma);

- axborot uzatish (hisobot, ma'lumotnomalar).

Kitobiy uslublar orasida rasmiy-idoraviy uslub lingvistik turg'unligi va yopiqligi bilan farq qiladi. Garchi davr bilan uning til xususiyatlari ma'lum o'zgarishga uchrasa-da, tarixiy shakllangan janrlari, maxsus leksikasi va leksik xususiyatlari, morfologiyasi, sintaktik xususiyatlari mohiyatan o'zgarmasdan qoladi.

Rasmiy-idoraviy uslubning nutqiy belgilari uning hissiylik va uni ifodalovchi hissiy-bo'yoqdor so'zlardan xolilik, aniqlik, ixchamlik, siqqlikda kuzatiladi.

So'zlashuv uslubida	Rasmiy uslubda
<p><i>Katta (boshliq, rais), xodimlaringizga nisbatan adolatli bo'ling-da! Qo'l ostimdagi odam ekan deb, vazifamdan tashqari topshiriqlarni yuklayvermang. Boshim ikkita emas – aytgan topshirig'ingiz menga to'g'ri kelmaydi. Qarindoshlaringizni, o'zingizga yaqin kishilarni ishga olishingiz – nohaqlik. Jamoadagi muhitning buzilishida yolg'iz o'zingiz aybdorsiz.</i></p>	<p><i>Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o'rnak bo'lishi; davlat organida yoxud uning tarkibiy yoki hududiy bo'linmasida ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim, u bo'ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.</i></p> <p><i>Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak. U guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko'rinishlarining, shuningdek o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olishi lozim.</i></p> <p><i>(Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari)</i></p>

Rasmiy hujjatlarda qo'llaniluvchi lisoniy birliklar deyarli turg'un va nutqiy iste'molga avvaldan tayyor bo'ladi. Bu lisoniy turg'unlik rasmiy uslubning xos vositalari – klishe va shtamlarda kuzatiladi. Ya'ni hujjat qismlarining klishe holatiga kelib qolishi kelajakda undan tayyor hujjat shakli sifatida foydalanish imkoniyatini oshiradi. Shu sababli ham hujjatlar rasmiylashtiriladi, ya'ni shakllari to'lg'aziladi – yozilmaydi. Bu o'rinda klishe va shtamp tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim.

Klishe (fr. – *cliché*) – so'z qo'llash, so'z birikmalari hamda sintaktik qurilmalarning muayyan nutqiy uslubga xoslangan shakllari, nutqiy vaziyatlarda ishlatiladigan standart namunalardir. Shtamp – tildagi ibora, maqol, matal, tasviriy ifoda qatorida turuvchi, turg'un ifoda maqomidagi birlik. Shtamp publitsistik uslubdan kelib chiqqanligi bois, gazeta tiliga xos mazmunning bo'rttirilishi evaziga nutqni sun'iy lashtiradi, siyqalashtiradi.

O'zbek tili rasmiy-idoraviy, publitsistik uslublarining shakllanishida rus tilining ta'siri o'zbek tilidagi rasmiy va publitsistik uslubga xos shtamlarda aniq seziladi.

Fanda shtampni ko'proq tasviriy ifodaga tenglashtirilgan qarashlar mavjud bo'lib, bu fikrlar bir yoqlama va ilmiy jihatdan noto'g'ri qarashlardir. Shtampning: o'z ma'noda keluvchi va ko'chma ma'noli ifoda turlari mavjud. 1. So'zlashuv, rasmiy-idoraviy uslublarda ishlatiladigan: *hurmatli rafiqam, hurmatli Falonchi Pistonchievich, muhtaram opa-singillar, hurmatli xonimlar va janoblar, hurmatli*

professor-o'qituvchilar, hurmatli jamoa, dissertant Falonchiev, ruxsatingiz bilan, ijozat bergaysiz, ma'zur tutasiz kabi murojaat shakllari, publitsistik uslubga xos: parlament oldidagi hisobdorlik, xalq roziligi, ko'tarinki ruh (kayfiyat), munosib ish sharoiti, ekoturistik maskan, ekoxavfsizlik, yot madaniyat, fuqarolik pozitsiyasi, kiber xavfsizlik, paxta-to'qimachilik klasterlari, huquqni qo'llash amaliyoti, ko'p sonli millat, manfaatli aloqalar, amaldagi qonunlar, mazkur hujjat kabi turg'unlashib ulgurayotgan birikmalar ham shtamp hisoblanadi va ularda obrazga xos tasviriy mazmun yo'q, ularni o'z ma'nosida ifoda topgan shtamplar deb hisoblash o'rinli. 2. Aksincha, *baxtimiz qomusi, kelajagimiz poydevori, taraqqiyotimiz kafolati, hududiy daxlsizligimizning ishonchli qalqoni, ustuvor g'oya, ko'lamli ishlar, chinakam ishonch, asriy ildizlar, benazir tayanch* singari birikmalar ko'chma ma'noli shtamplardir. Ko'rinadiki, o'zbek tili rasmiy-idoraviy, publitsistik uslublarining shakllanishida rus tilining ta'siri o'zbek tilidagi rasmiy va publitsistik uslubga xos shtamlarda aniq seziladi (solishtiramiz: *Yaqinda Toshkantga borg'animga so'rag'an edim, "Bosilib bitkan, matbaa haqini berib olishga Maorif kamisarliligining puli yo'q", - dedilar. Shu "puli yo'qliq" ham 2 - 3 oydan beri davom etar ekan... Bizning Maorif kamisarliligimizga ishonib bir ishga kirishishning o'zi xato. Bu dafalar bilan tajribadan o'tkan. Bu xil narsalar uchun unda pul bo'lmaydur.*

"Kolizey" tiyotriining eski pul bilan 4 trilio'n qarzini to'lashga, Yangi Toshkantning ishchilar yo'q rayonida tarixiy raqs (tansa) maktablari ochishka, uning prog'ramini kengaytirishga pul topilg'ani bilan, tubjoy xalq matbuoti va tiyotri uchun pul topilmaydur. Tajribada ko'rulgan shu achchig' haqiqatga tan berib bir jiddiy jurnal chiqarish uchun boshqa insofi borroq joylardan mablag' qidirib topsakda, shu zo'r kamchiligimizni ham bartaraf qilsak. 6 yillik bayramning katta bir mevasi, samarasi shu bo'lsa!" (Abdulhamid Cho'lpon, Katta kamchiligimiz. "Farg'ona" gazetasi, 1924 yil, 31 iyul soni) Matn soxta, sun'iy ifodalardan xoli bo'lib, bu holat dastlabki davrda o'zbekcha publitsistik bayon uslubining ancha jonli va ishonarli bo'lganini ko'rsatadi.

Nafaqat so'z birikmalari, balki *mazkur, istisno, takomillashuv, istibdod, mavqe, muvofiqlashuv, muayyan, samarador, taqozo, omil, sermashaqqat, jabha, yuksalish, yuksaltirish, jadal, bevosita, ehtiyoj, xususida, yondashuv, amaliyot, tegishli, ijobiy, iborat, ta'min, rioya, markaziy, jihat, quyidagi, maqbul, tadbir, ma'muriy, rasmiy, tarkibiy, xususiy, mas'ul, uzluksiz, mulohaza, lavozim, tuzilma, muassasa, tezkor, taalluqli, yo'naltirmoq, vakolat, ishtirok, majburiy, qat'iy, ijro, maxsus, qayd, ta'kid, ko'rsatkich, majmua* singari ayrim so'zlar ham shtamp hisoblanadi.

Ayrim adabiyotlarda *nutqiy klishe* va *nutqiy shtamp* tushunchalari ma'nodosh sifatida keltiriladi. Aslida ham klishe bilan shtamp bir-biridan keskin farq qilmaydi. Biroq shtampdan farqli, kliseni publitsistika, ish yuritish hujjatlari, ayrim vazifaviy uslublarning tegishli murakkab sintaktik qolipga kelib qolgan xos jummalari sifatida tushunish o'rinli. Masalan, idoraviy yozishmalarga oid qog'ozlar, ma'lumotnoma, tilxat, chaqiriq xati, tushuntirish xati, taklifnomalar, sud qarori va ajrimlar, shaxsni tasdiqlovchi hujjat kabilarning matni, qolaversa, ommaviy-axborot vositalari orqali

uzatiladigan hukumatga oid xabarlar matni stereotip sintaktik shakliy namuna asosida rasmiylashtiriladi.

Klishening rasmiy-idoraviy va publitsistik uslubga xos belgilari shtamplar yordamida mustahkamlanadi. Jumladan, Abdulla Qahhorning “Nutq” feletonidan quyidagi parchani olsak: — *O'rtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bit yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!.. — Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o'z hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik. Ilgarigi vaqtda faqat erkak, endilikda esa ham erkak, ham xotin boshchilik qiladigan oila masalasi o'zingizga ma'lum bo'lganligi uchun bunga keng ravishda to'xtab o'tirishni lozim ko'rmayman. — Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsiplial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o'z kuchimiz bilan, o'zaro muhokama qilish yo'li bilan bevosita bartaraf qiladigan bo'lib qoldik. Ikkinchidan, o'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik. Men bu bobda faktlarga murojaat qilib o'tirmayman, chunki ordenli onangiz o'zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar... — Xo'sh, bu yutuqlarimiz kamchiliklarimizni qoplab, bizni xotirjamlikka solishi mumkinmi? Agar biz kamchiliklarimizdan bevosita ko'z yumib, yashasinchilik kayfiyatlariga berilib ketadigan bo'lsak, xato qilgan bo'lamiz. Bizda kamchiliklar bormi? Bor, oz emas! Masalan iyul oyining birinchi yarmida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda yo'l qo'ygan jiddiy nuqsonlarimizni olaylik. Bu masalada ikkovimizning ham jinoyatkorona sovuq qarashimiz orqasida qator chirishlar, buzilishlar, ko'karishlar yuz berdimi? Fakt! Buni nima bilan oqlash mumkin? Hyech narsa bilan!.. — Ikkinchi masala, ya'ni ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasini olaylik. O'zingizga ma'lum, bizda yuqori sifatli mis choynak bor. Shu choynakning qopqog'i bugungi kunda yo'q. Bu haqda biz bir-birimizga signal berdikmi? Yo'q! Agar biz o'zi bo'larchilikka uzil-kesil barham berib qopqoq masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'ysak, agar biz shu choynakni o'z vaqtida tegishli qopqoq bilan bevosita ta'min qilsak, samovarimiz safdan chiqqan kunlarda hal qiluvchi rol o'ynar edi. Afsuski, biz bu masalaga murosasozlik ko'zi bilan qaradik. Bugungi kunda choynagimiz qopqoqqa ega emas, mutlaqo ega emas... — Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganligimizga hyech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha so'zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to'la ishonch bildirishga ijzat bering! Bu ryumkani mana shuning uchun ko'tarishdan burun o'z muhabbatimni yana bir marta amaliy suratda izhor qilgani ruxsat berishingizni talab qilaman.*

Garchi klishe hujjatlarni rasmiylashtirish va to'lg'azishda andoza vazifasini o'tab, vaqt tejalishiga yordam bersa-da, publitsistik uslubda murakkab sintaktik qurilish hamda bo'rttirilgan, ta'sirsiz, jimjima shtamplar ta'sirida sun'iy, jonsiz va hissiz “informatsion shovqin”ni hosil qilishi mumkin. Masalan, *Ma'lumki, 2009 - 2016 yillar mobaynida qishloq joylarda 69557 ta uy-joy qurildi. Tan olish kerak, bu*

qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Lekin endilikda aholining real ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlari, milliy mentaliteti va qishloqda yashash xususiyatlari to'liq hisobga olinib qurilish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, prinsipial jihatdan yangi loyihalar asosida uylar qurish g'oyasi amalga oshmoqda. E'tiborlisi, dastlabki badal miqdori keskin kamaytirilib, 2 va 3 xonali uylar uchun oldingidan 2 baravar kam, ya'ni 15 foiz, ko'p xonali uylar uchun 25 foiz darajasida belgilandi. Quruvchilarga 3 yillik imtiyozli davr va birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz miqdorida ipoteka kreditlari berilishi rejalashtirildi ("Vodiynoma", 2017 yil, 1-son).

Rasmiy-idoraviy uslub – turli janrdagi xalqaro shartnomalar, davlat dasturlari, huquqiy hujjatlar, qarorlar, nizom, yo'riqnomalar, rasmiy yozishmalar, ish hujjatlari va b. uslubidir. Janrovii rang-barangligiga qaramasdan, rasmiy-idoraviy uslubga tegishli matnlar quyidagi umumiy va asosiy belgilarga ega:

- bayonning asosan yozma shakli;
- standartga bo'ysundirilganlik: rasmiy uslubga mansub har bir janr matni o'zining alohida model, shablon, qolipiga ega;
- matn hajmining qat'iy chegaralanganligi (nutqiy birlik va vositalar miqdori, ularning birikish usullari aniq chegaraga ega). Matnda qo'llanilgan har bir lug'aviy birlikning aniq vazifasi bo'lib, fikrni noto'g'ri talqin qilishga sabab tug'dirmasligi kerak;

- sodda va jiddiy, rasmiy bayon tarzi. Ma'juziy ma'noga ega, ekspressiv-bo'yoqdor so'zlardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi;

- informativ katta sig'im: kichik jumalalarda katta hajmli axborotni uzatishga intilish;

- bayon matnida shaxssizlik mazmuni. Rasmiy-idoraviy uslub qog'ozlari obyektiv xarakterga ega, shuning uchun istalgan hujjat matnida muallifning o'zi bildirayotgan fikrga ishora beruvchi modal – kirish so'zlar (*bilasizmi, taxminimcha, afsuski, nailoj, nahotki, dar voqe* kabilar)ning ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu belgilar rasmiy uslub matnining leksik, morfologik, sintaktik birlik va vositalarini saralash hamda ish qog'ozlarini rasmiylashtirishda o'z isbotini topadi.

Xususan, rasmiy uslubning morfologik belgilariga gapning tegishli bo'laklarini takror qo'llash xos:

Ot turkumida – kishilarni ularning faoliyat belgilari bilan atash evaziga hosil bo'lgan shaxs otlar: *da'vogar, kreditor, ijarachi, buyurtmachi* va b.

Kishining lavozimi, turli maqomdagi darajasini bildiruvchi so'zlar bilan kelgan otlar: *taqrizchi Tohir Sultonov, dissertant Bahodir Qosimov*.

Bundan tashqari rasmiy uslubdagi matnda quyidagi morfologik belgilar faolligi kuzatiladi:

1) Fe'lining bo'lishsizlik hamda infinitiv (noaniq) shakllari: *rioya etmaslik, amal qilmaslik, bo'ysunmaslik; javobgarlikka tortish, rad etish, qanoatlantirish* va b.

2) Hozirgi-kelasi zamon fe'lining 3-shaxs birlik shakli: mas., *Xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishda yuzaga keladigan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi*.

3) Majhul nisbatdagi fe'ning buyruq-istak mayli shakli: *ajratilsin, yetkazilsin, ta'minlansin, tushirilsin* va b.

4) Nisbiy sifatlarning asliy sifatlarga nisbatan faolligi: *xususiy, moddiy, aqliy, jismoniy, ruhiy, tarkibiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, manfaatli, samarali* va b.

5) Matnda raqam bilan berilgan son so'z turkumiga oid so'zlar.

6) Kishilik olmoshlari.

Rasmiy uslubga aloqador sintaktik belgilar esa quyidagilardir:

1) Asosan uyushiq bo'lakli sodda gaplarning faolligi: *Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha "vakolatlar reestri"ni shakllantirish.*

2) Gapdagi ayrim bo'laklarga urg'u berish maqsadida jumlani inversiya tartibida tuzish: *Davlat boji da'vo arizasi (ariza), shikoyat sudga berilgunga qadar to'lanadi, agar qonunda boshqacha belgilanmagan bo'lsa (masalan, to'lovchi davlat bojini to'lashdan ozod qilingan yoki sud davlat boji to'lashni kechiktirgan bo'lsa); berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdakim...*

Rasmiy-idoraviy uslub matni aniq strukturaga ega bo'lib, unga umumiy mazmunga izchillik va ketma-ketlik asosida birikuvchi jumalarning alohida bandlar, satr boshidan berilishi xos.

Rasmiy uslubga tegishli har bir hujjat turi sarlavha bilan belgilanadi (qonun, qaror, farmon, ma'lumotnoma, tavsifnoma, hisobot, dalolatnoma va b.). Matndagi ma'lumotlarning tegishli havolalar bilan tasdiqlanadi.

Hujjat va uning turlari

Yozuvning ixtiro qilinishi insoniyat tarixida hujjatchilikning rivojiga yo'l ochgan. Miloddan avvalgi davrga tegishli shoh Ur-Namun qonunlari, Bobil shohi Hammurapi qonunlar majmui, turk hoqonligining "Qonunnoma"si, Xondamirning "Qonuni Humoyun"i, Ro'zbexonning "Podshohlarga yo'l-yo'riq" asari, Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" dunyo hujjatchiligining eng nodir namunalari hisoblanadi.

Hujjat – moddiy tashuvchiga jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan huquq va majburiyatlarni tasdiqlash yoxud ish yurituviga oid faoliyat yuzasidan joylangan axborot. Hujjat shakli unga muhrangan axborotning turiga qarab yozma (qo'lyozma yoki bosma), grafik (chizma, rasm, xarita, sxemalar), foto va kinohujjat, audioyozuvli va elektron hujjat turlariga bo'linadi.

Boshqaruv tizimiga aloqadorligiga ko'ra hujjatlar: kiruvchi, chiquvchi va ichki turlarga bo'linadi.

Cheklanganligiga nisbatan hujjatlar: mahfiy, ichki xizmatda foydalanishga mo'ljallangan hamda oddiy hujjat turlariga ajratiladi. Mahfiy hujjatlar maxsus yozuv yoki grif bilan tamg'alanadi.

Asliyligiga ko'ra hujjatlar: 1) hujjatning asl (muallif, mas'ul shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan, tasdiqlovchi grifi mavjud, qayd etilgan raqami, yili, sanasi, joyi ko'rsatilgan) nusxasi; 2) nusxa va 3) dublikat (hujjat asl nusxasining takroriy, yuridiy kuchga ega bo'lgan nusxasi) kabi turlarga bo'linadi. Hujjatning nusxasi va dublikati o'zicha hyech qanday yuridik kuchga ega bo'lmaydi, negaki ular asl hujjatda mavjud

axborotning nusxalangan shaklidir. Bunda hujjat nusxasi va dublikati tegishli tartibda (masalan, devonxona, korxonaning xodimlar bilan ishlash bo'limi, notarial idoralar va b. tomonidan) tasdiqlanmasa, huquqiy maqomga ega bo'lmaydi.

Boshqaruv tizimida hujjatlarning yozma (qo'lyozma va bosma ko'rinishli), elektron turlaridan foydalaniladi.

Hujjat quyidagi vazifani bajaradi:

- 1) informativ (axborot saqlash);
- 2) kommunikativ (shaxslararo munosabat);
- 3) ijtimoiy (ijtimoiy masalalar yechimiga xizmat qiladi);
- 4) huquqiy (huquq va burchlarni o'rnatadi, tasdiqlaydi).

Hujjatning qo'llanish sohasiga qarab: tashkiliy hujjatlar; farmoyish hujjatlari; ma'lumot-axborot hujjatlari; moliyaviy-hisobot hujjatlari, kadrlarga tegishli hujjatlar, tijorat masalalariga oid hujjatlar va xizmat yozishmalari farqlanadi.

Hujjatlar mazmuniga ko'ra ikki turli bo'ladi: 1) sodda hujjatlar (muayyan bir masalani o'z ichiga oladi); 2) murakkab hujjatlar (ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi).

Ijro etish muddatiga ko'ra hujjatlar: 1) shoshilinch; 2) shoshilinch bo'lmagan turlarga bo'linadi.

Rasmiylashtirish tartibi, bayon matnining xususiyatiga ko'ra hujjatlar xususiy, namunaviy va qolipli hujjat turlariga bo'linadi.

Namunaviy hujjatlar boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog'liq, bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladi. Qolipli hujjatlar, odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya'ni o'zgarmas (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va o'zgaruvchi (hujjatni tuzish paytida yoziladigan) axborotlar.

Qolipli hujjatlar sirasiga ish haqi yoki joyi haqidagi ma'lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari, to'lov kvitansiyalari va boshqa ko'plab hujjatlarni kiritish mumkin. Tegishlilik jihatiga ko'ra hujjatlar tashqi va ichki yozishmalardan iborat bo'ladi.

Rasmiy-idoraviy munosabat turiga ko'ra hujjatlar: 1) huquqiy, 2) qonunchilik, 3) ma'muriy, 4) siyosiy hujjat shakllariga bo'linadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjat deb normativ hujjatlar to'g'risidagi Qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytiladi.

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardir:
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
3. O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
7. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
8. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan hujjatlari me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi hamda farmon va qaror shaklida qabul qilinadi. Jamiyat hayotining alohida sohalarini isloh qilish yoki davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, davlat organlarini tashkil etish yoki tugatishga qaratilgan muhim hujjatlari farmon, boshqa hujjatlari qaror shaklida qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha hujjatlari farmoyish shaklida qabul qilinadi. Normativ-huquqiy bo'lmagan hujjatlar (kadr, fuqarolik, afv etish, siyosiy boshpana berish, davlat mukofotlari bilan taqdirlash hamda harbiy va maxsus unvonlarni berish, individual xarakterdagi masalalar va hokazo) ham Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari shaklida qabul qilinishi mumkin. Farmoyishda bevosita ijrochilarga ko'rsatma beriladi. Farmoyishda operatsiyalar amalga oshirilgani haqidagi fakt ko'rsatilmaydi va hisob-kitob yozuvlari uchun asos bo'lmaydi.

Farmon — 1) muayyan mamlakatlarda davlat boshligi (Prezident) chiqaradigan muhim huquqiy hujjat. Farmon mazkur davlat konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasligi kerak. O'zbekiston Respublikasida Prezident Farmonlari Oliy Majlis yoki Vazirlar Mahkamasi roziligisiz mustaqil tarzda Prezident tomonidan qabul qilinadi. Farmon mazmun va mohiyatiga ko'ra, konstitutsiyaviy normalarni ijtimoiy hayotga tatbiq qilishning vositasi sifatida namoyon bo'lib, yuridik kuchi nuqtai nazaridan konstitutsiya va qonun normalariga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi.

Ish yurituviga oid hujjatlarning asosini boshqaruvga tegishli hujjatlar tashkil qiladi. Ularga:

tashkiliy-huquqiy hujjatlar;

- istiqbol rejalar, harakat dasturlari;
- farmoyishlar;
- ma'lumot-axborot va tahlil-ma'lumot hujjatlari;
- hisobotlar;
- mutaxassis xodimlar bilan ta'minlanganlik to'g'risidagi hujjatlar;
- moliyaviy hujjatlar;
- moddiy-texnik ta'minotga doir hujjatlar;
- yuridik shaxsning asosiy faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar va shartnoma,

kelishuvlar kiradi.

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalaridan iborat yuridik shaxslarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv

jarayonining borishida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi.

Tashkiliy hujjatlar tarkibiga nizomlar, yo'riqnomalar, majlis bayonlari, shartnomalar kiradi.

Yo'riqnoma. Qonunlar yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat bo'lib, muassasa, mansabdor shaxs va xodimlarning tashkiliy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqa maxsus faoliyat tomonlari xususida tartib-qoida o'rnatish maqsadida davlat boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Yo'riqnomaning asosiy zaruriy qismlari: 1. Eng yuqorida tasdiqlash ustxati. 2. Hujjatning sarlavhasi, nomi (Yo'riqnoma). 3. Matn (kirish qismi, bo'limlari, kichik bo'limlari va h.k.). 4. Yo'riqnoma tuzuvchining lavozimi, ismi, otasmi va familiyasi, uning imzosi. 5. Yo'riqnoma tuzilgan vaqt (sanasi) va tartib raqami, shartli raqami (indeksi).

Nizom. Muassasa yoki uning tarkibiy bo'linmalari tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishini tashkil qilishning tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. Ko'pincha nizom muassasalar shakllanishi va tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyoishi bilan (yoki tegishli hokimiyat tomonidan) tasdiqlanadi. Nizom turli tadbirlar(tanlov, musobaqa, ko'rik kabilar)ni o'tkazishni tartibga solish maqsadida ham tuziladi. Bunda muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Yuridik shaxsning nizomi yuridik shaxsning nomi, rekvizitlari, yuridik shaxs faoliyat boshqaruvining tartibi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarda yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy asoslariga oid belgilab qo'yilgan ma'lumotlarni aks ettirishi kerak.

Notijorat tashkilotlar, tijorat tashkilotlari, unitar korxonalarining nizomida yuridik shaxs faoliyatining predmeti va maqsadi aniq ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Nizomning asosiy zaruriy qismlari: 1. Vazifalari nizom bilan belgilanayotgan muassasa (tarkibiy qism) nomi. 2. Hujjat turining nomi (Nizom). 3. Mazmuni (matni): muassasa tuzilishining maqsad va asoslari; asosiy vazifalari; muassasa tuzilishi, huquqi, ishini tashkil qilish tartiboti. 4. Muassasa rahbari imzosi. 5. Sana va joyi. 6. Tasdiqlash ustxati (yuqori qismida o'ng burchakda joylashadi).

Shartnoma. Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi. Shartnoma davlat, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, fuqarolar o'rtasida tuziladi. Bu shartnomalar har bir korxonalar mansabdor shaxslarining o'z korxonalarini yoki tashkilotlarining manfaatlarini asosida tuziladi.

Shartnoma davlat yoki nodavlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, fuqarolar o'rtasida yozma yoki og'zaki shaklda tuzilishi mumkin. Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o'rtasida o'rnatilayotgan bo'lsa, bunda tuzilajak hujjat aksar hollarda *mehnat bitimi* deb ataladi. Shartnomaning mazmuni va shakli qonunda belgilangan talablarga mos bo'lishi kerak. Qoidaga muvofiq tuzilmagan shartnoma qonuniy hisoblanmaydi va

uni tuzgan yoki tuzishga yo'l qo'yan mansabdor shaxslarga qonunda ko'rsatilgan tartibda javobgarlik yuklatiladi.

Oddiy shartnomalarning zaruriy qismlari quyidagilar: 1. Shartnomaning nomi (mahsulot yetkazib berish shartnomasi, imoratni ijaraga olish shartnomasi, pudrat shartnomasi kabi). 2. Shartnoma tuzilgan sana. 3. Shartnoma tuzilgan joy. 4. Shartnoma tuzayotgan tomonlarning aniq va to'liq nomi (matnning keyingi o'rinlarida ularni shartli ravishda "buyurtmachi", "muassasa", "bajaruvchi", "ijrochi", "director", "xodim" kabi nomlash mumkin.); tomonlar vakillarining ismi va ota ismlari, familiyalari, ularning vakolat doirasi (ularga shartnoma tuzish huquqini beruvchi vakolatlar haqida). 5. Shartnoma matni (bu qism ba'zan boblarga bo'linadi, har bir bob rim raqamlari bilan belgilanadi. Boblar bandlerga bo'linib, ularning tartib raqamlari arab raqamlari bilan ko'rsatiladi. Xuddi shu yerda nizolarni ko'rib chiqish tartibi, shartnomaning umumiy summasi, uning umumiy amal qilish muddati ham bayon qilinadi). 6. Tomonlarning huquqiy manzillari. 7. Tomonlarning imzolari va muhrlari.

Mehnat bitimi. Mazkur hujjat shartnomaning bir turi bo'lib, muayyan muassasa yoki tashkilotda kerakli mutaxassis bo'lmagan va bajarilishi zarur bo'lgan ishlar biron-bir sababga ko'ra tegishli muassasa va korxonalar bilan shartnoma asosida bajarib bo'lmaydigan hollardagina tuziladi. Ayrim hollarda korxonada turuvchi xodimlar bilan ham mehnat bitimi tuziladi (mas., xodimni ish vaqtidan tashqarida korxonada mehnat faoliyatiga: farroshlik, qorovullik, bog'bonlik va b. jalb qilish). Bunda xodimlar bevosita o'z asosiy vazifalari doirasiga kirmaydigan ishni bajarish majburiyatini oladilar. Mehnat bitimi asosida haq to'lash korxonaning hisobdan tashqari (shtatsiz) xodimlar uchun tasdiqlangan ish haqi fondi hisobidan amalga oshiriladi.

Mehnat bitimi kamida ikki nusxada tuziladi. Bir nusxasi bajaruvchi(lar)ga beriladi, ikkinchisi esa tegishli korxonaning hisob bo'limi yoki boshqa tarkibiy bo'linma hujjatlar yig'majildida saqlanadi. Mehnat bitimi quyidagi zaruriy qismlarni o'z ichiga oladi: 1. Hujjat nomi (Mehnat bitimi). 2. Tuzilgan sanasi va joyi. 3. Mehnat bitimi tuzayotgan tomonlarning to'la va aniq nomi, uni imzolovchi shaxslarning lavozimi, to'liq ismi, ota ismi va familiyasi. 4. Shartnoma mazmuni (unda bajaruvchi va buyurtmachining majburiyatlari sanab ko'rsatiladi). 5. Ishni bajarish muddati va bajaruvchiga to'lanadigan ish haqining umumiy miqdori. 6. Ish sifatiga qo'yiladigan talablar va uni qabul qilib olish tartibi. 7. Bajaruvchiga haq to'lash muddati va tartibi. 8. Tomonlarning huquqiy manzillari. 9. Tomonlarning imzolari. 10. Muassasa (korxonada) muhri.

Farmoyish — boshqaruvga doir huquqiy hujjat; konstitutsiyaviy huquqda davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan vakolatlari doirasida chiqariladi. Ijro etuvchi hokimiyat organining tez hal qilinishi kerak bo'lgan va boshqa joriy masalalarga oid qarori farmoyish shaklida chiqariladi. Bundan tashqari, muassasa rahbarining yakka o'zi tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlar ham farmoyish hisoblanadi.

Farmoyish mansabdor shaxslarning muayyan aniq doirasiga mo'ljallanib, uning amal qilish va bajarilish muddati belgilangan bo'ladi. Farmoyish muassasa

ma'muriyati, shuningdek, bo'limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan kabul kilinadi. Tashkilotda kilinadigan ishlar yoki korxonada ishlab chikarishini yaxshilash maqsadida ayrim mansabdor shaxslarga tegishli buladi. Turli farmoyishlar chiqarish, uning bajarilish imkoniyatlarini hisobga olish va yuklatilishi kerak bo'lgan shaxsni tanlab olish, tashkilot rahbarlarining mahoratiga bog'liq. Muassasa ma'muriyati (direktor, uning o'rinbosarlari, bosh muhandis, uning o'rinbosarlari), shuningdek, bo'limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjat. Odatda, farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib, uning kuchi bo'limlarning tor doirasiga, ayrim mansabdor shaxslar va fuqorolarga taalluqli bo'Madi. Farmoyish matni xuddi buyruqdagi kabi zaruriy qismlardan tarkib topadi, faqat uning asos (kirish) qismida "BUYURAMAN" so'zi o'miga "TAVSIYA QILAMAN", "RUXSAT BERAMAN" kabi iboralar ishlatiladi.

Farmoyish hujjatlari guruhiga buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabilar kiradi.

Farmoyish hujjatlari asosan tashkilot rahbarining buyruq, ko'rsatma, farmoyishlari asosida yuzaga keladi. Farmoyish hujjatlarida vazirlik, idora, tashkilot faoliyatiga oid ma'muriy va tashkiliy masalalarning yechilishi belgilab beriladi. Bunday hujjatlar tashkilot faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi, boshqaruv organiga uning oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradi.

Farmoyish hujjatlari boshqaruv tizimi bo'yicha yuqoridan quyiga: boshqaruvchi organdan boshqariladigan organga, tashkilot rahbaridan tarkibiy tuzilmalar va xodimlarga yo'llanadigan qarorlarni o'z ichiga oladi. Buyruq – muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llanadigan hujjat bo'lib, muassasa rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi muovin tomonidan imzolanadi. Buyruqlarning ikki turi mavjud: asosiy faoliyatga oid va shaxsiy tarkibga oid buyruqlar. Asosiy faoliyatga oid buyruqlar ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda qo'llanadi. Ularda, odatda, yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatmaviy hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, ularning ijrosi yuzasidan aniq tadbir-choralar belgilanadi, mas'ul shaxslar va bajarish muddati tayinlanadi.

Buyruq. Buyruq – tashkilotning (uning tarkibiy bo'linmasining) yakkaboshchilik asosida ish yuritadigan rahbari tomonidan mazkur organ oldida turgan asosiy va tezkor vazifalarni hal qilish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat.

Buyruqlar asosiy faoliyatga oid va kadrlar shaxsiy tarkibiga oid ikki turga bo'linadi. Asosiy faoliyatga oid buyruqlar tashkilot qayta tashkil etilganda, tugatilganda, uning tuzilmasi va shtati tasdiqlanganda va o'zgartirilganda, hujjatlarni (nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar, reglamentlar va boshqalarni) tasdiqlash va (yoki) amalga kiritish maqsadida, moliyalashtirish, moddiy-texnik ta'minlash, xodimlarni rag'batlantirish, ichki mehnat tartibi qoidalari, ilmiy-texnikaviy siyosat, axborot va hujjatli ta'minot, ijtimoiy siyosat va boshqa masalalarni tartibga solish zarurati tug'ilganda chiqariladi. Bunday buyruqlar umumiy tarzda bo'lib, muayyan bir shaxsga emas, balki butun jamoaga qaratiladi.

Buyruq loyihasi bosh mutaxassislar, huquq maslahatchisi, bosh hisobchi bilan kelishilgan holda tuziladi. Buyruq matni muassasa blankasida yozilib, asoslovchi (kirish) va farmoyish qismlardan tashkil topadi. Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoit ko'rsatiladi, asos qilingan buyruqqa (hujjatga) havola qilinadi. Asoslashga ehtiyoj bo'lmagan hollarda to'g'ridan-to'g'ri buyruqning farmoyish qismi beriladi. Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan "BUYURAMAN:" so'zini bosh harflar bilan ikki nuqta qo'yib yozishdan boshlanadi. Shundan so'ng farmoyish yoziladi. Agar farmoyish bir nechta bo'lsa, bandlarga ajratilib, arabcha raqamlar bilan belgilanadi. Farmoyishlarda biror vazifani kim, qanday va qachon bajarishi majhul nisbatdagi fe'lning buyruq (III shaxs, birlik) shakli bilan ifodalanadi (tayinlansin, belgilansin, o'tkazilsin, qabul qilinsin kabi). Farmoyish oxirida buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilganini qayd etiladi. Ba'zan farmoyishdan so'ng buyruqqa asos bo'lgan hujjat nomi ilova qilib ko'rsatiladi.

Ko'rsatma – idoralarda axborot-metodik tusdagi masalalar, shuningdek, buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat. Ko'rsatmalarga birinchi rahbar, ularning o'rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega. Ko'rsatma muassasaning xos ish qog'oziga bosiladi. U ham buyruq kabi odatda, sarlavha bilan yoziladi, asos (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi.

Ma'lumot shaklidagi axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil etadi, bunday hujjatlarning ishi yuritish jarayonidagi ishtiroki ham juda faol. Hujjatlarda tilning ikki vazifasi — xabar berish va buyurish vazifalari amalga oshadi. Hujjatlar matni birinchi shaxc yoki uchinchi shaxc tilidan yoziladi. Yakka rahbar nomidan yoziladigan farmoyish hujjatlari (buyruk, farmoyish, ko'rsatma kabilar), ayrim shaxs tomonidan yozilgan hujjatlar (ariza, tushuntirish xati kabi) birinchi shaxc tilidan bo'ladi.

Ma'lumot-axborot hujjatlari muayyan qarorlarni qabul qilishga undaydigan ma'lumotlarni yetkazadi. Ma'lumot-axborot hujjatlari idoraviy hujjatlarning katta guruhini tashkil qiladi. Ularning xususiyati shundaki, hujjatlar boshqaruv tizimida quyidan yuqoriga: xodimdan bo'lim rahbariga, bo'lim rahbaridan muassasa rahbariga, quyi tashkilotdan yuqori tashkilotga qarab harakatlanadi. Ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnoma, bildirgi, dalolatnoma, e'lon, faksogramma, hisobot, ishonchnoma, ma'lumotnoma, taklifnoma, tarjimai hol, tavsifnoma, tavsiyanoma, tushuntirish xati ba boshqalar kiradi.

Dalolatnoma. Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq, biron-bir bo'lgan voqea, hisobot, ish-harakatii yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat bo'lib, tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlar yoki xodimlar almashayotganda, moddiy boyliklarni bir shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, ko'rib bitkazilgan bino va inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatbaho buyumlarni hisobdan o'tkazishda yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olish yoki ularning idishlarini qayta tortib ko'rishda, baxtsiz hisobotlar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda tuziladi.

Ariza muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjatdir. Hajmi, uslubi va turidan qat'iy nazar, ariza o'zining umumiy zaruriy qismlariga ega. Arizaning zaruriy qismlari barcha arizalarda ham birday takrorlanavermaydi. Masalan, xodim o'zi ishlayotgan korxonaga yoki idora rahbariyatiga ariza yozganda, uning yashash joyi haqidagi ma'lumot zarur bo'lmaydi. Bunday hollarda xodim o'zi ishlaydigan bo'lim va lavozimini ko'rsatsa, kifoya. Shuningdek, ko'pchilik arizalar uchun ilovalaming ham hojati bo'lmaydi. Bundan qat'iy nazar har qanday arizada quyidagi zaruriy qismlar ifodalanishi lozim:

- ariza yo'llanadigan muassasa nomi yoki rahbarning vazifasi, unvoni, ismi, olii ismi va familiyasi;
- ariza yozuvchining turar joyi yoki vazifasi, ismi, otasi ismi va familiyasi;
- hujjat nomi (Ariza);
- ariza matni (iltimos, taklif yoki shikoyat);
- zarur bo'lgan holatda ilova qilinadigan hujjatlar nomi;
- qog'ozning chap tomonida ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy);
- qog'ozning o'ng tomonida ariza yozuvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi.

Tilxat. Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat *tilxat* deyiladi. Tilxat bir nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi. Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart. Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyliги shubha ostiga olinishi mumkin. Ba'zan tilxatda guvohlar ismi-sharifi ham ko'rsatiladi. Bunday hollarda guvohlar o'z imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak.

Tavsifnoma. Ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat tavsifnoma deyiladi. Tavsifnoma muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda va boshqa hollarda) beriladi. Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatleri ham ko'rsatib o'tiladi. Tavsifnomaning birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni mutaxassisligi, aynan shu korxonaga, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi. Ikkinchi qismida xodimning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, hulq-atvori, hatto ba'zida siyrati, jamoa a'zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo'lganligi va boshqa asosiy rag'batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo'lish uchun kamchiligi ham ko'rsatilib, istak bildiriladi. Uchinchi qismida esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tomonidan bayon qilinadi. Tavsiyiy matnlarda shaxs, narsa, voqea-hodisaning muhim belgilari aniq ma'lumotlar, sifatlovchi ifodalar orqali bayon qilinadi. Tavsiflashda shaxs yoki narsa-voqeani xolisona baholash bilan birga unga munosabat bildirish ham muhim hisoblanadi. Bunday matnlar tilida xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar, belgining ortiqlik darajasini ifodalovchi leksik-grammatik vositalar, yasama sifatlar faol ishlatiladi.

Tavsiyanoma – biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat. U ma'muriyat yoki alohida shaxs tomonidan berilishi mumkin. Tavsiyanoma matnida tavsiya qilinayotgan shaxsning xususiyatlari – mutaxassis sifatidagi malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyatiga baho beriladi, u tavsiya etilayotgan lavozim yoki tashkilotga a'zo bo'lishga munosib ekanligi yuzasidan ishonch bildiriladi. Tavsiyanoma ba'zi xususiyatlariga ko'ra tavsifnomaga o'xshaydi, shu sababli ulaming ko'pchiligi tavsifiy tavsiiyanoma shaklida bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, tavsifnomalarda shaxsning barcha ijobiy, salbiy xususiyatlari qayd qilinadi. Tavsiyanomalarda esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

Tarjimayi hol – ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Tarjimayi holning asosiy zaruriy qismlari: 1. Hujjatning nomi (Tarjimayi hoi) 2. Matn: a) muallif familiyasi, ismi va otasining ismi; b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi; c) millati, ijtimoiy kelib chiqishi; d) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (famiIiyasi, ismi va otasining ismi va ish jo yi); 33 e) ma'lumoti (qayerda, qanday o'quv yurtini tugatganligi va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi); f) ish faoliyatining turlari; g) oxirgi ish joyi va lavozimi; j) mukofot va rag'batlantirishlar; z) jamoat ishlarida ishtiroki; i) oilaviy ahvoli va oila a'zolari; k) pasport ma'lumotlari; l) turar joyi (uy adresi), telefoni. 3. Sana. 4. Imzo. Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologik) asosida, aniq sanala bilan (iloji boricha yili, oyi, kimi ko'rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi.

Ma'lumotnoma – bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish, tasdiqlash, axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat. Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikkiga: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi. Xizmat ma'lumotnomasi – muassasa faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axborot xususiyatiga ega bo'lgan xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat, xodim (shtat)lar soni, topshiriqlaming bajarilishi, moddiy-tovar boyliklarining saqlanishi, mehnat intizomining ahvoli haqida va boshqa xilma-xil masalalar to'g'risida hozirlanadi. Bunday ma'lumotlarga matn mazmunini ochuvchi sarlavha qo'yiladi. Masalan: "Kontrakt to'lov asosida tahsil olayotgan talabalar soni haqida" kabi. Sarlavhadan so'ng (ba'zan uning tarkibida) xabarga oid sana ko'rsatiladi. Masalan: "2009- yil 1-oktabrdagi holatga ko'ra" kabi.

Shaxsiy ma'lumotnoma – muassasalar tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi aksar voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir. Shaxsiy ma'lumotnomalar quyidagi maqsadlarda beriladi:

- muassasa xodimga uning qayerda, kim bo'lib va qancha maosh olib ishlashi (o'quvchi va talabaga esa qayerda o'qishi) haqida;
- fuqarolik holatlari hujjatlarini qayd qilish (FHHQ - ZAGS);
- notarial idoralari hamda fuqarolar yig'inlari raislari shaxsning tug'ilganligi yoki vafot etganligi to'g'risida nikoh bo'lganligi yoki ajralganligi haqida (hujjatlar yo'qolganda);
- tuman va shahar ijtimoiy ta'minot bo'limi shaxsning nogironligi, nafaqasining miqdori, avtomobilga ega emasligi haqida;
- shifoxonalar kishining sog'lig'i (kasal emasligi) haqida;
- ilmiy tadqiqotchilik, ixtirochilik natijalaridan tegishli turdagi loyihalar, o'quv-ilmiy adabiyotlarda foydalanganlik, tadqiqot natijalarining o'quv-ilmiy amaliyotga joriy qilinganligi haqida;
- mahalla qo'mita yig'inlari yoki uy-joy boshqarmalari shaxsning yashash joyi, egallab turgan uy-joyining maydoni yoki oila a'zolarining soni haqida ma'lumotnomalar beradi. Xizmat ma'lumotnomalaridan farqli ravishda shaxsiy ma'lumotnomalarda ular yo'llangan idora yoki shaxs nomi ko'rsatilmaydi. Buning o'rniga matn so'ngida ma'lumotnomaning qayerga berilganligi yoziladi. Masalan: "... boshqarmasiga taqdim etish uchun berildi" kabi. Asosiy matnda shaxs haqida barcha ma'lumotlar aniq nisbatdagi hozirgi-kelasi zamon fe'l shakli orqali ifodaianishi lozim (*ishlaydi, yashaydi, o'qiydi* kabi).

Bildirgi – muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot.

Bildirishnoma – muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot. Unda, odatda, bayon qilinayotgan masalalar bo'yicha tuzuvchi(yozuvchi)ning takliflari aks etadi. Kimga yo'llanganiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi. Ichki bildirishnoma rahbar shaxs yoki bo'lim mudiri nomiga yoziladi. Bunday bildirishnomalar muallif tomonidan imzolanadi. Tashqi bildirishnoma, ya'ni rahbar tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda xos ish qog'oziga ikki nusxada yoziladi. Hujjatning ikkinchi nusxasi muassasaning o'zida qoldiriladi. Bunday bildirishnoma rahbar tomonidan imzolanadi. Bildirishnoma tayyorlayotgan shaxsning xulosa va takliflari aniq, ravshan va ishonarli bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham bildirishnomalarda chiqarilgan xulosalarni tasdiqlovchi, voqea-hodisalarga, qonunchilik ko'rsatmalariga, tegishli hujjatlarning raqam va sanasiga hamda bayon etilgan masalani bevosita muassasa misolida o'rganish yoki sinab ko'rish natijasida olingan boshqa dalillarga havolalar qilinishi zarur. Bildirishnoma matni asosan ikki

qismdan iborat. Birinchi qismda uning yozilishiga sabab bo'lgan dalillar, voqealar bayon qilinishi, ikkinchi qismida esa xulosalar va aniq ish harakatlar haqidagi takliflar aks etmog'i zarur. Bildirishnomalarni tayyorlashda faqat biror voqea, holat to'g'risida xabar berish bilan cheklanish yetarli emas, ularning sabablari tahlil qilinishi, xulosa chiqarilishi, takliflar berilishi ham lozim.

Tushuntirish xati asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan, ba'zan bo'linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o'qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi hatti-harakatlar (masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqlarni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasini qo'llash yoki, dalillar asosli (uzrli) bo'lsa, qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tashi mumkin. Tushuntirish xati xodim (talaba)ning o'z dastxati bilan yozilib, yozuvchi shaxs nomi qaratqich kelishigida (masalan: N. Sobirovning tushuntirish xati) rasmiylashtiriladi. Matn mazmuni aniq va ixcham tuziladi, sana va dalillar aniq ko'rsatiladi, yetarlicha izohlanadi, qo'shimcha asoslov hujjatlari ilovada beriladi.

Bayonnoma – turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda bayon qiluvchi rasmiy hujjat. Bayonnoma oldindan tayinlangan kotiblar tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan bildirilgan barcha fikr-mulohazalar, tanqid va takliflar bayonnomada yoritilishi lozim. Bu axborotlarning aniqligi, to'liqligi uchun ma'sul hisoblangan majlis raisi va kotibi bayonnoma oxiriga imzo qo'yadilar. Bayonnomalarni qisqa, to'liq, stenografik, fonografik shakllarda bo'ladi. Qisqa bayonnomada yig'ilishning kun tartibi, ma'ruzachi va muzokaralarda qatnashuvchilarning ismi, familiyasi hamda qabul qilingan qarorlar ko'rsatiladi. To'liq bayonnomada esa majlisda so'zga chiqqanlarning barcha fikr-mulohazalari to'liq berilishi lozim. Bayonnoma kirish va uch asosiy qismdan tuziladi. Kirish qismida yig'ilish o'tkazilgan tashkilot nomi, bayonnoma sanasi, tartib raqami, yig'ilish joyi, rais va kotibning ismi, familiyasi, qatnashuvchilar ro'yxati va soni (15 kishidan oshmasa, ismi va familiyasi, lavozimi, ish joyi ko'rsatiladi) keltiriladi. So'ngra KUN TARTIBI bosh harflar bilan yozilib, ikki nuqta qo'yiladi va ko'riladigan masalalar tartib raqami bilan beriladi. Asosiy matndagi uch qism: ESHITILDI, SO'ZGA CHIQQILAR, QAROR QILINDI so'zlari ham katta harflar bilan yozilgach, ikki nuqta qo'yiladi va yangi satrdan ma'ruzachining ismi-familiyasi yoziladi. Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko'chirmada bo'lganidek, bayonnomadani ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi. Bayonnomaning matni qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan bo'laklarga olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo'lsa, kerakli masala bo'yicha qabul qilingan qaror olinadi.

Dalolatnoma – muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash,

unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzishda asosiy maqsad sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarning yangi misxallarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatdor buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi. Dalolatnoma matnining sarlavhasi "...haqida" shaklida yoki bosh kelishikda ("...-ish ahvoli") yoziladi. Asosiy matn esa kirish va tasdiq (qayd) qismlaridan iborat bo'lishi lozim. Kirish qismida hujjat tuzilishiga asos bo'lgan holat ko'rsatiladi, komissiya tarkibi to'liq yoziladi. Tasdiq qismida komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar qayd etiladi, aniqlangan holatlar yuzasidan taklif va xulosalar beriladi. Matn so'ngida dalolatnomaning necha nusxada (odatda uch nusxa) layyorlangani ko'rsatilishi lozim.

Hisobot – muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat. Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak. Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi: nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday yetishmovchiiklar bo'ldi, ulami bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu borada takliflar qayd etiladi.

Tavsifnoma – ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislati va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat. Unda shaxsning mehnat faoliyati qisqa bayon qilinib, jamoat ishlarida ishtiroki, mehnat jamoasidagi o'rni, lavozim vazifalarini ado etish sifati, tashkilotchilik qobiliyati, axloqiy sifatlari va boshqa jihatlari ko'rsatib o'tiladi.

Ishonchnoma. Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat ishonchnoma hisoblanadi. Muayyan ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomondan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar rasmiy (xizmat) va shaxsiy turlarga bo'linadi. Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xo'jaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozimli shaxsga uning muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak. Rasmiy ishonchnomalarda ularning amal qilish (o'z kuchini saqlash) muddati, albatta, ko'rsatilgan bo'ladi. Ular bir necha kundan bir necha yilgacha bo'lgan (lekin uch yildan ortiq bo'lmagan) muddat uchun berilishi mumkin. Agar ishonchnomada uning amal qilish muddati aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday hollarda u berilgan kundan boshlab bir yil davomida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Xizmat yozishmalari muassasa faoliyatiga oid turli masalalar bilan bog'liq bo'lgan talab, iltimos, taklif, kafolat mazmunida amalga oshiriladi. Ularga telefonogrammalar, faksogrammalar, taklifnomalar, xatlar, diplomatik yozishmalar, tijorat yozishmalari kiradi. Xizmat yozishmalarining eng ko'p tarqalgan turi xatlardir. Xatlar idoralar va muassasalar, tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi o'zaro faol aloqa vositasi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning qulay usuli sifatida xizmat qiladi. Shu ma'noda ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin bo'ladi:

1. Shaxsiy-xususiy xatlar.

2. Rasmiy xatlar.

Xatlar vazirlik, idora, tashkilot va muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ular vositasida turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushintirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Bu hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi.

Bajaradigan vazifasiga qarab xizmat xatlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1) javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo xat, so'rov xat, iltimos xat);

2) javob xatni talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat, farmoyish xat, taklif xat va boshqalar).

Xizmat xatlari ma'lum bir maqsadda yoziladi. Shuningdek, mazmunida bir necha (kafolat berish, iltimos, eslatish) ma'no ifodalanadigan xatlar ham bo'ladi. Xizmat xatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ularning nomi (kafolat xati, ilova xat, so'rov xat va boshqalar) yozilmaydi, xatning qandayligi matn mazmunida aks etishi zarur.

Barcha xizmat xatlari rasmiy yozishma bo'lgani uchun maxsus bosma ish qog'ozlariga yoziladi. Oddiy qog'ozga yozilgan taqdirda chap tomonining yuqori burchagiga muassasa nomi ko'rsatilgan to'rtburchak muhr qo'yilishi lozim. Xizmat xatlari ikki nusxada yoziladi va imzolanaadi. Lavozimi aniq ko'rsatilgan rahbar tomonidan imzolangan xatning birinchi nusxasi jo'natilib, ikkinchisi muassasada qoladi. Xizmat xatlari mantiqan izchil uch qismdan iborat bo'ladi. Kirish qismida tegishli muassasaga murojaat qilishga asos bo'lgan sabab ko'rsatiladi. Ikkinchi qismda xatda ko'tarilgan masalani hai etish kerakligi dalil asosida bayon qilinadi. Xulosa qismida xat yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad aytiladi. Rasmiy xat matnini yozishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- xat qisqa bo'lishi, qoidaga ko'ra bir betdan oshmasligi kerak;

- fikrlar aniq va ravshan ifodalanishi shart.

Rasmiy xatlarda bayon qilingan fikr mantiqiy izchillikda ifodalanishi, yetarli dalillar bilan asoslanishi va xulosalanishi lozim. Zarur holatlarda o'rinli taklif yoki e'tiroz bildirilishi mumkin. Ammo mutasaddi rahbarga nisbatan hurmat saqlanishi, murojaat odobiga amal qilinishi zarur. Taklif va e'tirozlar "bizningcha", "shartnomaga ko'ra", "biroq", "shu bilan bir qatorda", "deb o'ylaymiz" kabi so'z va so'z birikmalari orqali ifodalanadi.

Xizmat safari guvohnomasi xodim zimmasiga vaqtda yuklatilgan xizmat vazifasini bajarishga vakolat beradi. Uning zaruriy qismlari: 1. Hujjat nomi (Xizmat safari guvohnomasi.) 2. Guvohnoma berilgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining

ismi. 3. Guvohnoma beruvchi tashkilotning nomi. 4. Boriladigan joylar (shahar yoki boshqa aholi manzillari) va tashkilotlar nomlari. 5. Xizmat safari muddati (necha kunligi ko'rsatiladi, dam olish kunlari, borish va kelish kunlari ham shu muddatga kiritiladi). 6. Xizmat safariga asos bo'lgan buyruq yoki farmoyish tartib raqami, sanasi. 7. Guvohnomaning orqa tomonida xizmat safarida bo'lgan joylar (shahar va muassasa nomlari) va u yerdan jo'nab ketilgan vaqtlar qaydi (muhr va imzo bilan tasdiqlanadi).

Hujjat matnini tuzishda quyidagilarga amal qilish muhim:

— hujjat jo'natilayotgan (yozilayotgan) tashkilot nomini, mansabdor shaxs ismi, otasining ismi va familiyasini rasmiy nomlanishlariga to'la muvofiq holda yozish;

— hujjat matni sarlavhasini bosh harflar bilan yozish (bunda xizmat yozishmalari (aloqa xatlari) dan o'zga turdagi hychek bir hujjat sarlavhasiz rasmiylashtirilmaydi); masalan: BILDIRISH;

— hujjat turiga ko'ra uning zaruriy qismlarini belgilangan tartibga muvofiq joylashtirish, tartibi, harflar hajmini to'g'ri belgilash;

— gap qurilishida so'zlar tartibiga qat'iy rioya qilish; matnda ko'chma ma'noli so'z va iboralarni, qochiriq yoki kinoyaga ishora qiluvchi birikmalarni, mavhum ma'noli so'zlarni qo'llamaslik;

— murakkab tuzilishdagi jumalardan, ritorik va his-hayajon mazmunidagi gaplardan foydalanmaslik;

— norasmiy va asoslanmagan ma'lumot yoki dalillarni kiritmaslik;

— muayyan andozaga solingan, qoliplangan, soha termini sifatida qabul qilingan birikmalarni qo'llash;

— qabul qilinmagan qisqartma va belgilarni qo'llamaslik;

— so'zlar va gaplarda imlo me'yorlariga amal qilish, tinish belgilarni o'z o'miga to'g'ri qo'yish;

— matnning yozilish sanasini, imzolovchi shaxs lavozimi va ismi-familiyasini aniq ko'rsatish. Masalan: 2004-yilning 18-oktabri, "Hashar" shirkati raisi Said Olimov kabi.

Ariza, tarjimayi hol kompyuterda yozilmay, faqat qo'l bilan yoziladi. Dalolatnoma, bayonnoma, hisobot kabi hujjatlar kompyuterda terilishi mumkin. Ish qog'ozlarida biror shaxsga murojaat etilganda "Siz" olmoshi (shuningdek, uning turlangan shakllari – *Sizga*, *Sizning*, *Sizdan* va sh.k) bosh harf bilan yoziladi. Son, odatda, raqam bilan yoziladi. Pul hujjatlari (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat) da raqamdan so'ng qavs ichida shu raqamning so'zdagi ifodasi ko'rsatiladi. Arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlardan so'ng qo'shimcha yozilmay, uning o'miga defis (-) qo'yiladi: 3-chorak, 4-kurs. Rim raqamidan so'ng hech qanday qo'shimcha yozilmaydi: I chorak, II kurs. Turli belgi va son ifodalari bir xil shaklda yoziladi. Shaxsiy hujjatlarda izohlanayotgan "Men" so'zidan va izoh so'z birikmasidan so'ng vergul qo'yiladi. Masalan: *Men, Mahmud Qodirov,...* Hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin nuqta qo'yilmaydi. Vergul hujjat matnida qoliplangan kirish birikmalaridan so'ng, uyushiq va ajratilgan bo'laklar orasida, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasida qo'llanadi. Nuqtali vergul izohlanayotgan voqea-hodisa,

narsalarning tartib raqami qavs bilan ajratilgan soʻz, birikma va gaplardan soʻng qismlari mazmunan farqlanuvchi qoʻshma gaplar tarkibida ishlatiladi. Masalan: Talabning majburiyatlari: 1) oʻquv yurti Nizomiga amal qilish; 2) dars va boshqa oʻquv mashgʻulotlarida faol qatnashish va boshqalar. Ikki nuqta hujjatlar matnida quyidagi holatlarda qoʻyiladi: — matn tarkibida izohlanayotgan, sanalayotgan boʻlaklardan oldingi umumlashtiruvchi “quyidagilar”, “shu haqda” kabi soʻzlaridan oldin; farmoyish hujjatlarida “Buyuraman” soʻzidan, bayonnomaning “Kun tartibi”, “Eshitildi”, “Soʻzga chiqdilar”, “Qaror qilindi” kabi zaruriy qismlaridan soʻng; — matnning “Asos”, “Ilova” kabi qismlaridan keyin. Qavs hujjat matnining biror boʻlagiga qoʻshimcha izoh berish zarur boʻlganda qoʻllanadi. Bunda izohlovchi soʻz, manzil nomi, mablagʻ yoki miqdoriy koʻrsatkichni ifodalovchi raqam qavs ichida berilishi lozim. Masalan: 8500 (sakkiz ming beshyuz) soʻmlik. Tire quyidagi holatlarda qoʻyiladi: — izohlanmish bilan izohlovchi oʻrtasida.

Yozma xildagi hujjatlar AZ (297x420 mm), A4 (210x420 mm), A5 (148x210 mm), A6 (105x148 mm) oʻlchamli qogʻozda rasmiylashtiriladi.

Hujjatlardagi zaruriy qismlar (rekvizitlar) va ularni rasmiylashtirish

Hujjatning zaruriy qismlari (turi, muallif, adresat, matn, sana, imzo, rezolyusiya, rozilik grifi, tasdiq va b.) hujjat rekvizitidir va u hujjatning turidan qatʼiy nazar, huquqiy maqomini belgilovchi asosiy belgisi hisoblanadi. Hujjatlarining turiga qarab rekvizitlar soni qatʼiy chegaralanadi.

Tashkiliy-farmoyish hujjatlari zaruriy qismlarining toʻliq roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining gerbi.
2. Tashkilot yoki korxonaning ramziy belgisi (logotipi).
3. Mukofot tasviri.
4. Vazirlik yoki yuqori idoraning nomi.
5. Muassasa, tashkilot yoki korxonaning nomi.
6. Tarkibiy tarmoqning nomi.
7. Aloqa muassasasining shartli raqami (indeksi), tashkilot yoki korxonaning manzili, telefon raqami, faks raqami, bankdagi hisobraqami.
8. Matn sarlavhasi.
9. Sana.
10. Shartli raqam.
11. Keladigan hujjatlarning sanasi va shartli raqamiga havola.
12. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
13. Hujjatni oluvchi (adresat).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (rezolyusiya).
16. Hujjat turining nomi.
17. Nazorat haqida qayd.
18. Matn.
19. Ilovalar haqidagi qayd.
20. Imzo.
21. Kelishuv ustxati.
22. Rozilik belgisi (viza).
23. Muhr.

24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.

25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.

26. Hujjatning bajarilganligi va uni hujjatlar yig'majildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd.

27. Kompyuterga ko'chirilganligi haqidagi qayd.

28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd.

Mazkur rekvizitlarning hamma hujjatlarda bo'lishi talab qilinmaydi. Biroq quyidagi qismlar barcha turdagi hujjatlarning asosiy zaruriy qismlari sanaladi:

- hujjatning sarlavhasi;
- hujjatning mazmuni;
- hujjatning rasmiylashtirish qismi;
- hujjatning rekvizitlari;
- hujjatning namunaviy shakli (qolipi).

Hujjat (matn) sarlavhasi. Barcha hujjatlarda ularning turi va mazmunini aks ettiruvchi qisqa, aniq sarlavha bo'lishi kerak (xizmat yozishmalari, aloqa xatlari bundan mustasno).

Sana. Imzo chekilish sanasi, tasdiqlash sanasi, rozilik sanasi, shuningdek, matn ichidagi sanalar arab raqamlari bilan beriladi. Masalan: 2022.25.01; 2022.21.12. Moliyaviy ma'lumotlardan iborat bo'lgan hujjatlar matnida sana ko'rsatilganda, so'z bilan ifodalangan sana qo'yiladi. Masalan: 2022 yil 7 sentyabr; 2022 yil 20 dekabr.

Shartli raqam ("Indeks") qaydlov raqami bo'lib, har bir kelayotgan yoki chiqayotgan hujjat rasmiy indekslash tizimiga muvofiq ro'yxatga olinganda qo'yiladi.

Keladigan hujjatlarning sanasi va shartli raqamiga havola. Bu rekvizit faqat yuborilayotgan javob xatlarida bo'ladi; "sana" va "shartli raqam"dan pastga qo'yiladi.

Hujjatni oluvchi zaruriy qismi hujjatning o'ng burchagi yuqorisiga qo'yiladi. Hujjat tashkilot, uning tarkibiy bo'linmasiga yoki aniq mansabdor shaxsga yo'naltirilganda tashkilot nomi, tarkibiy bo'linma va mansabdor shaxs lavozimi bosh kelishikda, familiyasi esa jo'nalish kelishigida ko'rsatiladi. Agar hujjat bir turdagi bir necha tashkilotlarga jo'natilayotgan bo'lsa, ularni umumlashtirgan holda ko'rsatish lozim. "Oluvchilar" rekviziti to'rttadan oshmasligi kerak. "Nusxa" so'zi ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi oluvchilar oldida ko'rsatilmaydi. Hujjatni to'rttadan ko'p manzilga jo'natganda, tarqatish (yuborish) ro'yxati tuziladi va har qaysi hujjatda faqat bitta oluvchi ko'rsatiladi. Hujjatni xususiy shaxsga jo'natayotganda, avval pochta manzili, keyin ismi va otasining ismi (bosh harflari), familiyasi yoziladi.

Nazorat haqida qayd faqat ijrosi nazorat ostiga olingan hujjatlarga qo'yiladi. Ushbu qayd rangli qalam yoki maxsus shtamp bilan "N" harfi yoki "nazorat" so'zi orqali ifodalanadi. Ushbu belgi hujjatning chap chekkasiga, "Matn sarlavhasi" qismi qarshisiga qo'yiladi.

Matn. Hujjat matni lo'nda, ixcham iboralar bilan, zarur hollarda, jadval shaklida, rasmiy uslubga xos qoliplashgan (klishe)langan) qurilmalar asosida bayon etiladi. Agar matn bir nechta masalalarga tegishli qaror, xulosalardan iborat bo'lsa, ular arab raqamlari bilan alohida bandlarga ajratilib, satr boshi (abzats)dan berilishi lozim.

Ilova haqidagi qayd. Agar hujjat mazmunidagi ma'lumotni dalillash zarur bo'lsa, u holda tegishli isbotlovchi hujjatlar asosiy hujjatga ilova qilib keltiriladi. Ilovada qayd etilayotgan hujjatlarning hajmi, nusxasi ko'rsatilishi lozim.

Imzo rekviziti tarkibiga hujjatni imzolayotgan shaxsning amaldagi lavozimi nomi, uning shaxsiy imzosi va imzoning yoyilmasi (ismi, otasining ismi bosh harflari va familiyasi) kiradi. Qarorlar va bayonnomalar kollegial organing rahbari va kotibi tomonidan imzolanaadi. Yakkaboshchilik tartibi asosida qabul qilinadigan farmoyishlarda bitta imzo bo'ladi. Hujjatlar (dalolatnomalar, moliya hujjatlari va sh.k.) mazmuni uchun bir necha shaxslar javobgar bo'lgan taqdirda, ikki yoki undan ortiq imzolar qo'yiladi. Komissiya tomonidan tayyorlangan hujjatlarda uni tayyorlagan shaxslar lavozimi emas, balki komissiya tarkibidagi vazifalari ko'rsatiladi.

Kelishuv ustxati. Kelishish hujjat loyihasini dastlabki ko'rib chiqish va baholash usulidir. Kelishish tashkilot ichida ham (turli tarkibiy bo'linmalar va mansabdor shaxslar bilan), uning tashqarisida ham (hujjat loyihasidagi masalalarga o'z vakolatlariga muvofiq bevosita munosabati bo'lgan bo'ysunuvchi va bo'ysunmaydigan tashkilotlar bilan) amalga oshirilishi mumkin. Hujjat loyihasini ichki kelishish imzolovchining shaxsiy imzosi va imzolash sanasini o'z ichiga olgan viza bilan rasmiylashtiriladi. Hujjat kollegial organ bilan kelishilishi lozim bo'lgan hollarda "kelishuv ustxati"da hujjat nomi bosh kelishikda ko'rsatilib, sana va tartib raqami qo'yiladi.

Rozilik belgisi (viza) hujjatning ichki kelishuvini ifodalaydi. "Rozilik belgisi", ya'ni "viza"da shaxsiy imzo, uning yoyilmasi, sanasi, zarur holatlarda – rozilik bildirayotgan shaxsning lavozimi qo'yiladi. Rozilik belgisini qo'yuvchi shaxslarda hujjat matni yuzasidan e'tiroz bo'lgan taqdirda, bu rekvizitga "Rozi emasman", "E'tirozim bor", "7-bandiga qo'shilmayman", "Mulohazalar ilova qilindi" kabi iboralar qo'shilishi mumkin. Tegishli hujjat bilan tanishtirish ham "rozilik belgisi" bilan rasmiylashtiriladi. Rozilik yoki tanishish belgisi "imzo" rekviziti ostiga qo'yiladi.

Muhr. Muhim hujjatlar (pul mablag'lari va moddiy boyliklarning sarflanishini qayd qiluvchi mansabdor shaxslar, shuningdek, huquqiy hujjatlar – ishonchnomalar, shartnomalar, buyurtmanomalar, kafolat xatlari va boshqalarda nazarda tutilgan javobgar shaxslar imzolari) haqiqiylikini tasdiqlash uchun muhr qo'yiladi. Muhr gerbli (davlat gerbi tasviri tushirilgan) va oddiy bo'ladi. Tijorat tuzilmalarida oddiy yumaloq muhrdan foydalaniladi. Muhr bosilganda, uning izi hujjatni imzolovchi shaxs lavozimi nomining bir qismini qoplab turishi kerak.

Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd – hujjatning ikkinchi yoki keyingi boshqa nusxalarini tasdiqlash belgisidir. Hujjat nusxasining birinchi varag'iga "nusxa" belgisi qo'yiladi. Tashkilot faqat o'zida tayyorlangan hujjatlardan nusxa berishi mumkin (bu qoida arxiv muassasalari va notariusga nisbatan qo'llanmaydi). Hujjat nusxasi tashkilot rahbari yoki tarkibiy bo'linma rahbari ruxsati bilan beriladi. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd "Imzo" rekvizitining ostiga qo'yilib, "Asliga to'g'ri" deb yozilgan tasdiqlovchi so'z, tasdiqlovchi shaxsning lavozimi nomi, shaxsiy imzosi, uning ismi va otasi ismi bosh harflari familiyasi, nusxa tasdiqlangan

sanadan iborat bo'ladi (qator tashkilotlarda nusxaning to'g'riligini tasdiqlovchi maxsus muhr ishlatiladi).

Ijrochining familiyasi va telefon raqami. Har bir hujjatda uning ijrochisi (tuzuvchisi)ning familiyasi va uning xizmat telefoni raqami hujjat oxirgi varag'ining old tomoniga yoki joy bo'lmaganda, orqa tomonning pastki chap burchagiga qo'yiladi.

Hujjatning bajarilganligi va uni hujjatlar yig'majildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd. Bunday belgi hisobdan chiqarilib, hujjatlar yig'majildida saqlash va ma'lumotnoma maqsadida foydalanishga taalluqli hujjatlarga, ijrosi bajarilganligi qayd etilgan holda qo'yiladi. Hujjat bajarilganligi va yig'majildga yo'naltirilganligi haqidagi qayd hujjatning oxirgi varag'i old sahifasining chap quyi burchagiga qo'yiladi.

Hujjat kelib tushganligi haqidagi qayd. Bunday rekvizit kelgan hujjatlarga maxsus qaydlov shtampi (to'rtburchak muhr) orqali yoki qo'l bilan yozib qayd etiladi. Qaydlov shtampida hujjat oluvchi tashkilot nomi, sana va qaydlov ko'rsatkichi uchun joy ajratilgan bo'ladi. Bunday belgi hujjatning birinchi varag'i old tomonining o'ngdagi quyi burchagidan joy oladi.

Nazorat uchun savollar

1. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Rasmiy uslubning qanday ko'rinishlari bor?
3. Rasmiy uslubning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun ayrim hujjatlarning sintaktik qurilishi murakkab bo'ladi?
5. Diplomatik hujjatlar qaysilar va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Rasmiy hujjatlar qaysi zaruriy qismlar (rekvizitlar)dan iborat bo'lishi shart?

Adabiyotlar

1. Давлат тилида иш юритиш: амалий қўлланма / М.Аминов ва бошқ. – Тошкент: О'zbekiston nashriyoti, 2020. – 528 б.
2. Мирзаев И., Болтаев М. Давлат тилида иш юритиш малакаси ва саводхонлик муаммолари / Ўзбек филологияси масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, 2011.
3. Tuxtaboev A. T. Ma'muriy menejment. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
4. Suyarova A. O'zbek tilida ish yuritish. – Namangan, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 9-son, 94-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 52-son, 583-modda; 2014-y., 50-son, 588-modda; 2015 y., 32-son, 425-modda; 2016-y., 39-son, 457-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son, 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son).

12-mavzu. NUTQ VA ADABIY ME'YOR

Reja:

1. Kasbiy nutq.
2. Mutaxassis nutqining ilmiyligi, to'g'riligi, mantiqiyliigi, sofligi.
3. Nutqiy kompetentlik.

Tayanch tushunchalar: *nutqda adabiy til me'yorlarining voqelanishi, kasbiy nutqqa qo'yiladigan talablar, mutaxassis nutqining ilmiyligi, to'g'riligi, mantiqiyliigi, sofligi, nutqiy kompetensiya tushunchasi.*

Kasbiy nutq

Turli manbalarda: *ilmiy uslub, ilmiy-texnik uslub, texnika tili, ishlab chiqarish tili, kasbiy til, professional nutq, professional leksika, kasbiy soha leksikasi, maxsus leksika, texnolekt, ishlab chiqarish uslubi* sifatida qayd etiluvchi maxsus til (MMT)ga e'tibor XX asrning o'rtalarida nihoyat darajada o'sdi. So'nggi yillarda esa tilni lingvomadaniy, pragmatik, lingvokognitiv jihatdan tadqiq etish o'zbek tilida ham professional nutqning o'rganilishi bilan bog'liq izlanishlarni jonlantirdi (Mas., A.Omonturdiyevning chorvadorlar nutqiga bag'ishlangan "Professional nutq evfemikasi" nomli monografik ishi shular jumlasidan).

Kasbiy til soha vakillarining o'zaro samarali muloqoti va axborot almashinuviga xizmat qiluvchi, adabiy tilning maxsus ko'rinishidir.

Bugungi kunga qadar (XX asr o'rtalaridan boshlab) kasbiy tilning aniq chegarasi, tavsifi, lisoniy maqomi, ichki tizim xususiyatlari, mundarijasi, vazifaviy uslublari, zamonaviy tilshunoslikda tutgan o'rni belgilangan emas. Shunga qaramay, maxsus nutqning leksikasi (asosan, terminologiyasi) adabiy til lug'at qatlamida uslubiy bo'yog'dorlik, qo'llanilishda chegaralanganlik xususiyatiga ko'ra alohida o'rin tutadi.

K.Ya.Averbuxning fikricha, turli tizimli tillarda sohaviy til "*Fachsprachen*" (nemis tilida), "*Languages for special (specific) purposes*" (ingliz tilida), "*France medicale*" (fransuzcha: tibbiy soha uchun), "*France chemie*" (kimyo sohasi uchun) terminlari bilan ajratiladi. N.B.Gvishiani tilning bu toifadagi ixtisoslashuvini maxsus maqsadlarga xizmat qiluvchi til ("language for specific purposes") deb atashni taklif qiladi.

Fanda maxsus maqsadlarga xizmat qiluvchi tilni ingliz tilining o'ziga xos kategorial-tushunchaviy xususiyatga ega, vazifaviy xoslangan alohida ko'rinishi deb tushunish holatlari ham kuzatiladi. Garchi fanda 300 dan ortiq soha tili qayd qilingan bo'lsa-da, biroq keyingi davrlarda ushbu til ko'rinishini ingliz tilining xalqaro muloqot muammolarini ifoda etuvchi alohida varianti va vazifaviy shakli deb bilish ommalashdi. Bu holat, o'z-o'zidan, lingvodidaktikada ham "maxsus til" degan tushunchani paydo qildi. Oqibatda lingvodidaktikaning tilni maxsus maqsadlarda o'rganishga qaratilgan usul va vositalarini ifodalovchi yangi talqini yuzaga keldi. Mazkur yondashuv fanda tilni maqsadli o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni yuzaga chiqardi.

Aytilganlarga qaramay, *kasbiy til* va *maxsus til* tushunchalarini bir-biridan farqlamoq lozim. Zero, adabiy tilning ma'lum faoliyatga xoslangan vazifaviy uslublari ham aslida maxsus til hisoblanadi va bugungi kunda uning: ishlab chiqarish uslubi, texnik uslub, badiiy uslub, publitsistik uslub, diniy uslub, yuridik (regulyativ) uslub, ilmiy uslub va ma'muriy uslub turlari ajratilmoqda. Vaholanki, tilshunolar nazarda tutayotgan maxsus tilni birlamchi professional-kasbiy nutq deb tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XX asrdagi ilmiy-statistik kuzatuvlarga muvofiq, AQSh iqtisodiyotining global ta'siri, mamlakatlarga yangi texnologiyalarning olib kiritilishi va joriy qilinishi (bu texnologiyalarning ingliz tilida yaratilishi) oqibatida ingliz tilining xalqaro miqyosdagi qator ilmiy anjumanlar rasmiy tili bo'lib kelayotganligi LSP (*Language for special* (specific) *purposes*) terminining faol qo'llanilishini keltirib chiqardi.

Maxsus maqsadlarga xizmat qiluvchi til masalalariga bag'ishlangan simpozium ilk marta 1977-yilda Venada o'tkazilgan edi.

Turli tizimli tillar kesimida ilmiy-texnik ma'lumotlarning almashinuvi, o'z navbatida, turli soha vakillari orasida terminologik birliklarning transpozitsiyasini keltirib chiqaradi. Binobarin, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotning turli sohalar uchun maqsadli qo'llaniluvchi maxsus til umummilliy tilning vazifaviy ko'rinishlaridan biri sifatida sohalarda kasbiy bilimlar doirasida birlashgan odamlar uchun kommunikativ vosita vazifasini o'taydi. Hatto axborot almashinuvi uchun yagona milliy til tanlanganida ham (masalan, XX asrda o'zbek ilm-fani rus tili ta'sirida rivojlantirilgani singari) vaziyat o'z murakkabligini hamisha saqlaydi.

Ma'lumki, tilning maxsus maqsadlarga xizmat qiluvchi zamonaviy shaklining rivoji turli tillar leksikasining o'zaro ta'sirlashish, ta'sir ko'rsatish maqsadi bilan belgilanadi.

Soha tillari ("texnolekt", "maxsus tillar")ni tadqiq etish ilmiy sohalarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Bu vaziyatda kasbiy til umummilliy tilga nisbatan zid munosabatda tekshiriladi. Soha tili lekiskasi umummilliy til lug'at tarkibining negizida shakllanadi, shunga qaramay, har bir soha tili o'zigagina tegishli terminologik apparatga egaligini e'tiborda tutish lozim. Qolaversa, terminologiyaning rivojida ham aynan sohaviy terminlarning alohida ahamiyatini nazardan qochirmaslik kerak.

Har bir soha tilining o'z og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, ularda adabiy tilning ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarishga doir birliklarni jamlovchi tag qatlamlarning biri namoyan bo'ladi.

Maxsus til matnlarining quyidagi sathlari ajratilgan: 1) fundamental fanlar tili; 2) eksperimental va texnik fanlar tili; 3) amaliy fanlar tili; 4) moddiy ishlab chiqarish tili.

Lingvofalsafiy va lingvomantiqiy jihatdan turli soha vakillari o'rtasidagi muloqot tildan nafaqat axborot almashinish, balki yangi bilim hosil qilish vositasi hamdir (bu vaziyatda muloqotdan yagona maqsad – yangi ma'lumotga ega bo'lishdan iborat). Vaholanki, sohadan tashqari kundalik muloqot jarayonida tildan foydalanish maqsadlarning umumiyligi qonuniyati ostida sodir bo'ladi.

Kasbiy nutq – muayyan sohada mehnat qiluvchi kishilar oʻrtasidagi kasbiy jihatdan chegaralangan, muloqot samaradorligiga xizmat qiluvchi tabiiy va tabiiy-sunʼiy nutqiy birlik va vositalar, mavzuviy-janroviiy xoslangan matnlar majmuyi.

Maxsus tilning vazifaviy xususiyatlari quyidagicha belgilanadi:

– kommunikativ vazifa;

– kognitiv vazifa (yangi bilim hosil qilish, mavjudlarini takomillashtirish, rivojlantirish);

– kumulyativ vazifa (axborot yigʻish, toʻplash).

Kasbiy muloqot uchun soha terminologiyasining ahamiyati ulkan. Ilmiy bilimlarning rivoji, inson aqliy faoliyatining mahsuli sifatida terminologiya muayyan sohaning asosiy tushunchaviy apparatini tashkil qiladi.

S.V.Grinyov fanda sohaga oid terminologik tizim birliklarining termin, nomen, prototermin, terminoid, predtermin, kvazitermin, professionalizm, kasbiy jargonizm, termin-giperonim, termin-giponim, umumfan terminlari, soha terminlari toifalariga boʻlinishini aniqlagan. Biroq kasbiy nutq leksikasini faqat terminlardan iborat boʻladi, deb xulosa qilib boʻlmaydi. Mazkur sohaviy lugʻat tarkibiga yana: umumisteʼmol soʻzlari, atoqli otlar, neologizmlar (yangi paydo boʻlgan soʻzlar), tarixiy soʻzlar, alifboda qayd etilmagan unsurlar, maxsus lugʻatning nosubstantiv leksikasi va hokazolar mansub qilish mumkin. Aynan sohaviy terminlar maxsus nutqni tilning umummilliy shaklidan farqlab turishini inobatga olsak, demak, kasbiy terminologiyaning soha vakillari uchun tushunarli, sohaga oid umumiy tushuncha va tajribaviy xulosalarni umumiy mavzuda birlashtiruvchi hamda millat intellektual darajasini belgilovchi yaxlit tizim ekani ayonlashadi.

Aytilganlarga muvofiq, kasbiy nutqni: 1) vazifaviy belgisiga (umumfan, fanlararo, tizimlararo terminologiya) va 2) maxsus xoslangan belgisi (faoliyat sohasi, faoliyat shakli, faoliyat subyekti, faoliyat obyekt, faoliyat vositalari, faoliyat mahsulotlari)ga koʻra, shuningdek, verbal (maxsus lugʻat va iboralar, sintaktik qurilmalar) hamda noverbal (maxsus belgilar, elementlar) shakllariga asosan kundalik nutq yoxud adabiy tilning vazifaviy uslublaridan farqlash mumkin boʻladi.

Mutaxassis nutqining ilmiyligi, toʻgʻriligi, mantiqiyliqi, softligi

Toʻgʻri, jozibador va chiroyli nutq har doim muvaffaqiyat kaliti hisoblangan. Bugun, raqobatning qiyin davrida yosh mutaxassislar, universitet bitiruvchilari kasbiy bilimlaridan tashqari voqelikka nisbatan mustaqil fikri, oʻz nuqtayi nazarini isbotlash qobiliyatiga ega boʻlishi kerak.

Rivojlanayotgan global iqtisod talablaridan kelib chiqib, bugungi kun kasb egalari nutqiga quyidagi talablar qoʻyiladi:

Mutaxassisning yozma va ogʻzaki nutqi toʻgʻri boʻlishi lozim. Nutqning toʻgʻriligi – adabiy til meʼyorlariga (*imloviy, grammatik, lugʻaviy, semantik uslubiy, leksik-semantik, talaffuz (orfoepik), yozuv (orfoqrafik), fonetik, aksentologik (urgʻuni toʻgʻri qoʻyish), grammatik (morfologik, sintaktik), soʻz yasash, uslubiy, punktuatsion meʼyorlar*)ga amal qilish demakdir.

Mutaxassis nutqi aniq boʻlishi kerak. Mutaxassis oʻz sohasining terminologiyasini puxta oʻzlashtirgan, maxsus soʻzlarning aniq maʼnosi va oʻzga

lug'aviy birliklar bilan aloqadorligi, qo'llanish o'rni va qoidalarini yetarlicha o'zlashtirgan bo'lishi shart.

Mutaxassis nutqi mantiqiy bo'lishi lozim. U birlamchi va ikkilamchi ahamiyatga ega masalalarni ajrata olish layoqatiga ega bo'lishi kerak. O'z nuqtayi nazarini qat'iy himoya qilish, mulohazalarini o'rinni va teran, izchil ketma-ketlikda bayon eta olish, xulosalarini aniq taqdim etish hamda isbot va dalillarni to'g'ri keltira olish qobiliyatiga ega bo'lishi talab qilinadi.

Mutaxassis nutqi aniq, ravon va tushunarli bo'lishi lozim. Aniqlik va tushunarlik fikrni mantiqan to'g'ri shakllantirish va nutqni tinglovchiga nisbatan to'g'ri yo'naltirishga bog'liq. Nutq maqsadi (adresat – tinglovchiga uning manfaatlari, imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'sir ko'rsatish) hamda vaziyatidan kelib chiqqan holda, mutaxassis o'z nutqini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirishi kerak.

Mutaxassis nutqi sof, toza bo'lishi lozim. Bunda nutqning mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, grammatik shakllar, shevaga xos talaffuz tarzi, shevaga xos urg'u, o'zbek tilida muqobili bo'la turib o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari, jargonlar, vulgarizmlar, nutqda zaruratsiz takrorlanadigan "parazit" so'zlar (*ya'ni, demak, o'sha, tak, ma'lumki, bilamizki, bilasizmi, qarang* singarilar), kancelyarizmlar (rasmiiy nutq ifoda shakllari, birliklari)dan holi bo'lgan nutqni sof, toza va madaniy nutq deb ataymiz.

Mutaxassis nutqi estetik talablarga javob bermog'i lozim. Uning o'z nutqida kasbiga oid ma'nodosh (sinonim) so'zlardan, epitet va metaforik ifodalardan foydalanishi nutqning jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq mutaxassis bulardan fikr mazmunini to'liq ifodalay oluvchi eng maqbul shakllari, vosita va birliklarini to'g'ri tanlashi kerak. Bu tilni yaxshi bilish, uning tasviriy vositalarining voqelanish imkoniyatlarini to'liq o'zlashtirish ko'nikma va malakasi bilan bog'liqdir. Bunday bilim kamdan-kam hollarda til fanining yordamisiz erishiladi. Shuning uchun maktabda ham, universitetlarda ham til ta'limiga, lisoniy ongni rivojlantirishga alohida ahamiyat berish lozim.

Belgilangan talablarga amal qiluvchi mutaxassis, pirovardida, bir yoki bir necha suhbatdoshlari bilan yuzma-yuz, yozishma yoxud mobil qurilmalar orqali amalga oshiriluvchi monolog, dialoglarda muloqot yuritish madaniyati va layoqatiga ega bo'lib boradi. Albatta, mutaxassisning faqat nutqiy madaniyati emas, balki kasbiy, ma'naviy sifatleri ham uning sohadagi istiqbolini belgilashini unutmashlik kerak. Birinchi shart – tafakkurning mustaqilligi, nutq muallifi ongining faolligi.

Soha nutqi o'zining qoidalashtirilgan, hissiy bo'yoqdorlikdan holi turg'un jumllariga ega bo'lib, mutaxassis ulardan maqsadga muvofiq to'g'ri foydalana bilishi lozim. Masalan, kasbiy doiradagi tanishuv jarayoni "*ruxsatingiz bilan...*", "*ruxsat bersangiz, o'zimni tanishtirsam*", "*ruxsatingiz bilan sizni ... bilan tanishtirsam*", "*tanishganimdan xursandman*" singari ifodalardan iborat "nutqiy marosim" bo'lib, tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilar va boshqa o'zga soha vakillarida etalon ifodalar sanaladi va qisman soha xodimlarining professional qiyofalarini belgilaydi. Ammo samimiyatni sevuvchi o'zbek mentaliteti uchun *avf eting, ma'zur tutgaysiz* kabi jumllar, garchi ishlab chiqaruvchilar nutqiga xos bo'lsa-da, ularga

ergashish lingvomadaniy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Xuddi shuningdek, uzr soʻrash, hamdardlik, minnatdorchilik bildirish ham *uzr soʻrayman, ming bor uzr, kechirasiz, dardingizga sherikman, tashakkur, minnatdorman, rahmat* kabi ifodalar ham professionallar davrasida ommalashgan turgʻun ifodalar hisoblanadi.

Mutaxassisning: salomlashish, tanishish, minnatdorchilik bildirish, taklif berish, qoʻllab-quvvatlash, eʼtirof etish, tabriklash, tilak bildirish, iltifot koʻrsatish, iltimos singari nutqiy aktlarda etalon jummalarni oʻz madaniyati va kasbiy salohiyatidan kelib chiqib oʻziga xos shakllarda qoʻllashi inkor etilmaydi, biroq mehnat jarayonida imkon qadar umum tomonidan qabul qilingan vosita va birliklarga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Bu bir turdagi faoliyat va umumiy maqsadlarda jamlangan mehnat jamoasidagi oʻzaro hamkorlik va oʻzaro hurmat tamoyillarining taʼminlanishiga xizmat qiladi.

Mutaxassis adresatga nisbatan tanqidiy munosabatida ham umum tomonidan oʻrnatilgan qoidalarga amal qilish burchi ekanini unutmazligi lozim. Bunda oʻz mulohaza va qarashlarini *bezovtalik uchun uzr soʻrayman, qarshi boʻlmasangiz, sizga gapim bor edi, menga bir masalada yordamingiz kerak* jummalari orqali bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tinglovchiga nisbatan eʼtirozini goʻyo rozilik alomatlarini ostida bildirishi oʻrinlidir. Masalan, *“darhaqiqat, siz haqsiz”, “balki haqdirsiz”, “fikringizga qoʻshilaman, biroq meningcha”, “fikringizda jon bor, ammo bilasizmi”, “fikrimcha, mana bu holatni ham unutib qoʻymasligimiz kerak”* kabi.

Shuningdek, oʻz nutqiga eʼtiborli mutaxassisning vaziyatga nisbatan eʼtirozi: *bahsingizga qoʻshilsam maylimi, buning haqiqatga yaqinligiga shubham bor, sizga goʻyo ...boʻlib (-dek, -day) tuyulmayaptimi, adashmasam, fikrimcha* kabi jumlarlar orqali ham yuzaga chiqishi mumkin.

Xodim, hamkasblarni ogohlantirishda esa *soʻnggi (bor) marta, biz shunday qarorga keldik, yaxshi boʻlmaganini hamma tushungan boʻlsa kerak, avvalgi xatolarni takrorlamaylik* singari jummalardan, rad etishda muloyimlikni yoʻqotmaslik uchun esa *sizga yordam berishdan xursandman, ammo..., ming bor uzr (afsus), korxonamizda bunday xizmat turlari koʻzda tutilmagan, bugun sizga yordam bera olmayman deb qoʻrqaman* singari ifodalardan foydalanishi joyiz.

Mutaxassis hamkasbining yoxud oʻzga soha vakilining huquqini kamsitmasdan, oʻz nuqtayi nazarini himoya qilishida *oʻz istagingiz boʻyicha ish koʻrishga haqlisiz, lekin meningcha, tanlash huquqi sizda qoladi, biroq bilasizmi, fikrlaringa toʻliq qoʻshilishingiz shart, degan gʻoyadan juda yiroqman, garchi masalaning boshqa tomoni ham bor* ifodalari yordamga kelishi mumkin.

Nutqiy kompetentlik

Hozirgi davrda kasbiy sohada nutq madaniyati masalalari ayniqsa dolzarb boʻlib qoldi. Ishbilarmonlik nutqining muloqot samaradorligini belgilaydigan xususiyatlarga mos kelishi juda muhimdir. Ulardan biri savodxonlikdir. Bu nafaqat soʻzni qoʻllash qoidalari, grammatik moslik, gap qoliplarini bilishni, balki uslubiy xoslangan sohalarni chegaralay olishni ham nazarda tutadi. Buning uchun ham lingvistik, ham ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani oʻz ichiga olgan kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish kerak. Muloqotsiz na individning, na butun insoniyat

jamiyati mavjud bo'lishi mumkin emas. Inson uchun muloqot uning yashash joyidir. Muloqotsiz inson shaxsini, uning tarbiyasi, intellektual rivojlanishi, hayotga moslashishini shakllantirish mumkin emas.

Nutq madaniyati insonning umumiy madaniyatining bir qismidir. Insondagi so'zlash madaniyati yoki yozuv savodxonligiga qarab uning ma'naviy kamoloti, ichki madaniyati qay darajada ekaniga baho berish mumkin. Shaxsning madaniy nutqqa ega bo'lishi nafaqat intellektual va ma'naviy rivojlanishning yuqori darajasining ko'rsatkichi, balki turli kasb egalari uchun kasbiy yaroqlilikning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatining tabiatiga ko'ra odamlar bilan bog'langan, ularning ishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi, o'qituvchi, ta'lim beruvchi, ishbilarmonlik muzokaralari olib boruvchi, odamlarga turli xizmatlar ko'rsatuvchi har bir kishi uchun nutq madaniyatini egallash muhim ahamiyatga ega.

Nutq madaniyati tushunchasining uch qirrası mavjud:

- nutq madaniyatining me'yoriy jihati. U adabiy til me'yorlariga rioya qilishdan iborat, bu jihat eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

- Nutqning kommunikativ sifatlari. Bular: nutqning aniqligi, tushunarlıligi, sofligi, mantiqiyliğı, ifodaliligi, estetikligi va dolzarbligidir.

Kasbiy muloqotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri nutq xatti-harakati qoidalari, nutq madaniyatining axloqiy me'yorlaridir. Nutq odob-axloq qoidalarini bilish darajasi insonning kasbiy yaroqlilik darajasini belgilaydi. Bu talab barcha kasb vakillariga teng daxldordir.

O'z fikrini aniq va to'g'ri ifodalash, malakali so'zlash, nafaqat o'z nutqi bilan diqqatni jalb qilish, balki tinglovchilarga ta'sir o'tkazish qobiliyati, madaniy nutqqa ega bo'lish turli kasb egalari uchun kasbiy yaroqlilikning o'ziga xos xususiyatidir.

Zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisga bo'lgan talab, uning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan malakali nutq (og'zaki va yozma), samarali muloqot qilish qobiliyati, tinglovchiga ta'sir qilish usullarini bilishga bog'liq bo'lib qoldi. Masalan, tadbirkor, san'atkor, menejer, me'mor, quruvchi, avtomexanik, texnik, sotuvchi, iqtisodchi, shoumen o'zining asosiy ishlarini bajarib, biror narsani muhokama qilishga, maslahatlashishga, nutqiy mahoratga ega bo'lishga, suhbatni malakali olib borishga majbur bo'ladi. Negaki, har qanday kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati nutq faoliyatining nechog'lik yuksak saviyada, mohirona amalga oshirilishiga bog'liq.

Zamonaviy ish beruvchilar yosh mutaxassislarda nafaqat kasbiy bilimni, balki xushmuomalalikni ham qadrlashadi. Mutaxassis turli yoshdagi, turli jamiyatdagi odamlar bilan muloqot qila olishi kerak.

Kasbiy faoliyat madaniyati ko'p jihatdan butun tashkilot va alohida mutaxassisning obro'sini belgilaydi. Zotan, til kishilik jamiyatining shakllanishida bosh omil bo'lar ekan, nutqiy xatti-harakatlar majmuyida voqelanuvchi til – inson faoliyatining har qanday sohasi uchun mehnat quroli vazifasini o'taydi.

Xulq-atvor madaniyati shaxs tomonidan jamiyatning axloqiy me'yorlariga mos ravishda shakllantiriladi. Tashqi nutq – insondagi ichki madaniyatni ifoda etuvchidir; u o'z ichiga: o'zini tartibga solish qobiliyati, suhbatdoshning hissiy holatini

tushunish, ruhiy holat, his-tuyg'ularni boshqarish, ichki ruhiy tashvishlarni bartaraf etish, qat'iyatsizlikni engish, barqaror hissiy holatni o'rnatish kabilarni jamlaydi.

Kasbiy muloqot madaniyatida nutqning suhbatdosh ruhiy holatiga mos kelishi, ishbilarmonlik yo'nalishi, nutqning ijtimoiy rollarga muvofiqligi, nutqda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining roli kabilarning ahamiyati ayniqsa yuqori bo'ladi.

Professional (kasbiy) nutq madaniyatiga quyidagilar kiradi:

- tegishli mutaxassislik terminologiyasini bilish;
- kasbiy mavzuda matn tuzish (ma'ruza qilish) qobiliyati;
- professional muloqotni tashkil etish va boshqarish qobiliyati;
- kasbiy faoliyat masalalari bo'yicha mutaxassis bo'lmaganlar bilan

muloqot qilish qobiliyati.

Bayon qilinganlarning jamini e'tiborda tutib, kasbga xoslangan kommunikativ kompetensiya mezonlarini quyidagilarda ko'rsatish mumkin:

adabiy til me'yorlarini bilish va ularni nutqda qo'llashning barqaror ko'nikmalarini egallash;

- nutqning aniqligi, izchilligi va ifodaliligini nazorat qilish qobiliyati;
- professional terminologiyani o'zlashtirish, atamalar va tushunchalar o'rtasidagi moslik, muvofiqliklarni bilish;

- professional nutq uslubiga egalik;
- maqsadni aniqlash va muloqot vaziyatini tushunish qobiliyati;
- suhbatdoshning ijtimoiy va individual-shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati;

- dialogning rivoji, suhbatdoshning reaksiyalarini bashorat qilish malakalari;

- xayrixoh muloqot muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati;
- ruhiy holatni va his-tuyg'ularni yuqori darajada nazorat qilish;
- suhbatni kasbiy faoliyat maqsadlariga muvofiq yo'naltirish qobiliyati;
- muloqotni odob-axloq qoidalari doirasida olib borish madaniyati.

Nazorat uchun savollar

1. Kasbiy nutqqa ta'rif bering, uning maxsus til shakllaridan farqini bayon qiling.
2. Mutaxassis (soha vakili)ning namunadagi nutqi qanday bo'lishi kerakligi to'g'risida kichik esse yozing.
3. O'zbekistonda Yevropa madaniyatidan kirib kelgan qanday jumlar kasbiy davralarda urfga kirmoqda?
4. O'zbekistonda Yevropa madaniyatidan farqli, qanday jumlar kasbiy davralarda qo'llash nojoiz?

Adabiyotlar

1. Авербух К.Я. Общая теория термина. Иваново, 2004. 252 с.
2. Власова Л.В., Сементовская В.К. Деловое общение. – М.: Рипол КЛАСИК, 2000.

3. Гвишиани Н.Б. Язык научного общения (вопросы методологии). – М.: Высшая школа, 1986. – 280 с.
4. Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 1993. – 309 с.
5. Закирова Е.С. Некоторые вопросы терминоведения и терминографии как компонентов общей теории языка для специальных целей (ЯСЦ, LSP). Известия МГТУ “МАМИ” № 1(15), 2013, т.
6. Кияк Т.Г. Профессиональные языки как новое направление лингвистического исследования / Т.Г. Кияк // Иностранная филология, 2009. - Вып.121. – Львов: ЛНУ имени И. Франка. – С. 138-142.
7. Комарова А.И. Язык для специальных целей (LSP): теория и метод. – М.: МАЛП, 1996. – 193 с.
8. Кудашев И.С. Проектирование переводческих словарей специальной лексики. – Helsinki: Helsinki University Translation Studies, Monographs 3, 2007. – 443 с.
9. Нагорняк А.А. Культура речи как одно из условий успешности современного специалиста. <https://www.lib.tpu.ru/fulltext/v/Conferences/2012/C1/109.pdf>.
10. Хомутова Т.Н. Язык для специальных целей (LSP): вопросы теории. Вестник ЮУрГУ, №15, 2007.
11. Фоменко Ю. В. Типы речевых ошибок. – Новосибирск: НГПУ, 1994.
12. Цейтлин С. Н. Речевые ошибки и их предупреждение. – М.: Просвещение, 1982.

13-mavzu. SOHADA O‘ZBEK TILIDA MULOQOT VA KOMMUNIKATSIYA JARAYONI

Reja:

1. Muloqot va uning turlari. Muloqot shakllari.
2. Nutqiy faoliyat turlari.
3. Nutqiy kommunikatsiya modellari.

Tayanch tushunchalar: *o‘zbek milliy madaniyatida muloqot va uning lingvomadaniy talqini, fanda muloqotning ilmiy talqini va tavsiya etilgan modellari, nutqiy faoliyatning turlari, mehnat jamoasida muloqot strukturasi.*

O‘zbek milliy madaniyatida muloqot, kishilararo (shaxslararo) axborot almashinuvi dastlab *nutq odobi*, *nutq madaniyati* tushunchalari orqali talqin qilinadi. Chunki ushbu axloqiy-tarbiyaviy tushuncha milliy-e’tiqodiy talablarning dastlabki belgilari hisoblanib, xalqimizning bu boradagi qarashlari qadimgi turkiy til, eski o‘zbek tili yozma manbalari, Qur’oni Karim suralari, Hadisi sharifda keltirilgan ko‘rsatmalar evaziga shakllangan.

Nutq odobi masalasi XI asrda yashab ijod qilgan xorazmlik alloma Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariyning "Navobig' ul-kalim" ("Nozik iboralar") nomli asarida ham yoritilgan. O'zbek nutq madaniyati tarixida voizlar alohida o'ringa ega bo'lib, IX asrgacha Sharqda voizlik vazifasini xalifalar, shohlar bajarganlar. IX asrdan boshlab davlat hukmdorlari bu tadbirni o'z ixtiyorlaridagi maxsus so'z ustalariga yuklab, ularning ism-shariflariga *voiz* so'zini qo'shib aytganlar.

Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma" nomli asarda (XI asr)

XII asrdan Muhammad Rafiq Voizning "Avbob ul-inon", Voiz Qazviniyning "Zilolu maqol" Voiz Shirvoniyning "Ahsan ul-ahodis", Muhammad Voizning "Hidoyat ul-taqvim", Quraysh Saidiyning "Anis ul-voizin", Voiz Samarqandiyning "Ravzat ul-voizin", Qozi O'shiyning "Miftoq ul-najjih", Voiz Koshifiyning "Dah Majlis", "Mahzan ul-insho" kabi asarlari dunyo yuzini ko'rdi.

Nutq madaniyati, notiqlik san'ati masalasi Alisher Navoiy davrida o'zining yuksak darajadagi talqinini topdi. Alisher Navoiy o'z asarlarida Xo'ja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Irshod, Hotam Asom, Voiz Koshifiy, Muin Voiz kabi o'nlab voizlarning nutq mahoratlari haqida so'z yuritgan.

O'zbek tilshunoslaridan E.Begmatov, S.Inomxo'jaev, L.Xo'jaeva, T.Qudratov, X.Jalilov, R.Qo'ng'urov, Yo.Tojiev, B.O'rinboev, A.Soliev, M.Mukarramov, N.Mahmudov, S.Karimov, B.Umurqulov ishlarida nutq madaniyati, notiqlikka oid ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Muloqot va uning turlari. Muloqot shakllari

Fanda kommunikatsiyaning quyidagi asosiy shakllari farqlanadi:

1) *adresat faktoriga ko'ra*: shaxsning o'z-o'zi bilan (avtokommunikatsiya); shaxslararo (guruhlararo, ommaviy); yo'naltirilgan / yo'naltirilmagan; monologik / dialogik; "sovuq" / "qaynoq" (M.Maklyuen);

2) *hosil bo'lish omiliga ko'ra*: gomogen (sinkretik); verbal / noverbal (audial, kinestetik, vizual, performansli (marosimiy, hodisotli); og'zaki / yozma; mifologik, ramziy, badiiy;

3) *manbasiga ko'ra*: bir kanalli/ko'p kanalli; bosma/elektron; birlamchi/ikkilamchi; rasmiy/norasmiy; ikki sathli/bir sathli;

4) *ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra*: ierarxik/demokratik; ishontira oluvchi/suggestiv (ruhiyatga ta'sir ko'rsatuvchi); uyg'unlashtiruvchi/agonal (nutqiy qarama-qarshilik);

5) *ko'lamiga ko'ra*: lokal/universal; madaniyat ichidagi/madaniyatlararo; ichki/tashqi;

6) *sur'atiga nisbatan*: yuqori intensiv/past intensivli; strategik/ taktik;

7) *faoliyat turiga ko'ra*: siyosiy, tadbirkorlik, reklama xususiyatli; psixoterapevtik, axborotli va b.;

8) *bajaruvchi vazifasining maqomiga ko'ra*: vertikal/gorizontal;

9) *maqsadiga ko'ra*: bilishga yo'naltirilgan, ekspressiv, suggestiv, marosimiy, ishontirishga qaratilgan va h.

Bundan tashqari olimlar ijtimoiy kommunikatsiya nazariy asoslarining quyidagi modellarini ajratib ko'rsatadilar:

1) Z.Freyd va K.Yungning psixoanalitik modeli – muloqot inson tomonidan uning ongsiz harakatlarini bostirish vositasi sifatida;

2) ekzistensial model (“muloqotdagi inqiroz”) - kommunikatsiyani “tarkidunyochilik” sifatida tushunish (individualizm, izolyasiya va o'z-o'zini izolyasiyalash, yolg'izlik hissi, insonning olamdagi mavjudiligini ma'nosizlik va hech kimga keraksizlik sifatida tushunish), begonalik hissining yuqori darajasi, hamkorlik rishtalarining batamom uzilishi ijtimoiy aloqalarning butkul yo'qotilishi;

3) muloqotning bixevioristik modeli (xulq to'g'risidagi fan) – bevosita nutqiy signallar, ularni boshqarish orqali istalgan muddaoga erishish imkoniyati;

5) semiotik model (Yu. Lotman, U. Eko) – belgilar tizimi va ularning o'zaro ta'siri;

6) o'yin modeli (E. Bern, Y. Xeyzing) – muloqot o'yin sifatida;

6) personalizm – muloqot shaxsda o'zganing tuyg'ularini o'zida his etish, anglash qobiliyati sifatida (“Men – bu U”);

7) o'zaro tushunishga qurilgan model (M.Veber, G.Gadamer, G.Shpet) muloqot – o'zaro bir-birini tushunish;

8) futurologik model (D.Bell, A.Toffler, G.Maklyuen) – muloqot vositalarini ijtimoiy rivojlanishning, axborotni esa madaniyatning asosi sifatida tushunish.

Muloqotning asosiy modellari (G.Lassuell, Shennon-Uviver, T.Nyukom, Osgud-Shrammlarning ta'limotiga ko'ra).

LASSUEL modeli. Ushbu model muloqotni tizimli qurilma sifatida tushunishni shartlaydi va u: 1) “Kim gapiryapti” – muloqot ishtirokchilarini o'rganish; 2) “Nimani gapiryapti” – xabarlarining kontent-tahlili; 3) “Qaysi tarmoq orqali” – OAVga nisbatan; 4) “Kimga” – tinglovchilarni o'rganish; 5) “Qanday natija bilan” – muloqot samaradorligini tekshirish singari tashkil etuvchilardan iborat.

Boshqacha aytganda, bu model muloqotni uning barcha omillari va tashkil etuvchilari bilan yaxlit ko'ra olish va shunga yarasha natijadorligini baholash imkonini tug'diradi. R.Breddok ushbu modelga yana: 1) muloqot kechayotgan shart-sharoit hamda 2) so'zlovchining muloqotdan ko'zlagan maqsadini ham kiritgan. Mazkur modelni unda tinglovchining xatti-harakati, uning muloqotdan manfaatdorlik darajasi inobatga olinmaganligi bois, “bir taraflama model” deb baholash mumkin.

SHENNON-UIVER modeli. Ushbu model amerikalik matematik Klod Shennon tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, olim uni XX asrning 40-yillarida “Bell Telefon” laboratoriyasining buyurtmasi asosida ishlab chiqqan. Model o'zida: axborot manbai, uzatuvchi, uzatish tarmog'i, axborotni qabul qiluvchi uskuna va pirovardidagi maqsaddan iborat beshta elementni jamlaydi. Vaqt o'tib bu model birmuncha takomillashtirildi va avvalgidek beshta o'rniga oltita elementni o'zida qamray boshladi. Bular: manba, kodlovchi uskuna, xabar, tarmoq, kodni ochuvchi uskuna va axborotni qabul qiluvchi uskuna (telefon). Shennon ular qatoriga yana shovqinni ham kiritdi, negaki shovqin axborotning aniqligiga, xabar (ma'lumot)ning yaxlitligiga putur yetkazadi va oqibatda qabul qiluvchi uskunaning axborotni to'laqonli qabul qilish imkoniyati cheklanadi. Olim tomonidan tavsiya etilgan ushbu


model manba tomonidan yoʻnalgan xabar retsipient tomonidan bir xil talqinga ega boʻlmasligini koʻrsatdi. Biroq teskari aloqaning mavjud emasligi bu modelning ham kamchiligi sifatida qayd etildi.

VINER (kibernetikaga asos solgan olim Norbert Viner nomidan) modeli, Shennon taklif etgan modelning teskari aloqa (feedback) bilan toʻldirilganligi VINER modelining yutuqli jihati sanaladi. Ushbu model shaxslararo muloqot tabiatini ravshanroq koʻrsata oluvchi model sifatida tan olingan.


NYUKOMA modeli. Psixolog Teodor M. Nkom tomonidan ishlab chiqilgan. Muloqot ishtirokchilarining oʻzaro kognitiv, emotsional va artistik jihatdan bir-biriga oʻzaro taʼsirini yorqin ifodalay olgan model.

DEFLYUER modeli. DeFLYueR modeli muloqot ishtirokchilarining yuborilgan va qabul qilingan xabarning hamisha ham muvofiq kelmasligini tushunib yetmasliklari axborot-almashinuv jarayonini murakkablashtirishini ayonlashtirdi.

OSGUD-SHRAMM modeli. Muloqot samaradorligi asosan muloqot ishtirokchilarida axborot belgilari toʻplamining mavjudligi bilan belgilanadi. Yaʼni muloqot ishtirokchilarining tajribasi bitta soha yoxud bir-biriga yaqin sohalarga oid boʻlsa, ular oʻrtasida uzatiladigan axborot axborotni ifodalovchi belgilarning umumiyliги evaziga toʻliq va birdek anglanadi. Ushbu modelning zaif tarafi – unda muloqotga kirishayotgan tomonlarga teng huquqli taraflar sifatida qaraladi, vaholanki, muloqot ishtirokchilari oʻrtasida muvozanatning buzilishi odatiy holdir. Masalan, bunga OAVlarini misol qilish mumkin (bunda muloqotchi tomonlardan biri faol, ikkinchisi nofaol maqomda qoladi).



KOMMUNIKATSIYA



Nutqiy faoliyat turlari

Nutqiy faoliyatning asosiy 4 turi mavjud: so'zlash, tinglash, yozish va o'qish.

So'zlash axborot tashish xususiyatiga ega nutqiy akustik signallarni kommunikatsiya ishtirokchisiga yo'naltirishdir.

Tinglash nutqiy akustik signallarni qabul qilish va ularni tushunishdir.

Yozish nutqiy signallarni maxsus grafik belgilar yordamida kodlashtirishdir.

O'qish – grafik belgilarning kodlarini ochish va ular anglatgan ma'noni tushunish.

So'zlash va yozish jarayonida axborot kodlanishi sodir bo'lsa, tinglash va o'qish jarayonida dekodlash (kodlarni ochish) amalga oshiriladi. Inson so'zlash va tinglash davomida akustik signallarni boshqaradi, yozish va o'qish bilan bog'liq nutqiy faoliyatda esa grafik belgilar bilan ish ko'radi, ularni boshqaradi.

Nutqiy faoliyat uni amalga oshiruvchi til sohibining nutqiy malaka va ko'nikmaga ega bo'lish darajasiga qarab samarador yoxud natijasiz kechishi mumkin. nutqiy malaka bir vaqtning o'zida til sohibining umumiy madaniylik darajasidan ham darak beradi.

Nutqiy kommunikatsiya modellari

Kommunikativ texnologiyalar-bu aloqa subyektlari o'rtasida psixologik va axborot aloqasini o'rnatish va saqlash maqsadida amalga oshiriladigan maqsad va vazifalar, mazmunli tarkib va operatsiyalar ketma-ketligi to'g'risidagi bilimlar to'plamini anglatadigan keng tushuncha.

Muloqot vaziyati, muloqot ishtirokchilari, muloqotni yuzaga chiqaruvchi hamda axborotni uzatuvchi vositalar – bularning barchasi kommunikativ muloqotning yagona modelini tashkil qiluvchilardir.

Mazkur model tarkiban quyidagilardan tashkil topadi:

1) axborotni jo'natuvchi (adresant) – so'zlayotgan yoki yozayotgan kishi;

- 2) axborotni qabul qiluvchi (adresat) – tinglovchi yoki o‘qiyotgan kishi;
- 3) xabar (og‘zaki yoki yozma nutq).

Shuningdek, nutqiy vaziyat muloqot jarayonining alohida nutqiy faoliyat, xatti-harakatiga ishora qiluvchi **kommunikativ akt** (biror suhbatdoshning dialog ichida boshqa suhbatdoshga luqma tashlashi yoki qisqa javobi) deb nomlanuvchi qismlardan tashkil topadi.

Axborot jo‘natuvchi (adresant) kommunikativ (muloqot) akt doirasidagi nutqiy maslagini dastlab ichki nutq shaklida shakllantiradi, uni tashqi nutqqa ko‘chirayotganida esa uni tovushlar orqali kodlaydi. Signalni qabul qiluvchi (adresat) esa, o‘z navbatida, bu axborotni dekodlaydi va uning zamiridagi fikrni anglaydi. Pirovardida, adresatda ham muayyan nutqiy maslak vujudga keladi, oqibatda javoblar almashinuvi – teskari aloqa sodir bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, har qanday nutqiy muloqotni kishilar o‘rtasidagi nafaqat axborot almashinuvi, balki o‘zaro ta‘sir ko‘rsatish, nutqiy maslagini amalga oshirish vositasi deb tushunish ham o‘rinlidir.

Muloqot verbal va noverbal vositalar evaziga amalga oshadi. Verbal nutqiy faoliyat o‘zida to‘rt jihatni qamraydi. Bular: so‘zlash, tinglash, o‘qish va yozish.

Shaxslararo muloqotning asosiy maqsadlari ushbu asosiy tushunchalarda aks etadi:

- axborotni samarali qabul qilish yoxud axborot qabul qilishning samaradorligi;
- axborot uzatishning samaradorligi;
- nutqiy maslakka tinglovchi(muloqot ishtirokchisi)ni ishontirish va tegishli faoliyatga undash orqali erishish;
- suhbatdosh to‘g‘risida qo‘shimcha ma‘lumotga ega bo‘lish;
- muloqotda o‘z-o‘zini ijobiy tarafdin namoyon etish.

Axborot qabul qilishning samaradorligi og‘zaki va yozma nutqqa teng aloqador muammo bo‘lib, samaradorlik til sohibining o‘qish va tinglash malakasini belgilaydi. Axborot uzatishning samaradorligi esa so‘zlovchining yozuv va so‘zlash malakasiga bog‘liq bo‘ladi.

Nutqiy maslakka tinglovchi(muloqot ishtirokchisi)ni ishontirish va tegishli faoliyatga undash orqali erishish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmasdan, so‘zlovchining ritorik usullari, ishontirish va da‘vat qilish qobiliyati orqali amalga oshadi.

Suhbatdosh haqida atroflicha ma‘lumotga ega bo‘lish uchun esa uning ijtimoiy-madaniy rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy maqomi, shuningdek, ruhiy holatiga baho berish uchun suhbatdosh ovoz toni va ohang bo‘yoqdorligi (tovlanishlari)ni farqlay olish, suhbatdosh gaplarining mazmunini to‘g‘ri talqin qilish va tagma‘noni anglash malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Muloqotda o‘z-o‘zini ijobiy tarafdin namoyon etishning o‘z talab va shartlari mavjud bo‘lib, dastavval so‘zlovchi yoxud tinglovchi nutq madaniyati, nutq odobi mezonlariga amal qilishi, muloqot doirasida o‘zidagi xislatlarni ijobiy tomondan namoyon eta olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Mehnat jamoasida muloqot strukturasi. Mehnat jamoasidagi muloqot strukturasi bir necha tarmoqlar orqali amalga oshadi. Har qanday tuzilma yoxud tashkilot, mehnat jamoasi ichki va tashqi axborot oqimiga ega: tashqi oqim ushbu jamoa (tashkilot)ni jamiyat bilan bog'lasa, ichki axborot oqimi korxonada xodimlari o'rtasidagi muloqot faoliyatini ifoda etadi. Tashqi axborot oqimini nazorat qilish, boshqarishning imkoni yo'q, uning kommunikativ vositalarini esa quyidagilar tashkil etadi:

– yozma shakldagi hisobotlar (soliq inspeksiyasiga balans, hukumat organlari, jamoat va o'zga turdagi tashkilotlarga hisobot va boshqa turdagi ma'lumotlar);

– yuqori turuvchi tashkilot (organ, hamkasb, jamoat tashkilotlari vakillari)ga yozma yoki og'zaki shakldagi bayonot;

– reklama va reklama materiallari;

– mahsulotdan foydalanishga doir turli ko'rinishdagi tavsiyalar, yo'riqnomalar;

– chetdan kelib tushgan xatlar, shikoyat, arizalarga og'zaki va yozma javoblar.

Ichki kommunikativ aloqa axborot uzatishning: majlis, yig'ilish, uchrashuvlar, xizmat yozishmalari, yo'riqnomalar, telefon orqali muhokamalar, hisobotlar, suhbatlar (rasmiiy, norasmiiy, davra suhbatlari va b.) kabi shakllaridan tarkib topadi.

Nazorat savollari

1. Muloqot va uning turlari haqida ma'lumot bering.
2. Muloqot shakllari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Nutqiy faoliyat turlari yuzasidan bilimlaringizni bayon qiling.
4. Nutqiy kommunikatsiya modellari deganda nimani tushunasiz, bu kabi modellardan qaysi birini nutqiy faoliyatda samarador deb o'ylaysiz?

Adabiyotlar

1. Власова Л.В., Сементовская В.К. Деловое общение. – М.: Рипол КЛАССИК, 2000.
2. Гвишиани Н.Б. Язык научного общения (вопросы методологии). – М.: Высшая школа, 1986. – 280 с.
3. Нагорняк А.А. Культура речи как одно из условий успешности современного специалиста.
<https://www.lib.tpu.ru/fulltext/v/Conferences/2012/C1/109.pdf>
4. Хомутова Т.Н. Язык для специальных целей (LSP): вопросы теории. Вестник ЮУрГУ, №15, 2007.

14-mavzu. KASBIY MULOQOT JARAYONI

Reja:

1. Kasbiy muloqot jarayoni.
2. Muloqot texnikasi va uning tarkibiy qismlari.
3. Muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'рни.

Tayanch tushunchalar: *shaxslararo muloqot, sohaga doir muloqot, kasbiy muloqotning og'zaki shakli, shaxslararo muloqotda hamkorlik tamoyili (Grays) hamda hurmat (Lich) tamoyillarining ahamiyati, nutq texnikasi haqida tushuncha, muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'рни.*

Kasbiy muloqot jarayoni

Kasbiy muloqot jarayoni shaxslararo muloqotni tegishli kasb-hunar, sohada amalga oshirishga doir tushunchalar, usul va vositalar, yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Soha mutaxassislari bilan axborot almashish, sohaga doir hamda ilmiy-texnik axborotni tarqatish, ommalashtirish tizimi, usul va vositalariga tegishli masalalar, shuningdek, bo'lg'usi mutaxassislarni kasbga tayyorlash jarayonida ularning kommunikativ layoqati (kompetensiyasi)ni ilg'or texnologiyalar yordamida shakllantirish masalalari kasbiy kommunikatsiyaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Zamonaviy maxsus til (sohaviy nutq), an'anaviy tarzda, ichki uslublararo uyg'unlikka ega. Tadqiqotchilar ushbu xususiyatni ko'rib, professional tillarning o'ziga xos "ko'p qatlamli modellari"ni ishlab chiqdilar. Hozirda nemis tilining materiali bo'yicha tayyorlangan, ammo universal xususiyatga ega bo'lgan tayyor ishlanmadan foydalaniladi³⁸.

Sohaga doir muloqotning ko'rinishlari turlicha bo'lib:

- ilmiy anjuman, seminarlar,
- trening, taqdimotlar,
- kasbiy-noshirlik faoliyati, kasb va sohaga doir davriy matbuot nashrlarini chop etish,

- olimlar, o'qituvchilar, talabalar o'rtasidagi kasbiy aloqalar va b. mazkur muloqot turining yorqin namoyon bo'luvchi turlaridir.

Anglashiladiki, sohaga doir kasbiy muloqot shaxslaro shakldan jamoaviy hamda ommaviy shakllargacha kuzatilishi mumkin.

Kasbiy muloqot hamkasblar bilan sohaga doir muammolarni birgalikda muhokama qilish va shunga doir tegishli choralarni belgilash, muayyan masalalarda uslubiy yordam ko'rsatish, birgalikda maqola va kitoblar chop ettirish, kasbiy malakani oshirishga doir tadbirlarda birgalikda ishtirok etish, xorijiy mutaxassilar bilan yangi texnologiyalarni o'zlashtirish maqsadida hamkorlik qilish va b. imkoniyatlarni yuzaga keltirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Binobarin, kasbiy muloqot mutaxassisda uning shaxsiy intellektual imkoniyatlaridan qat'iy nazar sohaga

³⁸ <https://altarena.ru/russkiy-yazyk-v-professionalnoy-sfere/>

oid bilim, tajriba, ko'nikmalarini doimiy ravishda o'stirib borish, qolaversa, sohaga doir ijtimoiy muhim axborotni jamiyatning turli kasb egalari o'rtasida tarqatish va ommalashtirish (uchrashuvlar va OAV ko'magida) malakalarini rivojlantiradi.

Zotan, bugungi, global texnogen taraqqiyot evaziga kasbiy muloqot shakllari elektron texnologiyalar evaziga yanada rang-barang tus olmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, maxsus platformalardagi o'zaro muloqot va fikr-tajriba almashinuvlar, pirovardida, mutaxassislar hayotida videokonferensiyalar, veb-forumlar, vebinarlar, elektron jurnallar, elektron kutubxonalar kabilar orqali soha rivojini ta'minlovchi yangi texnologiyalarni ixtiro qilish maqsadlarini rivojlantirmoqda. Chunki zamonaviy axborot texnologiyalari mutaxassislarga yuqori operativlik, ko'lamdorlik imkoniyatini taqdim etadi, mutaxassisdan esa bu boradagi tegishli axborotni qayta ishlash malakasi talab qilinadi, xolos.

Soha doirasidagi muloqot kasb egasidan nafaqat o'z ixtisosligiga tegishli bilimlardan boxabar bo'lishni, balki shaxslararo muloqotning xususiyatlarini o'rganish, talablariga bo'ysunishni taqozo etadi.

Sohaga tegishli axborotda aks etgan kodni to'g'ri sharhlash, sohaga oid verbal va nonverbal vositalardan o'rinli foydalanishni o'zlashtirish, sohaga doir nutqiy vaziyatlarni to'g'ri baholay olish talablari mutaxassisda kasbiy muloqot jarayonlarida nutqiy taktika va strategiyalarni ishlab chiqish malakasini o'stiradi.

Sohaga doir muloqotning og'zaki va yozma shakli farqlanadi. Bunda har ikki nutq shakliga doir layoqat belgilari tegishli kasb egasining asl mutaxassis ekanini bildirib turuvchi xususiyat sanaladi.

Kasbiy muloqotning og'zaki shakli. Unutmaslik kerakki bitta soha vakillari – bu bir millat, yagona e'tiqod va bir xil dunyoqarash vakillaridan iborat jamoa degani emas. Hatto bitta oila a'zolarida turli fe'l-atvor, did-saviya, jismoniy-ruhiy kamolotning har xil darajasi kuzatilgani kabi, soha egalriga ham o'zlari mehnat qilayotgan jamoada o'zga hamkasblarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini e'tiborga olishlari, ularning yoshi, jinsi, irqi, millati, e'tiqodidan qat'iy nazar, hurmat ko'rsatishlari tavsiya qilinadi. Tolerantlik, empatiya, o'zi va o'zga hamkasblar mansub bo'lgan madaniyatlar haqida xabardorlik darajasi mutaxassisning o'zi mashg'ul bo'lgan sohada o'rin topish imkoniyatini bir necha barobarga oshiradi. Albatta, tolerantlik va empatiyani tom ma'nodagi befarqlik sifatida tushunmaslik kerak, zotan, o'z kasbiga sadoqat va fidoyilik kabi asosiy talab ham borki, hamkasblar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, tushunmovchilik, noxolislik munosabatlarida doimiy tarzda betaraf qolish, bag'rikenglik qilish yaramaydi. Garchi jamoaning muammoli vaziyatlarida "og'rimagan boshini og'rishga majbur qilmaydigan" bunday "betaraf" xodimlar sirtidan aqlli ko'rinsalar-da, umumiy holda hamkasblari orasida hurmatga ega bo'lmaydilar. Kundalik kasbiy muloqotlarda bunday muammolarning yuzaga kelishi tabiiy, negaki muloqotning o'zi – murakkab lingvopsixologik hodisa. Biroq shu vaziyatlarda ham soha egalarining vaziyatga xolis ko'z bilan qarab, masalani malakali va tajribali, o'qimishli insonlar sifatida birgalikda hal qilishga harakatigina ularni nafaqat kasbiy, balki shaxsiy hayotda ham madaniyatlilikning yuqori darajasini egallagan kishi darajasida yuksaltiradi.

Bu vaziyatda pragmalingsvistikada alohida e'tirof etilgan hurmat tamoyiliga to'xtalish lozim. Jumladan, ingliz olimlari: J.Lich, S.Lyevinson, P.Braun, R.Lakoff, G.Kasper va boshqalar muloqot boshqaruvida *hurmat tamoyili* uning samarali kechishini ta'minlovchi asosiy manba ekanligini ta'kidlaydilar.

J.Lich hurmat tamoyilini quyidagicha: "Qo'pol fikr va hukm ifodasini imkoni boricha (mavjud vaziyatni inobatga olgan holda) kamaytirish" deya ta'riflaydi. Ushbu tavsif Kaykovus "Qobusnoma"sidagi pandga juda mos keladi: "Sovuq so'zlik bo'lmag'il. Sovuq so'z bir tuxumdur, undan dushmanlik hosil bo'lur".

Hurmat-ehtiromning nutqiy muloqotda katta ahamiyatga molikligi Alisher Navoiy satrlarida ham kuzatiladi:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,

Har nechaki ag'yor durur yor aylar.

So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,

Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Pragmalingsvist J.Lich, o'z tavsifini yanada oydinlashtirish maqsadida, hurmat tamoyilining voqelanishi oltita, hech qanday isbotni talab qilmaydigan qoidalar (postulatlar) faollashuvidan iborat ekanligini uqtiradi. Bu qoidalar quyidagilar:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlari "sarfi"ni kamaytir; ushbu foydasini ko'paytirishga harakat qil);

2. Himmat, olijanoblik qoidasi (o'z foydangni kamroq ko'zla, barcha "sarfi"ni o'z zimmangga ol);

3. Ma'qullash, tahsin qoidasi (o'zgalarni yomonlama, g'iybat qilma, koyima);

4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o'z-o'zingni maqtashni keskin kamaytir);

5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);

6. Xush ko'rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqko'ngil bo'l).

Muloqotning samarali kechishi ma'lum qoidalar, muomala tamoyillariga amal qilish bilan bog'liq. Dunyo xalqlari muloqot odobi, muomala mas'uliyatiga oid minglab maqol-matallar yaratganlar, bu borada behisob nodir asarlar bitilgan. Jumladan, sharq milliy madaniyati durdonalari bo'lmish "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Hibbatul haqoyiq" kabi madaniy yodgorliklar, buyuk mutafakkirlar Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabilarning asarlari bunga misoldir. Kaykovusning "Qobusnoma"da keltirgan quyidagi pandlarini eslaylik: "*Gar so'zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'rif qilg'il va uni bir rangda aytg'il: xosga xos so'z, omiyga omiy so'z deg'il, toki u hikmatga muvofiq bo'lsun va eshitg'on kishiga og'ir kelmasin, yo'qsa so'zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag'aylar. Undin so'ng ularning rizosiga qarab so'zlag'il, to salomat bo'lg'aysan*". Eng asosiysi, bu an'alar hozirgacha davom etmoqda va nutq mas'uliyati, muloqot odobi, so'zlashish madaniyati kabi masalalar doimiy ravishda jahon olimlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Xususan, H.Grays 1967 yilda Harvardda o'qigan ma'ruzalarida nutqiy muloqot oqilona va umumqabul qilingan tamoyillarga rioya qilingandagina samarali kechishi mumkinligini uqtirdi. H.Grays ta'limotiga binoan kommunikativ faoliyat asosini

o'zaro hamkorlik tamoyili tashkil qiladi. Bu umumiy tamoyil quyidagicha ta'riflanadi: "Muloqot dialogining ushbu bosqichida sening kommunikativ ulushing muloqot maqsadi va vaziyati talabiga javob berishi kerak". Hamkorlik (cooperation) hosil bo'lishi uchun muloqot ishtirokchilari to'rt asosiy tamoyilga (H.Grays iborasi bilan aytganda, maxim - maksimalarga) amal qilmoqlari darkor. Ushbu tamoyillarning o'zaro farqi axborotning qay yo'sinda uzatilishi bilan bog'liq. Ma'lumki, axborot almashinilishi jarayonida miqdor, sifat, muqobillik va muomala tarzi muhim rol o'ynaydi. Xuddi shunga binoan quyidagi maksima-tamoyillar ajratiladi:

1. Miqdor tamoyili (ma'lum qilinayotgan axborotning miqdorini belgilash yoki chegaralash):

- a) ma'lum qilinayotgan axborot talab darajasida bo'lmog'i darkor;
- b) ortiqcha ma'lumotni berishga harakat qilma.

2. Sifat tamoyili, ya'ni "berilayotgan axborot haqiqat, ya'ni rost bo'lishiga harakat qil":

- a) yolg'on axborotni uzatishga harakat qilma;
- b) o'zing to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan hodisa haqida gapirma.

3. Mavzuga oidlik tamoyili – mavzudan uzoqlashma, kerak bo'lgan ma'lumotni berishga harakat qil.

4. Muloqot uslubi (tarzi) tamoyili, ya'ni "aniq va tushunarli so'zlashga harakat qil":

- a) notanish, tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llashdan qoch;
- b) dudmallikdan uzoq tur;
- v) bayoning qisqa bo'lsin;
- g) nutqning mantiqan uzviy, tartibli bo'lishi lozim.

Sanab o'tilgan tamoyillar nutqiy xatti-harakatlarning umumiy yo'nalish-modellarini belgilab beradi.

Kasbiy muloqot jarayonida quyidagi jihatlarini unutmaslik lozim:

- suhbatdoshlar bir-birining tashkilotdagi lavozimi, vazifasi, jamiyatda tutgan o'rni, obro'-e'tiboridan qat'iy nazar hurmat tamoyiliga amal qilgan holda munosabat ko'rsatishi kerak, bu ularning dastlab o'zlariga bo'lgan hurmatini isbotlaydi;
- suhbatdoshlar o'z nutqiy xatti-harakatlarini nazorat qila bilishlari shart;
- muloqot vaziyati va predmeti haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim, bu jihatlar suhbatdoshlarning tegishli muloqot jarayonidan maksimum darajada samara olishlarida zarur bo'ladi.

Muloqot predmeti haqidagi bilimlardan boxabarlik soha mutaxassislarining mehnat faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Bunda mutaxassisdan nafaqat malaka doirasidagi bilimlar, balki mavjud qonunchilik, OAV va internet ma'lumotlari, hamkor tashkilotlar, yondosh sohalardagi yangilik va o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lib turish ham talab qilinadi.

Kasbiy muloqotning yozma shakli. Yozma savodxonlik (grammatik) layoqati nutqiy layoqatning tarkibiy tushunchasi hisoblanadi.

Muloqot texnikasi va uning tarkibiy qismlari

Kasbiy muloqot mutaxassisning o'z imidji ustida ishlash talabini qo'yadi. Mutaxassis imidjini yaratish murakkab va uzoq muddatli jarayondir. O'z ustida ishlamagan xodim o'zining emas, o'zi faoliyat yuritayotgan korxonaning obro'sini xavf ostiga qo'yadi. Zotan, xodimning nutqiy imidji ustida ishlash uni kelgusida:

- kasbning malakali egasi sifatida;
- professional hamjamiyat vakili sifatida,
- muayyan tashkilot yoki firma vakili sifatida;
- individual shaxs xususiyatlarining tashuvchisi sifatida tarbiyalash vazifalarini qo'yadi.

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmui. Nutq texnikasi uchun eng muhim holat nafasni va nutqli nafasni to'g'ri olish sanaladi. O'qituvchi nutqi jarayonida kiftida emas, balk ko'krak-qorin orqali nafas olish to'g'ridir. Nutqli nafas olish tovushlarni to'g'ri ifodalashni ta'minlaydi

Sifatli va samarador axborot almashinuvining asosiy talablari yozuv, o'qish va tinglashga qo'yilgan talablarda o'z aksini topadi. Bular:

- auditoriya (tinglovchilar ommasi)ga tushunarli bo'lgan so'zlarnigina qo'llash;
- ixcham ibora va jummalarda fikr bildirish, yozish;
- shaxsiy lug'at, so'zlash va yozish uslubini auditoriyaga moslashtirish;
- shaxsiy intellektual xususiyatlar, aqliy zakovatni emas, auditoriyaga zarur bo'lgan bilimlarni namoyish qilish;
- bir tusda so'zlamadan, fikr-mulohazalarni jonli, emotsional tarzda ifodalash;
- tayanch tushunchalar, kalit so'zlarni qayta-qayta takrorlash orqali auditoriyaning yangi bilimni yodda saqlab qolishlariga ko'maklashish.

Nutq madaniyatiga amal qilish – muloqot texnikasining tarkibiy qismi sanaladi. Ayniqsa, soha vakillari nutqida tez-tez qo'llanuvchi, kasbiy tajribada og'zaki va yozma shaklda muhrlanib qolgan so'z va iboralar borki, salomlashish, xayrlashish, uzr so'rash, iltimos, tabrik, murojaat singari vaziyatlarga xizmat qiluvchi bu birliklar tegishli kasbga doir nutqiy odobning namunasi bo'lib xizmat qiladi. Aslida, kasbiy nutq texnikasi rasmiy uslubning tarkibiy qismi sifatida uslubiy neytral hisoblanadi, shuning uchun ham kasbiy muloqot jarayonida imkon qadar uslubiy bo'yoqdor, hissiy-ekspressiv so'zlardan kamroq foydalanishga harakat qilinadi (hissiylik, ekspressivlik bevosita jarayonni boshqaruvchi san'at va madaniyat, sport, jurnalistika kabi soha nutqi bundan mustasno).

Masalan, kasbiy nutq uchun: *Salyut!.. Xay!.. Tuzukmisizlar!.. Zo'rmisizlar!..* tarzida salomlashish xos emas, aksincha, so'rashish va salomlashishning *Assalomu alaykum! Ko'rishganimizdan xursandman, Sog'ligingiz, ishlaringiz yaxshimi?* kabi shakllaridan foydalangan ma'qul.

Ayrim soha vakillarining hamkasblari hamda ularning oddiy fuqarolarga murojaati turg'un shaklga kelib qoladi. Masalan,

- *Hurmatli yo'lovchi(lar)!*
- *Hurmatli xaridor(lar)!*
- *Hurmatli professor-o'qituvchilar!* shuningdek, *Hurmatli ustozlar!*
- *Hurmatli haydovchi!* yoki *Hurmatli piyoda!*
- *Hurmatli radiotinglovchilar! Muhtaram muxlislar! Aziz va qadrdon teletomoshabinlar!* (sahna va televidenie nutqi) kabi.

Biroq barcha sohada ham shaxsga nisbatan *hurmatli* aniqlovchisini ishlatish o'rinli hisoblanmaydi. Masalan, tergovchilar nutqida bu so'zdan deyarli foydalanilmaydi (4-jadval).

Faoliyat egasi	Murojaat shakli	Fuqaro murojaati
Prezident		<i>Muhtaram Prezident Janob Prezident</i>
Vazir		<i>Hurmatli vazir</i>
Harbiy		<i>o'rtoq general va b.</i>
O'qituvchi	<i>(hurmatli) talabalar, yigit-qizlar</i>	<i>(hurmatli) ustoz muallim</i>
Shifokor	<i>(hurmatli) bemor</i>	<i>Hurmatli To'xtosh Maxmaraimovich Pariza Jalilovna do'xtir</i>
Olim		<i>(hurmatli) professor Shavkat To'xtoshevich</i>
Avtomobil, havo yo'llari va temir yo'l xodimi	<i>(hurmatli) yo'lovchi passajir</i>	<i>(hurmatli) haydovchi</i>
Bank xodimi	<i>(hurmatli) mijoz</i>	
Savdo xodimi, sotuvchi	<i>(hurmatli) xaridor</i>	<i>Opa, aka, xola, tog'a, amaki va b.</i>
Ovqatlanish nuqtalari xodimlari	<i>(hurmatli) mijoz opa, aka, xola, tog'a, amaki va b. (zinhor xo'randa emas)</i>	<i>(hurmatli) oftsiant opa, aka, xola, tog'a, amaki va b.</i>
DAN xodimi	<i>(hurmatli) piyoda haydovchi</i>	<i>(hurmatli) komandir... kapitan... (zinhor opa, aka, xola, tog'a, amaki va b. emas)</i>
Yurist, prokuratura xodimi, sudya	<i>(hurmatli) fuqaro da'vogar javobgar ayblanuvchi</i>	<i>(hurmatli) sudya, raislik qiluvchi (zinhor opa, aka, xola, tog'a, amaki va b. emas)</i>
Notarial idora, advokatlik xizmati xodimlari	<i>(hurmatli) mijoz</i>	<i>Opa, aka va b.</i>
Farrosh, bog'bon, qorovul		<i>opa, aka, xola, tog'a, amaki va b. (zinhor hoy, ey, boboy, momoy, kampir emas)</i>

Murojaat vositasi alohida shaxsga tegishli bo'lsa, uning tartibi quyidagicha bo'ladi: *Hurmatli (ism)+(otasining ismi)+(familiya)*. Bu tartibda ko'pincha familiya ishtirok etmasligi ham mumkin, ya'ni shu yo'l bilan murojaat qiluvchi murojaat yo'llanayotgan shaxsga o'z yaqinligini bildirishga harakat qilgan bo'ladi. Rahbar lavozimidagi shaxslarga murojaatda *aziz, qadrdon* aniqlovchilari kamdan-kam qo'llaniladi, aksar hollarda ulardan foydalanish tavsiya qilinmaydi.

Xizmat ko'rsatish sohalari vakillarining iste'molchi, mijozlarga murojaatida ortiqcha tantanavorlikning kuzatilmasligi muloqotda har ikki tomonning bir-biriga neytral munosabatda bo'lishga intilishidan kelib chiqadi. Shunga qaramay, ovqatlanish va ayrim xizmat ko'rsatish nuqtalarida bu jihatga biroz yumshoqlik bilan yondashiladi va dastlab xo'randa va mijozning huquq va istaklari asosida ish ko'rishga harakat qilinadi.

Kasb egalarining kundalik nutqidagi xatolar katta kamchilik sifatida qabul qilinmaydi, ammo inson professional muhitda quyidagi oddiy xatolarga yo'l qo'yishi mumkin: kambag'al lug'at, morfologik-sintaktik, uslubiy xatolar, talaffuzdagi nuqsonlar va h. Shuningdek, jargon va varvarizmlardan o'rsinsiz foydalanish, mahoratli mutaxassis ekanini bildirish maqsadida ortiqcha manmanlik qilish, mavzuga aloqasi bo'lmagan narsalar haqida gapirish – bularning barisi nafaqat mutaxassisning kasbiy mahoratiga nisbatan shubha uyg'otadi, balki uning mehnat faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi, mijozning bu xodimga takror murojaat qilishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin.

Soha xodimlaridan ularga murojaat qiluvchi kishilar bilan imkon qadar to'g'riso'z bo'lishlari talab qilinadi. Biroq murojaat qiluvchining ruhiy holati bilan hisoblashmaslik shaxslararo muloqotning teskari natijasini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, savdo xodimi uning moli qimmat va sifatsiz ekanini bildirgan xaridorga zinhor *Bozor katta, boshqa joydan olarsiz yoki Olmas ekansiz, nega teginasiz?!, Voy, olmasangiz, qo'lingiz bilan ushlamang!, Rosa ovora qilganingizga yarasha endi biron-nima olasiz!* kabi nobop gaplarni aytishdan tiyilishi shart. Bunday hollar boshqa soha vakillarining nutqida ham uchraydi. Masalan, shifokor bemorning ahvoli nechog'liq og'ir bo'lmasin, uning *Bu yoshingizda shu holatingiz ham yaxshi, Voy-bo'y, tishlaringizni yuvib turmaysizmi? Joylashing-da tezroq, sizga o'xshagan kasallarim ko'p!* singari munosabati bemorlarga iddao bo'lib eshitalishi mumkin.

Jamiyat a'zolarining katta qismi nutq odobi, nutq madaniyatini asosan kitobiy so'zlardan foydalanishda deb biladi, shunga mos holda o'zbekona madaniyatga uncha singishmagan ifodalarga murojaat qiladilar. Vaholanki, keng jamoatchilikda bo'lgani kabi, soha vakillari orasida ham kino va turli asarlarda bo'lgani kabi murojaat o'rnida soxta (masalan, *ma'zur tutgaysiz, ming bor uzr, avf etgaysiz, o'zimni tanishtirishga ruxsat bergaysiz* kabi), ortiqcha mulozamat va sertakalluflikni bildiruvchi jumalardan foydalanish ko'p ham iliq qabul qilinmaydi.

Shu kabi, endi tanishgan hamkasblar o'zaro: *Tanishganimdan bag'oyat xursandman, Siz haqingizda ko'p eshitganman* kabi jumalar bilan almashinishi mumkin. Ammo bu vaziyatda ham me'yorni unutmazlik, chiroyli gapirish vajidan sun'iylikni paydo qilmaslikka harakat qilish lozim. Zero, bunda *bag'oyat* so'zini

ishlatmay qo‘ya qolgan ma‘qul – jumlar qanchalar oddiy bo‘lsa, shunchalik ishonch va samimiyat uyg‘otadi.

Salomlashish va ishdan uyga qaytish mahalida hamkasblar yoki mijozlarga aytiladigan jumlar borasida ham samimiy bo‘lgan yaxshi: *Xayrli tong; yangi kun bilan qulashga ijozat bergaysiz; ko‘rganimdan xursandman; ertagacha; xizmatimizdamiz* singari ifodalarni o‘zbekona *Assalomu alaykum; tan-joningiz omonmi; sog‘-salomatmisiz; uydagilar, farzandlaringiz sog‘-salomatmilar; Sizni ko‘rib xursand bo‘ldim; xayr; yaxshi dam oling, ertaga ko‘rishguncha; sog‘ bo‘ling; foydam tekkanidan xursandman; kelib turing* (bemorlarga emas) jumalari bilan almashtirgan ma‘qul. Jumalarni haddan tashqari jo‘nlashtirish ham to‘g‘ri emas. Masalan, *gaplashamiz, ko‘rishamiz, ko‘rinib turing* singarilar suhbatdoshga nisbatan hurmatdan ko‘ra nopisandlik belgilaridir.

Mehnat jamoasida xodimlarning bir-biriga laqab, taxallus yoki ismlarning erkaloqchi, kichraytiruv shakllari bilan murojaat qilishlari kasbiy axloqqa zid holat hisoblanadi (maslan, *Irosh* (Iroda), *Ibosh* (Ibodot), *Ra‘nosh* (Ra‘no), *Dilish, Dilya* (Dildora, Dilrabo, Dilnavoz, Dilshoda va b.), *Gulya* (Gulhayo, Gulnora, Gulchehra, Gulmira va b.), *Furik* (Furqat), *Fara* (Farhod), *Sami* (Samandar), *Sherik* (Sherzod), *Shurik* (Shuhrat), *Baxa* (Baxtiyor) kabi).

Muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni

Katta hajmdagi axborotni uzoq masofaga nisbatan katta tezlikda sifatli va kamharj shaklda uzatish imkoniyati kommunikatsiyaning insoniyat tarixidagi o‘rnini beqiyos darajada oshirdi.

Kommunikatsiyaning tadrijiy rivoji:

- ilk yozuv ko‘rinishlari va alifboning yaratilishi;
- qog‘oz va bosma dastgohning kashf qilinishi;
- XIX asr o‘rtalarida telegraf, XIX asr oxirida esa telefon va fotoapparat, radio, kinoning ixtiro qilinishi;
- XX asrning birinchi choragida televideniening ixtiro qilinishi;
- XX asrning ikkinchi choragida sun‘iy yo‘ldoshning kashf qilinishi;
- XX asrning uchinchi choragida kompyuter va internetning ixtiro qilinishi bilan belgilanadi.

Mutaxassislarning taxminiga ko‘ra, kelgusi davrda axborot bilan erkin ishlash malakasiga ega bo‘lgan mutaxassislar jamiyatning talab qilingan mutaxassislariga aylanadilar (albatta, bunda o‘qituvchilar va shifokorlardan keyingi maqomni nazarda tutish lozim). Garchi kelgusi davr global axborot davriga aylansa ham, o‘shanda ham savodxon, o‘z nutqini har jihatdan nazorat qiluvchi mutaxassislargina jamiyat orasida hurmat va e‘tibor topadi.

Dastlab ma‘lumot beruvchi vazifani bajaruvchi nutq kishining o‘z maqsadlariga erishishida kuchli vositadir. Chiroyli ovoz va to‘g‘ri talaffuz qilingan so‘z tinglovchining qalbiga yetib boradi. Qimtilgan lablar, tepa va pastki jag‘ning noto‘g‘ri harakati ovozning sifatiga salbiy ta‘sir qiladi. Noaniq nutq tinglovchilarda chalkashlik va aytilganlarni qayta tahlil qilish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Maxsus nutq treninglari yordamida tovushning yoqimli talaffuziga erishish, ekspressivlikni oshirish va ohangning jilodorligiga erishish mumkin.

Bugungi kunda bo'lg'usi mutaxassislarni kasbga tayyorlash davomida ularning nutq texnikasi, nutqiy didi, saviyasi va muomala madaniyatiga doir turli usul, rolli o'yinlar hamda treninglarni o'tkazish tavsiya etiladi. Bunday usullarga *case study*, "Yaxshisini tanla", "Men qaerdaman", "Sehrli do'kon", "Hikoya" kabilarni kiritish mumkin.

Nazorat savollari

1. Muloqot texnikasi va uning tarkibiy qismlari to'g'risida ma'lumot bering.
2. Sizningcha, muloqot texnikasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning qanday o'rni bor?
3. Shaxslararo muloqotda hamkorlik tamoyili (Grays) hamda hurmat (Lich) tamoyillarining ahamiyatini tushuntiring.

Adabiyotlar

1. Введенская Л.А., Павлова Л.Г. Кашаева Е.Ю. Русский язык. Культура речи. Деловое общение. – М.: КноРус, 2015.
2. Ивакина Н.Н. Профессиональная речь юриста: Учебное пособие. – М., 2012.
3. Культура речи государственного служащего: Учебно-практическое пособие/ Л.А. Введенская, Л.Г. Павлова, Е.Ю. Кашаева. – Ростов н/Д., 2011.
4. Лысова Т.В., Попова Т.В. Культура научной и деловой речи: Учебное пособие. – М., 2011.

15-mavzu. OG'ZAKI MULOQOT VA UNING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Verbal va noverbal muloqot.
2. Og'zaki nutq va yozma muloqot.
3. Muloqot texnologiyasi va texnikasi.

Tayanch tushunchalar: *og'zaki va yozma muloqot – aloqa uzatishning vositasi sifatida, muloqotning verbal va noverbal shakli, noverbal muloqotning ko'rinishlari, muloqot texnikasi va nutq texnikasi tushunchalarining o'zaro farqi.*

Muloqot va uning xususiyatlari

Axborot uzatishning asosiy vositalaridan biri bu nutqdir. Muloqot jarayonida tilning: kommunikativ (axborot almashish funksiyasi); konstruktiv (fikrlarni shakllantirish); apellyativ (qabul qiluvchiga ta'sir qilish); hissiy (vaziyatga bevosita hissiy munosabat); fatik (marosim (odob) formulalar almashinuvi) singari funksiyalari amalga oshadi. Nutqning har bir shakli, hatto maxsus ko'rinishga ega

bo‘lmagan ichki nutq ham so‘zlar (lisoniy belgilar) yordamida in‘ikos etiladi, zero til – fikrni moddiylashtiruvchi asosiy vositadir.

Aloqa ishtirokchilarining maqsadlariga qarab, quyidagi turdagi bayonotlar ajratiladi: xabar, fikr, hukm, tavsiya, maslahat, tanqid, iltifot, taklif, xulosa, xulosa, savol, javob, tabrik va b.

Odamlar o‘rtasidagi aloqa faoliyati turli sohalarida har xil shakllarda sodir bo‘ladi. Axborot almashish shakliga qarab, nutqning ikki shakli farqlanadi: og‘zaki va yozma. Og‘zaki nutq tovushlar yordamida, yozma nutq maxsus belgilar yordamida yuzaga keladi.

Nutq muloqotning verbal (so‘zlar yordamida amalga oshadigan) shakli bo‘lib, u til yordamida yuzaga chiqadi. Nutqning asosiy ikki: ichki va tashqi shakli mavjud. Tashqi nutqning og‘zaki ko‘rinishi zamon va makon kesimida nihoyatda chegaralangan va o‘zgaruvchandir. Masalan, bir davrada o‘zaro ko‘rishish va eshitish, kuzatish, baholash, tahlil qilish imkoniga ega bo‘lgan suhbatdoshlar telefon yoxud kommunikatsiyaning boshqa shakllari orqali muloqot qilsalar, tabiiy sharoitdan farqli, suhbatlari qisqa, vaziyat shart-sharoiti esa bir-biriga noaniq bo‘lib qoladi. Biroq tinglovchi maqomi nofaol qoluvchi televidenie sharoitiga nisbatan, suhbatdoshlar bu vaziyatlarda tortishish, bahslashish, o‘zaro fikr almashish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Og‘zaki nutq va yozma muloqot

Og‘zaki nutq – bu ovoqli nutq. Tarixan, bu asosiy va yozuvdan oldin paydo bo‘lgan nutq. Og‘zaki nutq tovush to‘lqinlari yordamida yaratiladi, inson talaffuz organlarining murakkab faoliyati bilan bog‘liq va shuning uchun katta intonatsion imkoniyatlarga ega. Og‘zaki nutq insoniy his-tuyg‘ular, tajribalar, kayfiyatlarining barcha boyligini etkazishi mumkin. Og‘zaki nutq og‘zaki bo‘lmagan nutqiy aloqa vositalari bilan birga keladi va uning mazmundorligini kuchaytiradi, og‘zaki nutqning semantik ahamiyati va hissiy boyligini oshirishga yordam beradi.

Og‘zaki nutqning asosiy xususiyatlaridan biri – bu qaytarilmaslik, oldinga siljish, vaqt o‘tishi bilan tarqatishning chiziqli tabiati.

Og‘zaki nutq norasmiy, bevosita, hissiy-ekspressiv, mazmunning subyektiv bahoga egaligi, mimika va jestlardan iborat bo‘lgan nutqdir. Shuningdek, talaffuzning alohida me‘yorga bo‘ysundirilmaganligi, tovush va bo‘g‘inlarning talaffuzda “yutilishi” (tushib qolishi), ellips (tegishli nutqiy birlikni bilvosita va bevosita ifoda etmay qoldirish), fikr va so‘zlarni takror ifodalash, nutqiy xatolar, nutq temбри (bir tovushni boshqasidan ajratishga yordam beradigan tovush tebranishlaridagi farq), turli xil ovoz balandligi, intonatsiya (ohang) va nutq tempi bilan farqlanadi.

Og‘zaki nutqning tempi kishi temperamentini, hissiy holatiga qarab tez, sekin yoki o‘rtacha bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ohang vositasida so‘zlovchi tomonidan uzatilgan axborot (signal) tinglovchilar tomonidan oson idrok etiladi, aksincha, ifodasiz ohang muloqot ishtirokchilarining bir-birini tushunishlarini qiyinlashtiradi. Eshitish hissi uchun temp, tembr, ovoz, intonatsiya va ko‘ruv uchun: yuz ifodalari, imo-ishoralar, tashqi ko‘rinish, kiyim-kechak, soch turmagi – bularning barchasi qabul qiluvchi uchun og‘zaki nutqning xususiyatlarini tashkil etadi.

Nutqning og'zaki shakli frazeologik birliklar, hissiy-baholovchi bo'yoqdorlikka ega so'zlarga boy bo'lib, odatda, kitobiy so'zlardan xolidir.

Og'zaki nutq xususiyatlari har doim nutq vaziyatiga bog'liq bo'ladi.

Og'zaki nutq asosan dialog, polilog shaklda, kamdan-kam hollarda monologik ko'rinishda amalga oshadi. Bu bo'linish mazkur nutq shakllarining nafaqat ishtirokchilar soni, balki matn tuzish, nutqiy faoliyatni muloqot vaziyatida qo'llab-quvvatlash singari xususiyatlarini ham namoyon etadi. Jumladan, monolog dialogga nisbatan yig'iq, o'zga suhbatdosh va tinglovchilarning luqmalaridan xoli, mantiqiy ketma-ketlikka bo'ysundirilgan, yakunlangan, rejali tayyorlangan nutqdir.

Og'zaki nutq tayyorlangan va tayyorlanmagan turlarga bo'linadi.

Tayyorlangan og'zaki nutqning qurilishi mantiqan bir-birini taqozo etuvchi va to'ldiruvchi jumalardan tashkil topib, unda uslubiy va nutqiy xatolarning uchrashi tayyorgarliksiz og'zaki nutqqa nisbatan ancha kam kuzatiladi.

Yozma muloqot asosan monologikdir, chunki u bitta muallifning o'zi tanlagan mavzu haqidagi bayonidan iboratdir. To'liqsiz gaplarning uchrashi yozma nutqda nisbatan kam kuzatiladi, vaholanki, og'zaki nutqda muayyan sintaktik qurilma tarkibidagi bo'laklar nutq vaziyatiga ko'ra joy almashinishi, tushib qoldirilishi ham mumkin.

Frazeologik birikma (ibora)lardan foydalanish, turli tasviriy ifodalar, vositalarga murojaat ko'proq yozma nutqqa tegishli xususiyat bo'lib, undan farqli, og'zaki nutqda improvizatsiya imkoniyati yuqori, fikr ifodasi uchun birliklarni tanlash erkin tarzda kechadi.

Yozma muloqot o'zida uslubiy va janroviiy xoslangan belgilarni yorqin namoyon etadi, og'zaki nutqda bu belgilar aniq chegaraga ega bo'lmaydi.

Yozma nutq:

- grafik jihatdan mustahkamlangan (tegishli shaklga ega);
- oldindan o'ylab, tuzatish imkoniga egaligi;
- kitobiy so'zlardan foydalanish darajasining yuqoriligi, til me'yorlariga qat'iy amal qilish, yozma nutq elementlaridan boshqa unsurlarning qatnashmasligi bilan farq qiladi.

Og'zaki nutq shaklida yuborilayotgan axborot (signal) uni qabul qiluvchi (adresat) tomonidan axborotni uzatuvchi (adresant) haqidagi obrazli ma'lumot bilan uyg'un holda qabul qilinadi, garchi yozma matnning egasi shu matnni o'quvchi shaxs tomonidan faxmlanadi, tasavvur qilinadi, xolos. Og'zaki nutqda adresant va adresat o'rtasida zich psixologik ta'sirlashuv yuzaga keladi, ular o'rtasida o'zaro tasdiq va inkorga asoslangan rozilik/norozilik reaksiyasi sodir bo'ladi. Yozma nutq egasi esa suhbatdoshning ta'sirini his etmaydi, u yaratayotgan matn mazmuni faqat o'quvchiga ta'sir ko'rsatish maqsadiga bo'ysundiriladi.

Og'zaki va yozma nutqni idrok etish tabiati ham farq qiladi. Yozma nutq vizual idrok uchun mo'ljallangan. Mutolaa vaqtida matndagi tushunarsiz o'rinlarni bir necha marta qayta o'qish, qayta bayon qilish, individual qo'llangan so'zlarning ma'nosini aniqlashtirish, atamalar, yangi so'zlar ma'nosini lug'atlar asosida tekshirish mumkin. Og'zaki nutq quloq orqali qabul qilinadi. Uni yana takrorlash uchun maxsus texnik vositalar kerak.

Yozma matn odamlar o'rtasida vositachi bo'lib, uning yordamidagi muloqotni jonli muloqot deb hisoblash qiyin (garchi internet chatlaridagi yozishmalar ham to'g'ridan-to'g'ri, "onlayn" muloqot shakli bo'la olmasa-da, yozma muloqot shakli hisoblanadi). Bunday hollarda yozma matn muallifning vakili sifatida ishlaydi. Biroq muallif so'z qo'llash mahorati orqali matnga jilo, alohida ruh kirita olsa, u holda yozma matn o'quvchi bilan aloqa-aralashuv vositasiga aylanadi.

Og'zaki nutqda ma'noni yetkazish uchun jumlaning pauzalari va ohangiga e'tibor qaratish muhim bo'lsa, yozma matnda bu vazifani tinish belgilari bajaradi.

Og'zaki monologik nutq uch qismdan iborat: kirish, asosiy qism, xulosa. Nutqdan oldin, suhbatdan oldin, nutq mavzusi, mavzusi aniqlanadi. Ular ma'lum bir nutq holati bilan bog'liq. Kirish ma'ruzachi va tinglovchi bilan aloqani o'rnatish uchun zarurdir. Xulosa-xulosalar va istaklarni o'z ichiga olgan nutqning natijasi. Asosiy qism xabar mavzusini ochib beradi. Buning uchun taqdimotning mantiqiy shakllari muhimdir-tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish; tuzilish usullari, masalan, bitta savolni ketma-ket taqdim etish, asosiy muammo atrofida materialning joylashishi. Nutq tarkibi uchun asosiy talab mantiqiylikdir.

Suhbatdoshlar "Quyosh yerga nur sochadi, Oy tunni yoritadi" kabi hammaga ma'lum ma'lumotlarni bayon qilarkan, axborot almashuvi sodir bo'lmaydi va kommunikativ aloqa amalga oshmasligi mumkin. Muloqot uchun sabab-oqibat munosabatlariga rioya qilish muhimdir, chunki ularning yo'qligi ma'nosizlikka olib keladi.

Yozma nutqning asosiy vazifasi og'zaki nutq orqali tarqagan ma'lumot(axborot)ni makon va vaqt ichida saqlab qolishdir. Yozish aloqa imkonsiz bo'lganda to'g'ridan-to'g'ri aloqa vositasiga aylanadi.

Yozma nutq ma'lumotni uzoq vaqt saqlash vositasidir. U vaqtinchalik emas, balki statik makonda joylashtiriladi, bu yozuvchiga matnni qayta ko'rib chiqish, unga yana qaytib kelish, matnni yoki uning bir qismini qayta tiklash, kerakli shaklni izlashga imkon beradi. Yozma nutq uslubni shakllantirish funksiyasiga ega, bu matn tuzishda alohida til birliklarini tanlashda aks etadi.

Yozma muloqot asosan kitob nutqidir. Kitob nutqi sifatida u siyosiy, ilmiy va boshqa aloqa sohalariga xizmat qiladi, suhbat esa rasmiy va yarim rasmiy uchrashuvlar va yig'ilishlarda, tantanalarda, oilaviy muhitda qo'llaniladi. Yozma nutq fikrlar izchilligi, aniqligi, mantiqiyligiga asoslanadi. Masalan, yozma matnda bir fikrdan ikkinchisiga tez, asossiz o'tishga, mantiqiy aloqalarning buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, yozma muloqotda fikr mundarijasini avvaldan puxta rejalashtirish, yozma matnda aks etgan ma'lumotni bir makondan o'zga bir makonga, avloddan avlodga olib o'tishning imkoniyati katta. Yozma nutqda real voqelikda ko'rilgan, eshitilganlarning sintez-analizi turlicha talqin etilganidan, savodxonlik mezonlariga amal qilish, voqelikni boricha tavsiflash, tasvirlash birmuncha qiyin kechadi. Shunga qaramay, adabiy til me'yorlariga amal qilish holati ko'proq yozma nutqda kuzatiladi.

Og'zaki va yozma nutqda ham, nutq holatiga ko'ra ma'lum nutq qoliplari, barqaror ifodalardan foydalanish shartdir, bu nutq madaniyatining asosiy

talabalaridan biridir. Bejizga Aristotel ogʻzaki va yozma nutq haqida: “aytilgan soʻzlar aqliy tajribaning ramzidir, yozma soʻzlar aytilgan soʻzlarning ramzidir” deb aytgan.

Verbal va noverbal muloqot

Nutq verbal va noverbal vositalar orqali amalga oshadi. Verbal aloqa sifatida nutq va uni ifodalovchi soʻzlar tushuniladi. Mutaxassislar zamonaviy odamning 30 mingga yaqin yoxud bir soatda 3 mingga yaqin soʻzni ishlatishini aniqlaganlar.

Toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa paytida ogʻzaki nutqni idrok etish ham eshitish, ham vizual kanallar orqali sodir boʻladi. Ogʻzaki nutq, uning ifodasini kuchaytirish, tashqi koʻrinishning tabiati (ogohlantiruvchi yoki ochiq va hokazo), yuz ifodalari va imo-ishoralar kabi qoʻshimcha vositalar bilan birga keladi. Imo-ishora indikator soʻziga (obyektning belgisi) oʻxshash boʻlishi mumkin, hissiy holatni, rozilikni yoki kelishmovchilikni, hayratni va boshqalarni ifodalashi mumkin, kontakti oʻrnatish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin (masalan, salomlashish belgisi sifatida koʻtarilgan qoʻl; qoʻlning norozilikni tasdiqlovchi gorizontol harakati yoki boshning tasdiqni ifodalovchi vertikal harakati).

Noverbal aloqa. Noverbal aloqaning xususiyatlari. Tabiatiga koʻra inson har doim ham his qilganlari va oʻylaganlarini soʻzlamasligi, aytganlari esa har doim ham uning tuygʻulari va fikrlarini aynan ifodalamasligi mumkin. Bu vaziyatda suhbatdoshning maslagi, vaziyatga munosabati bevosita u uzatayotgan noverbal belgilar orqali anglashiladi.

Soʻzlardan oʻzga aloqa vositalari bilan (noverbal) axborot uzatish suhbatdoshlar oʻrtasidagi masofa, kinesik belgilar: tana holati (poza), yuz ifodalari, imo-ishoralar (mimika, jestlar), ohang, qarash, tana harakati (pantomimika) va boshqalar orqali amalga oshadi.

Dastlab suhbatdoshlar oʻrtasidagi masofa oʻlchamiga toʻxtalamiz. Fanda bu **proksemika** deb ataladi.

1. Intim muloqot hududi (0,5 metr va undan kam oraliqda). Odatda bir-biriga ruhan yaqinligini tasdiqlamoqchi boʻlgan suhbatdoshlar mazkur masofada turib muloqotda boʻladilar.

2. Shaxsan muloqot hududi (0,5 metrdan 1,5 metr oraligʻida). Bir-biriga yaxshi tanish boʻlgan insonlar muloqoti uchun xos masofa. Bu masofa oraligʻida suhbatdoshlar oʻzaro qoʻl harakati bilan bir-biriga taʼsir koʻrsatish (qoʻl silkish, qoʻl berib koʻrishish, yelkani qoqib salomlashish va b.) imkoniga egadirlar.

3. Rasmiy muloqot hududi (1,5 metrdan 3 metrgacha). Ishbilarmonlik uchrashuvlari, kam ahamiyatli suhbatlar hududi.

4. Ommaviy muloqot hududi (3 metr va undan koʻproq masofa).

Jestlar – muloqot davomida bosh va qoʻl harakatlaridan foydalanish. Tadqiqotchi M.Argaylaning kuzatishlariga koʻra bir soatlik suhbat ichida finlar 1 marta, fransuzlar 20 marta, italyanlar 80 marta va amerikaliklar 180 marta jestlarni qoʻllagan ekan.

Mimika – yuz harakati. Maʼlumotlarga koʻra, harakatsiz yuz yoki koʻrinmas muloqotchi tomonidan uzatilgan axborotning 10-15 foizi yoʻqolar ekan.

Vizual aloqa – nigohlar orqali muloqotga kirishish.

Pantomimika – tananing holati, tana vazni, qad-qomat, shuningdek, qadam tashlash kabilardan iborat motorik harakati.

Poza – tananing 1000 ga yaqin ko'rinishdagi holati. Masalan, muloqot ishtirokchisining oyoqlarini chalishtirib, qo'llarini bir-biriga chirmab o'tirishi suhbatdoshga o'zini yaqin yo'latmaslik belgisini va u bilan hamkorlikka kirishish ehtiyojining yo'qligini anglatadi.

Takesika – suhbatdosh tanasiga bosh, qo'l bilan teginish (ko'rishish, quchoqlashish, o'zidan itarish va h.).

Prosodika – nutqning ovoz balandligi, tembri, sifati kabi ritmik-intonatsion jihatlari.

Shunday qilib, noverbal aloqa quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

-**Kinesika** - tana tili (imo-ishoralari, mimika, bosh, gavda, oyoq harakatlari);

- **vokalika yoki paralingvistika** - ovozning akustik xususiyatlari;

-**takesika, gaptika** - teginish orqali ta'sir ko'rsatish (qo'l siqish, quchoqlash, mushtlashish va hokazo);

-**estetika** - rang va tovush tili (yuzning sog'lom rangi, nutq ohangdorligi);

+**artefaktika** – odamning ustidagi narsalarning tili (kiyim, poyabzal, zargarlik buyumlari va b.);

-**olfaktika** - hidlar tili (tabiiy va sun'iy);

-**fizikatika** - insonning jismoniy xususiyatlarining tili (vazn, bo'y, qomat);

- **proksemik** - odamlar o'rtasidagi masofa tili (intim, do'stona, ommaviy);

- **xronomika** - vaqtni boshqarish tili (daqiqlik, kechikish).

Muloqotning noverbal vositalari suhbat ishtirokchilari o'rtasida muloqot yo'nalishini oldindan ehtimol qilish, shunga mos tarzda suhbat taktikasini o'zgartirish zaruratini yuzaga keltiradi. Masalan, biror yuzaga predmet yoki barmoqlar bilan urish, stulda chayqalish, oyoqni silkitish, soatga qarash, atrofga xayolchan boqib o'tirish singarilar suhbatdoshning muloqotchi va muloqot vaziyatiga munosabatini belgilaydi. Agar biror kishi stulning chetida o'tirib, qo'llari bilan tizzalariga suyansayu, butun tanasi bilan oldinga intilsa, demak u shoshilayotgan yoki suhbatdan zerikkan, juda charchagan, suhbatni tezda tugatishni xohlagan bo'ladi. Xuddi shunday, odam iyagi yoki yonog'iga qo'llarini (kaft yoki musht qilib) suyanganda ham suhbatdan zerikkanligini bildirmoqchi bo'ladi.

Hissiy noqulaylikning imo-ishoralari: kiyimlarni silkitib tashlash, bo'yinni chizish, qo'llar kaftini bir-biriga qo'yib uqalash, iyakni qashlash va b.

Suhbatdoshning muloqot ishtirokchisidan ustunlik imo-ishoralari, odatda suhbatdoshga yo'naltirilgan ko'rsatkich barmog'i, yuqori ko'tarilgan iyagi, yon tomonga yo'naltirilgan qo'l kaftlari orqali ifodalanadi.

Davlat va nodavlat tashkilot va korxonalar, ishlab chiqarish obyektlari va aholiga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi sohalarida ishlaydigan mutaxassis-xodimlar muloqot texnologiyasi va texnikasini puxta o'zlashtirishlari, kommunikativ texnika va texnologiyalarning maqsadi va mazmuni haqida tasavvurga ega bo'lishlari, kasbiy faoliyatlarida madaniy nutq talab va me'yorlariga doimo amal qilishlari va nutq madaniyatiga oid ko'nikmalarini takomillashtirib borishlari shart.

Kommunikativ faoliyatda o'zaro hamkorlikning istalgan ko'rinishi (ommaviy chiqish, OAVda chiqish, shaxsiy muloqot va b.) va vositalari ishtirok etadi.

Muloqot texnologiyasi faqat bugungi kunda kashf etilgan tushuncha emas: insoniyat tarixidagi shaman qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, ixtirolar, voizlik, asarlar yozish va boshqalar — ularning barchasi turli intensivlik darajasidagi muloqot texnologiyasidir.

Muloqot texnikasini nutqi texnikasidan farqlash lozim.

Nutq texnikasi nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmuyidir. Nutq texnikasi: 1. Og'zaki nutq texnikasi. 2. Yozma nutq texnikasiga bo'linadi. Og'zaki nutq texnikasi tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, diksiyaga e'tibor berish, tovushlarning past-baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar kiradi. Yozma nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1. Har qanday yozma nutq uchun zarur bo'lgan texnik xususiyatlar. 2. Ish qog'ozlariga xos bo'lgan texnik xususiyatlar³⁹.

Muloqot texnikasi – insonning o'zgaralar bilan muloqot faoliyatidagi o'z-o'ziga bo'lgan nutqiy harakatlar ko'rsatmasidir, muloqot usullari esa uning mazkur faoliyatda qo'llaydigan verbal va noverbal vositalarni jamlaydi. Muloqot texnikasi – muloqot ishtirokchilarining qadriyatlar ichki tizimi, shaxsiy baho munosabati, shuningdek, o'z muammolaridan farqli, suhbatdagi sherikning manfaatlariga qaratilgan, suhbatdoshni hurmat qilish va u bilan hamkorlik qilish tamoyiliga asoslangan muloqot usuli.

Muloqot texnikasi suhbatdoshlarning muloqot vaziyatiga ko'ra o'z harakatlarini taktik-strategik o'zgartirib turishini ham ehtimol qiladi, negaki muloqot unda qatanashayotganlarning ichki psixologik aloqa-aralashuvi bo'lib, uning muqim kechishi kafolatlanmaydi. Suhbatdoshlardan birining kutilmaganda o'z qarorini o'zgartirishi, turli hissiy holatlarga berilishi va shuning oqibatida muloqot yo'nalishini o'zgartirib yuborishidek turli holatlar muloqot ishtirokchilarida shunga mos nutqiy strategiyani qo'llashni taqozo qiladi.

Muloqot texnikasi ikki turga ajratiladi: tushunuvchi va direktiv.

Tushunishga asoslangan muloqot suhbatdoshning muammolarini anglash, uning shaxsiy xislatlarini, muhokama etilayotgan masala yuzasidan nuqtayi nazarini o'rganish, u bilan psixologik aloqa o'rnatishni talab qiladi. Tushunishga asoslangan muloqotning asosiy tamoyili shaxsiy manfaatlarni suhbatdosh manfaatlaridan ustun qo'ymaslikdan iborat.

Mazkur masala fanda pragmalingsvist J.Lichning muloqotda hurmat tamoyiliga amal qilish haqidagi qarashlari misolida o'rganilgan. Jumladan, olim

³⁹ Кудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

bu tamoyilning voqelanishi oltita hech qanday isbotni talab qilmaydigan qoidalar (postulatlar) faollashuvidan iborat ekanligini uqtiradi. Bu qoidalar quyidagilar:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlari "sarfi"ni kamaytir; uning foydasini ko'paytirishga harakat qil);
2. Himmat, olijanoblik qoidasi (o'z foydangni kamroq ko'zla, barcha "sarfi"ni o'z zimmangga ol);
3. Ma'qullash, tahsin qoidasi (o'zgalarni yomonlama, g'iybat qilma, koyima);
4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o'z-o'zingni maqtashni keskin kamaytir);
5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);
6. Xush ko'rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrihox, oqko'ngil bo'l).

Suhbatdoshni tushunish, pirovardida, quyidagi talablarga ergashishni taqozo qiladi:

- ko'proq tinglab, suhbatdoshning gaplariga quloq tutish, kayfiyatini kuzatish;
- shaxsiy munosabatni ochiq bildirmaslik, savol bermaslik, suhbatdoshni u ixtiyor qilmagan mavzuda gaplashishga majbur qilmaslik;
- suhbatdosh manfaatiga xizmat qiluvchi axborotni ulashish;
- suhbatdosh kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga harakat qilish.

Muloqot texnikasining ikkinchi turi – direktiv muloqot texnikasi esa muloqot ishtirokchisining o'z nutqiy maslagini amalga oshirish maqsadida suhbatdosh(lar)ga ta'sir ko'rsatishdagi o'z-o'ziga ko'rsatmalar, qoidalari hamda usullari majmuyidir. Bunga quyidagilar kiradi:

- o'z nuqtayi nazarini, maqsadlarini to'g'ri, ochiq va ravshan ifoda etish;
- maqsadga erishishda ochiq va faol harakatlanish;
- shaxsiy (yoki jamoa) manfaatlariga xizmat qilmaydigan harakatlarni (topshiriqlarni) bajarishdan bevosita, ochiqchasiga voz kechish;
- muloqotdagi sherikning tajovuzkor harakatlaridan samarali va keskir himoyalaniish usullariga ega bo'lish;
- shaxsiy maqsadlarga hamkorning manfaatlari va maslagini inobatga olgan holda erishishga intilish.

Direktiv muloqot usullariga quyidagilar mansub:

- direktiv savollar (muloqotdagi hamkorni sizni qiziqtirayotgan masala yuzasidan fikrlashishga yo'naltirish);
- hamkorning e'tirozli, zid xulosalarini ochiqchasiga muhokama qilish (hamkorni o'z qarashlaridagi xatolarini anglashga yo'naltirish);
- suhbatdosh fikrlaridan shubhalanganlikni anglatish;
- tasdiq va inkor (ro'yxushlik va e'tiroz, qo'shilish va qo'shilmaslik)ni ifodalash;
- maslahat, taklif, masalani oydinlashtirish;

- ishontirish;
- majbur etish (hamkorga birgalikda harakatlanishdan voz kechganida ochiq va yashirin tazyiq o'tkazish).

Nazorat savollari

1. Verbal va noverbal muloqot deganda nimani tushunasiz?
2. Og'zaki nutq va yozma muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini bayon qiling.
3. Muloqot texnologiyasi va texnikasi tushunchalari o'rtasida qanday farq mavjud?
4. Muloqot texnikasi va nutq texnikasi tushunchalarining o'zaro farqini tushuntiring.

Adabiyotlar

1. Кудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
 2. Власенков А.И. Русский язык. 10-11классы. // Власенков А.И., Рыбченкова Л.М. – М., 2009. – 287 с.
 3. Тарасова Т. А., Искусство речи: учебно-практическое пособие // Тарасова Т. А. – М.: Директ-Медиа, 2014. – 453 с.
 4. Психология общения и межличностных отношений: Учебник // Ильин Е.П. – СПб.: Питер, 2009. – 576 с.
 5. Психология общения. Бодашев А.А. – М.: изд-во Воронеж – НПО "МОДЕК", 2005 г.
 6. Черняк В.Д., Русский язык и культура речи: учебник для бакалавров, под общей редакцией В.Д. Черняк – М.: Юрайт; ИД Юрайт, 2012. – 494 с.
 7. Leech G. Principles of Pragmatics. L.: Longman, 1983. XIV+250 p.
 8. <https://times.bntu.by/news/8184-sposoby-neverbalnogo-obshcheniya>
- © TIMES.BNTU.BY

GLOSSARIY

Tilning fatik (muloqotni o'rnatuvchi) vazifasi – tilning suhbatdoshlar o'rtasida muloqotni asosan qolip jumlarlar (salomlashish, ko'rishish, xayrlashish va h. natijay vaziyatlariga xos) orqali ta'minlashga xizmat qiluvchi vazifasi.

Tilning estetik vazifasi – tilning: mazmuni ezgu xususiyatdan iborat ma'lumotlar yig'indisining so'z orqali shaxsdan-shaxsga, jamoadan-jamoaga, avloddan-avlodga yetkazish va shu orqali insonning o'z-o'zini va o'zgalarni tushunib yetishiga, ularning ma'naviy darajasini o'stirishga qaratilgan vazifasi.

Tilning kognitiv (bilish) vazifasi – tildagi: nutq jarayoni bilan birga kechuvchi, bevosita muloqot paytida sodir bo'luvchi hodisotlar haqidagi tasavvur va qarashlarning bir vaqtning o'zida tafakkurda obraz va tasavvur, yangi bilimlarning hosil bo'lishi, mavjudlarini mukammallashtirishga qaratilgan vazifa.

Tilning kumulyativ (lot. *accumulatus* – to'plangan) **vazifasi** – tilning axborot va bilimni to'plashdan iborat vazifasi deb nomlanadi. Ushbu vazifaning ahamiyati nafaqat til sohibi yoxud lisoniy hamjamiyat, balki ilm-fanning rivoji uchun ham nihoyatda muhim.

Davlat tili – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til. Odatda, ko'p millatli mamlakatlarda, mas., Hindiston, Kanada, Shveysariyada qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan. Davlatlarning ko'pchiligida rasmiy til bilan davlat tili aynan bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til davlat tili maqomidan farqlanadi. Mas, Shveysariyada konstitutsiyaga binoan nemis, fransuz, italyan tillari — rasmiy til; nemis, fransuz, italyan va retoroman tillari — D.t. sanaladi.

Rasmiy til – mamlakat hukumatining (sud, qonun chiqaruvchi, ma'muriyat) foydalanadigan tili.

Rasmiy yozuv – Misrda paydo bo'lgan, elementlari gramatik va semantik aniqlagich belgilari (determinativlar)dan iborat ierogliflardan iborat yozuv turi. Rasmiy – piktografik yozuv axborotda nima nazarda tutilsa, shuning tasviridan iborat rasm.

Finikiyaliklar alifbosi – insoniyat tarixidagi tovushni ifodalovchi harflardan iborat ilk alifbo (er. avv. 2-ming yillik o'rtalari).

Oromiy yozuvi finikiyaliklar alifbosi asosida shakllangan (er.av. 1050-yillar), Sharqning uzoq o'lkalarigacha kirib borib, eroniy, turkiy va mo'g'uliy tilli xalqlarning yozuviga asos bo'lgan yozuv turi. Ayrim manbalarda oromiy yozuvini o'zlashtirgunga qadar eroniylarning o'z alifbolari mavjud bo'lmagani qayd etiladi. VI-IV asrlarda ahamoniylar oromiy yozuvini ish yuritish yozuviga aylantirib, uning mavqeyini yuksaltirganlar. Bu yozuv Behustun qoyatosh bitiklarining 70 bandida o'z aksini topgan.

Fonografemalar – tovushlarni ifodalovchi grafemalar.

Prosodemografemalar – ohang va ritmik-intonatsion vositalarni yozuvda ifodalash uchun xizmat qiluvchi grafemalar (*atlás* (“matoning bir turi”), *átlas* (“geografik atlas”)).

Logografemalar – tushuncha nomi boʻlgan soʻzlarni yozuvda ifodalashga xizmat qiluvchi grafemalar (B4 (before), GR8 (great), Y (why), OIC (Oh, I see), (forget), XIX, XL kabi).

Morfografemalar – soʻz tarkibidagi maʼnoli qismlar (morfemalar)ni ifodalovchi belgilar: / (-lar koʻplik qoʻshimchasini ifodalashda), = (-ning qaratqich kelishigi qoʻshimchasini ifodalashda), & (*bilan*, va bogʻlovchilari maʼnosini ifodalashda).

Bir maʼnoli soʻzlar – faqat bir maʼnoga yega soʻzlar. Bular: terminlar, atoqli otlar, isteʼmolga kirgan ayrim soʻzlar toifasi. Masalan, *termometr* (harorat oʻlchagich), *kompyuter*, *telefon*, *Tohir*, *Gulchehra*, *papka*, *ruchka*, *stakan* va b.

Koʻp maʼnolilik (polisemiya: ingl. polysemia, polysémy, fr. polysémie, nem. polysemie) – til birliklarining oʻzaro bosh maʼnoga birikkan holda birdan ortiq bogʻliq maʼnoga ega boʻlishi. Masalan, *odamning koʻzi*, *daraxtning koʻzi*, *elakning koʻzi*, *uzukning koʻzi*, *ishning koʻzi* birikmalaridagi koʻz leksemasi koʻp maʼnoli soʻz boʻlib, u oʻzining bosh – “odamning koʻzi” maʼnosidan taraqqiy eta borib, *ishning koʻzi* obrazli ifodasi qadar maʼjuziy maʼno kasb etib borgan. Koʻp maʼnoli soʻzlar shaklan shakldosh soʻzlarga oʻxshab ketsa-da, mazkur koʻp maʼnolilik zanjiriga birikuvchi leksemalarning maʼnosida bir-biriga aloqadorlik sezilib turadi. Taqqoslang: 1) *tok* (elektr toki), *tok* (uzum) va 2) *bosh* (*odamning boshi*; *ishning boshi*, *koʻchaning boshi*, *davra boshi* va b.). Birinchi holatda lugʻaviy maʼnosi mutlaqo bir-biriga aloqador boʻlmagan elektr va uzum, ikkinchi holatda esa odam tanasining bosh qismi birov narsa, hodisaning ibtidosi, avvaliga oʻxshatilgan holda yangi koʻchma maʼnoli soʻzlarning hosil boʻlishiga sabab tugʻdirgani kuzatilmoqda.

Termin (lot. *terminus* – chek-chegara; ingl. *term*, fr. *terme*, nem. *fachwort*, isp. *término*, *tecnicismo*) soʻzi maxsus yoki texnik tilga xoslangan soʻz va soʻz birikmalari; fan, texnika, kasb-hunarning birov sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmasi, atama, abbreviatura, ramz, harf-ramzlar birikmasi, soʻz va raqamli ramzlar birikmasi maʼnosini bildiradi.

Professionalizm – maxsus lugʻat tarkibidagi kasbiy mahorat – yarim rasmiy xarakterdagi soʻzlar va iboralar, shuningdek, hunarmandchilikdagi baʼzi tushunchalar va obyektning nomlari.

Umumiy lugʻat – tilning umumisteʼmoldagi barcha soʻzi ifoda topgan lugʻat. Masalan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”, “Imlo lugʻati”, “Orfoepik lugʻat” kabi.

Izohli lugʻat – soʻzning maʼnolari, qoʻllanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyati koʻrsatib berishga moʻljallab tuzilgan lugʻat.

Dialektal (sheva) lugʻat – muayyan tilning lahja va shevalariga xos boʻlgan, fonetik yoki semantik jihatdan adabiy tildagi soʻzlardan farq qiladigan soʻzlardan tashkil topib, ularning izohiga bagʻishlanganlugʻat.

Etimologik lugʻat – soʻzlarning kelib chiqishini, manba tildagi maʼnosini, tarkibiy tuzilishini, tovush yoki maʼno jihatdan oʻzgarishini koʻrsatib beruvchi lugʻat.

Qiyosiy lugʻat – bir oilaga mansub tillardagi soʻz boyligini solishtirib, taqqoslab, ulardagi tafovut qonuniyatlarini oʻrganish maqsadida tuziladigan lugʻat.

Imlo lug'ati – soʻzlarning mavjud imlo qoidalariga binoan toʻgʻri yozilish shaklini qayd etuvchi lugʻat.

Talaffuz (orfoepik) lug'ati – soʻzlarning adabiy talaffuzini qayd etiluvchi lugʻat.

Morfem lug'at – tildagi soʻzlarning morfem tuzilishi koʻrsatilgan lugʻat.

Frazeologik lug'at –soʻzligi frazeologik birliklardan, barqaror iboralardan tashkil topgan lugʻat.

Chastotali lug'at – soʻzlarning qoʻllanish miqdori va foizi haqida maʼlumot beruvchi lugʻat.

Ters (chappa) lug'at – soʻzlar teskari (soʻng) tomonidan oʻqilishi boʻyicha alifbo tartibida joylashtiriluvchi lugʻat.

Mavzuviy (mavzuli) lug'at –soʻzligini tarkib toptiruvchi soʻzlar roʻyxati maʼlum mavzularga boʻlib berilgan lugʻat.

Omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar lugʻatlari – soʻzliklari shakldosh (omonim), maʼnodosh (sinonim), zid maʼnoli (antonim) hamda talaffuzdosh (paronim) leksik birliklardan tashkil topgan va ularning izohi berilgan lugʻat.

Antroponimik va toponimik lugʻatlar – soʻzligi atoqli ot yoki joy nomlaridan tashkil topgan lugʻat.

Yozuvchi yoki asar tilida qoʻllangan soʻzlarni izohlovchi lugʻatlar – biror ijodkor asar tilini oʻrganishga, shu asar lugʻatini tashkil etgan lugʻaviy birliklarni izohlashga bagʻishlangan lugʻatlar.

Terminologik lug'at – soʻzligi maʼlum bir fan va texnika tarmogʻi, ijtimoiy yoki xoʻjalik hayotining biror sohasiga oid soʻz-terminlardan iborat boʻlgan lugʻat. Bunday lugʻat soʻzlikning berilishi va izohlanishiga koʻra, entsiklopedik lugʻatlar bilan lingvistik lugʻat belgilariga ega boʻladi. U bir, ikki va undan ortiq tilli, izohsiz (ekvivalent lugʻaviy birliklarni yonma-yon keltirishdan iborat), izohli hamda entsiklopedik xarakterda boʻlishi mumkin.

Muqobillik (analogiya). Uning mohiyatini quyidagicha tushuntirish mumkin: agar ikkita hodisa bir yoki bir nechta jihatlar boʻyicha oʻxshash boʻlsa, ular boshqa jihatlarda ham oʻxshashdir.

Lugʻaviy ortiqchalik, takrorlar – bir xil yoki oʻxshash maʼnoli soʻzlarni takrorlash.

Pleonazm – bu mazmuni takrorlaydigan soʻzlarni qoʻllashda yuzaga keladigan fikr ortiqchaligi.

Induktiv usul (lot. - yoʻl-yoʻriq) - bu fikrning xususiylikdan umumiyga, alohida faktlarni bilishdan umumiy qoidani bilishga, umumlashtirishga qaratilgan tarzi.

Fonetika – tovush haqidagi fan.

Subyektiv baho – muallifning munosabati.

Ritorik soʻroq gaplar – javobi mazmunidan ifodalanadigan gaplar.

Uslubiy boʻyoq –qaysi uslubda qoʻllanishini koʻrsatish belgisi.

Fraza – mazmunan tugal fikr anglatadiga gapga teng boʻlgan fonetik birlik.

Takt – frazaning bir qismi bo‘lib yarim to‘xtam bilan ajraladigan bir yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lak.

Annotatsiya – ilmiy maqolaning maqsadi, mundarijasi, tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalar, erishilgan natijalar haqida ma‘lumot beruvchi qisqacha tavsifnoma.

Ilmiy maqola muallif ilmiy izlanishlarining natijalarini yuzaga chiqaruvchi hujjat bo‘lib, muayyan mavzuning bir yoki bir nechta o‘zaro bog‘liq muammolarini ko‘rib chiqishga bag‘islab tayyorlangan, dissertatsiyaning kichik modelidir.

Akt – biror ishni, yuridik faktni tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

Bayonot – diplomatik munosabatlar, muzokaralar, xalqaro ahvol va ush kabilar haqida manfaatdor tomonlar va umum axboroti uchun og‘zaki yoki yozma ravishda e‘lon qilingan rasmiy bildirish va shu haqdagi hujjat.

Deklaratsiya – biror muhim siyosiy masala yuzasidan rasmiy suratda e‘lon qilingan bayonnoma, hukumat yoki partiya tantanali suratda e‘lon qilgan asosiy qonun-qoidalar.

Diplomatik – diplomatiyaga, davlatning chet mamlakatlari bilan bo‘ladigan munosabatlariga va diplomatlarga oid.

Vizit – rasmiy suratda biror elda, biror shaxs huzurida qisqa fursatda bo‘lish, tashrif buyurish, tashrif.

Kassatsiya – sud hukmidan norozi bo‘lib, ishni qayta ko‘rish to‘g‘risida yuqori sud tashkilotlariga shikoyat qilish yoki ariza.

Kodeks – huquqning biror sohasiga oid tartibga solingan qonunlar to‘plami.

Nota – bir davlatning ikkinchi bir davlatga yuboradigan rasmiy xati.

Inversiya – gapda so‘zlar tartibining o‘zgarishi.

Nutqiy shtamp – qoliplashgan yoki qolipga tushgan jumlar.

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	3
“O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI” FANINI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	5
TIL VA YOZUV MASALALARI.....	18
O‘ZBEK TILINING LEKSIK SATHI.....	39
TIL VA TERMINOLOGIYA.....	52
TERMINLARNING YASALISHI.....	86
MATN VA UNING TURLARI.....	105
ADABIY NUTQ VA UNING USLUBLARI.....	119
ILMIY USLUB VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	131
SOHA BO‘YICHA BELGILANGAN MAVZU ASOSIDA ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH JARAYONLARI.....	138
DASTLABKI ILMIY TADQIQOT YOZISH.....	148
RASMIY – IDORAVIY USLUB VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI..	155
NUTQ VA ADABIY ME‘YOR.....	178
SOHADA O‘ZBEK TILIDA MULOQOT VA KOMMUNIKATSIYA JARAYONI.....	185
KASBIY MULOQOT JARAYONI.....	192
OG‘ZAKI MULOQOT VA UNING XUSUSIYATLARI.....	200
GLOSSARIY.....	209

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

SH.T.MAXMARAIMOVA

Muharrir: O.Nizomiddinov
Texnik muharrir: A.Bo'riyev
Kompyuterda sahifalovchi: Sh.Xoliqova

Terishga 06.10.2022-yilda berildi. Bosishga 15.11.2022-yilda
ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 13,5 bosma taboq.
Buyurtma №97. Times New Roman garniturasida.
Ofset usulda chop etildi. 100 nusxada. 216 bet.

Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti.
Termiz davlat universiteti NMM bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi, 43-uy.

ISBN:978-9943-8754-7-0



9 789943 875470